


O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Namangan Davlat Universiteti

«Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari»
kafedrasi

«SIYOSIY VA XUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI»
FANIDAN

MA`RUZALAR MATNI



Namangan-2007

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Namangan Davlat Universiteti

«Siyosiy va shuquqiy ta'limotlar tarixi» fanidan

MA`RUZALAR MATNI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlarining muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan milliy istiqlol g'oyasi va ijtimoiy gumanitar fanlar ta'lim yinalishi kunduzgi bo'lim talabalari uchun 'oquv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

«Siyosiy va shuquqiy ta'limotlar tarixi» fanidan ma`ruzalar matni NamDU «Milliy istiqlol g'oyasi va ma`naviyat asoslari» kafedrasining 200__ yil _____ kuni №__ yig'ilishi qaroriga ko'ra NamDU o'quv uslubiy kengashi tomonidan va 5141500 – «Milliy istiqlol g'oyasi va huquq ma`naviyat asoslari» yo'nalishi zaruriy mazmuni va bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar biyicha qo'llanishiga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi:

o'qituvchi O.Topildiev

Taqrizchi:

f.f.n. O.Mamatov.

KIRISH

Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi fani xuquqshunoslar o'rganadigan fanlar orasida o'z o'rnini va mavqeiga ko'ra o'ta muhim fandır. Insoniyat yangi XXI asrga qadam qo'yar ekan «demokratiya», «siyosat», «davlat», «huquq» xamda terrorizmga qarshi kurash kabi masalalarga yangicha yondashish va o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Dunyoda bugun sodir bo'layotgan siyosiy va huquqiy voqiyliklarni to'g'ri tushunish va ularni ilmiy tavsiflash avvalambor shu sohaning tarixini yaxshi o'rganishni taqozo etadi.

Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi fani xuquqshunoslik fanlarining murakkab, boy qirralarini o'rganishda ilmiy laboratoriya vazifasini o'taydi. qadim zamonlardan to bugungi kunga qadar turli mamlakatlarda turli zamonlarda, tarixchilar tabiri bilan aytganda, turli tsivilizatsiyalarda siyosiy va huquqiy ta'limotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixining eng muhim qirralarini o'rganadi. Barcha millat va mamlakatlar buyuk mutafakkirlarning siyosiy huquqiy qarashlarini o'rganishga alohida e'tibor beradi.

Ushbu fanda qadimgi Turon zaminda o'tgan davlatlar va ana shu davlatlarda yashab ijod etgan mutafakkirlarning huquqiy qarashlari, bu erlardagi dinlarning manbalarida xokimiyat, davlat, huquq qonunchilik kabi masalalar to'g'risidagi g'oyalar, qarashlarni hamda bugungi O'zbekistonda xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining tashabbuskori prezident I.A.Karimovning siyosiy-huquqiy qarashlariga katta o'rin ajratildi.

SIYOSIY HUQUQIY TA`LIMOTLAR TARIXINING PREDMETI VA METODI

R E J A:

1. Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixining predmeti
2. Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixining o`rganish metodologiyasi
3. Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixining ahamiyati
4. Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar

Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixining predmeti.

Mustaqil O`zbekiston yangi davlat barpo etayotgan bugungi kunda insoniyatning siyosiy va huquqiy tajribasiga va bu tajribani o`zida ifoda etgan siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixiga murojat qilish zaruriy extiyojga aylanmoqda.

Jamiyatimiz ma`naviyati barcha xalqlar tomonidan yaratilgan siyosiy madaniyat yutuqlarini o`z ichiga oladi va o`zida mujassamlantiradi. O`tmish avlodlarning davlat va huquq adolatli ijtimoiy tuzum haqidagi fikrlari va ularni qanday yo`nalishda rivojlanganligini bilish, ayniqsa yoshlar uchun, nixoyatda muhimdir.

Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixining vazifasi avloddan-avlodga o`tib kelayotgan siyosiy va huquqiy bilim sohasidagi tajribani o`rganish, umumlashtirishdan iboratdir. Bu bebaxo boylikdan foydalanmasdan turib, yangi milliy davlat qurish vazifalarini amalga oshirish mushkuldir. Siyosiy va huquqiy ta`limotlar davlat va huquqning paydo bo`lishi natijasida vujudga keldi.

Siyosiy ta`limotlar keng ma`noda jamiyatdagi sinflar, tabaka va toifalar, millatlar va ellatlar, shuningdek davlatlar o`rtasidagi munosabatlarni ifoda etuvchi g`oyalar, qarashlar va vazifalarni o`z ichiga oladi. Bu qarashlarning o`zagini hokimiyat masalasi, davlat tuzish va boshqarish uslublari masalalari tashkil qiladi. Jamiyatning rivojlanishi natijasida siyosiy va huquqiy bilimlar ham rivojlanadi, boyib bordi.

Shunga muvofiq siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixining predmeti ham rivojlanib, o'zgarib bordi.

Siyosat, davlat, xuquq muammolari falsafa, politologiya, sotsiologiya, huquqshunoslik va boshqa gumanitar fanlar tomonidan ham o'rganiladi. Ular o'rtasida vorislik aloqalari mavjud. Biroq har bir fanning bu muammolarga yondoshishi o'zgachadir. Agar siyosiy va huquqiy ta'limotlar davlat va xuquqning paydo bo'lishi bilan shakllana boshlagan bo'lsa, siyosatshunoslik fani siyosatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy faoliyatdan mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida ajralib chiqishi natijasida shakllandi. Bu esa tarixning yangi va eng yangi davriga to'g'ri keladi. Bundan tashqari siyosatshunoslik fanining predmeti siyosiy ta'limotlar emas, balki real siyosiy jarayonlarning o'zidir.

Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi davlat va huquq haqidagi nazariy bilimlarning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini o'rganuvchi ham tarixiy, xam nazariy ixtisoslikka mansub fandır. Uning doirasida davlat, huquq, siyosat va qonun chiqarish haqidagi nazariy bilimlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tadqiq qilinadi va yoritiladi. Bu fanda siyosiy va huquqiy hodisalarni ifodalovchi nazariy g'oyalar, qonun-qoida va ta'limotlar tarixi o'z aksini topgan.

Jamiyatda nazariy ta'limotlardan tashqari siyosiy va huquqiy voqelikni o'zida aks etuvchi turli tasavvurlar, his-tuyg'ular, e'tiqodlar, kayfiyatlar, fikrlar ham mavjud. Bular xalq og'zaki ijodida, badiiy asarlarda, jamoat va siyosiy arboblarning siyosiy va huquqiy xodisalar haqida aytgan fikr va mulohazalarida ifodalangan. Ular maxsus nazariya darajada bo'lmasada, jamiyatdagi turli ijtimoiy-siyosiy xarakatlarning manfaatlarini, siyosiy dasturlarini aniqlash va yoritish imkonini beradi. Siyosiy ta'limotlar tarixi bularni ham o'z ichiga oladi va o'rganadi.

Mehnatkash xalq ommasining manfaatlarini, orzu umidlarini, ijtimoiy taraqqiyot extiyojlarini ifoda etuvchi g'oyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixida ijtimoiy taraqqiyot extiyojlarini o'zida ifoda etuvchi umuminsoniy umumbashariy fikrlar, orzular aloxida diqqatga sazovordir. «Bu inson huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi; so'z erkinligi, matbuot erkinligi va xokazolardir».

Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixi faniga xos xususiyatlardan yana biri shundan iboratki, unda siyosiy va huquqiy ta`limotlar birgalikda o`rganiladi, chunki siyosiy va huquqiy hodisalar bir-biri bilan uzviy bog`liqdir. Shunga mos holda siyosiy va huquqiy hodisalarni ifodalovchi nazariy tushunchalarni ham bir-biridan ajratgan xolda o`rganish mumkin emas.

Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixi davlat va huquq masalalarini keng doirada, asosan davlat va huquqning mohiyati, jamiyatda tutgan o`rni va rolini ifodalovchi ta`limotlar va g`oyalarni tadqiq qiladi. Asosan huquq nazariyasiga mansub bu muammolardan tashqari huquqning alohida tarmoqlari doirasida yoritiladigan jinoyat va jazo, ayb va ma`suliyat shakllari, huquq sub`ektlari, sudning tashkil qilinishi, roli va vakolatlari, ma`muriy faoliyatning yo`nalishlari kabi masalalarini ifoda etuvchi fikr va qarashlar ham siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixi doirasiga kiradi. Ular davlat va jamiyatning siyosiy holatining anglashga, tasavvur etishga yordam beradi va muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy va huquqiy ta`limotlarning shakllanishi va rivojlanishiga falsafa namoyondalarining qo`shgan katta xissasini alohida ta`kidlash lozim. Falsafiy fikr va tarixining bir qator mashxur namoyondalari ayni zamonda siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixining buyuk namoyondalari hamdirlar. Ularning huquq falsafasiga asos solganligini alohida ko`rsatish kerak. Masalan, Aflotun, Arastu, Konfutsiy, Farobiy, Kant, Gegel' va boshqalar.

Falsafaning siyosiy va huquqiy ta`limotlarga ta`siri yana shunda ham ko`rinadiki, ijtimoiy siyosiy va huquqiy ta`limotlar namoyondalarining ko`pchiligi o`zlari faylasuf bo`lmasalar-da o`z davrining falsafiy g`oyalariga va metodologik tamoyillariga tayanganlar.

Siyosiy va huquqiy fikrning rivojlanishida falsafaning ta`sirini xisobga olgan holda uning o`ziga xos nazariy xususiyatlari borligini tushunish zarur. Bu siyosiy va huquqiy hodisalarining jamiyatda tutgan o`rni va roli, o`ziga xos rivojlanish qonunlari bilan belgilanadi. Masalan, Aflotun, Arastu, Farobiy, Kant, Gegel' va boshqa faylasuflarning davlat va huquq haqidagi falsafiy ta`limotlari siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixida maxsus tushunchalar, o`ziga xos bilish vositalari yordamida muayyan vazifa va maqsad nuqtai nazaridan yoritiladi. Bu erda

o`rganilayotgan ta`limotlarning huquqiy siyosiy mohiyati, o`ziga xos xususiyatlarini ochib berishga urgu beriladi.

Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixi davlat va huquq nazariyasi, davlat va huquq tarixi va boshqa huquqshunoslik fanlaridan ham farqlanadi. Bu fanlar siyosiy-huquqiy muassasalar va institutlarning o`zini o`rgansa, siyosiy ta`limotlar tarixi ularning nazariy bilimda, ta`limotlarda ifodalanishini o`rganadi. Shuni alohida ta`kidlash lozimki, davlat va huquq tarixini bilmasdan turib uni ifodalovchi siyosiy va huquqiy ta`limotlar mazmunini ham bilish mumkin emas.

Huquqshunoslik ixtisosligidagi bir-biri bilan uzviy boglangan tarixiy va nazariy fanlar orasida siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixi o`zining genossologik darajasi va mavqei bilan ajralib turadi, ularning barchasini o`zaro boglanganligini ifodalaydi. U hozirgi zamon davlat va huquq muammolarini o`rganish va tadqiq qilishning muxim nazariy shartlardan biri sifatida xizmat qiladi.

Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixi ijtimoiy-siyosiy tuzum, hokimiyat, davlat va huquq haqidagi g`oyalar va ta`limotlarning paydo bo`lishi va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi fandır.

Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixining o`rganish metodologiyasi

Jamiyat taraqqiyoti o`ziga xos rivojlanish qonunlariga ega. Bu qonunlarni ochish va unga amal qilish yo`llarini ko`rsatib berish fanning vazifasidir.

Ijtimoiy-siyosiy fikr tarixida jamiyat taraqqiyoti to`g`risida turli xil ta`limotlar vujudga keldi, rivojlandi va inqirozga uchradi, o`rniga yangi ta`limotlar paydo bo`ldi. Buning sababi bu ta`limotlarning haqiqatga moslik darajasining nisbiyligidadir. Ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy tajriba u yoki bu ta`limot doirasidan chiqish, davr talabiga javob beradigan yangi, kengroq tushunchalar tizimiga o`tish zarurligini taqozo qila boshlaydi. Mana shu davrlarda yangi qarashlar bilan zskicha qarashlar o`rtasida munozaralar keskinlashadi. «Tarix sabog`i shundaki, uning aynan keskin burilishlarida, ijtimoiy formatsiyalar almashilayotganda ijtimoiy muammolar va

ziddiyatlar g'oyat keskinlashadi, milliy xafsizlikka, fuqarolar tinchligi va barqarorlikka taxdid soluvchi omilga aylanadi.»

Siyosiy ta'limotlarni taxlil qilish usuli o'zaro munozarada bo'lgan siyosiy va huquqiy maktablarning biri tomoniga o'tib olmasdan ularga nisbatan ob'ektiv, xolisona yondashishni talab qiladi.

Sovet tuzumi davri siyosiy va huqukiy ta'limotlar tarixining barcha muammolariga partiyaviylik, tor sinfiylik mezonlari asosida yondashildi. Bu xol siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixining ko'p muammolarini bir yoqlama baxolashga olib keldi, ob'ektiv va xolisona o'rganishga imkon bermadi. Kommunistik mafkura mezonlariga mos kelmaydigan ko'plab ta'limotlar butunlay o'rganilmadi. Sharq siyosiy ta'limotlari, islom siyosiy va huquqiy madaniyatini xolisona o'rganish imkoniyatlari cheklab qo'yildi.

Tadqiqotchi, qanday sohada bo'lishidan qat'iy nazar, predmetga qanday yondashish kerak degan muammoga albatta duch keladi. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixini o'rganish va unga yondashishning nazariy va amaliy masalalarini chuqurlashtirish, ob'ektiv ilmiy xaqiqatni aniqlashga mos keladigan tadqiqotlar yo'llarini ishlab chiqish metodologiyaning muhim muammolaridandir. Tadqiqotning natijasigina emas, unga olib boruvchi yo'l ham nazariy asoslangan, haqqoniy bo'lmog'i kerak.

Bugungi kunda ijtimoiy xodisalarga, tarixga yangicha, tsivilizatsion yondashish qo'llanilmoqda. Bu yondashish davlat, huquq va shu kabi ijtimoiy xodisalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi sabablarini o'rganishda ma'naviy, madaniy omillariga ko'proq ahamiyat berishni talab qiladi. Ingliz olimi A. Toynbining fikriga ko'ra, tsivilizatsiyaning ichki mohiyati, ruxiyatining madaniy omillar tashkil qiladi.

Tsivilizatsion kontsepsiya davlatni tsivilizatsiyaning o'zgarmas belgisidir, deb biladi. Tsivilizatsiyaning rivojlanish darajasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar davlat huquq tartibotini ta'minlash va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turish uchun doim kerak. Davlat tarixda jamiyatning manfaatdor qatlamlarining siyosatini amalga oshirish, sinfiy antogonizmlarni bostirish vazifalarini ham bajargan bo'lsada, asosan u jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy rivojining ta'minlovchi qudratli vositadir. U turli

sinflar, tabaqalar, millatlar o`rtasida tinchlik va totuvlikni ta`minlovchi kuch, tashkilotdir. TSivilizatsion yondashuv konkret shaxs huquqlarini birinchi o`ringa ko`yadi. Konkret shaxs huquklarining ustuvorligi g`oyasi bu yondashuvning o`ziga maftun qiladigan tomonidir.

Formatsion kontseptsiyaga binoan davlat sinflar paydo bo`lishi bilan birga paydo bo`ladi. Iqtisodiy jihatdan hukmron bo`lgan sinf o`zining siyosiy hokimiyatini amalga oshirish uchun davlatdan foydalanadi. Sinflar va davlat abadiy emas. Insoniyat o`zining rivojlanish tarixida ibtidoiy tuzumdan boshlab qulchilik, feodal, kapitalistik formatsiyalarni bosib o`tadi, undan kommunistik jamiyatga kirib boradi. Kommunistik jamiyatda sinflar va davlat bo`lmaydi. Bu g`oyani hayotda amalga oshirish ko`p salbiy oqibatlarga olib keldi. **Birinchi**dan, jamiyat tarikqiyotining barcha bosqichlarida iqtisodning ko`p qatlamliligi inkor qilinadi, oqibatda bir-biriga qarama-karshi asosiy sinflargina taxlil doirasiga kiradi, axolining katta qismi hisobga olinmay qoladi. **Ikkinchi**dan, iqtisodiy bazis usturmaga nisbatan belgilovchi asosiy omil deb hisoblanib, unga urg`u berish, uni absolyutlashtirish inson ruhiyatining, ijodiy faolligini mensimaslikka, shaxsning umuminsoniy ideallar bilan uyg`unlashgan qadriyatlarini inkor qilishga olib keladi. Insonga betakror shaxs sifatida emas, sinfning vakili sifatida, xukuq esa xukumron sinfning qonun darajasiga ko`tarilgan irodasidir deb qaraladi. Bu ta`limotni hayotga tadbiiq etish inson huquqlarini cheklashga, axolining katta qismini manfaatlarini hisobga olmaslikka olib keldi. **Uchinchi**dan, formatsion yondashuv sinflar, tabaqalar o`rtasida ziddiyatni kuchaytiradi, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo`yadi. Davlatni bir sinfning ustidan ikkinchisining hukumronligini ta`minlovchi kuch deya noto`g`ri xulosalar kiladi.

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida formatsion yondashuv asta-sekin o`z o`rnini tsivilizatsion yondashuvga bo`shatib bermoqda, chunki bu yondashuv xuquqiy davlat va xuquq vazifalariga mosdir, ularni ilmiy tahlil qilish imkoniyatini beradi. Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixini o`rganishda ijtimoiy iqtisodiy shart-sharoitlarni ham, ma`naviy, madaniy omillarni xam hisobga olish zarur. eng muhimi bu omillarning bir-biriga qarama-qarshi qilib qo`ymaslikdan iborat. Ular bir-birini to`ldirib, boyitib turishi kerak.

Jamiyat o`ziga xos taraqqiyot qonunlariga bo`ysungan holda rivojlansada, xar bir xalq o`zining tarixiy tajribasi, o`ziga xos madaniyati va an`analari orqali umumiy rivojlanish qonuniyatlarini boyitadi. Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixining o`rganish uslubi har bir mamlakatning madaniyati, dini va an`analari bilan bog`liq o`ziga xos xususiyatlarni nazarda tutish zarurligini taqozo qiladi.

Siyosiy va huquqiy ta`limotlarning jamiyatda tutgan o`rni va ahamiyati qanday maqsadga xizmat qilishi va qanday manfaatlarni ifodalashi bilan belgilanadi. Agar siyosiy va huquqiy ta`limotlar o`z umrining o`tab bo`lgan ijtimoiy-siyosiy tuzumni himoya qilishga qaratilgan bo`lsa, bu ta`limotlar ijtimoiy taraqqiyotga g`ov bo`lib qoladi va oqibatda inqirozga uchraydi. Jamiyat taraqqiyotining zxtiyojlari zaminida paydo bo`lgan yangi ilg`or goya va qarashlar, jamiyat taraqqiyotiga, yangi ijtimoiy iqtisodiy tuzumning paydo bo`lishiga va mustahkamlanishiga ko`maklashadi.

Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixini o`rganishda tarixiy yondashish tamoyili alohida o`rin egallaydi. Tarixiy yondashish ta`moyili o`rganilayotgan ta`limotlarning paydo bo`lishi va rivojlanishi yo`nalishini mumkin qadar har tomonlama tahlil qilishni, uni baholashda voqea va hodisalarni tanqidiy o`rganish bilan cheklanib qolmasdan, o`sha davr kishilarining ruhiyatini, an`analarini, ular borliqni qanday idrok qilishlarini o`rganishni talab qiladi. U o`tmishdagi ta`limotlarga baho berishda sub`ektizmga yo`l qo`ymaslik, tarixiy xodisalarga xolisona, ob`ektiv munosabatda bo`lishga ko`maklashadi. Tarixiy yondashish tamoyili siyosiy va huqukiy ta`limotlarning muayyan tarixiy sharoit bilan va shu davrning siyosiy va huquqiy bilimlar tizimi bilan, o`tmish va hozirgi zamon siyosiy tajribasi bilan bog`liq ekanligini kuzatish imkonini beradi.

Siyosiy va huquqiy ta`limotlar o`ziga xos rivojlanish qonuniyatlarga egadir. O`tmishda yaratilgan ta`limotlar faqat o`tmishgagina taa`lluqli emas. Ularning vujudga kelishi uchun asos bo`lgan tarixiy vaziyatni o`zgarishi yoki tugab ketishi bilan ular ham yo`q bo`lmb ketmaydi. Albatta, bu ta`limotlarning o`sha davr tarixiy sharoiti bilan bevosita bog`liq tamonlari o`zgaradi yoki hayotini tugatadi. Biroq, o`sha davr mutaffakirlarining davlat va huquq haqida bayon qilgan ko`pgina nazariy g`oyalari o`z davrini oshib o`tadi, siyosiy va huquqiy bilimning rivojlanish zanjiriga muhim bo`g`in bo`lib kiradi, o`zining nazariy ahamiyatini keyingi davrlarda ham

yo`qotmaydi. Masalan, Aflotun, Arastu, TSitseron, Rim xuquqshunoslari, Forobiy, Burxoniddin Al-Marg`oniy, Alisher Navoiy va boshqa ko`p mutafakkirlarning ta`limotlarini vujudga keltirgan tarixiy vaziyat allaqachon yo`q bo`lib ketgan, lekin ularning g`oyalari hozirgacha o`zining ilmiy ahamiyatini yo`qotgani yo`q. Bu erda O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning Forobiyning mashhur «Fozil odamlar shahri» asari haqida aytgan fikrini keltirish o`rinlidir. «Bundan ming yilcha muqaddam yaratilganligiga qaramasdan, bugungi o`quvchi ham bu asardan hozirgi hayotning murakkab muammolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yo`l-yo`riqlarni topa oladi.»Kadimgi Rim siyosiy va huquqiy ta`limotlar namoyondalaridan biri TSitseron miloddan oldingi I asrda mahalliy o`z-o`zini boshqarish va davlat boshqaruvini markazlashtirish ta`moyillari, shaxsiy hokimiyat va uning chegarasi, axloq va davlat manfaatlari kabi muammolarini qo`ydiki, Evropa bu muammolarni hal qilish uchun ko`p asrlar bosh qotirdi. Huquqshunoslik ilmining rivojiga ulkan hissa qo`shgan buyuk alloma Burxoniddin Al-Marg`oniy o`zining «Hidoya» asarini XIII asrda yaratgan bo`lsada, bu asar XIX asrgacha butun musulmon dunyosida asosiy huquq manbai bo`lib xizmat qildi va hozirgacha o`zining ilmiy ahamiyatini yo`qotgani yo`q.

Siyosiy va huquqiy ta`limotlarning bilish jarayonida yangi tushunchalar, g`oyalar vujudga keladi, bu esa nazariy bilimni boyitadi va chuqurlashtiradi. Mana shunday jang`arish natijasida siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixining barcha davrlarida ham dolzarb bo`lgan komil inson, ahloq va siyosat, fuqaro va davlat, erkinlik va zarurat, hokimiyat va zo`rlilik, adolat va huquq aloqadorligi kabi "abadiy" muammolar shakllanadi. Turli davr mutafakkirlari bu muammolarni hal qilishga harakat qildilar va bu ishga o`z xissalarini qo`shdilar. Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixidagi vorislik, uning nazariy mazmunini boyishi shu yo`nalishda boradi. Bu jarayon voqealarni tasvirlash bilan bir qatorda nazariy taxlil qilish orqali yoritiladi.

Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixini o`rganishda xronologik va muammoviy yondoshish uslubi ham qo`llaniladi. Xronologik uslub mutafakkirning hayoti va ijodi faoliyati, yaratgan ta`limotining mohiyati, siyosiy va huquqiy fikrning qanday oqim va yo`nalishlariga mansubligini yoritishni talab qiladi. Bu uslub ta`limotning shakllanish jarayonini, uning o`z davri bilan bog`langanligi, qanday manfaatlarni

ifodalanganligini, jamiyatda tutgan o`rni va o`ynagan rolini tarixan konkret va to`laroq yoritish imkoniyatini beradi.

Muammoviy uslub ta`limotning nazariy mazmuni zaminida qanday falsafiy ta`moyillar yotganligini, ta`limot muallifi uchun qanday g`oyalar etakchi bo`lganligini ifodalaydi. Bu uslub ta`limotning siyosiy va huquqiy bilimlar tizimida tutgan o`rni va ahamiyati, undagi vorislik va yangilik kabi nazariy muammolarni aniqlash va tahlil qilishni talab qiladi. Buning sababi shundaki har bir tarixiy davr, mamlakat o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lishi bilan birga umumiylik, takrorlanish belgilariga ham egadir. Mana shu umumiylikni aniqlash zarurati muammoviy uslubni talab qiladi.

Xronologik, muammoviy uslublar bir-biri bilan uzviy bog`liq. Buni hisobga olish turli ta`limotlardagi umumiylik va alohidalik, takrorlanmas va takrorlanuvchi hodisalarni chuqurroq anglash, aniqroq ajratish imkoniyatini beradi.

Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixini yoritishda qiyosiy tarixiy tadqiq qilish uslubi ham ishlatiladi. Bu uslub ta`limotlarga xos umumiy va xususiy belgilarni chuqurroq anglash imkoniyatini beradi. Masalan, ma`rifatparvarlik yo`nalishiga xos ta`limotlarning bir-biriga taqqoslab tahlil qilsak, ularning barchasi ilm-fan, inson erkinligining ulug`laganligini, qoloqlik, cheklanmagan mustabid hokimiyatning qattiq tanqid ostiga olganligini ko`ramiz. Bu yo`nalishdagi mutafakkirlar turli mamlakatlarda, turli davrlarda yashagan va ijod qilgan. Bu xol ularning ta`limotlariga xos xususiyatlarni belgilaydi.

Ta`limotga baxo berishda mutafakkirning dunyoqarashiga, uning o`z zamoni, ijtimoiy-siyosiy tuzumiga bo`lgan munosabati, g`oyaviy siyosiy hayrixoxligi kabi sub`ektiv hususiyatlarga ham ahamiyat berish zarur.

Hozirgi kunda oldimizda turgan dolzarb muammolardan biri O`zbekiston siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixini yaratishdir. Bu masuliyatli vazifani amalga oshirishda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari muhim metodologik asos bo`lib xizmat kiladi. Bu asarlarda o`z aksini topgan nazariy g`oyalar sun`iy ravishda inkor qilingan ta`limotlarni o`rganish va fan doirasiga kiritish imkonini beradi. Xalqimiz o`zining buyuk allomalariga nazar solmoqda, ularning ibratli ishlaridan saboq olishga intilmoqda. «Mustaqilligimizni dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko`p asrlar mobaynida yaratib kelingan g`oyat ulkan, bebaxo

ma`naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan g`oyat muhim vazifa bulib qoldi». Ajdodlarimizning davlatchilik g`oyalarini o`rganish, ijtimoiy-siyosiy fikrga xos xususiyatlarini bilish zaruriyati tobora oshib bormoqda. O`tmish mutafakkirlarini adolatli jamiyat va davlat qurilishi va boshqarish ta`moyillari haqidagi ta`limotlari bizni hayajonlantirgan savollarga javob topishda, ibratli ishlardan saboq olishga ko`maklashadi. Ularning barchasi odamlar o`rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga va takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy idealni izlash, adolat va tenglik printsiplariga asoslangan jamiyatni qurish g`oyalarini targ`ib qildilar.

O`zbekiston ijtimoiy-siyosiy fikriga xos xususiyatlardan biri shundan iboratki, uning namoyondalari davlat, xokimiyat, adolat masalalarini islom siyosiy madaniyatga tayangan holda xal qilishga harakat qildilar.

«Vatanimiz azaldan bashariyat tafakkuri xazinasiga unitilmas hissa qo`shib kelgan. Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak madaniyat, adolatparvarlik, ma`rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlarini Sharq falsafasi va islom dini ta`limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Va o`z navbatida bu falsafiy ahloqiy ta`limotlar ham xalqimiz daxosidan bahra olib boyib bordi. Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu falsafaga uyg`un holda Xo`ja Axmud Yassaviy, Xo`ja Bahovuddin Naqshbandiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg`un qolda shakllanishi lozim».

Ma`lumki islomda davlat va huquk masalalari muhim o`rin olgan. Unda hokimiyat jamiyat uchun zarur va muqaddas qadriyat sifatida ifodalanadi. Al-Gazzoliyning aytishicha Ollox-taolo payg`ambarlarning odamlarga to`g`ri yo`l ko`rsatish uchun tanlagan bo`lsa, hukmdorlarni odamlar o`rtasidagi nizolarni bartaraf qilish uchun tanlagan.

Hokimiyat barqarorlikni ta`minlash uchun berilgan, degan bu fikr keyingi davlardagi ta`limotlarda ham o`z aksini topgan. Islomda o`z aksini topgan muhim qadriyatlardan biri adolatdir. Musulmon dunyosida mashhur XI asr huquqshunosi Al-Movardining aytishicha, davlat dinsiz saqlanishi mumkin, lekin adolatsiz yashayolmaydi.

O`rta Osiyo xalqlarining ilg`or mutafakkirlarining siyosiy qarashlarida odil hukmdor g`oyasi markaziy o`rin egallaydi. Ular davlat tepasida turgan xukmdor adolatli, xulq-atvori pok, fuqarolarga rahm-shavqatli, g`amxo`r bo`lsa davlat qudratli, jamiyat faravon bo`ladi deb tushundilar. Shundan kelib chiqqan holda ular insonni ma`naviy kamolotga erishishga chaqirdilar va shu orqali adolatsizlik, xulqiy buzukliklarni bartaraf qilish mumkin deb hisobladilar.

O`zbekistonning ijtimoiy va siyosiy fikriga xos xususiyatlardan yana biri shundaki, unda axloq masalalari etakchi o`rin egallaydi. Uning namoyondalari ezgulik, yaxshilikni bilishga intildilar, axloqiy qonun va tamoyillarga amal qilish insonning oliy ma`naviy burchi deb bildilar.

Forobiy, Imom Motrudiy, Imom Al-Samarqandiy, Burxoniddin Marg`inoniy o`z qarashlarini maxsus falsafiy va huquqiy asarlarda ifodalagan bo`lsalar, yassaviy, Alisher Navoiy, Mashrab, Furqat, Muqimiy va boshqalar badiiy ijodda namoyon qildilar.

Badiiy asarlarning barchasini badiiy shakl berilgan falsafiy yoki siyosiy asar deb hisoblab, shoir va yozuvchilarning barchasini falsafiy va ijtimoiy siyosiy fikr tarixiga kiritish yaramaydi, albatta. Shu bilan birga ijtimoiy va siyosiy fikr tarixiga ilmiy yondashish «sof faylasuf» yoki «sof huquqshunos» bo`lmagan mutafakkirlar ijodida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy g`oyalarning rivojining kuzatishni talab qiladi. Badiiy merosning tahlil qilish ijodkorning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy muammolarga bo`lgan munosabatini tiklash imkonini beradi. O`zbekiston ijtimoiy-siyosiy fikr tarixiga kiritilgan buyuk shoir, yozuvchilar o`z asarlarida zamondosh jamiyatning ijtimoiy-siyosiy holatini tasvirlash bilan birga, jamiyatdagi adolatsizlik, zo`ravonlik, insoniy munosabatlarda uchraydigan soxtalik sabablarini aniqlash va ularni bartaraf qilish yo`llarini topishga urindilar. Ular haqiqat va adolatga asoslangan insoniy munosabatlarning o`rnatish uchun nima qilish zarur degan savolga javob izladilar.

O`zbekiston siyosiy va huquqiy fikrda ma`naviyat va ma`rifatga katta e`tibor beriladi. Davlatning boshqaruvchi xukmdorning o`zi ham, uning atrofidagi mansabdorlar ham bilimli, adolatparvar kishilar bo`lishi zarur degan fikr izchillik bilan uqtiriladi.

Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixining ahamiyati

Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixining o`rganishni nima ahamiyati bor, undagi ta`limotlarning ko`pchiligi o`z umrini o`tab bo`ldiku? - degan savol tug`ilishi mumkin.

Birinchidan shuni ta`kidlash kerakki, davlat va huquq xakidagi hozirgi fanlar tarixiy rivojlanishning maxsulidir. Ularning paydo bo`lish tarixini bilmasdan **turib** chuqur tasavvur qilish mumkin emas. Fanda ifodalangan haqiqat osmondan tayyor tushmaydi. Unga erishish uchun qancha izlanish, kuch-quvvat, fidokorlik, xatto kurbonlik beriladi. Buyuk mutafakkirlarning ilm-fandagi kashfiyotlarigagina emas, ularning bunga erishish yo`lida qilgan xato va kamchiliklari ham biz uchun saboqdir.

Bugungi kunning yaxshi va to`g`ri tasavvur qilish uchun ijtimoiy taraqqiyotning oldingi bosqichlarining bilish zarurligini taqozo qiladi. Shuning uchun ham o`tmishga murojaat kilamiz. Undan saboq olish bilan birga bugungi ayrim muammolarning echimini topish mmkoniyatiga ham ega bo`lamiz.

"Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q", degan edi I A.Karimov. O`zlikning anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Tarix xotirasi insonni istiqbolga da`vat etadi, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda muhim omil bo`lib xizmat qiladi. Davlat va huquq hakidagi ta`limotlar tarixining o`rganish turli nazariyalarning paydo bo`lishining nazariy shart-sharoitlarini anglatadi, yangi g`oyalar uchun ijobiy ilxom bag`ishlaydi. O`tmishdoshlarimiz yaratgan buyuk kashfiyotlarning kuzatish, xuquqshunoslik ilmining ruxini xis qilish, uning yangi qirralarni ochish imkonini beradi, bizni birtomonlama yuzaki qarashlardai ehtiyot qiladi, mustaqil fikr yuritish va ro`y berayotgan xodisalarni baxolay olms h qobiliyatini shakllantiradi.

Tabiiyki bunda Markaziy Osiyo xalqlarining buyuk arboblarining siyosiy va huquqiy qarashlari munosib o`rin olgan. Bu xalqimizning haqqoniy tarixini tiklash va milliy o`zlmgini anglash, milliy iftixorni shakllantirish va o`stirish ishiga xissa bo`lib xizmat qiladi. "Shuni esda tutish muhimki, o`tmishimizni "oqlash" vazifalari umuman olganda bajarib bo`lindi; hozir esa asosiy vazifa tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan xolisona va xalol amalga oshirishdan iboratdir".¹ Siyosiy-xuquqiy ta`limotlar tarixining ahamiyati yana shundaki, u bo`ljak huquqshunoslarni umumjaxon miqyosidagi

ta`limotlarning paydo bo`lish va rivojlanish qonuniyatlari bilan tanishtirish bilan birga, ularda bu ta`limotlarning mohiyatini anglab olish malakasini shakllantiradi.

Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar.

Siyosat, davlat, xuquq, siyosiy va xuquqiy ta`limotlar, siyosiy va xuquqiy ta`limotlarning shakllanishi, tsivilizatsiya, tsivilizatsion kontseptsiya, formatsion kontseptsiya, tarixiy yondashish tamoyili, xronologik va muammoviy yondashuv uslubi, qiyosiy tarixiy tadqiqi qilish uslubi.

Mavzuga oid nazorat savollari.

1. Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi fanining o`rni qanday?
2. Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi faning predmeti nimani o`rganadi?
3. Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi fanining ahamiyati qanday?
4. Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixini o`rganishda tarixiy yondashish tamoyilining o`rni qanday?
5. Davlat va xuquq haqidagi ta`limotlar tarixini o`rganish qanday nazariyalarning paydo bo`lishiga olib keladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda». «O`zbekiston», Toshkent. 2000 y.

2. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». «O`zbekiston», Toshkent 1997 y.
3. Karimov I.A. «O`zbekiston – bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li». «O`zbekiston», Toshkent 1995 y.
4. Karimov I.A. «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida». «O`zbekiston», Toshkent 2000 y.
5. Karimov I.A. «O`zbekiston Konstitutsiyasining 9-yilligiga bag`ishlangan tantanali marosidagi nutqi». «O`zbekiston ovozi», 2001 y, 8.XII.
6. Sharipov R., Muxiddinova F. «O`zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta`limotlari tarixi». Toshkent. 2004.
7. Rahmonov R. G`ofurov Z. “Mustaqillik va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi”. “O`zbekiston”, Toshkent 1999.
8. Boboev X.B. taxriri ostida «Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi» T. 2003 y.
9. Toshqulov J.O`zbekiston xalqlari siyosiy-xuquqiy fikrlari tarixidan. T. 1996 y.

Qadimgi sharqda siyosiy va huquqiy ta`limotlar

REJA:

1. Qadimgi Sharqda siyosiy-huquqiy ta`limotlarni paydo bo`lishi. Qadimgi Misr, Bobil,

Xindiston va Xitoyda siyosiy va huquqiy ta`limotlar

2. Qadimgi Turonda siyosiy va huquqiy ta`limotlar

3. Mavzu yuzasidan tayanch soʻz va iboralar

Qadimgi Sharqda siyosiy-huquqiy taʼlimotlarni paydo boʻlishi

Sharqda (qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston, Turon va eron mamlakatlari) gʻarbda (qadimgi YUnon, Rim mamlakatlari) siyosiy va huquqiy qarashlarning kelib chiqishi ilk bosqichlarida mifologik afsonaviy gʻoyalar asosida rivojlangan. Mifologiya inson, jamiyat, hokimiyat, davlat, huquq va qonunlarni baholaydigan holda ilohiy kuchlar faoliyati bilan bogʻlagan. Erdagi voqealarning ilohiyot bilan bogʻlanish usullari va xarakteri qadimgi xalqlarda turli xil hal qilingan yoki aks ettirilgan. Bu munosabatlar, yaʼni erdagi siyosiy, huquqiy tartiblarning, hukmronlikning iloxiy ildizlari, sabablari haqidagi tasavvurlar, siyosiy va huquqiy qarashlar asrlar davomida rivojlandi. Turli yoʻnalishdagi taʼlimotlarning kelib chiqishiga sabab boʻldi. qadimgi Sharq xalqlari tarixida mavjud boʻlgan mifologiyalarda xudo barcha borliqning yaratuvchisidir. Kadimgi Vaviloniya va Hindistonda esa xudo jamiyatni, odamlarni yaratgan, odamlarga boshqarish usulini ham oʻrgatgan, u hamma vaqt tanho butun olamning boshqaruvchisi sifatida tasvirlanadi.

Kadimgi yahudiylarning diniy mifologik tasavvurlarining oʻziga xos tomonlari shundaki, yagona xudo barcha yaxudiy xalqlar bilan aloxida shartnoma tuzgan, u barcha yaxudiylarning rahnomasi va boshligʻidir. yaxudiylarning barchasi muqaddas gʻoyalarini Muso paygʻambar bevosita xudoning oʻzidan olgan. Unga vaqtincha erda hukmronlik qilish, odamlarni boshqarish vazifasi xudo tomonidan topshirgan. Ogʻir kunlarda zarur boʻlsa u oʻzi davlatni, mamlakatni boshqaradi.

Qadimgi Xitoy xalqlarida mavjud boʻlgan afsonalarga koʻra barcha erdagi xodisalar, odamlar hayoti yagona xudo tomonidan boshqariladi. Faqat bosh hukmdor-imperator **xudoga** eng yaqin odam xisoblanadi. Qadimgi Misr xalqlarida **keng** tarqalgan gʻoyalarga koʻra, barcha haqiqat, Adolat, odil ,**sudlov** (Maat) xudo tomonidan boshqariladi.Sudʼyalar Maat tasviri tushirilgan tumorlaryi taqib yurganlar.Erdagi barcha tartibotlar, siyosat, qonunlar, odamlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar, bosh ijodkorga sigʻinish «Ptaxotep nasihatlari" (eramizgacha XXVIII

asr) kabi qadimgi yozma manbalarda o'z aksini topgan. «Ptaxotep nasixatlari» da ta'kidlanishicha, barcha erkin fuqarolar tabiiy ravishda bir-biriga tengdir, har bir insonning hatti-harakatlari adolat va yaxshilik me'yorlariga mos bo'lishi kerak. Albatta bu talablar qadimgi misr jamiyatining yuqori tabaqa vakillarga tegishli edi. Aholining ko'pchiligini tashkil etgan qullar bundan tashqarida edi.

Shuni ta'kidlash joizki, qadimgi siyosiy-huquqiy ta'limotlar avvalambor xalq og'zaki ijodida keyinchalik yozma manbalarda afsonaviy qahramonlar, xalq xaloskorlari xudolar to'g'risidagi yozma manbalarda ifodalangan bo'lsa, keyinchalik "Avesto" (Axura Mazda) hamda Spitomen haqidagi afsonoviy diniy ta'limotlarga muxolifat sifatida dunyoviy ta'limotlar ham taraqqiy etdi. Masalan, qadimgi YUnon mutafakkirlari Suqrot, Aflotun, Arastu sharqda esa Farobiy kabilar asarlarida o'z ifodasini topdi. Qadimgi Vaviloniyada tarqalgan mifga ko'ra, adolat homiysi, ezilganlarni ximoya qiluvchi xudo Shaman bo'lib, u barcha adolatsiz va yomonlikni keskin jazolardi. Kimdakim Shamanning adolatli, haqiqiy tamoyillarini buzsa, o'sha paytda amaldagi qonunlar asosida qattiq jazoga tortilardi. Shaman talablarini buzish bu og'ir jinoyat edi.

Shumer va Vaviloniya hukmdorlari o'z hokimiyatlarini xudo tomonidan berilgan deb hisoblardilar. Bu g'oyalar eramizgacha XVIII asrda yaratilgan Xammurapi qonunlarida (bu qonunlar o'z davrida keng tarqalgan edi) ifodalab berilgan. Bu qonunlar odamlarni erkinlar va qullarga ajratardi. erkinlar ham bir qancha tabaqalarga bo'linardi.

Qadimgi Turonda, aniqrog'i Xorazmda ilk bor miflar keyinchalik zardushtiylik dinida namoyon bo'ldi. Bu diniy falsafiy ta'limotning asoschisi Zardo'sht bo'lgan. U taxminan eramizgacha VIII asrda yashagan. Zardo'shtiylik g'oyalari asrlar osha dunyoga keng tarqaldi. Hayotdagi ikki qarama-qarshi qutbning yaxshilik va yomonlikning o'zaro kurashi, yaxshilik homiysi Axura-Mazda bilan yovuzlik homiysi Axura-Manu o'rtasida ro'y beradi. Bu kurash keskin, shafqatsiz va abadiydir.

Dastlabki mifologik tasavvurlarning asta-sekin, konkretlashib, ijtimoiy hayot, davlat, siyosat, huquq xaqidagi dastlabki ta'limotlarning paydo bo'lishi tarixi uzoq tarixga ega. Bu jarayon turli xalqlarda turli xil kechgan. Lekin barcha xalqlarga, mamlakatlarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni olsak adolatsizlikka qarshi adolat,

zo`rlik va qonunsizlikka qarshi qonuniylik, rahm-shafqat, urushga qarshi tinchlik g`oyalarining ilgari surilishini kuzatamiz. Xarakterli joyi shundaki, xalq og`zaki ijodida, yozma manbalarda diniy va dunyoviy kitoblarda ezgulikka intilish, inson nomini ulug`lash, sotsial adolatga erishish uchun kurash tarixi barcha qadimgi xalqlar hayotiga xosdir.

Xulosa shundan iboratki, eng qadimgi davlat va huquq to`g`risidagi qarashlar, g`oyalar Sharqda taxminan to`rt ming yil avval xalq og`zaki ijodida, yozma diniy kitoblarda diniy-mifologiyalar tarzida shakllandi.

Qadimgi Hindistonda ilk bor paydo bo`lgan siyosiy va huquqiy qarashlar mifologiya va dastlabki dinlar ta`sirida shakllandi. Braxmanizm g`oyalari qadimgi Xindistonda eramizdan oldingi 2-ming yillikda paydo bo`lgan Vedalarda ifodalangan. «Veda» sankritda «bilim» degan ma`noni bildiradi. eramizdan oldingi IX-VI asrda yaratilgan Hind yodgorligi Upapishdalarda braxmanizm yanada rivojlangan va konkretlashgan holda tasvirlandi. Veda va Upapishdalarda ta`kidlanishicha xar bir odam draxma ya`ni, qonun, burch, odatlarga, tartiblarga rioya etishi zarur. Braxmanizm turli maktablari tashkil etuvchi dxarmasutra va dxarmashastrilar, huquqiy to`plamlar braxmanizm mafkurasini vujudga keltiradi. Mashxur siyosiy va huquqiy yodgorlik «Manu qonunlari» eramizgacha II asrda yozma ravishda bunyod etildi. Unda Vedalar va Upanishadlardagi g`oyalar har tomonlama rivojlantirib himoya etiladi. «Manu qonunlari» da asosiy e`tibor jazo belgilashga qaratiladi. Jamiyat varnalarga bo`lingan, ular o`rtasida notenglik mavjud. eramizgacha VI asrda yashagan Siddxartxa braxmanizm va Vedda, Upapishdagi g`oyalarni keskin tanqid qilib chiqdi va u o`zini «Ma`rifatli inson» Budda deb atadi. Uning uqdirishcha, Oliy hokimiyat xudo haqidagi g`oyalar insoni chalgitadi, hamma gap insonning o`ziga bog`liq. U barcha siyosiy va huquqiy normalarni, axloqiy tartibotlarni odamlar o`zlari, yaratib olishlari kerak deb ko`rsatadi.

Buddizmga xos bo`lgan jazo choralarini cheklash xaqidagi fikrlar «Dxammpadada»da uchraydi. Insonning aybi tasdiqlanmasdan uni jazolash mumkin emas. Buddizmda dxammani ulug`lash, qonunlikni ulug`lash degan gap edi. Buddizm asta-sekin barcha ijtimoiy siyosiy voqealarga, shu jumladan davlat faoliyatiga o`z ta`sirini o`tkaza boshladi. Garchi buddizmda asosiy g`oya har insonning o`zi o`zini

shakllantirib, nihoyat nirvanga ruhan yuksalib borishi bilan bog`liq bo`lsada, ammo bu yangi dinning ko`p tomonlari erdagi hayot bilan bog`liq edi. Shuning uchun ham eramizgacha 268-232 yillarda hokimiyatni boshqargan Ashoki buddizmni davlat dini deb e`lon qiladi. Buddizm shu tariqa janubiy-sharqiy mamlakatlarning bir qanchasiga tarqaldi.

IY-Sh asrlarda (eramizgacha) yaratilgan Artxashastrida davlatning mohiyati, vazifalari, qonunlarning yaratilishi va amal qilishi borasida braxmanizmdan farqli ular real g`oyalari ifodalanadi. Vazir va maslahatchi Kautilya bu kitobning muallifi deyiladi. «Axtrashastra» dunyoviy ta`limotlarning kengayib, chuqurlashib borishida katta rol o`ynaydi. Bu kitobda har bir siyosatning, qonunning nechog`li amaliy foydasi borligiga asosiy e`tibor qaratildi. Bu qonunlar odamlarning hayotini, demak davlat faoliyatini to`g`ri aks ettirishi zarur.

Qadimgi Xitoy falsafasi va ijtimoiy-siyosiy fikrlari rivojida katta rol o`ynagan daosizm va uning asoschisi Lao-TSzi (eramizgacha VI asr) va u yaratgan «Dao-De-tszin» asari diniy sxolastikaga katta zarba berdi.

Butun ijtimoiy taraqqiyot manbalarini ilohiy qudratga emas, balki dao qiladi, dao qonunchilik va siyosiy boshqaruvning asosidir, deb ta`kidladi. Daoga bo`lgan munosabatda barcha tengdir. Lao-TSzing ko`rsatishicha, o`sha paytdagi barcha noxushliklar, madaniyatning cheklanganligi, odamlar o`rtasidagi siyosiy-huquqiy notengliklarning asosiy sababi haqiqatni qaror topmaganidir. U hayotdagi, jamiyatdagi barcha adolatsizliklarni qoralar ekan, u butun e`tiborini o`zini o`zi yaratuvchi daoga qaratdi, dao adolatni tiklovchi asosiy vosita deb uqtirdi. Daoizmdagi muhim tomon odamlarni xotirjam yashashga undashdir. Boylik ham, mansab ham o`tkinchi, ulardan chetroqda yurish kerak degan g`oyalar ilgari surilgan. Qadimgi Xitoy ijtimoiy-siyosiy fikr taraqqiyotida Konfutsiy (Eramizgacha 551-479 yillar) ta`limoti uning shogirdlari tomonidan to`plangan «Lun` YUy» (suhbatlar va muloxdzalar) kitobi katta rol o`ynaydi.

Konfutsiy o`zidan oldin paydo bo`lgan bilimlarni umumlashtirib, yanada rivojlantirib, davlat haqidagi o`z qarashlariki bayon etadi. Davlat go`yo katta bir oila, oila boshlig`i imperator bosh hukmron, qolganlar unga bo`ysunishi kerak. Konfutsiy mavjud tartiblarni keskin tanqid qilish yo`lidan bormaydi. U kelishuvchilik, murosa

yo`lini tanlaydi. Mavjud ijtimoiy tuzim va tartibotlarni tan olgan holda, ularni yanada takomillashtirish haqida fikr yuritadi. Davlatni boshqarishda adolat tamoyillariga amal qilish kerakligini uqtirar ekan uning ta`limoti progressiv yo`nalish kasb etadi. Bu g`oya shu paytgacha hukmron bo`lgan davlat boshqarishdagi zo`rlik g`oyalariga zid edi.

Konfutsiy hukmdorlarni, raxbarlarni, mansabdorlarni adolatli bo`lishga chaqiradi. eng muximi bosh hukmronning adolatliligi barcha aholining hayotiga ta`sir qiladi. Davlat ishlarida ham, jamiyatda ham kichiklar kattalarga, pastdagilar yuqoridagilarga bo`ysunishlari, hurmat ko`rsatishlari zarur. Konfutsiynig asosiy maqsadi jamiyatning yuqori tabaqasi bilan quyi tabaqasi o`rtasida totuvlik yaratish, jamiyat taraqqiyotini barqarorlashtirishga qaratilgan. Konfutsiy tashqi urushlarga ham, Xitoy podsholarinnig o`zaro olishuvlariga ham qarshi edi. Jamiyatni boshqarish uchun qilinadigan harakatlarning asosini faqat qonunlar emas, balki axloqiy normalar ham tashkil etishi kerak. Odamlar o`rtasidagi barcha munosabatlar mana shu axdoqiy huquqiy normalar asosida (zo`rlik ishlatmay) rivojlanib borishi kerak.

Konfutsiy ta`limoti paydo bo`lishi bilan ko`pchilikning e`tiboriga tushdi, eramizgacha II asrda Xitoyda bu ta`limot maxsus davlat mafkurasi deb e`lon qilindi. yangi oqim mgoschisi Mo-tszi (eramizgacha 479-400 yillar) o`z qarashlari barcha odamlarning tabiiy ravishda bir-biriga tengligini, davlatning paydo bo`lishini xalq hokimiyati bilan amalga oshishini himoya qiladi. U xudo g`oyasini yangicha talqin etdi. Osmondan insonlar uchun faqat yaxshilik yog`ilib turadi. Shuning uchun xudoga katta hurmat va ishonch bilan qarash lozim.

Motszi jamiyatni boshqarishda xalq bilan kelishish kerakligini uqdirdi, zo`rlikdan xalq holi bo`lishi, zulm va qashshoqlikni bartaraf etish kerak dedi. Xokimiyatning markazlashtirish va qonunchilikni rivojlantirish uchun qattiqqo`llik kerak edi. Xitoy imperatorlari mamlakatni bir markazga bo`ysundirish uchun kurash olib bordilar, shuning uchun ham ular xalq manfaati va kurashdan ajralib qolishga majbur bo`ldilar.

Qadimgi Turonda siyosiy va huquqiy ta`limotlar

Turon O`rta Osiyoning eng qadimgi nomidir. Turon tarixi ayniqsa, uning davlatchilik tarixi qadimgi tarix bo`lib, bugungi kunga qadar o`z rivojlanish jarayonida turli tsivilizatsiyalar ta`sirida bo`ldi, ko`plab urushlarni o`z boshidan kechirdi. Har bir jahongir qadimgi Turonga yurish qilar ekan uni o`zgacha nomladi, qirg`in barot urushlarga sabab bo`lgan yurishlarni amalga oshirdi. Masalan, Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqaynar) Turonga bostirib kelgandan (III asr eramizga qadar) keyin Baqtriya davlati tashkil topdi va avval Grek-Baqtriya, keyinchalik Baqtriya deya nomlanadi. Turonning katta qismi shu Baqtriya davlati tarkibiga kiritildi. Arablar kelgandan keyin Turon tushinchasi Movaraunnahr (daryoning narigi sohilidagi mamlakat) deb atadilar va davlat arab xalifaligining bir qismiga aylantirilib, xalifalik deya yuritildi. CHingizxon yurishlaridan keyin bu erlar CHig`atoy ulusi deya ataldi. Ruslar bostirib kelgandan keyin "Turkistanskiy kray", general gubernatorlik va nihoyat Sovetlar davrida esa O`zbekiston, Kozog`iston, Turkmaniston, Qirg`iziston, Tojikiston Respublikalari tashkil topdi va bugun ularning hammasi suveren davlat sifatida rivojlanmoqda. Biz yana qadimga qaytadigan bo`lsak, Turon so`zi qanday paydo bo`ldi. Turon zaminda ilk bor davlat qachon paydo bo`lgan?-degan savollarga tarixiy kitoblarda aniq, tiniq javob yo`qdir. Olimlar, tarixchilar o`rtasida ushbu masala bo`yicha ixtiloflar bo`lib, ular o`rtasida qarama-qarshiliklar ham mavjuddir. eng qadimgi yozma manbalar: "Tarixi tabariy", Firdavsiyning "Shohnoma" asari, Navoiyning "Tarixi muluki Ajam", "Avesto", "Zafarnoma", "Tuzuk"larda, bayon qilinishicha Turon birinchi marotaba taxminan 4 ming yil avval davlatga rahbarlik qilgan Turning ismi asosida Turon so`zi kelib chiqqan. Navoiyning «Tarixi muluki Ajam», hamda «Tarixi Muluki Anbiyo va Hukamo» asarlari bevosita davlatchilik tariximizga bog`liq bo`lib, qadimgi Turonda davlatchilik va bu davlatlardagi siyosiy, diniy, huquqiy qarashlar to`g`risida qimmatli fikrlar bayon qilingan.

Birinchiidan, Navoiy davlat so`zining o`rnida "mulk" so`zini ishlatadi. Demak, o`rta asrlargacha kitoblarda davlat tushunchasi o`rnida ko`p jihatdan «mulk» ishlatilgan. Ikkinchiidan, qadimgi yozma manbalarda Turon, eron, Xuroson hududlarida aniqrog`i arabdan tashqaridagi mamlakatlarni «Ajam» deb aytganlar. Shu ma`noda eng qadimgi davlatchilik tariximiz Turon va eron davlatlari yagona «Ajam davlati» tushunchasi asosida berilgan.

Ajam davlati (mulki) to`rtta sulolaga bo`linadi: Peshdodiyalar, Kayoniylar, Ashkoniylar, Sosoniylar. Ular Navoiyning fikriga ko`ra 4336 yil, 10 oy hukmronlik qilganlar. Navoiy 65 dan ortiq shohlarning hukmronlik qilgan yillari haqida va ularning xar birining olib borgan adolatli va adolatsiz siyosati haqida ma`lumotlar bergan. Ajam mulkida birinchi bo`lib, shoxlik qilgan odamning ismi Qayumars edi deb hisoblaydi. Navoiy «Xar taqdir ila podshohlik andin burun yo`q edi. Bu qoidani ul tuzdi» Tabariy va Firdavsiylarda ham Peshdodiyalar sulolasiga asos solgan shox, Qayumars hisoblanadi. Fariudun zolim shoh Zaxdok o`rniga shoh bo`lgandan keyin Tur (uning o`g`li) Turonga shoh etib tayinlanadi. Turning ismidan Turon kelib chiqadi va birinchi bor davlatchilikka asos solindi deb hisoblaydi «Shoxnomada Firdavsiy.

Turon, aniqrog`i uning ajralmas qismini tashkil etgan Xorazmda diniy-siyosiy va huquqiy qarashlarni o`zida mujassamlashtirgan din Zardushtiylik dini tashkil topdi va u insoniyat tsivilizatsiyasiga o`zining sezilarli ta`sirini utkazdi. Uning kitobi «Avesto»ning **jax,on** madaniyati va dinlar tarixida tutgan o`rnini hisobga olgan holda YUNESKO bosh konferentsiyasi 1999 yilning noyabr` oyida Parijda o`tgan 30-sessiyaning «Avesto» yaratilganligi 2700 yilligi munosabati bilan dunyo miqyosida keng nishonlash haqidagi qarorni qabul qildi. Prezident Islom Karimov tashabbusiga ko`ra O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi №110 sonli «29» mart 2000 yil qaror qabul qildi va shu qarorga binoan. Xorazmda «Avesto»ga bag`ishlangan xalqaro ilmiy konferentsiya o`tkazildi, bog` yaratildi, yodgorlik o`rnatildi, «Avesto»ning o`zbek tilidagi to`liq nashri chop etildi.

Zardushtiylik dini paydo bo`lgan zamin va «Avesto» haqida turli qarama-qarshi fikrlar, bahslar uzoq asrlardan buyon davom etib kelmoqda. Bugun ko`pchilik olimlar o`zidagi ma`lumotlarga va bizgacha etib kelgan yodgorliklarga asoslangan holda "Avesto"ning vatani Xorazm ekanligini e`tirof etmoqdalar. E.E.Bertel`s «Avesto»ning Xorazmda yozilishi uchun qulay shart-sharoitlar mavjud edi. Bu kitobning ilk sahifalari «Goxlar» payg`ambar Zardusht tomonidan Xorazmda yozilgan degan xulosaga kelgan.¹

«Avesto»ning eng qadimgi qismi «Gohlar» Goh so`zini kitoblarda «Gosa», «Gota» Evropaliklar esa uni «Gimn» tarzida ataydilar. «Avesto» da tasvirlangan Ayryani-Vayji (Iyron Vij) xudo tomonidan ilk bor yaratilgan mamlakat-Xorazm

davlatidir. «Avesto»ning birinchi muqaddas olovi ham Xorazmda yoqilgan. Xudo Axura-Mazda ham payg`ambar Zardushtga ko`ringan.

Xorazm «Avesto»ning vatani ekanligini Kangaqal`a, Bozorqal`a, Jambasqal`a, qirqqizqal`a, Tuproqqal`a kabi qal`alardan va olov Saroy va «CHilpiq» ehrom-ibodatxonadan topilgan yodgorliklar tasdiqlaydi. «Avesto»da rivoyat qilishiga qaraganda Zardusht Amudaryo sohillarida yashayotgan dehqonlar va bepayon sahrolarda yashayotgan ko`chmanchi qabilalarning turmushlaridan yaxshi xabardor bo`lgan. Karvonlar bilan birga yurib o`zga mamlakatlar, xalqlarning turmushlarini ham yaxshi bilgan inson bo`lgan. Uning siyosiy-huquqiy qarashlari ana shu urf-odatlarini, udumlari, qonun-qoidalari asosida shakllanadi. qabilalar o`rtasida tez-tez sodir bo`ladigan diniy nizolar, urushlar, adolatsizliklar mamlakatlarni, xalqlarni parokandalikka qarab olib ketayotganliklarini yaxshi tushungan edi. Shu sababdan ham u o`zining ta`limotlarida yagona xudo to`g`risidagi fikr, g`oyalarni ilgari surdi. U quyosh xudosi Molox sharafiga bolalarni, qizlarni qurbonlik qilishdek yaramas odatlarga qarshi chiqdi. Kohinlar bunday vahshiyona odatlarni ya`ni bolalarini tiriklay qurbon qilishni qurg`oqchilik, ocharchilik, tabiiy ofat yillarida ham amalga oshirganlar. Zardusht bularning o`rniga «Navro`z»ni bayram qilishni, ko`p xudolik o`rniga yagona Ahura Mazdaga sig`inishni, odamlarning o`rniga qo`ylarni qurbonlik qilish kabi odatlarni o`rnatdi. U oddiy mehnatkash dehqonni ulug`ladi.

«Ey, dunyoni yaratgan zot!»

Mazda dinini qanday taom to`yg`izadi? Axura-Mazda javob berdi:

Ey, Sipiytmon Zardusht!

"Bug`doy ekmoq va yana bug`doy ekmoq"

-...Ey, olamni yaratgan zot! ey, xaqiqat! Zaminni xammadan ko`ra ko`proq baxtiyor qilgan beshinchi shaxs kim?

Axura-Mazda javob berdi:

-Zaminni yaxshilab shudgor qilgan va uni bir Ashavanga topshirgan zot!...»

Zardusht 1200 bobdan iborat kitobni oltin taxtachalarga yozib, shoh Vashtaps otashxonasi (olovxonasiga) topshiradi. Keyinchalik esa bu kitob eron shoxi kutubxonasida 12000 sigir terisiga oltin harflar bilan yozilgan nusxasi bo`ladi. Turon va eron davlatlarida islomga qadar asosiy davlat dini darajasida hukmronlik qiladi.

Islom hukumronlik qilgan yillarda taqib ostiga olinadi «Olov»parastlikda ayblanadi va uning tarafdorlari Hindiston va boshqa o`lkalarga ketishga majbur bo`ladilar. «Avesto» qadimgi ilk bor yaratilgan 16 yurt davlat: "Doktiyo" daryosi soxillaridagi Iyron Vij, Marv, Balx, Nisoya, Xirotda, Vaigtsa Girta, Avrava, Xninta, Xaravachta, Xiyrmant, Ray, CHapra, Varina, Xaftrud, Rangxi daryosi sarchashmasi atrofidagi besar xalqlar yashovchi makondir.

Ana shu davlatlarni shoh "Kavi" boshqargan. Oilalarning birlashmasi «Nmana», Oila boshlig`i "Dmana", katta oila oqsoqoli "Nma" "Napati", urug` jamoasi boshlig`i "Vis", katta qishloq oqsoqoli "Vispati", qabila boshlig`i "Zantupati", viloyat hokimi «Daxtapati». Oqsoqollar Kengashi «Varzanipti», xalq majlisi «V`yaxa» deya yuritilgan. Oliy sudya vazifasini Kohinning o`zi bajargan.

«Avesto»ga ko`ra jamiyat to`rt tabaqaga bo`lingan: Kohinlar, Harbiylar, CHorvadorlar, Hunarmandlar (yasna; 19-bob). Ayni paytda jamiyatda qullar "Vaysa", oila xizmatchilari "viranmaja", huquqlari cheklangan cho`ponlar "Payshautar"lar ham bo`lgan.

"Avesto"ga ko`ra davlatning shakllanishi uch davrga bo`lingan («Gohlar 45»).

Birinchisi, eng qadimgi davr adolat va insoniy soadat hukumronlik qilgan davr («yasna», 32).

Ikkinchisi, ezgulik bilan yovuzlik o`rtasidagi kurash davri.

Uchinchisi, ma`rifatli, adolatli shohlar qonunga binoan mamlakatni boshqaradilar. («yasna», 48).

«Ey Ahura-Mazda, har kimki ezgu andisha, ezgu so`z, ezgu amal bilan nohaqlik va uning tarafdorlariga qarshi kurashsa va odamlarni rostlik va haqiqat yo`liga xidoyat etsa, o`zining pok muhabbatidan senga eng yaxshi tuhfa keltirgan bo`lardi.»

Bundan ko`rinib turibdiki, zardushtiylik ta`limotida haqiqat va rostlik uchta g`oyaga asoslanadi: ezgu fikr, ezgu kalom (so`z), ezgu amal (ish) «Avesto»da ana shu uchlikka asoslangan g`oyalar, qarashlarni ko`plab uchratish mumkin.

Inson qalbida rostlik va haqiqat tuyg`ularini uyg`otishda ikki qarama-qarshi kuch; Voxu Mana («Ezgu fikr») va Ako Mana («YOvuz fikr») o`rtasidagi kurash ahamiyatlidir.

Axura-Mazda, ezgulik, yaxshilik timsoli bo`lsa, Anxro-Mans (Ahrimon Maynyu) jaholat, yovuzlik yomonliklar timsoli sifati tasvirlanadi.

«Avesto»da jinoyat va jazo masalalarida ham ko`p fikr va mulohazalar, qonunlar bitilgan. Masalan, kimda-kim qarzni o`z egasiga qaytarmasa, uning bu amali unga omonatni o`g`irlagan bilan barobar bo`ladi. qasamlarga katta e`tibor beriladi. qasamlarning sanog`i Ahura-Mazda ta`limotiga ko`ra 6-ta.

Birinchisi- so`z qasami

Ikkinchisi-qo`l qasami

Uchinchisi - qo`y qasami

To`rtinchisi-sigir qasami

Beshinchisi-odam qasami

Oltinchisi-ekin qasami

Bu eng obod, eng serhosil erdagi hosil qasamidir.

Ey haqiqat! Kimda-kim o`z qasamini buzsa, bu gunoxi uchun giriftor bo`ladigan jazosining andozasi nechukdir?

Ahura-Mazda javob berdi.

- uning va eng yaqin qarindoshlari gunohining tovonini o`sha qasam bahosining uch yuztasiga tengdir. Agarda qo`y qasamini buzsa u holda uning tovonini, jazosi etti yuztasiga tengdir. Ana shu tariqa qasamlarga qanchalik sodiq ekanliklarini turli usullar, yo`llar bilan sinab ko`rilgan. Masalan, suvga tupurish yoki ikki tomonlama yonib turgan olov orasidan o`tish kabilar. qaynab turgan suyuqlik, qizdirilgan metalni tanasiga bosish yoki eritilgan metalni ko`kragiga qo`yish va shu kabilarni keltirish mumkin.

Kimda-kim birovni urmoq qasdida otlansa, uning gunoxi «avauyrait»dir...

Kimda-kim g`araz bilan birovni urmoqqa qasd qilsa, uning gunoxi «aridush»dir. Ana shu tariqa jinoyat tavsiflanadi (kvalifikatsiya) qilinadi va qilgan jinoyatiga yarasha jazo tayinlanadi. Masalan oshirinta gunoh uchun besh qamchin aspaxix,-ashitra bilan va besh qamchin saravushu-charapa bilan savalanadi. (ushbu masala batafsil "Avesto" ma`naviyatimiz sarchashmasi» kitobida (H.Boboev, S.Hasanovlar, "Adolat"-2001 y. 62 b. yoritilgan). "Avesto" da tavon to`lash, qonunlarga rioya qilish, sud ishlarini adolat va'qonunga ko`ra amalga oshirish yaxshi yo`lga qo`yilgan edi.

«Avesto»da haqiqat, tinchlik, davlat, ozodlik, erkinlik, mustaqillik, hayot haqidagi g`oyalar, qarashlar juda o`rinli va tushunarli bayon etilgan.

"Kimda-kim bug`doy eksa, u oshani (haqiqat) ekadi..."

qachonki bug`doy gurkirab ko`karsa, devlar daxshatdan titray boshlaydilar. qachonki bug`doy un bersa, devlar nola chekadilar..." xikoya qilinadi.

"Avesto"da atrof muhitni pok saqlashga, ayniqsa, er, suv, o`simliklarni asrash masalalariga katta e`tibor berilgan. 4 narsani: er, olov, suv va havoni muqaddas deb biladi va uni ifloslanishiga yo`l qo`yganlarga nisbatan chora ko`rilgan. Birinchidan, aholini tarbiyalash va ikkinchidan, qonun, odat normalarini qo`llash yo`li bilan ularni himoyalagan.

Xulosa shundan iboratki, "Avesto"dagi siyosiy-huquqiy qarashlar hozir ham o`z nazariy va amaliy qimmatini yo`qotmagan. "Avesto" o`zining ilg`or g`oyalari bilan qadim zamonda dunyo tsivilizatsiyasiga o`zining ta`sirini o`tkazgan. Biz uchun u muhim manbadir.

Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar.

Qadimgi Misr siyosiy va xuquqiy ta`limotlari, Qadimgi Bobil siyosiy va xuquqiy ta`limotlari, Qadimgi Xindiston siyosiy va xuquqiy ta`limotlari, Qadimgi Xitoy siyosiy va xuquqiy ta`limotlari, Qadimgi Turon siyosiy va xuquqiy ta`limotlari, Zardushtiylik dinidagi siyosiy va xuquqiy ta`limotlar.

Mavzuga oid nazorat savollari

1. Qadimgi Sharqda siyosiy va xuquqiy ta`limotlar nimalar asosida shakllandi?

2. Diniy mifologik qarashlarning o`ziga xos tomoni nimada?
3. Qadimgi Misr va Bobilda qanday siyosiy va xuquqiy ta`limotlar rivojlandi?
4. Qadimgi Xindiston va Xitoyda qanday siyosiy va xuquqiy ta`limotlar rivojlandi?
5. Qadimgi Turonda qanday siyosiy va xuquqiy ta`limotlar rivojlandi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda». «O`zbekiston», Toshkent. 2000 y.
2. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». «O`zbekiston», Toshkent 1997 y.
3. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q». Toshkent. 1998.
4. Karimov I.A. «O`zbekiston – bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li». «O`zbekiston», Toshkent 1995 y.
5. Karimov I.A. «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida». «O`zbekiston», Toshkent 2000 y.
6. Karimov I.A. «O`zbekiston Konstitutsiyasining 9-yilligiga bag`ishlangan tantanali marosidagi nutqi». «O`zbekiston ovozi», 2001 y, 8.XII.
7. Sharipov R., Muxiddinova F. «O`zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta`limotlari tarixi». Toshkent. 2004.

8. Rahmonov R. G`ofurov Z. “Mustaqillik va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi”. “O`zbekiston”, Toshkent 1999.

9. Boboev X.B. taxriri ostida «Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi» T. 2003 y.

10. Toshqulov J.O`zbekiston xalqlari siyosiy-xuquqiy fikrlari tarixidan. T. 1996 y

QADIMGI YUNONONISTON VA RIMDA SIYOSIY VA HUQUQIY TA`LIMOTLAR.

R E J A:

1. Qadimgi Yunonistondagi siyosiy va huquqiy ta`limotlarining o`ziga xos qirralari.
2. Aflotun va Arastularning siyosiy va xuquqiy ta`limotlari.
3. Qadimgi Rimdagi siyosiy va xuquqiy ta`limotlarning o`ziga xosligi.
4. Rim xuquqshunoslarining siyosiy va xuquqiy ta`limotlari.
5. Mavzu Yuzasidan tayanch so`z va iboralar

Qadimgi Yunonistondagi siyosiy va huquqiy ta`limotlarining o`ziga xos qirralari.

Qadimgi Gretsiyada eramizdan oldingi birinchi ming yillik boshlarida davlatlar paydo bo`ladi. Mustaqil polislar shahar davlatlar yon atrofidagi qishloqlarni ham o`z ichiga oladi. Ibtidoiy tuzumdan ilk sinfiy tuzumga o`tganda jamiyatni siyosiy jihatdan tashkillashga katta e`tibor beriladi, bu ishlar axolini sotsial tabaqalashtirishni

kuchaytirib Yuboradi va ular o`rtasida ziddiyatlar avj ola boshlaydi. Bu sharoitda polislar ichida ham, tashqarisida ham hokimiyat uchun kurash keskinlashadi.

Davlatlarni boshqarishning turli shakllari kelib chiqadi. eramizgacha 1U-U asrlarda Afinada, Abdirda demokratiya qaror topadi, Fiva, Megerada Oligarxiya, Spartada aristokratiya shakllari davlatchilikning turli yo`sidagi boshqarish shakllarini keltirib chiqaradi. qadimgi Gretsiyada paydo bo`lgan va asta-sekin rivojlanib borgan siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixini uch davrga bo`lish mumkin. Ilk davr (eramizgacha 1X-U asrlar) qadimgi grek davlatlarining paydo bo`lish davrini o`z ichiga oladi.

Bu davrda siyosiy va huquqiy tasavvurlarning mifologiyadan ozod bo`la boshlashini, ratsionallashuvini kuzatish mumkin. bu jarayon Gomer, Gesiod va mashxur "etti donishmandlar" ijodida o`z ifodasini topgandir. Shu davrda davlat va huquq muammolariga falsafiy yondashish ham shakllana boshlaydi (Pifagor va uning izdoshlari, Geraklit). Ikkinchi davr (eramizgacha V va IV asrning birinchi yarmi. Bu davr qadimgi grek falsafiy siyosiy va huquqiy ta`limotlarning gullagan davri. Bu davrda Demokrit, Suqrot, Ploton, Arastularning falsafiy, siyosiy va huquqiy ta`limoti shakllandi va rivojlandi.

Uchinchi davr (IV asrning ikkinchi yarmi va II asrgacha). Bu davr tarixda ellinizm davri bo`lib. Bu davrning muxim belgisi grek davlatchiligining tanazzulga Yuz tutgan davri. Grek polisleri dastlab Makedoniya, so`ngra rim tasarrufiga o`ta boshlaydi. Bu davrdagi siyosiy va huquqiy qarashlar epikur, stoiklar va Polibiy ijodida o`z aksini topdi.

Qadimgi Yunonistonda paydo bo`lgan va rivojlangan ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlar tarixini Gomer va Gesiod dostonlarini taxlil qilishdan boshlaymiz. Bu buYuk shaxslar yaratgan dostonlarda jamiyatda paydo bo`lgan ijtimoiy muammolar xudolar obrazlari orqali izchil ta`svirlagandir.

Adolat, qonunchilik va polis hayotiga oid boshqa tushunchalarning moxiyati, yo`nalishlari va shakllanishi eng avvlo Zevsning faoliyati bilan bog`lanadi. Bosh Xudo Zevs barcha xudolarni iskanjaga olib, adolat o`rnatishni talab qilgan. Gomer poemalarida Zevs xuddi mana shu tartibda, ya`ni qattiqqo`l adolatli Bosh Xudo obrazida ifodalangan. Bunda adolat tushunchasi erdagi voqealar bilan bog`langan

holda izohlanadi. Erdagi oddiy qonun-qoida asoslari odamlarni birlashtiruvchi bir kuch, umuminsoniy qadriyat sifatida namoyon bo`ladi.

Gesiod (eramizgacha VII asr) asarlarida adolat, huquq-tartibot tushunchalari yanada yorqinroq ifodalangan. Uning «Teogoniya», «Mexnat va kunlar» nomli asarlarida turli tamoyillarga ega bo`lgan axloqiy-xuquqiy normalar ta`riflanadi va himoya qilinadi.

Masalan, uning «Teogoniya» asarida Zevs va abadiy tabiiy tartibning timsoli Femida nikohidan ikki qiz Dike adolat xudosi va evnomiya qonunchilik xudosi tug`ildi. Dike adolatni himoya qiladi, uni buzuvchilarni qattiq jazolaydi. evnomiya esa qonunchilik, tartib-intizom ilohiyat tomonidan o`rnatilgan odamlar orasida bo`lishi shart bo`lgan qonun deb hisoblab uni himoya qiladi. Dike ham, evnomiya ham barcha ishlarni bosh xudo-otalari Zevs buyrug`i bilan bajaradilar. Demak, adolat ham, qonunchilik ham ilohiy manbaga ega. U Bosh xudo va boshqa xudolar tomonidan boshqarib boriladi.

Gesiod «Mehnat va kunlar» poemasida patriarxal tuzim ideallarini himoya qilar ekan, odamlar hayotida beshta biri-biri bilan olmashib turadigan bosqichlarini o`ziga xos tomonlarini ifodalab beradi. «Oltin asr», «kumush asri», «mis asri», «yarim xudo-qahramonlar asri» va nihoyat o`zi yashab turgan asrni «temir asri» deb baholaydi. «Oltin asr» odamlari baxtli edilar, g`am-tashvishsiz umr kechirdilar. «Kumush asrining» qaysar, xudolarga itoat qilmagan odamlarini Zevs qirib tashladi. «Mis asri» ning odamlari o`zaro raqobatda va chiqishmovchiliklar tufayli o`zlari biri-birini yanchib tashlashdi. To`rtinchi «Temir asrining» qonli urushlarda yarim xudo qahramonlari ham xalok bo`ldilar. Gesiod «Temir asrini» qora bo`yoqlar bilan g`amgin tasvirlaydi. Mehnat og`ir, kun ko`rish qiyin, xaqiqat toptalgan, odamlar o`rtasidan insof, diyonat ko`tarilgan.

Gomer va Gesiod ijodiga xos bo`lgan axloqiy, huquqiy tartib-intizomning insonlar o`rtasida qaror toptirish va ularga aql nurini bag`ishlashga qaratilgan intilishlar keyinchalik etti donishmand faoliyatida davom ettirildi. Bu etti donishmand Fales, Pittak, Permandr, Biant, Solon, Kleobul va Xilon. Bu donishmandlar jamiyat adolat tantana qilishi uchun kurash olib bordilar. Ularning ayrimlari hokim yoki qonun chiqaruvchilar sifatida o`z g`oyalarini amalga oshirishga harakat qildilar.

Masalan, Solon xususiy va davlat qarzlarni bekor qildi, qarz berishni adolatli asosga qo'ydi. Solon tomonidan tashkil etilgan polis demokratiyasi demos bilan zadogonlarni, boylar bilan kambag'allarni murosaga keltirish uchun ishlab chiqilgan qoidalarga asoslanar edi. Solon bir tomonning ikkinchi tomon manfaatlarini erga urish asosida ustunlikka erishishlarini ochiq qoralaydi.

Ijtimoiy, siyosiy-huquqiy tartiblarning falsafiy g'oyalar asosida qayta o'zgartirish fikrlarini ilgari surgan Pifagor (eramizgacha 580-500 yillar) va uning izdoshlari (Arxit, Lizis, Dgigolay va boshqalar), hamda qadimgi dunyoning atoqli faylasufi Geraklit (eramizgacha 530-470) demokratiyani tanqid qilib aristokratik boshqaruv usulini, aqlan va axloqiy etuk odamlar hokimiyatini yoqlab chiqdilar.

Pifagor va uning hamfikrlari dunyoqarashlari bir qadar mistik bo'lsada, ammo ular olamning asosini moddiylik belgisi sonlar tashkil etadi deb hisoblashdi. Xamma narsaning mohiyati oxir oqibatda sonlarga borib taqaladi. Axloqiy va siyosiy-huquqiy voqealarning ham mohiyatini sonlar xarakteristikasidan izlash kerak, masalan, adolat tushunchasi tenglarga tenglik bilan javob qaytarish demakdir.

Pifagorchilar ideali polis edi. Ammo polisda adolatli qonunlar mavjud bo'lishi kerak. Pifagorning ko'rsatishicha, xudodan so'ng, ota-onani va qonunni hurmat qilish kerak, xudo, ota-ona va qonun. Pifagorchilar tartibsizlik, anarxiyadan qattiq nafratlanar, insoniy munosabatlar anarxiya zulmidan ozod etilib huquqiy tartib va garmoniyaga ega bo'lishi kerak degan g'oyani ilgari surdilar.

Aflotun va Arastuning siyosiy va huquqiy ta'limotlari.

Aflotunning ideal davlat va jamiyat haqidagi ta'limoti uning keyingi dialoglarida («Davlat», «qonunlar» va boshqalar) rivojlantirildi. Uning ideyalar haqidagi qarashlarining mohiyati quyidagicha: haqiqiy borliq bu moddiylikdan tashqari, aql bilan idrok etiladigan ideyadir. Bizning qo'zimizga ko'rinib, hissiyotimizga ta'sir qilib turgan narsalar borliqqa aloqador emas, shuning uchun ham haqiqiy bilish bu borliqni bilishdan iborat, ya'ni ideyalarni bilishdan iborat. Borliqni hamma ham bilavermaydi, faqat faylasuflargina bunga qodir.

U o'zining «Davlat» nomli asarida adolatli ideal davlatni ta'riflar ekan, davlat polisidagi ijtimoiy-siyosiy hayot bilan koinotning birikuvidan hosil bo'ladi, deydi. ,

Aflotunning ta'limotiga ko'ra adolat deganda birichi navbatda har bir odam o'z ishi bilan shug'ullansin, boshqalarning ishlariga aralashmasin, polis turli ehtiyojlarning umumlashgan ifodasidir degan g'oyani ilgari suradi. Bu turli-tuman ehtiyojlarni qondirish uchun davlatda odamlar o'rtasida mehnat taqsimoti qaror topgan bo'lishi kerak. Ideal davlatda ayollar erkaklar bilan baravar huquqqa ega. Aflotun ideal davlatida uch tabaqa faylasuflar, harbiylar va dehqon, hunarmandlarni bo'lishini e'tirof etgan.

Aflotun o'zining «qonunlar» nomli asarida davlatning mohiyati va qurilishi xaqida batafsil to'xtalib o'tadi. Aflotun ideal davlatning eng muhim belgilari quyidagilardan iborat. Uning 5040 fuqarosi chek tashlash orqali er maydoni va uy-joy oladilar, ammo bu er va uy ularning xususiy mulki hisoblanmaydi. Barcha erlar davlatning mulki bo'lib odamlarning farzandlaridan biriga meros bo'lib o'tishi mumkin. Mavjud mulkning ko'p va ozligiga qarab, odamlar to'rt toifaga bo'linadilar:

Boylikning ham, kambag'allikning ham ma'lum chegarasi bo'lib, bu qonun tomonidan belgilab qo'yiladi. qullar va chet ellardan kelgan dehqon, hunarmand, savdogarlar Yuqorida aytilgan 5040 fuqaro tarkibiga kirmaydi. Birinchi davlatda ham, ikkinchi davlatda ham hamma ish o'zaro kelishuv va muomila asosida olib boriladi. YOshlar erkaklar bilan teng huquqqa ega bo'lsalarda, ammo ular oliy rahbarlikka ko'tarila olmaydilar. Aflotun davlatining boshida bosqichma-bosqich saylovlardan o'tgan 37 hukmdor turadi. Hukmdorlarning yoshi 50 dan 70 yoshgacha bo'ladi. 360 kishidan iborat bo'lgan saylov kengashi katta huquqlarga ega.

Aflotunning ideal davlatida qonunchilikka e'tibor qaratgan. qonun chiqaruvchilarga Aflotun maslahat berib qonunlar juda qattiq bo'lmasin, qonunga itoat etish bilan birga hukmdorlar jamiyatni erkin boshqara olsinlar, qonunlarni ishlab chiqqanda geografik muhit, iqlim, tuproq va boshqa omillar e'tiborga olinishi zarur. Aflotun qonunlarga rioya etmaslikni qattiq qoralaydi. Har xil shoirlar, olimlar turli-tuman yangiliklar yaratib, qonunlarni buzishavermasin.

Aflotun o'z qarashlarida mafkuraviy masalalarga katta e'tibor berdi. Davlat va qonunlarning ilohiy va muqarrar qudratini odamlarga etkazish, ularning ongiga singdirish kerak. qonun-qoidalarni buzish qattiq jazolanishi kerak.

Aflotun tomonidan ikki yarim ming yil oldin aytilgan "qonun ustivorligi", "qonun hukumronligi" g`oyalari bizning kunimiz uchun shubhasiz juda foydali.

Arastu Aflotundan keyin eng ulug` mutafakkir sifatida maydonga chiqdi. (Eramizdan oldingi 384-322 yillar). O`zining «Politiya», «Afina siyosati», «Etika» nomli asarlarida siyosiy, huquqiy qarashlarini bayon etadi. Arastu siyosat fanini har tomonlama ishlab chiqishga, siyosatni axloq doirasida qarashga harakat qildi. Axloq siyosatning boshlang`ich nuqtasi, uning muqaddimasidir, deydi u. Arastu adolatning ikki xilini farqlab ko`rsatadi. Muvozanatga soluvchi adolat misoli arifmetik tenglik, ya`ni mana shu tamoyilni jamiyat taraqqiyotiga tadbiiq etish. Belgilovchi adolat xuddi geometrik tenglikka o`xshaydi. ya`ni barcha haq-huquqlar, ne`matlar odamlar o`rtasida har kimning o`ziga yarasha taqsimlanishi kerak.

Arastuning etika sohasidagi izlanishlarining mohiyati shundaki, siyosiy adolat odamlar o`rtasidagi tenglik, erkinlikka asoslangan bo`lib, har bir odamning o`z ehtiyojlarini qondirishi bilan belgilanadi. Arastu tasavvurida davlat ko`plab tarkibiy qismlarning o`zaro uyg`unligidan tashkil topadi. Davlat o`ziga xos bir tashkilot bo`lib, fuqarolarning uYushishidan tashkil topdi. Davlatning har bir turida o`ziga xos inson xuquqlari ishlab chiqilgan bo`ladi.

Arastu davlatning siyosiy tashkilot ekanini ta`kidlab, davlat bu oliy hokimiyatga ega bo`lgan siyosiy tizimdir, deb uqdiradi. Davlatning to`g`ri va noto`g`ri boshqarish shakllarini ajratadi. Davlatning to`g`ri boshqarish shaklida xalqqa manfaat keltiradi. Noto`g`ri boshqarish shaklida faqat tor doiradagi odamlarga foyda keltiradi xolos. Davlat boshqarishining uchta to`g`ri shakli monarxiya, aristokratiya, politiya. Davlat boshqarishning noto`g`ri shakli tiraniya, oligarxiya, demokratiyadir.

Arastu davlat boshqarish shakllarining turli xillarini xam tekshirib chiqadi. Uning fikricha, eng to`g`ri boshqarish shakli bu politiyadir. Boshqa davlat formalari politiyadan ozmi-ko`pmi chekinishlarga asoslanadi. Davlatni noto`g`ri boshqarish shaklidan eng yomoni bu tiraniyadir. Politiya oligarxiya va demokratiyaning eng yaxshi tomonlarini birlashtiradi, ammo ularning yomon tomonlaridan butunlay xoli davlat shaklidir. Arastu ishlab chiqqan ideal davlatning loyihasini oddiy bir faktni tajribada sinab ko`rishdek aniq bir belgilar bilan xarakterlab bo`lmaydi, deb

ko`rsatadi. Ideal davlatning aholisi etarli darajada bo`lib, aniq ko`zga tashlanib turishi kerak. Uning xududida quriqlik va dengizga yaxshi yo`naltirilgan bo`lmog`i zarur.

Barcha erlar ikkiga bo`linadi. Bir qismi butun davlat tomonidan umumiy tarzda foydalaniladigan erlar, ikinchisi fuqarolarning xususiy erlari. Tinchlikni jamiyatning ravnaqi deb baholagan olim, urushlarni huquqqa qarshi hodisa deb baxrlaydi. Arastu Sokrat va Aflotunning adolat va qonunning biri-biriga mos kelishi zarurligi g`oyasini himoya qiladi. Umuman olganda, huquq siyosiy hodisa bo`lgani uchun uni siyosiy huquq deb atasa bo`ladi. Tabiat qonunlari hamma joyda bir xil ahamiyatga ega bo`lib, tan olinishi yoki olinmasligiga qaramay mavjud bo`laveradi. Bundan tashqari, shartli xuquq xdm bor. U sharoitga qarab o`zgarib turishi mumkin. Tabiiy huquqlar ham shartli huquqlar ham davlat siyosatiga xizmat qiladi. Bu xuquq normalari izchil, barqaror bo`lishi zarur.

Qonun siyosatga mos bo`lishi uchun avvlo qonunlar adolat asosida shakllanishi zarur. Arastu qadimgi dunyoning eng mashhur, genial tafakkur egasi edi. Uning asarlari asrlar osha o`z kuchini yo`qotmay qolmoqda. U voqealarni chuqur, ilmiy taxlil etishda o`z ustozini Aflotundan ancha o`zib ketgan edi.

Qadimgi Rimda siyosiy va xuquqiy ta`limotlarning o`ziga xosligi

Qadimgi Rim siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixi ming yillarni o`z ichiga oladi va shu davr ichida qadimgi Rimda o`zgarib turgan sotsial iqtisodiy, siyosiy-huquqiy qarashlarni voqealarni aks ettiradi. qadimgi Rim tarixi uch bosqichdan iborat. Podsholik (eramizgacha 754-510 y.), respublika boshqarish usuli (504-28 y), imperatorlik (27 eramizgacha va 475 y). yagona Rim imperiyasi eramizning 395 yili batamom bo`linib ketdi. g`arbiy (markaz Rim), Sharqiy (markazi Konstantinopol') Vizantiya imperiyasi-bular 1453 yilgacha yashab keldi.

Qadimgi Rimdagi ijtimoiy-siyosiy, huquqiy qarashlar uzoq vaqt davomida turli qarama-qarshi kuchlar patriitsylar va plebeylar o`rtasidagi, to`xtovsiz kurashlar ichida shakllanib boradi va shu kuchlar nisbatini, manfaatlarini o`zida aks ettirdi.

Qadimgi Rimdagi siyosiy-huquqiy qarashlar qadimgi Yunonistonda shakllangan ijtimoiy-siyosiy qarashlar ta`sirida edi. eramizgacha V asr o`rtalarida plebeylar yozma ravishdagi qonunlar tayyorlanishini talab qilib chiqdilar va Yunonistonga odamlar Yuborib, ulardagi qonunchilik, davlatchilik asoslarini o`rganib kelish, xususan Solon davrida yaratilgan qonunlarga katta e`tibor berishni topshirdilar. Bu tajribalar puxta o`rganilib, nihoyat XII jadvaldan iborat bo`lgan qadimgi rim huquq normalarini ishlab chiqishga asos bo`ldi. Qadimgi Yunonistonning atoqli faylasuflari Sokrat, Aflotun, Arastu, epikur, stoiklar, Polibiy va boshqalar qadimgi rim ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarning shakllanishiga kuchli ta`sir qildi.

Qadimgi Rimda huquqshunoslik fanining rivojlanishi katta voqea edi. Rim hukukshunoslari huquqning umumiy nazariyasi muammolarini yoritib berdilar. Ayrim huquqshunoslik sohalari (davlat va huquq nazariyasi va ma`muriy xuquq, jinoyat huquqi, xalqaro huquq) mustaqil tarzda ishlab chiqildi. Rim huquqshunoslari jamiyat hayotida ro`y berayotgan yangiliklarning nazariy asoslarini ishlab chiqdilar. Rim Yuristlari tomonidan kashf qilingan huquqshunoslikka oid atamalar, fanlar bugun bizda ham o`rganilmoqda.

Rim imperiyasida eramiz boshida xristianlik paydo bo`ladi. Ilk xristian ta`limotlari barcha erkinlik haqidagi qonunlarni, mavjud bo`lgan ko`plab tabiiy huquq g`oyalarini yangi din o`z nomidan, ilohiy ruh, xudoning ifodasi deb talqin qila boshaydi. Barcha odamlarning tengligi, uni odamlar o`rtasida qaror topishi zarurligi haqidagi g`oya muxim axamiyatga ega edi. Xristianlikning paydo bo`lishi va jaxon dini sifatida kengayib, mustahkamlanib borishi insoniyat taraqqiyotining keyingi bosqichlariga kuchli ta`sir qildi. eramizning II asrida xristian jamoalarida axvol bir muncha o`zgaradi. Jamoa boshliqlarining hukmronligi mustahkamlanadi, ular o`rtasida aloqa kuchayadi, ruhoniylar paydo bo`ladi. CHerkov ierarxiyasining paydo bo`lishi, diniy dogmatning kuchaytirib Yubordi. Ilk xristianlik ta`limotlarida qulchilikni yo`qotishga, xususiy mulkchilikni bekor qilishga, odamlar o`rtasidagi notenglikni bartaraf etishga qaratilgan g`oyalar mavjud edi.

Qadimgi Rim siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixida Mark Tualliy TSitseron (106-43 eramizdan oldingi yillar) aloxida o`rin egallaydi. Mashhur arator, davlat arbobi va mutafakkir TSitseronning davlat va x,uquq muammolariga bag`ishlangan "Davlat haqida", "qonunlar haqida", "Burchlar haqida" va boshqa asarlarida siyosiy va huquqiy qarashlari o`z aksini topgan. Davlatning paydo bo`lishining sababi odamlarning birga yashashga intilishidadir. Birga yashash odamning tabiiy extyojidir, deydi, TSitseron. Davlat xalqning ishi, boyligidir. TSitseron davlatning tuzilish shakllariga katta ahamiyat beradi. U uchta oddiy davlat shaklini ko`rsatadi: podshoh xokimiyati, aristokratlar hokimiyati va xalq hokimiyati. Bularning har biri o`zining avfzalliklari va kamchiliklariga ega. Shuning uchun bularning barchasiga xos bo`lgan avfzalliklarni o`zida birlashtirgan qo`shma davlat shakli maqsadga muvofiqdir.

Zo`rlik bilan o`rnatilgan yakka shaxs yoki olomon xukmdorligi, yoki bir to`raning xukmronligi davlat shakli xisoblanmaydi, bunga yo`l qo`yish mumkin emas. Bu erda umuminsoniy manfaat ham barcha, uchun teng huquq ham yo`q.

TSitseron ijodida haqiqiy davlat arbobi va ideal fuqaroga xos fazilatlar katta o`rin olgan. Huquq zaminida tabiatga xos bo`lgan adolat yotishi kerak, deydi u. Tabiiy huquqining belgi va xususiyatlarni ta`riflash bilan bir qatorda, TSitseron ijobiy huquqning o`zini xususiy va ommaviy huquqlarga bo`ladi. TSitseronning ijodiy merosi insoniyat madaniyatining rivojiga katta ta`sir ko`rsatdi.

Rehaga qaytish

Rim huquqshunoslarining siyosiy va xuquqiy qarashlari

Eramizgacha II asr boshlarida huquqshunoslik, hususan fuqarolar xuquqi borasida M. Maniliy, P. Mutsiy Stsevola va M. Yuniy Brut samarali faoliyat ko`rsatdilar. Huquqiy masalalar quyidagi soxalarni qamrab olardi:

1) Odamlarning Yuridik savollariga javoblar;

2) Bitimlar tuzishda tavsiya qilish va yordam berish;

3) Sudda ishlarni hal qilish uchun formulalar ishlab chiqish;

Rim huquqshunosligi respublikaning oxirgi damlarida, xususan, imperiyaning dastlabki ikki yarim asrida o`zining eng Yuqori rivojlanish darajasiga etdi. III asrning ikkinchi yarmidan boshlab, imperatorning qonuniy hokimiyatga ega bo`lishidan so`ng rim huquqshunosligining rivojlanishi pasaya boshladi. To`g`ri, klasik davrda Yuristlarning axvoli hurmat e`tibori yangi davrda ham saqlanib turdi. Xuddi mana shu klassik davrda yashagan mashhur huquqshunoslardan Gay, Panminak, Pavel, Ul`pian, Modestinlarni ko`rsatib o`tish mumkin.

Rim huquqshunoslarining faoliyati asosan huquq amaliyotida mavjud bo`lgan ehtiyojlarni qondirish, mavjud huquqiy normalarni o`zgarib turuvchi vaziyatga moslashtirib borishga qaratilgan edi. Ular shu bilan birga berilgan savollarga qaytarilgan javoblarda, konkret ishlar muhokamasida bir qator nazariy masalalarni ham ishlab chiqdilar. Rim huquqshunoslari anchagina tushunchalarga aniqlik kiritdilar. O`sha vaqtning tili bilan aytganda amaliy huquq normalari, oddiy huquq, qonun, magistrantlar, imperator konstitutsiyasi va boshqa sohalar shakllandi.

Tabiiy huquq amaliy huquq uchun asos bo`lib qolaverdi. Ul`pianning xalqlar huquqlariga tabiiy huquqlarning bir qismi sifatida olib qaraladi. Ularning odamlarga ta`siri o`rtasida farqlar bo`lgan. Ana shulardan qilingan xulosalarga ko`ra jamiyatda nikoh, bolalar tarbiyasi ham tabiiy huquq ta`siri ostida shakllanib boradi. Huquqshunos Gayning karashlari ham shunga hamohang. Umuman huquq borasidagi turli holatlar, xususiyatlar o`rtasidagi o`zaro aloqadorlikning mohiyatini Pavel izchilroq ifodalab berdi. U huquqning turli qismlari haqida emas, balki yagona bir butun bo`lgan huquqning o`zaro bog`langan ko`rinishlari haqida fikr Yuritish kerak deb xisoblaydi.

Umuman rim Yuristlarining aksariyati huquqning bir butunligini tan olib, uning turli tushunchalarini konkret izohlab berganlar. Jumladan zaruriyat adolatli huquqning muxim tomoni, huquqning barcha ko`rinishlari va yo`nalishlariga xos bosh xususiyatdir. Zaruriyat adolatga asoslanadi, undan kelib chiqadi. qadimgi rim huquqshunoslarining Yuqoridagi talablari huquqning barcha sohalariga tegishli

bo`lishi bilan birga konkret qonunlarga ham tegishlidir. Konunlar huquq normalarining izchil, qat`iy ishlangan shakli sifatida qaraladi.

Rim huquqshunoslari faoliyatiga stoiklarning ta`siri yaqqol sezilib turadi. Ular mana shu ta`sir ostida ko`plab huquqiy masalalarni, xususan burch masalasini har tomonlama tasvirlab berdilar. Tabiiy huquq, qonunlarning g`oyaviy asoslarini tashkil qilishi haqidagi fikr ham diqqatga sazovor. Huquqshunos Modestinning ko`rsatishicha, huquqning vazifasi ruxsat etish, man etish, jazolashdan iborat. Albatta bu talablar har qaerda xar xil bo`lib, asosan imperativ huquq normalarini aks ettiradi. Yulian ham xuddi shu fikrni ifodalaydi.

Rim huquqshunoslari huquqning umum nazariy mohiyatini chuqur tadqiq etish bilan barcha amaliy hayotdagi huquqiy normallarning ta`siri, ularga qay tarzda asoslanish zarurligi va boshqa xususiy masalalarni aniq konkret misollar asosida xarakterlab berdilar. Ijtimoiy huquq normalari ham har tomonlama ishlab chiqildi. Davlat organlarining vakolatlari, mansabdor shaxslar, hokimiyat, fuqarolik tushunchalari va davlat hamda ma`muriy huquqning ko`plab masalalari yoritib berildi.

Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar.

Qadimgi Yunonistondagi siyosiy va huquqiy ta`limotlar, Qadimgi Rimdagi siyosiy va huquqiy ta`limotlar, Aflotunning siyosiy va huquqiy qarashlari, Arastuning siyosiy va huquqiy qarashlari, TSitseronning siyosiy va huquqiy qarashlari, Rim huquqshunoslarining siyosiy va huquqiy qarashlari.

Mavzuga oid nazorat savollari.

1. Qadimgi Yunoniston siyosiy va xuquqiy ta`limotlarining o`ziga xos tamoni nimada?
2. Qadimgi Rim siyosiy va xuquqiy ta`limotlarining o`ziga xos qirralari nimada?
3. Qadimgi Yunonistondagi siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixini necha davrga bo`lish mumkin?
4. Aflotun va Arastularning siyosiy va xuquqiy ta`limotlarida farq bormi?
5. Rim xuquqshunoslarining siyosiy va xuquqiy qarashlari qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda». «O`zbekiston», Toshkent. 2000 y.
2. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». «O`zbekiston», Toshkent 1997 y.
3. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q». Toshkent. 1998.
4. Karimov I.A. «O`zbekiston – bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li». «O`zbekiston», Toshkent 1995 y.
5. Karimov I.A. «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida». «O`zbekiston», Toshkent 2000 y.
6. Sharipov R., Muxiddinova F. «O`zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta`limotlari tarixi». Toshkent. 2004.

7. Rahmonov R. G`ofurov Z. “Mustaqillik va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi”. “O`zbekiston”, Toshkent 1999.
8. Boboev X.B. taxriri ostida «Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi» T. 2003 y.
9. Toshqulov J.O`zbekiston xalqlari siyosiy-xuquqiy fikrlari tarixidan. T. 1996 y.
10. Avdiev «Qadimgi Sharq tarixi», M., 1965 y,

O`RTA ASRLARDA O`ZBEKISTONDA SIYOSIY VA HUQUQIY TA`LIMOTLAR.

REJA:

1. Islom siyosiy va huquqiy ta`limotining o`ziga xos tomonlari va yo`nalishlari.
2. Imom Buxoriy, Burxoniddin Marg`iloniylarning siyosiy va xuquqiy qarashlari.
3. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy va Ibn Sinoning siyosiy va xuquqiy qarashlari.
4. Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar.

Islom siyosiy va huquqiy ta`limotining o`ziga xos tomonlari va yo`nalishlari.

Islom dinining asoschisi Payg`ambar Muhammad ibn Abdullo (s.a.v.) 610 yilda dunyoda yangi islom dinini e`lon qildi va bu din tez orada dunyoga tarqaldi. O`rta Osiyoga-Turonga keyinchalik arablar Movarounnahr deb atagan bizning mamlakatimizga Islom VIII asrning boshida kirib keldi. Islomga qadar bu erda asosan Zardushtiylik dini va uning qonun-qoidalari, urf-odatlarini amal qilardi.

Islom o`zidan avval amalda bo`lgan urf-odatlar va qonun-qoidalarni siqib chiqardi. Ularning o`rniga o`zining qoidalarini o`rnatdi. «Birinchii hijriy asrda islom huquqi shakllana boshlab, ikkinchi va uchinchi hijriy asrlarda taraqqiyot bosqichlariga ko`tarildi. Hijriy ikkinchi asr boshlarida ilk huquqiy maktablar (mazhablar) yuzaga kela boshladi va yangi shakllangan islom jamiyati o`zining boshlang`ich huquqiy va qonuniy institutlari muassasalarini qurishga muvaffaq bo`ldi»

Islom va uning qonun-qoidalariga "qiziqish" hamma zamonlarda ham yuksak bo`lgan. O`zbekistonga islom dini, islom huquqi, turli mazhablar, aqidaviy oqimlar va

g'oyaviy yo'nalishlar Buxoro, Samarqand, Xorazm, Farg'ona, Surxandaryo, qashqadaryo hududlariga VIII asr boshida kirib keldi.

Islom qonunshunosligi, Islom huquqi O'zbekistonda, Buxaro, Samarqand kabi yirik shaharlarda tez suratlar bilan rivojlandi va o'ziga xos huququiy maktab yaratildi. Fiqh Islom huquqi dunyoda mashhur olimlar tomonidan o'rganildi. Majid Xadduriy, Xerbet J. Libes amerikalik va ularning kitoblarini «Islomda huquq» misol tariqasida ko'rsatish mumkin. O'zbek tarixchilaridan Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari, Rus olimlaridan V.V. Bartol'dning Turkiston tarixiga oid asarlari. Bizning mamlakatimizda bugun arab va fors tillaridagi manbalarni yaxshi bilgan olim Abdulhakim Shar'iy Juzjoniyning «Islom xuquqshunosligi» degan kitoblarini keltirish mumkin. Islom qur'on va Sunnaga ko'ra o'z qonunchiligi Shariatni rivojlantirar ekan ko'p jihatdan arablarda mavjud bo'lgan odat va qonunlarning ayrimlarini bekor qilish, taqiqlash va ayrimlarini esa qur'onda, Sunnada tasdiqlash yo'li bilan qonunlashtirdi. Islom qonunlarini avvalambor arab qabilalari xayotiga hamda yangi arab xalifaligi tasarufiga kiritilgan mamlakatlarda joriy qilishni amalga oshirdi. Samarqand shaxri bosib olingandan keyin (taxminan 712 y.) O'zbekiston arab halifaligining bir qismiga aylantiriladi. O'zni kelganda shuni aytib o'tish kerakki, arablar tomonidan O'rta Osiyoni bosib olish va uning xalqlarini Islomga kiritish jarayoni oson bo'lgan emas. O'zbekiston aholisi uzoq kurashlar va yurishlar natijasida islomni qabul qildi.

Islom qanchalik "mustahkam" bo'lmasin u ichki ziddiyatlar va qarama-qarshiliklardan holi emas edi. eng katta bo'linish bu Xavorij (xorijiyalar) va Shia oqimidagilarni ahli Sunna va jamoaga qarshi turganlari bo'ldi. Ichki tafovutlar islomda turli yo'nalishlar va maktablarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Shariat (islom qonunchiligi) «Shariat», «Sharia», «Shar» so'zlari suvga olib boradigan yo'l ma'nosida ishlatilgan». Shu boisdan arablar hozirga qadar shoh ko'chani (prospekt) «Ash-Shori» deb ataydilar. Demak shariat degani suvga olib boruvchi, hayotga etaklovchi, din yo'li, yorug' yo'l degan ma'noni anglatadi. Ahli shar' (shariat axdsh) deb esa mujtahid, qozi, faqih va muftiyalar nazarda tutiladi.

Shariat yagona bir tizimga, tasnifga erishmagan. Masalan, Sunniylar uni tashqi ko'rinishiga ko'ra uch qismga bo'lganlar: Ibodat (ibodatlar va ularga tegishli majburiyatlar); Muomalot (fuqarolik huquqi); Uqubat (jazolar). Shialar esa

quyidagicha tasniflaganlar: Ibadat, Uqud (ikki tomonlama shartnomali huquqiy muomalat), Iyqoot (Bitim bir tomonidan bo`ladigan huquqiy muomalat), Ahkom (boshqa huquqiy hukumlar). Usulil fikh ilmi asosida Shar`iy manbalarga asoslangan holda sunniylarda to`rtta mashab shakllandi va har biri o`ziga xos yo`nalishda rivojlandi.

Har bir masxab tarafdori o`z imomiga ergashgan holda harakat qilishi belgilandi. Ayrim faqihlar bunday qoidalarga itoat qilmasdan masxab doirasidan chiqib qur`on, Sunna va Sahobalar rivoyatlariga asoslangan holda erkin harakat qilishi ijtihod qilishni xohlaganlar, talab qilganlar. Bunday erkinlik Islom qonunchiligining rivojlanishiga, boyishiga va dunyodagi eng mukammal ishlangan qonunchilik tizimlaridan biriga aylanishiga ijobiy ta`sir etdi. Islom qonunchiligi fikxning rivojlanishida bizning Vatandoshlarimizning hissalarini ulkandir. Abu Mansur Moturudiy, Burhonuddin Marg`inoniy, Nasafiy, Bazdaviy, Dabusiy va boshqalar.

Sunniylar ta`limotiga ko`ra islom besh rukn (vazifani) o`z a`zolari oldiga majburiyat qilib qo`ygan.

1. Shahodat (Alloxning borligi va elchisining barhaqligiga guvohlik berish) kalimasi.

2. Namoz.

3. Ro`za.

4. Zakot.

5. Haj (imkoni bo`lsa).

Shariat ilmlari islom diniga tegishli bo`lgan ilmlarni o`rganadi ular:

Qiroat ilmi, tafsir ilmi, Hadis ilmi, fiqh ilmi, Kalom ilmlaridan iboratdir. qirog`ot ilmi qur`onni o`zgarishlardan himoya qilgan. VII-IX asrlarda «qur`on Sab`a» («etti qori»)lar tomonmdan turli xalqlarda qur`onning o`qilishini shevalarning to`g`ri yoki noto`g`ri ekanligini aniqlaganlar. qiroat ilmi eng kamida etti xilga bo`linadi. Bu to`g`rida islomda ko`p kitoblar bitilgandir.

[Tafsir ilmi avvalambor qur`onning oyatlarini tushuntirish, payg`ambar xadislarini arab tili grammatikasiga binoan tushuntirib berish kerak edi. Bizning mamlakatimizda Imom Buxoriy, Imom At-Termiziylar kabi Imomlarning bu sohadagi qilgan ishlari musulmon dunyosida maqtovlarga sazovor bo`lgan. Ibin Abbas,

Muhammad Baqirlar birinchi xadischilardan hisoblanadilar. qur`oni Karim bo`yicha juda ko`p tafsirlar yozilgan bo`lib, ularning eng mashhur bo`lgan tarixchi Muxammad ibn Jarir At-Tabariy qalamiga mansub «Tafsiri Tabariy» nomi bilan shuhrat qozongan «Jomi`ul-bayon fi tafsiril-Kur`on»dir.

Payg`ambar Muhammad (s.a.v.)ning so`zlari, amallari, tasdiqlari haqidagi ma`lumotlar xadis ilmidir. Mashhur Muhaddisslardan: Sahix, Al-Buxoriy, Saxih Al-Muslim, Jom` At-Termiziy, Abu Dovid, An-Nasoniy va ibn Mojallardir. Shulardan ikkita birinchilari Movorounnahrda qolgan to`rt nafari esa Xurosonlik xadischiardir.

Fiqh ilmi, islom huquqidan iborat bo`lib, qur`on, Sunna, Mjmo va qyos kabi manbalarga asosan shakllangan. Huquqshunoslar esa manbalarni Ijtihad² orqali o`rganganlar va xulosalar chiqarganlar. Ijtiqodga yo`l qo`yilishi esa islomda turli hukuqiy maktablarning va qarashlarning vujudga kelishiga olib kelgan. Fiqh ikki asosiy qismga "Usulul-fiqh" va "Furul`ul fiqh" ga bo`linadi. Kalom ilmi, ibn Xaldun fikriga ko`ra, iymonga tegishli masalalarni aqliy dalillar bilan isbotlash.

Islom huquqining manbalari. Dunyoviy davlatlarda huquq manbalari tabiiy huquqqa binoan davlat tomonidan o`rnatilgan qonunlar va qonun ostidagi aklardan iborat bo`lsa, islomda esa huquq avvalambor iloxiy manbaga ya`ni qur`on va Sunnaga asoslanadi. Bizning fikrimizcha tabiiy qonunlar iloxiy qonunlarga juda yaqindir. CHunki tabiiy qonunlar xam inson uchun birlamchidir.

^Qur`oni Karim 23 yil davomida (610-632 y.y.) Payg`ambar Xazrat Muhammad alayhissalomga Allox, tomonidan nozil qilingan iloxiy kitobdir. 114 sura, 6210 oyat, 77434 so`zdan iborat. Makka shahrida nozil bo`lgan suralarni Makkiy suralar (13 yil 95 sura) Madinada nozil bo`lgan (10 yil 19 sura) madinaiy suralar deb ataladi.

Ma`lumki qur`on oyatlari og`zaki aytilgan. Shu sababdan payg`ambarimiz hayotligida qur`on suralari odamlar tomonidan og`zaki yoddan aytilgan. U Hazrati Usmon xalifaligi yillarida Zayd ibn Sobit rahbarligidagi hay`at tomonidan yozma shaklga keltirilgan.

Hazrati Usmon xalifaligi davrida qaytadan islom dunyosi uchun qur`ondan nusxalar ko`chirilib yirik-yirik shaharlarga yuborildi. Undan ko`zlangan maqsad turli xalqlarda qur`onni o`qish bir xilda bo`lishligini ta`minlashdan iborat edi.

Qur`onning mo`jizaligi uning o`zida aqidaviy-g`oyaviy, qonun va ahloq qoidalarini (normalarini) o`zida mujassamlashtirishidir. Olimlarning fikriga ko`ra fiqhiy huquqiy masalalar bo`yicha qur`onda quyidagi oyatlar mavjud:

1. Haqquloh (amaliy ibodatlar) bo`yicha 140 oyat.
2. Shaxsiy huquq (oila, taloq, vasiyat...) 70 oyat.
3. Muomalot yoki fuqarolik xuquqi 70 oyat.
4. Jinoyat va jazo-30 oyat.
5. Sud va sud jarayoni-20 oyat.
6. Davlat va huquq sohasida esa- 3 oyat. Hammasi bo`lib, 333 ta oyat.

«Sunna» yo`l-yo`riq Payg`ambar so`zlari, fel`lari (amallarga) tasdiqlari, shuningdek sahobalarning so`zlari, amallari yig`indisidir. "Sizlar uchun ikki narsa qoldirdim, madomiki ularga amal qilib yursangizlar, hech qachon adashmaysizlar, ular Olohning kitobi va mening sunnatlarimdir"- degan edi Payg`ambar.

Payg`ambarga avvalambor hukmlar vahiy bo`lgan. Vahiy bo`lmagan taqdirda u ijthod asosida hukm qilgan. Albatta Payg`ambar va sahobalar ijthod qilishda Islom falsafasi va ta`limotlariga asoslanganlar. Hadis va hadisshunoslik tushunchasi xam mavjud hadis sunnaning asosiy qismini ya`ni Payg`ambarga tegishli qismini o`z ichiga oladi.

IJMO-kelishuv, ittifoq ma`nosini anglatadi. Huquqshunoslikdagi mashhur olimlarning u yoki bu masala bo`yicha bir qarorga kelishlaridir. Shulardan imomlarning fikrlari vahiy bo`lganligi sababli majburiydir.

Qiyos ya`ni solishtirish, qiyoslash orqali aniqlashga aytiladi.

To`rta huquqiy maktablar mavjuddir.

1. Hanafiylar masxabi Abu Hanifa (Iroq) asoschisi.
2. Molikiy mazxabi. Imomi Molik (Madina)
3. Shofi`iy mazhab. Imom Shofi`iy (Madina, Misr).
4. Hanbaliy mazhab. Axmad ibn Xanbal (qadimiy Makka maktabi asosida) tashkil topgan.

Islomda ikki oqim mavjud sunniylik va shialik oqimlari Hazrati Muxammad (s.a.v.) siyosatda, davlatchilikda katta ishlarni amalga oshirdi. Birinchidan, tarqoq arab qabilalarini Islom ta`limotlari asosida yagona davlat xalifalikka birlashtirdi.

Ularda yagona qonunchilikni ya'ni shariatni joriy etdi. Uning so'zlari, amallari qonun darajasiga ko'tarildi. Payg'ambar hayotligida davlatni idora qilish qiyin bo'lmadi. Uning vafotidan keyin hokimiyat tepasida kim bo'lishi kerak, degan siyosiy masalalarda turlicha qarashlar paydo bo'ldi. Bu esa turli siyosiy ta'limotlar, yo'nalishlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Abulhakim Shar'iy Juzjoniyning fikriga ko'ra davlat ishlari bo'yicha qur'onda atigi uchta oyat bor edi.

1. "Allohga, Payg'ambarga va amir egalarga (sizlarga hokim bo'lgan kishilarga) bo'ysuninglar".

2. "Va (ey Muhammad), ular bilan kengashib ish qiling".

3. "Ular o'zaro kengash asosida ish olib boradilar" (Sho'ro so'rasi, 38 oyat).

4. Shu mavzuga oid ikki xadis mavjud.

"Mening sahobalarim yulduzlar singaridurlar. Ulardan har biriga iqtido qilsangiz, izidan borsangiz, to'g'ri yo'ldan borgan bo'lursiz» va «Imomlar quraysh (qabilasi) dan bo'lurlar». Imomlar kimlardan bo'lishi aniq bo'lsada «ulul-amr» (amir egalari) davlat boshliqlari kimlar bo'lishligi masalasida aniqlik yo'q edi. Abu Bakr va Umarlar kengash asosida amr etib saylandilar. Umar Xalif Abu Lu'lu' ismli qul tomonidan pichoqlanadi. U vafot etmasdan sahobalardan o'zining o'rniga xalifa etib bir kishini saylashlarini so'raydi. Sahobalar Usmonni sayladilar. Usmon qattiqqo'l davlat boshlig'i bo'lmaganligi sababli boshqaruv ishlarida qarindoshchilik va tanish-bilishchilikka yo'l qo'yanligi sababli unga qarshi norozilik ko'chayadi. U o'ldiriladi. Undan keyin xalifa (imomni) tanlash murakkablashadi va quyidagi yo'nalishlar vujudga keladi.

1. Misr va Madina aholisi payg'ambarning amakivachasi Ali ibn Abu Tolibni ko'rsatishadi.

2. Basraliklar Payg'ambar safdoshi Talhani ko'rsatishdi.

3. Kufaliklar payg'ambarning xolasini o'g'li Zubayrni.

4. Shom (suriyaliklar) esa bo'lajak xalifa Usmon urug'idan bo'lishi tarafdori bo'ldilar.

Sunniylar ta'limotida imom bo'lish uchun to'rtta talab qo'yildi:

1. Shariatni yaxshi bilish va Ijtihod qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

2. Oliy axloq va yuksak fazilatli bo`lish.

3. Hokimiyat shartlari bo`yicha etarli ma`lumotlarga ega bo`lish hozirgi zamon tili bilan gapirganda boshqaruv san`atini yaxshi bilish; harbiy ishlarni bilish;

4. Quraysh naslidan bo`lish (ibn Xoldun bunga qarshi bo`lgan).

XX asr oxiri XXI boshlarida Islom dunyosida jiddiy xdrakatlar sodir bo`ldi. Aniqrog`i, islomni niqob qilib olgan turli oqimlar, ta`limotlar jonlandi. Masalan, Vahobiylar, xezbut tahrir bizning mamlakatlarimizda o`tish davrida avj oldi. 11 sentyabr' 2001 y. N'yuyorkda bo`lgan terroristik harakatidan keyin islomga bo`lgan «qiziqish» dunyoda yana oshdi. Ayniqsa terrorchilarning dunyoqarashi, maqsadi to`g`risida maqolalar chop etildi. Ularning eng ashaddiy terrorchilari Afg`oniston xududida to`plangan edi. Tolibonlar harakati hokimiyatni qo`lga olib, Al-qoida kabi o`ta urushqoq qo`poruvchi tashkilotlarga boshpana bergan edi.

Dunyo jamoatchiligi bunga qarshi birlashdi va ularga qarshi murosasiz yurishni boshlab yubordi. Bu kurashda AQSh davlati etakchilik qildi. Matbuotda global islom terrorchiligi kabi tariflar, tushunchalar paydo bo`ldi.

Indoneziyada «Jamoi islom», Falastinda "Xizbullax", dunyoga terrorchilikda nomi chiqqan «Al-qoida» uning etakchisi Belladin bo`ldi. Barcha demokratik, dunyoviy kuchlar, davlatlar bir tomonda bo`lib, Islomdagi terrorchi guruxlar, to`dalarga qarshi murosasiz kurashga kirishdilar. Bu o`rinda shuni aytish kerakki, jinoyat va jazo fani sohasidagi terrorchilik ta`rifi, tushunchasi bugun dunyoda sodir bo`layotgan global terrorchilar harakatining farqi bor.

XXI asr boshidagi terroristik harakat dunyoda yagona xalifalik davlatini tiklash, sof Islom va shariat qonun-qoidalarini o`rnatishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ydilar. Xalifalik tarafdorlari O`rta Osiyo, jumladan O`zbekistonda ham «Xizbut taxrir», «Islom harakati» kabi nomlar ostida yashirin varaqalar tarqatib, o`zlarining «ta`limotlari»ni omma orasida singdirmoqchi bo`ldilar. Ammo ko`pchilik xalq ularning chaqiriqlarini qabul qilmasdan ko`p jihatdan dunyoviy ta`limotlarga asoslangan davlat siyosatini qo`llab-quvvatladilar. Islomga azaliy traditsiya va odat qoidalariga binoan xurmat va e`htirom bilan yondashilmoqda. Islom niqobi ostidagi terrorchilar dunyo jamoatchiligi oldida islomni obro`sizlantirib, Evropa, Amerika

mamlakatlari xalqlari orasida uni "urushqoq» zo`rlikka asoslangan din ekan degan fikrlarni tug`ulishiga sababchi bo`ldilar.

Imom Buxoriy, Burxoniddin Marg`iloniylarning siyosiy va xuquqiy qarashlari.

Islom huquqshunosligini rivojlanishga ulkan hissa qo`shgan Imom faqiqlar ko`p bo`lganlar. Xadischilik sohasida Imom Buxoriy va at-Termiziylar kabilar bo`lgan Axmad yassaviy, Naqshbandiy, Kubro kabilar esa tasavvuf (so`fizm) ta`limotini rivojlantirdilar. Burxoniddin Marg`inoniy kabilar esa fikh ilmiga rivoj berdilar. Xanafiy mazhabi ta`limotlariga binoan Movarounnahrlik fakxlar islom huquqi sohasida ijod qilib, ko`plab kitoblarni yozib qoldirganlar.

Marg`inoniy «Al-Xidoya» (53 ta kitobdan iborat) eng mukammal ishlangan asar xisoblanadi. U ingliz, fors, rus kabi jahon xalqlari tillariga tarjima qilingan va bugun islom huquqini o`rganish bo`yicha asosiy manbalardan biridir. Imom Burxoniddin Abul-Xasan Ali Ibn Abu Bakr Ibn Abduljalil Al-Farg`oniy Al-Marg`inoniy 1123 yil Farg`onaning Rishton tumanida tug`ilgan. Xanafiy mazhabida buyuk fikh va mushtahid darajasiga ko`tarilgan, shayx ul-islom laqabiga sazovor bo`lgan olim edi. Uning o`g`illari ham olimlik darajasiga ko`tarilgan va kitoblar yozgan huquqshunoslar edi. Uning o`zi fikx, ilmini o`z otasidan xamda o`z zamonining etuk olimlaridan: Imom Bohovuddin Ali ibn Muhammad ibn Muhammad Ismoil Al-Asbijobiydan (vafoti 535 h.y.) (Asbijob Sayram shahridir), Abdulaziz Marg`inoniy Xasan ibn Mansur O`zgandiy, Mux,ammad ibn Ahmad An-Nasafiy va boshqalar. Marg`inoniy Farg`onada tug`ilgan bo`lsada uning faoliyati ko`pgina Sharq mamlakatlarida bo`lib, umrining oxirgi yillari Samarqand shahrida o`tadi. U 593 hijriy (1196-97 yy. milodiy) Samarqand shahrida vafot etgan. 400 dan ortiq Muhammad otli faqihlar dafn etilgan Muhammadiylar qabristoni («Turbat ul-Muhammadiyyin») yonida dafn etilgan.

Uning asarlari: «Nashrul-mazhab», «Kitobutanosikil-xos», «Kitob fil-fariz» (merosga tegishli), «At-tajnun-navozil» (ikki fatvolar majmuasi), "Muxtorotun-navozil", «Maziydun fi Furu`-il-Hanafiya», Imom At-Shayboniyning asari «Al-Jami` al-kabiy» ning sharhi, "Bidoyatul-Mubtadiy", «Al-Hidoya»ning qisqacha varianti «Bidoyatul-mubtadiy» kabilardir.

«Hidoya»da Islom huquqi Hanafiya mazhabi g`oyalari asosida bir tizimga keltirilgan. «Hidoya» avvalambor islom qonun-qoidalarining majmuasi bo`lsa, shu bilan bir vaqtda ko`plab tarixiy ma`lumotlar manbai hamdir. Masalan, Sahobalar va imomlar ismlari 50 dan ortiq, urug`lar nomlari 12 ta, jo`g`rofiy va tarixiy nomlar 55 ta.

«Hidoya» o`ziga xos juda qisqa, aniq va misollar yordamida huquq sohalari bayon etiladi. «Xidoya»ning birinchi qismi ilohiyotga-tahorat va amaliy ibodatlar (namoz, ro`za, zakot va haj)ga tegishlidir. Ikkinchi qismi esa oila xuquqi, qul saqlash huquqi, jinoyat va jazo, halqaro huquq, vaqf huquqi va boshqaruvlarga tegishlidir. «Hidoya»ning birinchi qismida ko`plab islomda mashhur bo`lgan sahobalar, imomlarning ismi (50 dan ortiq), urug`lar, tabaqalar nomlari (12 ta) tarixiy joylar (35 ta) ko`rsatilgan va ularning har biri to`g`risida ma`lumotlar berilgan. «Hidoya»ning yozilish uslubi haqida gapiradigan bo`lsak uning nihoyatda qisqa, masalalarning aynan mohiyatini amaliy misollarda boshqa mazxablar bilan qiyoslash orqali tushuntirilishi o`ziga xosligini belgilaydi.

Burhoniddin Marg`iloniy yozgan to`rt jiltdan iborat «Al-Hidoya» asari sunniylik yo`nalishida mukammal ishlangan hukuqiy bir to`plam bo`lib, unda 53 dan ortiq kitob bo`lib, meros huquqidan boshqa hamma huquqiy sohalarni o`zida mujasamlashtirgandir. Nima uchun meros huquqi kiritilmagan degan savolga kelganda mutaxassislarning fikriga ko`ra Imomi A`zam Abu xanifa meros munosabatlarini aloxida fan (Al-Fariz) deb atagan holda fikhdan mustaqil ravishda o`rganishni tavsiya etgan.

«Al-Hidoya»ning jaxon tillariga tarjima qilinishi va o`qilishi masalasiga kelganda shuni aytish lozimki, Olmoniyalik olim doktor ekart Shiyvak to`plagan ma`lumotlarga ko`ra, «Hidoya»ning arabcha asl matni 1818 y. (1234 h.y.) Kalkuttada, keyinchalik Bombeyda, so`ngra esa Laknu, Kavnpur, Dehlida nashr etildi. XIX asrda qoxirada va

Qozon shaharlarida ham chop etilgan. Qohirada uning tanqidiy nusxasi 1908 y.y. va 1980 y.y. nashr etildi. «Al-Xidoya»ning ruscha nashri N.I.Grodekov tomonidan inglizcha tarjimasidan 1893 yilda Toshkent shahrida nashr etildi. 1994 y. Professor A.Saidov tomonidan birinchi jildi takroran nashr etildi. Qolgan jildlari ustida bugun ishlanmoqda.

«Al-Hidoya» ning o`zbek tilida tarjimasi Saloxddin Muxiddinov rahbarligida 2000 y. Birinchi jildi tarjima qilindi va nashr etildi. Qolgan jildlari ustida bugun ishlanmoqda. Xulosa qilib shuni ta`kidlash joizki, Movaraunnaxr huquqiy maktabining etakchi olimi Burxoniddin Marg`inoniyning siyosiy va huquqiy qarashlari dunyodagi ko`pgina universitetlarda o`rganib kelinmoqda. U huquqiy soha adolatlilik va qonuniylikning yorqin timsoli sifatida doimo o`rganiladi.

Xalq ozodlik qarakati siyosiy va huquqiy qarashlari haqida.

Urta Osiyo xalqlari kadim zamonlardan mustaqillik uchun tashqi dushmanlarga qarshi kurashib kelganlar. YUqorida ko`rib chiqqanimizdek, ular ozodlik, mustaqillik yo`lida axmoniyalar, makedoniyaliklar, xitoyliklar, arablar, mo`g`ullar zulmiga qarshi katta tajriba yo`lini bosib o`tdilar. Ayniqsa, bu kurash arablar istilosiga qarshi kurash davrlarida ommaviy tus olib ketadi.

Arablar O`rta Osiyoni bosib olganlaridan keyin bu erlarda yashayotgan dehqonlar va hunarmandlarning yashash sharoitlari yanada og`irlashadi. Tarixiy ma`lumotlarga qaraganda arab bosqinchilari Buxoro shahrida yashayotgan aholining yarmini uy-joylarini tortib olib, arablarga berganlar. Ular O`zbekiston xududidagi juda ko`plab madaniy yodgorliklarni buzib tashlaganlar, o`t qo`yganlar.

Uzbekistoda "arab madaniyati" Arab xalifaligi davlati va musulmon huquqi shariat tizimi o`rnatiladi. Yirik er egalari-feodallar arablar tomoniga o`tib, o`rta hol dehqonlar erlarini tortib olib, kambag`al dehqonlar sonini ko`paytirmoqda edilar. Ular dehqonlarga o`z erlarini ishlash uchun ijaraga berib, yarmidan ko`p qism hosilni o`zlariga olar edilar. Bundan soliqlar (xiroj) miqdori tobora ko`paymoqda edi.

728 yilda arablar ko`proq mahalliy aholini islomga jalb qilish maqsadida ularni soliqlardan ozod qiladilar. Lekin xazinalari bo`shab qolganligi sababli ko`p o`tmay aholini yana soliqlarni to`lashga majbur qiladilar. yana zo`rlilik, terror ko`payib ketadi.

Bundan g`azablangan Buxoro, Samarqand, Farg`ona, Xorazm xalqlari tinimsiz ravishda ularga qarshi kurash olib boradilar. Tabariy 721-723 yillarda bo`lib o`tgan qo`zg`olonlar vaqtida arablarning Xo`jand atrofidagi vahshiyliklarini xikoya qilib aytadiki, juda ko`p dehqonlarning bo`yinlariga arab hukmdorlarining tamg`asi bosilgan edi.

Shunday qilib, O`zbekistondagi yirik er egalari, va maxalliy boylar, zodagonlar keyinchalik arablar bilan qo`shilib ketishib, kambag`al dehqonlar, hunarmandlarni shafvqatsiz ekspluatatsiya qila boshladilar. Bu o`rinda islom siyosiy g`oyalarini va arablar hukmdorligini O`zbekistonda o`rnatirilishi juda katta rol` o`ynaydi. Islom siyosiy ta`limotlari o`zidan oldin O`zbekistonda mavjud bo`lgan barcha g`oyalarni, urf-odat normalarini "kofirlar axloqi" deya man qilib, eski qonunlar o`rniga shariat qonunlarini o`rnatdi. Masjid va madrasalarda muqaddas qur`on, xadis kabi kitoblarni va unga moslangan g`oya va urf-odatlarni qat`iy joriy qildilar. erkin fikr qilgan barcha mutafakkirlar quvg`in qilinib, ta`qib ostiga olinadilar.

Arab tili, mahalliy axoliga notanish va begona til, davlat idora tiliga, madrasa va machitlarda namoz o`qish, imomlarning qur`on suralarini sharxdash tiliga aylanadi. Shunday qilib, arablar O`zbekiston xalqlarini iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy jihatdan tobe qilishga harakat qildilar. Ammo shuni aytish kerakki, arablar qanchalik terrorlik siyosatini o`rnatmasinlar va machit, madrasalarda qanchalik siyosiy tashviqot qilmasinlar og`ir turmush kechirayotgan ommaning kurashiga barham bera olmadilar, shaharlarda, qishloqlarda musulmonlar bilan bir qatorda islomga qarshi kurashuvchilar soni ham kam emas edi.

Islom qanchalik yakka xudolikni targ`ib qilmasin, uning qonunlari abadiy, adolatli deb uqtirmasin, biroq uning ichidagi ziddiyat (turli tarmoqlar, oqimlar o`rtasidagi kurash) va nihoyat bosib olingan mamlakatlar xalklarining olib borgan kurashlari arab xalifaligining ham abadiy emasligini ko`rsatdi. So`g`d xalqi xalifalikka qarshi kurash, keyinchalik hokimiyatni qo`lga olgan Abdusaidlar harakatiga katta umid bog`lagan edilar. Ular Adbusaidlarni davlat tepasiga kelishlarini yoqlab, ulardan ozodlik kutgan edilar.

Abdusaid davlati ham xalq umidlarini ro`yobga chiqarmadi. Ular meqnatkashlarga bergan birorta xam va`dalarini bajara olmadilar. Aksincha,

ekspluatatsiya darajasini yanada oshirishga, dehqonlar hayotini og'irlashishiga sabab bo'ldilar. Natijada O'zbekistonda tarix saxifasidan joy olgan yirik qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Masalan, Buxoroda 133 xijriy (750-751) yili hali Omedlar harakatini bostirmasdan turib, Abdusaidlarga qarshi katta qo'zg'olon ko'tariladi. qo'zg'olonchilarga Sherik ibn Sheyx al-Maxri raxbarlik qiladi. Uning tarafdorlari Samarqandda ham bo'ladi.

755 yilda Abu Muslimning o'limidan keyin Sumbod rahbarligidagi qo'zg'olonchilar Nishopur, Rey kabi shaxarlarda hokimiyatni ko'lga kiritdilar. Lekin u rahbarlik qilgan qo'zg'olon atigi 70 kun davom etib, o'zi bilan 600 askari ham qirib tashlanadi. Zolim shohlar, ruhoniylar tomonidan olib borilgan terrorchilik siyosati qanchalik rahmsizlik bilan amalga oshirilgan bo'lmasin, ozodlik, tenglik uchun bo'lgan harakatlarni bostira olmadi. Aksincha, xukmdorlarning shafqatsizligidan g'azablangan xalqning sabr kosasi to'lmoqda edi. Sherik va Sumbodga o'xshaganlar mazlumlarning feodallarga qarshi kurash tarixiga o'chmas izlar qoldirib, keyingi avlodlarini kurashga chaqirdilar natijada sunbodchilar qarakatidan so'ng Muqanna g'oyalari ostida birlashgan "Oq kiyimli kishilar" deb nom chiqargan qo'zg'olonchilar harakati O'zbekistonda keng tus oladi.

Muqannachilar harakati Movarounnahrning markaziy qismlarida, shuningdek, Zarafshon, Kesh, Samarqand, Shosh kabi qator viloyatlarda ham keng tarqaladi. Ma'lumki, arab bosqinchilariga hamda mahalliy feodallarga qarshi barcha qo'zg'olonlarda mazdakiylar harakati va ularning siyosiy ta'limotlari muhim rol' o'ynadi. VI asrda eronda bo'lib o'tgan mazdakiylar qo'zg'oloni eron davlatiga juda katta xvf solgan edi. Mazdak g'oyalari esa eron xududidan uzoqlarda hatto O'rta Osiyo xalqlari orasida ham keng quloq yoyib tarqalgan edi. Xusrov Anishrvon (531-579) hukmronlik qilgan yillarda mazdakiylar qo'zg'oloni shafqatsizlik bilan bostiriladi, qo'zg'olon rahbarining o'zi o'ldiriladi. Ammo Mazdak g'oyalari uning o'limidan keyin yanada kuchliroq, qudratliroq tus oladi. Tarixiy manbalarda, adabiyotlarda aytilishicha, Mazdakning beva qolgan xotini Xurrama Ray shahriga qochib borib, uning g'oyalarini keng tashviqot qiladi. Bu to'g'rida Nizom Al-Mulk o'zining "Siyosatnoma" degan kitobida ham xikoya qiladi. Mazdak tarafdorlari

Movarounnaxr va boshqa rayonlarga junab ketishadi va u erlarda Mazdak g`oyalarini tashviqot qila boshlaydilar.

Ash-Shahristoniy o`zining "Kitob al-milal' vam nixal" asarida al Varrakka ismli tarixchi fikriga asoslangan holda mazdakiylar ta`limoti xaqida yozadi. Samarqandda Mazdak ta`limotlari ta`sirida keyinchalik O`zbekiston xududida "Oq kiyimli kishilar" deb nomlangan xalq harakati maydonga keladi. O`zbekistonda "Oq kiyimli kishilar" harakati taxminan VIII asrlardan boshlab harakat qila boshlaydi. Mazdak g`oyalari Urta Osiyoda qadimdan mavjud bo`lgan udumlarga asoslangan holda arab bosqinchilariga qarshi muxolif shaklida rivojlanadi. Movarounnahrda mazdakchilar "Zindik" atamasi bilan ham nomlangan edilar. "Zindik" atamasi avvalda zoostriзм dinda buddistlarga nisbatan qo`llanilgan bo`lib, keyinchalik esa mazdakchilar ("Oq kiyimli kishilar") harakatlariga nisbatan ham ishlatilgan. A.YU.yakubovskiyning fikricha VII va IX asrlarda Xuroson, Movarounnahrda va eronda mazdakchilar "Xurremdinlar", "Xurremitlar",

"Muxammirlar" va "Surxalomlar" nomlari bilan nomlanganlar. Bu erda A.YU.yakubovskiy juda qiziq bir masalani qo`yadi. Uning taxminicha oxirgi ikki nom, ya`ni "Muhammir"- arabcha atama bo`lib, "qizil libosga kiyingan" va "Surxalem" forscha atama bo`lib, "qizil bayroqlar" ma`nolarini bildirishi bejiz bo`lmagan, albatta. O`sha vaqtlardayoq qo`zg`olonchilarning kurash simvoli sifatida bayroqning rangi bo`lgan qizil rang tanlagan. Bu qo`zg`olonchilar bayrog`ining rangi bo`lib, qo`zg`olonchilar ozodlik uchun qon to`kishga, hatto o`z hayotlarini qur`bon qilishga ham tayyor bo`lganlar.

Mukanna va uning tarafdorlari "Oq kiyimli kishilar"ning siyosiy talablarini, g`oyalarini o`rganishdan avval ularning dunyoqarashlarini shakllanishiga yordam bergan mazdakchilar dunyoqarashi, siyosiy ta`limotlari bilan qisqacha tanishib chikishimiz maqsadga muvofiqdir.

Mazdakchilar dunyoni tushunishda, asosan, manixeylarga juda yaqin turadilar. Lekin ba`zi masalalarni tushunishda ularni ta`limotlari manixeylik ta`limotlaridan farq qiladi. Masalaning ana shu tomoniga Ash-Shahristoniy ko`proq e`tibor beradi. Mazdak aytadiki, "nur" yorug`lik bo`lib, bu barcha borliqning asosini tashkil qilgan asoslardan biridir. U maqsad tomon harakat qilishda erkindir. "Zulmat" esa dunyoning

ikkinchi asoslaridan biri bo`lib, xayotda ko`r-ko`rona tasodifga ko`ra harakat qiladi. "Nur" bu bilim va sezgining asosida yotsa, "zulmat" bu bilimsizlik va ichki dunyoning ko`rligiga asoslanadi. Mazdak ta`limotiga ko`ra "nur" bilan "zulmat"ni aralashuvi esa rejali ozod va erkin harakatga to`squinlik qiladi. Boshqacha qilib aytganda, agar inson zulmatga, ya`ni "yomonlikka" qo`l ursal u holda maqsad tomon intilishda ozod erkdan, rejali harakatdan mahrum bo`ladi. Shunday qilib, Mazdakning ta`limotiga ko`ra dunyoning asosida "nur" va "zulmat" yotadi. Nur bu yaxshilik, tinchlik, ozodlik bo`lsa, "zulmat" bu yomonlik, shafqatsizlik, urushlar, qirg`inlar va barcha jabr sitamlar asosini tashkil qiladi, degan ta`limotni ilgari suradi. Mazdak va uning tarafdorlarining bu fikrlari "Avesto" dagi g`oyalarga o`xshab ketadi.

Mazdakning fikricha, odamlar bir-biriga dushmanlik, josuslik, xoinlik qilmasliklari kerak. U kishilik jamiyatida sodir bo`layotgan barcha yomonliklarning asosini mulk tashkil qiladi deb hisoblaydi va jamiyatda mulk shaxsiy bo`lmasdan, balki umumiy bo`lishi kerak. Odamlar suv, havo, o`tdan umumiy tarzda foydalanganlaridek, mulkdan ham umumiy foydalanishlari lozim. ana shundagina yomonlikka chek qo`yish mumkin deb hisoblaydi. Mazdak: ta`limotlarida shu narsa xarakterliki, u sotsial tenglikni yoqlab chiqib, kelajakda unga erishishning birdan-bir yo`li kurash bo`lib, hukmdrlardan, feodallardan, boylar va ruhoniylardan hokimiyatni ko`lga zo`rlik, qo`zg`olon yo`li bilangina olish mumkin deb xisoblaydi.

Mazdakning g`oyalari chuqur ildiz otib, xalqlar orasida keng rivojlanadi. Uni yangi bosqichga ko`targan va rivojlantirgan esa Muqanna bo`ldi.

Kaza qishlog`i (Mari shahri yaqinida) dan chiqqan Muqannaning asl ismi haqida ikki xil firk mavjud. Narshohiy va Beruniy uni Hoshim ibn Hakim deb atagan bo`lsalar, Al-YOqubi esa Hakim Al-A`var (bir ko`zli) deb ataydi. Narshohiyning aytishicha, Muqanna yoshlik yillarida kir yuvuvchi va xizmatkor bo`lgan. U yoshlik yillaridan boshlab ilmga ancha qiziqqan va arab, fors, kabi tillarni o`rgangan. Ma`lumki, Narshohiy feodallarning targ`ibotchisi bo`lgani sababli Muqannani ko`rolmasdan yozadiki, u boshqa ilmlar bilan birga avrash (sehrgarlik) ilmini ham o`rgangan. Uning otasi esa amir armiyasida kichik bir mulozim vazifasida xizmat qilgan.

Al-Mamur shohlik qilgan davrda Muqanna zindonga tashlanadi. U Bag`dod shahridagi zindondan qochib, Marv shahriga keladi. Ana shu vaqtdan boshlab u yana kurashga otlanadi. 776 yil esa muqannachilar xarakatining boshlanishi hisoblanadi.

Muqanna o`z vataniga qaytganidan keyin arablar hukmdorligiga va mahalliy feodallar zulmiga qarshi harakatlarni yanada rivojlantirib, birinchi navbatda ko`plab shahar va qishloqlarga o`zining xatlarini hamda murojaatnomalarini yuboradi. Bu o`rinda shu narsa xarakterliki, Muqanna o`zining ijtimoiy-siyosiy g`oyalari ilohiy kuch berish va bu g`oyalarning ko`proq ishonchli bo`lishi uchun diniy qarashlardan ustalik bilan foylanangan. U odamlarga o`zini xudoning vakili, payg`ambar deb e`lon qiladi. U aytadiki, agar xalq oldmdan Odamoto, Ibrohim, Muso, Iso va nihoyat Muhammad. Abu Muslimlarni payg`ambar degan bo`lsa, endilikda uni payg`ambar deb atash kerak. Uning fikricha, endi u podshoxlarning podshosi. Shuning uchun qadrat, kuch, mashhurlik endilikda Muqannadir. Agarda kimda-kim unga qo`shilsa, ergashsa u jannatiy bo`ladi va aksincha kimda-kim uning tarafiga o`tmasa u do`zax o`tida kuyadi. Muqanna ana shunday so`zlar yozilgan xatlarini qishloq va viloyatlarga jo`natadi.

Xuroson Amirining kuchi katta bo`lganligi sababli Mari atrofida qo`zg`olon qilish og`ir va xatarli edi. Shuning uchun ham Muqanna harakat markazini Amudaryoning narigi sohiliga Zarafshon va Marokanda atrofiga ko`chiradi. Kashqadaryo esa uning markaziga aylanadi.

Nirshohiyning fikriga ko`ra, Muqanna o`zinnig eng yaqin kishilaridan biri Abdulla ibn Amir ismli shaxsni Amudaryodan o`tkazib yuboradi. Abdulla ibn Amir Kashqadaryo viloyatida paydo bo`lib, Nasaf (hozirgi Karshi yaqinida) dehqonlar, shaharli hunarmandlar o`rtasida katta obro`-e`tibor qozonadi va tashviqot ishlarini rivojlantirib yuboradi. Natijada Nasaf, Kesh (Shaxrisabz) kabi shaharlarda Muqanna tarafdorlari ko`payib ketadi. Kesh shahriga yaqin bo`lgan Subax qishlog`i aholisi birinchi bo`lib o`zlarini to`la Muqanna tomoniga o`tganliklarini bildirishadi va qo`zg`olon ko`tarib arablardan bo`lgan amirni (hokimni) o`ldirishadi. Shu tariqa qo`zg`olonchilar soni kun sayin, soat sayin tez sur`atlar bilan rivojlanib, Zarafshon, Buxoro viloyatlarida ommaviy tus oladi, Buxoro atrofi qo`zg`olonchilarning asosiy markazlaridan biriga aylanadi. Hatto Buxoro hokimi islom dinidan voz kechib,

Buxoroning mustaqilligini ta'minlash maqsadida qo'zg'olonchilarni yoqlab chiqadi. qo'zg'olonlar muvaffaqiyatli o'tayotgan yillarni Nirshohiy[^] so'g'd musulmonlari uchun eng ogir va murakkab davr bo'lgan deb x, isoblaydi. qo'zg'olonchilar shax, ar va qishloqlarda arab xalifaligi tomonidan ta'minlangan hokimlarni o'ldirib, ularning erlarini, mulklarini tortib oladilar.

Qo'zg'olonchilarning birinchi navbatdagi maqsadlari, albatta, arab hukmdorlariga, bosqinchilarga qaratilgan edi. Shuning uchun qo'zg'olon antiarab xarakterida bo'lganligiga hech shubha yo'q. Mahalliy zodogonlar esa arablar tomoniga o'tib ketgan edilar. Demak, qo'zg'olonchilar arablar bilan bir vaqtda ularning malaylari bo'lgan maxalliy boylar, rux, oniy larga ham qarshi kurashmoqda edilar. Arab xalifaligining boshlig'i Al-Mahdi (775-785) Sug'ddagi voqealardan nixoyatda tashvishga tushib qolgan edi. U

Qo'zg'olonlarga qarshi keskin chora ko'rilmasa, kelajakda So'g'dda xalifalik tugatilishiga va Buxoro, Samarqand kabi islom dinining markaziga aylangan shaxarlardan ham islom g'oyalari tugatilib, u erlarda ham Muqanna g'oyalari tantana qilishni tushunib etadi.

Al-Mahdi 778 yilda Ma'az ibn Muslimni Xurosonga noib qilib tayinladi. U ko'p sonli otliq va piyoda askar to'plab, bir qismini qo'zg'olonni bostirishga yuboradi, bir qismini esa o'zi bilan birga Nishopur shahriga olib ketadi. U Nishopurdan turib qo'zg'olonni bostirishni o'z zimmasiga oladi. Muqanna xalif Al-Maxdining yovuz niyatlarini tushunib, qo'shni turklarga yordam so'rab murojaat qiladi.

"Oq kiyimli kishilar" o'z harakatlarini Buxoro viloyatida kuchaytirib yuboradilar. Bu viloyatda qo'zg'olonchilarga rahbarlik qilgan va Muqanna tarafdori bo'lgan kishining ismi Xakim ibn Axmad edi. Narshohiy o'z asarida uning uch o'rinbosarlarini ismlarini ham keltiradi: Xashari yoki Xishri, Bog'i Gurdak (g'ijduvonlik). Narshohiy dehqonlar tarafini yoqlab chiqqan bu qo'zg'olonchilar raxbarlarini haqoratlab, ular ayyorlar, kambag'allar deydi. qo'zg'olonchilar Buxoroni bosib ololmaydilar.

Qo'zg'olonchilar qal'aga aylantirgan Narshoh qishlog'i mustahkam yaxshi devorlar bilan himoyalangan edi (Buxoro tarixini yozgan avtor Narshohiy ham shu qishloqdan edi). Qishloqning hokimi xotin kishi bo'lib, uning eri Sharaf Abu Muslim

davrida sarxang bo`lib xizmat qilgan edi. Noma`lum sabablarga ko`ra Abu Muslim uni o`ldiradi. Abusaidlar hokimiyatidan qattiq ranjigan o`ldirilgan sarxangning xotini esa qo`zg`olonchilarni yoqlab, arablarga qarshi chiqadi. Bu holdan tashvishlangan Buxoro hokimi qo`zg`olonni tezroq bostirmasa yaqin kunlar ichida bu qo`zg`olon Buxoroga ham yoyilib ketadi degan tashvishda ularga qarshi armiya yuboradi. Buxoro qo`zg`olonchilari o`z qal`alarida qanchalik qahramonlik ko`rsatib kurashmasinlar ular armiyaga bas kela olmadilar. Natijada qo`zg`olon shafqatsizlik bilan bostiriladi. Ulardan 700 dan oshiq kishi qurbon berib, chekinishga majbur bo`ladi.

Al-Maxdi Jabroil ibn yahyo ismli shaxsni qo`shinga qo`mondon etib tayinlaydi va uni Buxoroga yuboradi. Jabroil to`rt oy davomida Narshoh qal`asini qurshab turadi. So`ngra unga o`t qo`yib, qo`zg`olonchilarni o`ldiradi.

Qishloq hokimi bo`lgan ayolni esa ikki bo`lib tashlashga farmon beradi. Narshoh qal`asining tor-mor etilishi qo`zg`olonchilar uchun juda katta talofot edi. Ammo hali hal qiluvchi kurash oldinda edi. Ular xalifaning ko`p sonli, yaxshi qurollangan armiyasi bilan uchrashish uchun kurashga otlanmoqda edilar.

Feodal hukmdorlar ham qo`zg`olonchilarga qarshi kurash uchun tayyorgarlikni boshlab yuboradilar. Mamlakat ikki katta lagerga aylanadi. Bir tomonda o`z ozodligi, tengligini talab qiluvchi dehqonlar, barcha mazlum xalq arablarga va feodal hukmdorlarga qarshi kurashga tayyorlansa, ikkinchi tomonda esa Buxoro, Samarqand hokimlari barcha musulmonlarni qo`zg`olonchilarga qarshi chiqishga chaqiradi va ular ko`p sonli armiya to`play boshlaydilar. Arab hokimlari Muqanna qal`asini qamal qiladilar. Kuchlar nisbatan teng bo`lmaganligi sababli qo`zg`olonchilar mudofaaga o`tadilar. 3000 otliq ustalar devor buzuvchi turli texnika, qurollarini yasash uchun to`planadilar.

Ko`zg`olonchilarga yordamlashayotgan turklar tez-tez dushman lagerlariga to`satdan xujum qilib, ularni sarosimaga solib qo`yar va ularning molu mulklarini talon-taroj etar edilar. Masalan, Xirotdan Amir Said 10000 qo`yni armiyaga oziq-ovqat sifatida yuborganda, turklar Zarafshon daryosining chap soxilida to`satdan hujum qilib, qo`ylarni o`lja sifatida o`zlari bilan olib ketadilar. Bu xodisalardan xavotirlangan xalif Al-Maxdi Buxoro, Samarqand hokimlarini o`zgartirib, ularning o`rniga boshqalarini tayinlaydi. Dushman juda katta kuch bilan qo`zg`olonchilar

qal`asini qamal qiladi. Qamal Narshohiyning fikriga ko`ra, 14 yil davom etgan. Xalif armiyasining boshlig`i Muqanna qal`asini yaqin yillar ichida olib bo`lmasligiga ko`zi etganidan keyin uning atrofiga harbiy lager qurishni buyuradi.

Muqannaning oxirgi yillardagi hayoti haqida bizgacha hech qanday ma`lumotlar etib kelmagan. Uning o`limi to`g`risida adabiyotlarda turli qarama-qarshi fikrlar mavjud. Tabariyning aytishicha, u zahar ichib o`lgan bo`lsa, Al-Mahdining fikriga ko`ra, musulmonlar uni o`ldirib, boshini xalifga Al-Mahdiga olib borib ko`rsatganlar. Narshohiyning fikricha u o`zini quydirgan. Narshohiyning aytishicha, Muqannaning o`lgan kuni 166 hijriy (782-783) yil bo`lsa, Beruniyning fikricha, 169 hijriy (785-786) yil. Beruniy "Oq kiyimli kishilar"ga juda yukori baho beradi. U aytadiki, Kesh va Naxshab viloyatlarida XII asrlargacha Muqanna tarafdorlari zulmkorlarga qarshi kurashib keldilar va ular ozodlik, mustaqillik uchun olib borilgan kurash tarixida o`zlarining o`chmas izlarini qoldirdilar. Darhaqiqat, O`zbekiston siyosiy ta`limotlar tarixida Muqanna va uning tarafdorlari "Oq kiyimli kishilar" harakati juda katta ommaviy tus olgan arablarga va maxalliy zodagonlarga qarshi qaratilgan harakat bo`lib, islom dini va uning qonun-qoidalarini niqob qilib olgan mahalliy xalqlarni talaganlarga qarshi qaratilgan ozodlik uchun olib borilgan kurash edi.

Muqanna va uning tarafdorlari O`zbekistonda mazdakchilar siyosiy ta`limotlarini yanada rivojlantirib, ozdlik uchun tashqi dushmanlarga qarshi kurash olib bordilar. Muqanna tarafdorlari o`z siyosiy qarashlarida arablar, maxalliy boylar va islom dinining din arboblariidan jabrlangan mazlum xalq manfaatini birinchi bor ko`tarib chiqqan va dushmanlarni sarosimaga solib, ularga katta talofatlar etkazgan kurashchilar bo`ldilar.

Muqanna va uning tarafdorlarining harakatlari garchi mag`lubiyatga uchragan bo`lsa, u Abbosiylarga qarshi qo`zg`olonga qo`tarilgan xalq qudratini namoyish qildi va yoshlarni Vatan mustaqilligi ruhida tarbiyalashda o`z hissasini qo`shdi.

Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy va Ibn Sinoning siyosiy va xuquqiy ta'limotlari.

Abu Nasir Muxammad ibn Muxammad Farobiy (870-950) ilk o'rta asr uyg'onish davrining buyuk namoyondasi, qomusiy ilm sohibidir. U O'tror yaqinidagi Farob qishlog'ida tavallud topgan. Uning avlodlari qipchoq turk qavmidan edi. Farobiy juda ko'p fanlar soxasida ilg'or g'oyalarni asoslab bergani uchun unga «ikkinchi muallim» "muallimi soniy" (Arastu birinchi muallim) muallimi avval degan faxriy nom berilgan edi.

Davrning siyosiy va huquqiy qarashlari chuqur taxlil qilib, o'zining ijtimoiy siyosiy qarashlarini to'la asoslab bergan Farobiy Bag'dodlik olimlarning eng peshqadami edi. U musiqadan tortib Astronomiyagacha ko'plab fanlar sohasida kitoblar yaratib qoldirdi. Ayrim manbalarga ko'ra u arab, fors, yunon kabi o'nlab tillarda gapira olgan va yoza olgan. U mashhur tarjimon Abu Bashar Matta bilan xamkorlik qilib turgan.

Farobiy Movaraunnahrning ko'plab ilmiy va madaniy markazlarida bo'lgan, ijod kildi manbalardan shu narsa aniqki, u O'tror, Talas, Shosh, Samarqand, Buxoro, Xiva, Marv, Qobul, g'azna, Xirot, Bog'dod, Halem, Damashq shaxarlarida bo'lgan.

Farobiy avvalambor, faylasuf olim edi. Ratsionalistik dunyoqarashga ega bo'lgan Farobiy shunday yozgan edi: «Falsafani o'rganishdan oldin tabiat haqidagi bilimlarni o'rganish kerak. CHunki tabiat haqidagi bilimlar odamlarga juda yaqin va tushunarli, chunki inson tabiat bilan birgadir».

Farobiy yunon mutafakkirlarining ijodini qunt bilan o'rgandi, uning ko'plab asarlariga sharxlar yozdi. Arastu va Aflotun ijodlaridagi mushtarak tomonlarni topishga intildi.

Farobiy Arastuning «Metafizika», «Fizika» asarlariga hamda uning mantiqqa bag'ishlangan asarlariga, Ptolomeyning asarlariga ilmiy sharhlar yozdi. Farobiyning «Ikki faylasuf Arastu va Aflotunning yaxlit fikrlari haqidagi kitob», «Arastu bilan Talen o'rtasidagi vositachilik», «Falsafa manbalari», «Aql xaqida traktat», «Falsafani o'rganguncha nimani o'rganmok kerak?», «Substantsiya», «Davlat xaqidagi traktat» kabi asarlarini alohida ko'rsatib o'tish kerak.

Farobiyning inson va jamiyat, ularning oʻzaro taʼsiri, davlat, siyosat, urush va tinchlik kabi masalalariga bagʻishlangan asarlari sirasiga «Fozil odamlar shaxri» haqida kitob «Baxt saodatga erishish» haqida risola, «Fuqarolik siyosati», «Jamiyatni oʻrganish haqida», «Urush va tinch-totuv yashash haqida», «Davlat arboblari haqida hikmatlar» nomli asralarida inson, jamiyat, siyosat, adolat, odob-axloq, taʼlim-tarbiya toʻgʻrisidagi fikrlari bayon etilgan.

Farobiyning chuqur falsafiy kuzatishlariga eʼtibor bersak, unda insonni faol harakatda, yaratishda boʻlishi va uni tabiat bilan munosabatiga eʼtibor bergan. Jamiyat va inson yagonadir, jamiyat va davlat taraqqiyotini insonlar faoliyatisiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Jamiyatning kelib chiqishi va uning mohiyatini oʻrganuvchi maxsus fan zarurligini Farobiy chuqur xis qiladi. Jamiyatni oʻrganish insonni oʻrganish demakdir. Odamlar rivojlanishlari va yaxshiroq yashashlari uchun ular jamoaga birlashishga, majbur boʻladilar. Shu tariqa jamiyat zaruriyat taqdiri bilan vujudga keladi. Jamiyat oʻz qonunlari asosida rivojlana boshlaydi.

Farobiyning uqdirishicha, inson ijtimoiy mavjudotdir. U tabiiy ravishda boshqa odamlar bilan oʻzaro munosabatga kirishga intiladi, natijada ijtimoiy faoliyat vujudga keladi. Jamiyat odamlarni birlashtirishi va ularga baxt-sodat bagʻishlashi kerak. «Fozil odamlar shahri» nomli asarda davlat boshligʻining fazilatlarini belgilab beriladi. Davlatni boshqaruvchi kishi sogʻlom, jasur, aqlli va maʼrifatparvar, adolatparvar boʻlishi, kishilar bilan muomala qilish, sanʼatini chuqur bilishi va unga amal qilishi zarur.

Farobiy fikricha, yaxshilik va ezgulik, ilm-maʼrifat va nodonlik, yovuzlik va joxillikka asoslangan shahar boʻladi. U shahar davlatlari toʻgʻrisida yozadi.

- 1) Al. Madina al Fozila;
- 2) Al Madina al Joxiliya.

Axolining tinch-totuv yashashiga, farovon turmush kechirishini taʼminlab beruvchi davlatni ideal deb atash mumkin. Fuqarolar va shahar-davlat maxkamalarining oʻzaro yordam va hamkorlikda yashashlari barcha muvaffaqiyatlarning bosh omilidir. Davlatni boshqarish ham inson tanasida kechiruvchi jarayonlarini esalatadi. Tananing barcha aʼzolari biri-biri bilan mahkam

bog`langanligi singari barcha odamlar bir-birlari bilan va davlat bilan mana shunday maxkam bog`langandirlar.

Farobiy Al-Madina, Al-Joxiliya davlatlarini tahlil etar ekan, bunday davlatlarda inson xuquqlari poymol etiladi, odamlar qullikka solinadi, deb ko`rsatadi. Ma`lumki Farobiy o`zining ustozini deb bilgan Arastu o`z asarlarida qullikka tabiiy bir xol deb qaragan edi. Ammo Farobiy esa qullikni razolat deb ataydi. qullik bor joyda farovonlik yo`q.

Davlatni boshqaruvchidan juda ko`p fazilatlar talab qilindi. Jamoa boshlig`i mulohazali, halol, kamtar, haqiqatparvar, donishmand bo`lishi kerak. Jamoa boshlig`i odamlarga to`g`ri yo`l ko`rsatuvchi murabbiydir. Ideal dastlabki yo`l payg`ambarlar, yo`l faylasuf, yoki bo`lmasa yuksak fazilatlarga ega bo`lgan boshqarishi zarur payg`ambarlar haqiqatni vahiy orqali o`rgansalar va bilib olsalar, faylasuflar haqiqatni aql-idrok orqali oladilar va o`rgatadilar. Davlat boshlig`i bir qator tug`ma fazilatlarga ham ega bo`lishi kerak. Jumladan, uning tani sog`, jismining a`zolari butun, tiniq fikrli balog`at sohibi bo`lib, har narsani ochiq idora eta bilishi shart.

Farobiy jamiyatni boshqarishda rahbarda boshqarish mahorati shakllangan bo`lishi kerak deb uktiradi. Boshqarish mahoratining eng muxim omillari Farobiyning fikricha quyidagilar:

- 1) Hukm va ruh sog`lig`i.
- 2) O`zidan avval o`tganlarning qonun va usullarini yaxshi bilish va foydalanish
- 3) eskilarning tajriba va qonunlaridan yangi hukmlar chiqarmoq.
- 4) O`zi idora qilayotgan shaharning manfaatlarini qo`riqlamoq uchun isbotli qarorlar chiqarmoq.
- 5) CHiqargan hukmlarni va ijara uchun mo`ljallangan usullarni xalqning shuuriga (ongiga) joylashtirmoq uchun ta`limga ahamiyat bermoq.
- 6) Urushda (himoyachi) tayyor turmoq.

Farobiy qarashlarinnig asosiy tamoyili bu adolatparvarlikdir. Ideal shaharda ham adolat hamma narsadan ustun: hammaning tengligi, hamkorligi va axilligi mana shu davlatni asosiy tayanchi va kelajak ravnaqidir. Farobiy Sharqda birinchilar katorida davlatning Monarxiya shaklida cheklanib qolmasdan uni bir necha kishi tomonidan

boshqarish kerak degan xulosaga keladi. Chunki bir insonda Farobiy talab qilgan o'n ikkita fazilat mujassam bo'lmashligini aniq tushunib etgan mutafakkirdir.

Abu Nasir Muhammad ibn Muhammad ibn O'zlug' ibn Tarxan Farobiy 260 xijriy (873-874 milodiy) yilda Farob shahrida tug'ilgan.

Farobiyning shaxsiy hayoti haqida bizgacha juda kam ma'lumotlar etib kelgan. Bu ma'lumotlardan shu narsa aniqlanadiki, uning otasi turk qabilalaridan (o'g'iz yoki qorliq) bo'lib, u harbiy kishi edi. Istedodli va zehni o'tkir bo'lgan Farobiy yoshligidanoq ilm-ma'rifatga astoydil kiziqadi.

Ma'lumki, IX asrlarda, ya'ni Farobiy yashab, ijod qilgan davrda O'rta osiyo to'la Arab xalifaligining bir qismiga aylantirilgan edi. g'oyaviy dunyoda esa islom siyosiy ideologiyasi hukmronlik qilib, maktab, madrasa va madritlarda asosan arab, fors tillarida yozilgan diniy kitoblar o'qitilar edi. Arab xalifaligining markaziy shaharlari Bog'dod va Damashqda ilm-fan boshqa shaharlarga nisbatan taraqqiy qiladi. Shuning uchun ham Farobiy boshqa zamondoshlari kabi arab tilini o'rganadi va Bog'dod shahrining etuk qomusiy olimi darajasiga ko'tariladi.

IX asrda Bog'dod iqtisodiy, siyosiy, madaniy markazlardan biriga aylangan bo'lib, uning bozorlarida Shark va arab mamlakatlaridan keltirilgan kamyob mollarni ko'plab uchratish mumkin edi. Bu shaharning kitobxonalarida turli davlatlar va turli tillarda chop etilgan kitoblar ham bor edi. eng muhimi Bog'dod olimlari, san'atkorlar, tarixchilar to'plangan yirik markaz edi.

Farobiy ko'plab xorijiy tillarni o'rganib, ular orkali Aflotun Arastu kabi buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosidan bahramand bo'ladi, U matematika, meditsina kabi tabiiy fanlar bilan bir vaqtda falsofiya, logika, siyosat, davlat haqidagi ijtimoiy fanlarning soxalari bilan ham shug'ullanadi va o'zining yuzdan ortiq asarlarini yozib qoldiradi.

Farobiy kamtar, tartinchoq kishi bo'lib, mulki ham, boyligi ham bo'lmagan. U umrini ilm sohalarini o'rganishga, kitoblar yozishga sarflagan mutafakkir edi. U o'z vatanidan uzoqlashib ketishiga qaramasdan, o'z ona tili— turkiy tilni unitmagan va o'z milliy kiyimida yurgan, milliy odatlarga rioya qilgan. U o'zining yuksak ilmi bilan xammani hayratda qoldirgani uchun xam xalq orasida «mua'limi soniy», ya'ni «ikkinchi muallim» degan nom bilan mashxur bo'lgan.

Farobiy bizga juda katta ijodiy meros qoldirgan. Bu asarlarning to'liq ro'yxati bo'lmasada, ilmiy adabiyotlarda u 130-160 dan ortiq asarlar yaratgani haqida fikrlar mavjud. Farobiy to'g'risida sharq adabiyotida turli-tuman hikoya,afsonalar mavjud bo'lib, ularning barchasida mutafakkirning o'z zamonasi fanning turli sohalari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lganligi haqida va u juda ko'plab tillarni bilganligi haqida hikoya qilinadi.

Mutafakkirning ijodiy merosini o'rganish borasida olimlar samarali ijod qilmoqdalar. Farobiyning kitoblarini ro'yxatini tuzish va undagi ijtimoiy-falsafiy, siyosiy fikrlarni o'rganish borasida Bayxaki, Al-Nadima, ibn Usaybi, Dextuzo, Umar Tarrux, Xorten, Diteritsi, Shteynshneyder, Brokkel'man, Axmad Atin, M.M.Xayrullaev va boshqalar samarali mehnat qilganlar. Farobiyning asarlari Leningrad, Moskva, Toshkent, Dushanbe, Baku, qozon, Kair, Bayrut, Damashq, Stambul, Leyden, London, Parij, Madrid, N'yu-York, Xaydarobod, Tehron va boshqa shaharlarning muzey va kutubxonalarida saqlanib kelinmoqda.

Farobiyning asarlari ko'plab olimlar uchun asosiy qo'llanmalardan biri bo'lib xizmat qilib keldi. Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Navoiy, Jomiy, Mirxond, Xondamir kabilar ko'plab jahon klassiklari bevosita undan o'rganganlar. Uning asarlari faqat Sharqda emas, balki g'arbiy Evropa mamlakatlarida ham keng tarqalgan.

Farobiyning ba'zi bir asarlari qadimiy yahudiy va lotin tillariga tarjima qilingan bo'lib, ular ana shu tillarda bizlargacha etib kelgan. Uning asarlari orasida hajmi, mazmuni va ma'nosiga ko'ra «Ideal shahar aholisining qarashlari» degan asari muhim o'rinni egallaydi. Bu asar 37 bobdan iborat bo'lib, unda jamiyat, davlat, shaxs haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar berilgan. Farobiy Arastuning asarlariga, ya'ni logik asarlari («Birinchi analitika», «Ikkinchi analitika») ga, «Topika», «Kategoriyalar», «Etika», «Ritorika», «Metafizika», «Sofistika» va boshqa ko'plab asarlariga sharxlar yozgan.

Farobiyning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy merosi juda boy bo'lib, u o'zining qator asarlarini ana shu muhim ijtimoiy masalalariga bag'ishlaydi. Mutafakkirning jamiyat, davlat, huquq, siyosat, adolat, ta'lim va tarbiya haqidagi g'oyalari, qarashlari quyidagi asarlarda berilgan: «baxtga erishish hakidagi traktat», «Urush va tinch-totuv yashash

haqida», «Jamiyatni o`rganish haqidagi kitob», «Davlat arboblari haqidagi aforizmlar» va h.k.

Farobiy jamiyat, davlat va huquq masalalarini o`rganishda ko`p jihatdan ushbu masalalarning nazariy, umumiy filosofik asoslarini tushuntirishga harakat qiladi. Masalan, jamiyatning kelib chiqishi, davlatning paydo bo`lishi, uning formasi, davlat arbobi va uning vazifasi, oldiga qo`yilgan asosiy talablar, davlatni idora etish usullari haqida o`zining falsafiy-siyosiy qarashlarini bayon qiladi.

Mutafakkir jamiyatni o`rganishda (grajdanlik fani); fikx (huquq), sohalariga alohida e`tibor beradi. Farobiyning fikriga ko`ra, quyidagi masalalarni o`rganishi kerak: ijtimoiy munosabatlarning turlari, odat, ahloq normalari, ijtimoiy munosabatlarni sodir qilishga qaratilgan maqsad, boshqarish metodi va usullari.

Inson tomonidan jamiyatda yashash uchun sodir qilinadigan harakatlarni esa Farobiy ikkiga bo`ladi:

I. Adolatli, haqiqiy aqlga muvofiq harakatlar. Bu harakatlar orqali haqiqiy baxga ershish mumkin.

II. Adolatsiz, maqsadga muvofiq bo`lmagan harakatlar bo`lib, birinchisi baxt keltirsa, ikkinchi baxtsizlik keltiradi.

Farobiy jamiyat siyosiy hayotida davlat apparati tomonidan olib boriladigan ishlarga alohida e`tibor beradi. Uningcha, davlat boshlig`i va davlat xizmatchilari boshqaruv san`atini yaxshi bilishlari kerak. Farobiy ana shunday boshqaruv kishilari baxtga, tinchlikka olib boradi va bunday davlat boshqaruvi adolatlidir. Aksincha, baxtsizlikka, urush va qirg`inlarga olib boradigan boshqaruv adolatsizdir, deb xisoblaydi.

U asarida ideal shaharlar, ya`ni ideal shaxar davlatlari va ideal bo`lmagan shahar davlatlari xususida ham fikr yuritadi. Boshqaruv (idora) san`ati ikki asosiy qismdan iborat bo`ladi: nazariy va amaliy. Nazariy qism — boshqaruvning asosiy usul va qonunlarining bilimi bo`lsa, amaliy qism- davlatni idora qilishdir. Ularning har ikkalasiga siyosiy tajriba, tajriba va kuzatuv natijasida erishiladi.

Farobiy axloq, odat normalariga davlat tomonidan o`rnatiladigan, olib boriladigan siyosiy rejimning huquqiy normalarini qo`shib yubormasdan, balki ularni jamiyat hayotidagi rolini, o`rnini ko`rsatishga urinadi. Siyosiy filosofiyaning asosiy vazifasi,

Farobiyning fikrga ko`ra, davlatdagi haqiqiy normalar va tamoyillarni o`rganishdan iborat va fukarolarlarning turmush darajalarini, tinchliklarini ta`minlash va rivojlantirish yo`llarini, forma va usullarini ko`rsatib borishi kerak. Davlatning vazifasi esa shahar aholisining baxtli hayotini ta`minlash va qo`riqlashdan iborat deb hisoblaydi.

Farobiy kishilik jamiyati, davlatni kelib chiqishi masalalariga to`xtalib, bu masalaning javobini ilohiyotdan qidirmasdan, balki mavjud jamiyatdan izlaydi. Mutafakkir inson tabiatidan shunday yaratilganki, u doimo biri ikkinchisiga nisbatan dushmanlikka emas, balki ittifoqda, aloqada, munosabatda bo`lishga intiladi degan fikrni yoqlab chiqadi. Xuddi ana shu o`zaro intilish, harakat asosida davlat kelib chiqishini e`tirof etadi. Farobiy «har bir inson o`z tabiatiga ko`ra shunday yaratilganki, u yashash va oliy darajasidagi etuklikka erishmog`i uchun ko`p narsalarga muhtoj bo`ladi, u bir o`zi bunday narsalarni ko`lga kirita olmaydi va ularga ega bo`lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug`iladi... shu sababli yashash uchun zarur bo`lgan narsalarni bir-biriga etkazib beruvchi va o`zaro yordamlashuvchi ko`p isonlarning birlashuvi orqaligina, odam o`z tabiati bo`yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a`zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo`lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko`paydilar va erning aholi yashaydigan qismiga o`rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi» deb yozadi.

Farobiy jamoani katta-kichikligiga ko`ra uch turga bo`ladi:

I) buyuk jamoa-dunyodagi barcha xalqlarning birlashuvi;

P)o`rta jamoa-bir xalq yoki millatni birlashtiruvchi jamoa;

III) kichik jamoa-alohida bir shaxdr davlatini birlashtiruvchi jamoa.

Farobiyning fikriga ko`ra, xalqlar bir-birlaridan tabiiy odatlari, aloqalari hamda xarakteri va tili bilan farq qiladilar. Farobiy xalqlarning xarakterlari, odat va axloqlarining shakllanishida geografik muhitning ta`sir kuchiga yuqori baho beradi.

Farobiyning aytishicha, odamlarning eng takomillashgan jamoasi bu shaxr davlatlaridir. qishloqlar esa shaharlardan keyinda turuvchi va shaharlarni oziq-ovqat bilan ta`minlovchi jamoalar hisoblanadilar. Bu erda biz Aflotun va Arastuning shahar

davlatlari (polislari) haqidagi ta'limotlarining Farobiyning siyosiy qarashlariga ta'sirini ko'ramiz.

U shahar davlatlarini ikki kategoriyaga bo'ladi:

I. Al-Madina al-Fozila.

II. Al-Madina Al-Johiliya.

YUqoridagi ta'kidlanganidek, u fazilatli va fazilatsiz shahar davlatlarning mavjud bo'lishini e'tirof etadi. Agarda barcha shahar aholisi o'zaro birlikda, ittifoqda yashab bir-birlariga yordam ko'rsatsalar bunday shaharlar fazilatlidir. Ushbu masalada Farobiy ilgari barcha xalqlar o'zaro tinch-totuv va do'stlik asosida yashasalar er yuzida tinchlik o'rnatilishiga ishonch bilan qaraydi, deb hisoblaydi.

Fazilatli shahar davlat apparatini u inson organizmiga o'xshatadi. Inson organizmining qismlari biri ikkinchisiga yordam berganidek, davlat apparati mexanizmlari ham o'zaro bir-birlariga yordam berishlari kerak. Lekin nasl organizmi tabiiy organlardir. Insonni davlatlarga birlashishi ham tabiiy voqiylik bo'lsada, uning asosidan insonlarning erki yotadi. Shuning uchun ham Farobiyning fikriga ko'ra, kishilar o'zaro bir-birlariga yordam berishib tinch-totuv yashasalar maqsadga muvofiq bo'ladi.

Farobiy fazilatli va fazilatsiz shaharlar haqida yozar ekan, u mavjud feodal davlatlaridagi adolatsizliklarni, tengsizlik, baxtsizliklarni qoralab, davlat boshliqlarini va barcha grajdanlarni yaxshilik qilishga, o'zaro yordam tamoyillariga ko'ra yashashga da'vat qiladi. Farobiyning bu g'oyalari o'z zamoniga nisbatan juda katta ahamiyatga ega bo'lib, diniy ta'limotlardan farq qilar edi.

U baxtga erishishning asosida mehnat yotishini, hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar, to'qimachilar kabi mehnatkashlarning mehnatini alohida ta'kidlaydi. Farobiy jamiyatni turli sinflar va tabaqalarga bo'linishiga e'tibor berib, oliy va quyi pog'onalarda turuvchi tabaqalar mavjud deb hisoblasada, ammo, boshqa mamlakatlar xalklarining mulklarini talon-turoj qilish ularning o'zlarini qulga aylantirish uchun olib borayotgan siyosat va urushlarni qoralab, bunday tashqi siyosatga amal qilayotgan davlatni fazilatsiz davlat deb hisoblaydi.

Farobiy o'z asarlarida davlat terminini ishlatmaydi. Ammo u shahar jamoalari deganda shahar davlatlarini nazarda tutadi. Davlatning kelib chiqishi sabablarini

Farobiy ilohiyotidan qidirmasdan, balki odamlarning jamoa bo`lib yashash ehtiyojlaridan deb biladi. U davlatning asosiy funksiyasi, vazifasi haqida fikr yuritib, uning ichki vazifasi fukarolarning baxtli hayotini ta`minlash bo`lsa, tashqi vazifasi esa o`z aholisini tashqi hujumlardan himoyalash, muhofaza qilish deb hisoblaydi.

Urush va tinchlik masalasida Farobiy urush ikki xil bo`ladi, adolatli va adolatsiz urushlar haqida gapiradi. U boshqa mamlakatlarni bosib olish uchun olib boriladigan urushlar adolatsiz urushlar deb va aksincha, adolatsiz urushlarga qarshi mudofaa maqsadida olib boriladigan urushlarni adolatli deb hisoblaydi. bu borada shu narsani aytish kerakki, Farobiy davlatlar o`rtasida olib borilayotgan, o`zaro qirg`in keltirayotgan, dushmanlik maqsadidagi siyosatni, urushni qoralaydi. Bunday siyosiy fikrdagi kishilarni tubanlikda ayblab, ular insoniylik tamoyillarini ko`pol ravishda buzayottanliklarini ko`rsatadi. Inson inson bo`lganligi uchun ham dushmanlikni emas, balki do`stlik, urushni emas, balki tinchlikni yoqlashi kerakligini uqtiradi.

Shunday qilib, Farobiy orzu qilgan ideal shahar— davlatlarining asosiy vazifasi— bu tinchlikni ta`minlash, adolatli tamoyillarni himoya qilish, odil sudlovni o`rnatish kabilardir.

Farobiyning din haqidagi g`oyalari ham xarakterlidir. Uning fikriga ko`ra din jamiyatni idora qilish uchun zarur , asosiy vazifasi jamiyat uchun xizmat qilish kerak.

Uningcha, har qanday din inson baxt-sodati uchun xizmat qilishi kerak.

Mutafakkir dinlarni bir-birlariga qarshi qo`ymasdan har xil davlatlarda, xalqlarda turli xil dinlar mavjud bo`lishi mumkin deb xisoblaydi. Ularning asosiy vazifasi ijtimoiy tartib, baxtli hayot qurish uchun xizmat qilishdan iboratdir. U dinni insonlarning manfaatidan, davlatdan ustun qo`ymasdan, aksincha u fukarolar davlatning vazifalarini amalga oshirishda yordamchi, xizmat qiluvchi qurol bo`lishini aytadi. Farobiy islomdagi turli dogmatik qarashlarni, diniy qoidalarni tanqid qiladi va o`rta asrlarning buyuk gumanisti sifatida maydonga chiqadi. O`zining «Ixsol ul-ulum» asarida mutakallimlarning diniy masalalarini hal qilishdagi noto`g`ri mutodlarini, ob`ektiv holatdan chetga chiqib ketayotganliklarini ochib tashlaydi.

Farobiy davlat formasi masalalariga ham to`xtab, shoh donishmand bo`lishi va u o`z lo vazimiga loyiq kishi bo`lishini e`tirof etadi. Bu bilan Farobiy taxtni otadan

bolaga o`tib kelishi (meros) huquqini qoralab, davlat boshlig`i o`z lavozimiga mansub bo`lgan shaxs bo`lishligini yoqladi.

Ma`lumki, sharq davlatlarining shakli asosan mutloq monarxiya bo`lib, bu ko`p asrlar davomida saqlanib qolgan. Islom dini davlatning bu shaklini yanada mustahkamlab -shoh xudoning erdagi soyasi, vakili degan g`oyani kishilar ongiga singdirib yuborgan.

Farobiy ham o`zining siyosiy karashlarida monarxiya davlat formasidan voz kecha olmaydi. Uning fikriga ko`ra, davlat boshlig`i har tomonlama etuk shaxs bo`lishi kerak. Ammo bu erda shuni aytish kerakki, Farobiy monarx to`g`risida gapirar ekan uning oldiga 12 talabni qo`yadi. Ideal davlat boshlig`i haqiqatni sevuvchi va uning uchun kurashuvchi, boylikka xirs qo`ymaydigan, adolatsizlik va jabr-zulm qiluvchilarga qarshi kurashuvchi, botir, jasur bulishi kerak deb xisoblaydi. Bu erda shu narsa xarakterliki, Farobiyning o`zi ham ana shu 12 fazilatning hammasi yagona bir kishida bo`lishiga shubhalanib, davlatni bir kishi emas, balki bir necha kishi boshqarishi kerak degan g`oyani ilgari suradi. Bu erda biz Farobiyning monarxiya formasi doirasida cheklanib qolmasdan, balki o`z zamonidan ilgarilab ketganini ko`ramiz.

Lekin Farobiy ham o`z davrining farzandi bo`lganligi sababli davlat va huquqning mohiyati, formasi kabi masalalarni echishda o`z zamoniga nisbatan bo`lsada, lekin ularning asosiy sababini mohiyatini echishda tarixiy cheklanishlarga yo`l qo`yadi. Uning ushbu masalalardagi fikrlari ko`proq utopik xarakterda bo`lib, kelajakda adolatli (fazilatli) davlatlarni va ularning rahbarlari xalq orasidan chiqqan donishmand shaxslar bo`lishini orzu qilish bilan cheklanadi.

Davlat, huquq, din odamlarni hayotini yaxshilashi, ularni baxt-saodat, tinchlik bilan ta`minlashi uchun xizmat qilishi kerak degan fikrlarni ilgari surgan va mamlakatda siyosiy fikrning diniy dogmalariga qarshi rivojlanishida gumanistik g`oyalarning omma orasida keng tarqalishi mutafakkirlarning siyosiy-huquqiy qarashlari taraqqiyotda muhim rol` o`ynaydi.

Abu Rayxon Beruniy (973-1048) sharqning ulkan olimi bo`lib, Xorazm o`lkasining Kiyat shahri yaqinidagi Berun qishlog`ida tug`ilgan. U astronomiya, matematika, meditsina, tarix, geografiya va boshqa fanlarga oid 200 ga yaqin asarlar

yozgan. Beruniy Xorazmshoh Ma`mun ibn Ma`mun saroyida muhim davlat ishlarini bajaradi, biroq keyinchalik umrini butunlay ilm-fanga bag`ishlaydi. Beruniy yoshligida karvonlarga ergashib, juda ko`p shaharlarga boradi. Juda ko`p o`qigan, ko`p narsa ko`rgan Beruniy 20 yoshida taniqli olim bo`lib, elga mashhur bo`ladi. Ma`mun akademiyasida Sharqning eng mashhur olimlari yig`ilgan edi. Jumladan, Abu Ali mbn Sino, Abusaxil Massix, Abulhasan ibn Al- Xummer va Beruniyning ustozi Abu Nosir ibn Irok va boshqa olimlar bor edi.

Beruniy buyuk olim bo`lishi bilan birga yirik davlat arbobi ham edi. Abu Rayhon Muxammad ibn Ahmad al Beruniy 360 hijriy (973 milodiy) yilda Kiyat shahrining itrofidagi qishloqlardan birida dunyoga kelgan. Beruniyning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi O`rta Osiyo xonliklari o`rtasida feodal tarqoqlik va islom siyosiy g`oyasi hukmronlik qilayotgan bir zamonda shakllanadi.

Beruniy yoshligidanoq ilm-fanning turli sohalarini egallash bilan mashg`ul bo`ladi. U 16 yoshida globus yasab, ilm-fan axllarini hayratlantirgan edi. Beruniy 995 yilda Xorazmdan horijiy mamlakatlarga ketishga majbur bo`ladi. Mutafakkir sharq xalqlarining hayoti, madaniyati bilan yaqindan qiziqib, 1010 yilda o`zining yirik asarlaridan biri-«O`tgan avlodlarning yodgorliklari» («Al` Asar Al`-Bakiya») asarini yozadi. Beruniy bu asarda birinchi manbalar asosida va katta aniqlik bilan qadimgi greklar, rimliklar, forslar, xorazimliklar, evreylar kabi xalqlarning dinlari, urf-odatlari, qonun-qoidalarini haqida yozadi. Masalan, «Oq kiyimlilar harakatlari haqida hikoya» kitobini yaratadi. Ammo ushbu asar xanuzgacha topilmagan. Insonning paydo bo`lishi va idrok masalalarida u asosan, ya`ni u ollo tomonidan yaratilgan deb hisoblaydi. Beruniy dunyo xalqlarining tarixini, madaniyatini geografik muhitga asoslangan holda yoritadi. Odamlarning ranglari, tillari va tashqi ko`rinishlarining turlicha bo`lishi faqat nasligi bog`liq bo`lmasdan, balki ular yashayotgan suvga, havoga, tuproqqa bog`liqdir deb hisoblaydi.

Beruniyning muhim g`oyalaridan yana biri bu-moddiy faktorning roli haqidagi qarashlaridir. Uning fikriga ko`ra, odamlar o`z dushmanlariga qarshi kurishish va o`zlarining zaruriy ehtiyojlarini qondirish uchun uyushgan holda yashash va ishlashga majburdirlar. U «Minerallar» asarida ehtiyoj tomonlari turli tuman va ko`p bo`lishi,

faqat bir necha kishilar uyushmasigina uni qoniqtirishi mumkin. Ana shuning uchun odamlar shaharlar yaratilishiga mushtarakdirlar, deb hisoblaydi.

Beruniy odamlarni jamoa bo`lib yashashlarining asosiy qoidalari bu o`zaro yordam, bir-birlari bilan tinch-totuv yashash, umumiy manfaat uchun ishlash kabi printsiplarga asoslangan bo`lishi kerak deb hisoblaydi. Insonning asosiy vazifalaridan biri bu mehnatdir. Chunki barcha narsalar mehnat orqalm ro`yobga chiqadi, paydo baladi. Olim asarda ijtimoiy munosabatlar masalasiga to`xtab, mehnat taqsimoti xamda mehnat taqsimoti natijasida ortiqcha mahsulot (tovarni) paydo bo`lishi va ayrboshlashi hamda pulning regulyatorligi kabi muhim ijtimoiy masalalarga ham to`xtab o`tadi.

Kishilarnmng boy va kambag`allarga, ezuvchilar va eziluvchilarga bo`linishining asosiy sabablaridan biri mulkiy tengsizlik ekanligini yaxshi tushunib etgan Beruniy fuqarolar o`rtasida tuziladigan mehnat va ayrboshlash shartnomalarini ikki turga bo`ladi. qonuniy yoki adolatli bu shartnomalarga ko`ra mehnatkash mexnatiga yarasha ish haqi olish zarur. Olim qonunsiz yoki adolatsiz shartnomalar asosida tengsizlik, zo`rlik, qalloblik yotishini va buning natijasida bir kishi tomonidan ekspluatatsiya qilinishini koralaydi va qonunsiz shartnomalarga qarshi chiqadi. U bu bilan jamiyatda ko`proq sotsial adolatsizlik sodir bo`layotganligini ko`rsatadi. Beruniy davlat va huquqning paydo bo`lishi va ularning vazifalari masalalarini Farobiy kabi tabiiy ehtiyojdan deb biladi. Boshqacha qilib aytganda, odamlar ijtimoiy adolatli tartib, qoida o`rnatish uchun davlatga birlashadilar degan fikrlar bo`ladi. Beruniy davlatning shakli masalasida esa mamlakatni mutlaq hokim shoxlar emas, balki ma`rifatparvar shohlar boshqarishi kerakligi haqidagi g`oyani ilgari suradi.

Olim dinni yoqlagan bo`lsada, o`z diniy dunyoqarashining tor doiralarida cheklanib qolmasdan yanada ilgarilaydi. U kishilarni ilm-fanga da`vat qiladi va dinmas, balki ilm-fan bilan shug`ullanish uning idealiga aylanadi. Beruniy «Hindiston» asarida millatchilik kabi dunyoqarash doirasida cheklanib qolganlarni tanqid qilib, er faqat bizning erlarimiz, odamlar faqat bizning xalqlarimizning vakillari, shohlar faqat bizning hukmdorlarimiz, din esa faqat bizning dinimiz", deb fikr yurituvchilarni tanqid qiladi. U xalqlar orasida tenglik, tinchlik printsiplarini joriy qilinishini orzu qildi. Beruniyning siyosiy-huquqiy qarashlari, yuqorida qarab

chiqqanimizdek, eng ilg`or va chukur insoniylik printsiplariga asoslanadi. U inson nomini, uning tafakkurini ulug`lab, shohlar va qonunlar ana shu hazrati inson uchun xizmat qilishi hamda uni bosqinchilar, zolim shohlardan himoya qilishlari kerak degan progressiv g`oyalarni o`rtaga tashlaydi.

IBN SINO. Abu Ali ibn Sino 980 yilda Buxoro viloyatida Afshona (hozirgi Vobkent rayoni) qishlog`ida tug`ilgan. Uning yoshlikdagi nomi Husayn bo`lgan, u 5 yoshga to`lganda oilasi Buxoro shahriga ko`chib keladi. Ibn Sino yoshligida astronomiya, matematika, logika, fizika, metodika va fikx (huquq) masalalarini yaqindan o`rgandi. 999 yilda Buxoro qoraxoniylar tomonidan bosib olinganidan keyin u Urganch shahriga ketishga majbur bo`ladi. Mbn Sino sharqda «Ash-Sheyx» yoki «Ar-Rais» degan taxallus bilan mashhur bo`lgan bo`lsa, g`arbda esa Avitsena degan nom bilan taniladi. Uning xayoti, dunyoqarashi haqida adabiyotlarda turlicha qarashlar mavjud. O`rta asr avtorlari: Al-Bayxaki, Al-Kifti, Ibn-Abu-Usaybia, ibn-Xallikan, Al-Kashi kabi yozuvchilar asarlari asosiy manba bo`lib xizmat qiladi.

Ibn Sinoning siyosiy-huquqiy qarashlari Abbosiylar xalifaligining siyosiy tushkunlikka uchragan hamda xonliklar, bekliklar o`rtasida o`zaro urushlar kuchaygan bir zamonda shakllanadi. Mamlakat hayotida ro`y berayotgan siyosiy tushkunlik mutafakkirni yoshlik yillaridanoq turli shaharlarda, xonliklarda sarsonu-sargardonlikda yurishga majbur etadi. Ammo hayot qanchalik shafqatsizlik qilmasin, u yoshlik yillaridanoq falsafa, siyosat va meditsina kabi fanlar bilan qiziqadi. U musulmon huquqi asoslarini, normalarini yoshlik yillaridayoq chuqur o`zlashtirib olgan edi. Ibn Sinoning Buxoro shahriga kelib Abu Abdullax an-Notiliy raxbarligida falsafiy fanlarni o`rgangan yillari uning hayotida o`ziniig chuqur izini qoldiradi. Tez orada shogird ustoz darajasiga ko`tarilib, falsafa, logika huquq, matematika, fizika, meditsinaga oid kitoblarni mukammal o`rganib chiqadi. Aflotun, Arastu, Farobiy kabi entsiklopedik olimlarning asarlari uning asosiy bilim manbaiga aylanadi. Zamondoshi Beruniy bilan esa bevosita xatlar orqali fikrlashib turadi.

Mutafakkir (1002-1005 yillarda) hokimiyat qoraxoniylarga o`tgan davrda Buxorodan Gurganjga ketishga majbur bo`ladi. Gurganj shahrida «Ma`mun akademiyasi» mavjud bo`lib, unda Abu-Rayxon Al-Beruniy, Abu Saxl Al-Masixiy, Abul-Xayr al Xammarlarga o`xshagan ko`plab olimlar ijod qilayotgan edilar. Ibn Sino

ular bilan yakindan tanishib, Xorazm shoh Ali ibn-Ma`mun saroyida xizmat qiladi. Lekin 1008 yildan boshlab, Ibn Sino o`zining shogirdi Abu-Ubayd Al-Juzjoniyl bilan birgalikda Xuroson shahar va qishloqlarida muhtojlikda yashashga majbur bo`ladi.

Mahmud g`aznaviy Xorazmda mashhur bo`lgan barcha olimlarni o`z saroyiga taklif qiladi. Ibn Sino bunga rozi bo`lmasdan Xorazmdan chiqib ketishga majbur bo`ladi. Bundan g`azablangan Sulton Mahmud g`aznaviy atroflarga chopar yuborib, olimni ushlab saroyga olib kelishni buyuradi. Mutafakkir Mahmud g`aznaviydan yashirinib (1015-1024) Xamadonda to`xtaydi. Xamadon hokimi Shams Ad-Dauliy esa uni o`ziga vazir qilib tayinlaydi. Ibn Sino bevosita davlat arbobi sifatida davlat ishlarini boshqarish bilan mashg`ul bo`ladi. Ammo Ibn Sinoning progressiv fikrlari davlat apparatidagi mulozimlarni reaksion guruxlariga ma`qul kelmaydi.

Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar.

Islom dinidagi siyosiy va xuquqiy ta`limotlar, shariat, sunna, ijmo, sunniylik, shialik, tafsir, fiqx ilmi, qiyos, Qur`oni Karim, Xadis, Imom Buxoriyning siyosiy va xuquqiy ta`limotlari, Burxoniddin Marg`iloniyning siyosiy va xuquqiy ta`limotlari, mazxab, Xalq ozodlik xarakati siyosiy va xuquqiy qarashlari, Abu Nasr Farobiyning siyosiy va xuquqiy qarashlari, Abu Rayxon Beruniyning siyosiy va xuquqiy qarashlari, Ibn Sinoning siyosiy va xuquqiy qarashlari.

Mavzuga oid nazorat savollari.

1. Islom dini siyosiy va xuquqiy ta'limotining o'ziga xos tomoni nimada?
2. Fiqh ilmi nimani o'rganadi?
3. Xalq ozodlik xarakati siyosiy va xuquqiy qarashlari nimani ifodalaydi?
4. Farobiyning siyosiy va xuquqiy qarashlari asosida nimalar yotadi?
5. Farobiy, Beruniy va Ibn Sinolarning siyosiy xuquqiy qarashlarida qanday farqlar bor?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». «O'zbekiston», Toshkent. 2000 y.
2. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». «O'zbekiston», Toshkent 1997 y.
3. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». Toshkent. 1998.
4. Karimov I.A. «O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li». «O'zbekiston», Toshkent 1995 y.
5. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». «O'zbekiston», Toshkent 2000 y.
6. Sharipov R., Muxiddinova F. «O'zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta'limotlari tarixi». Toshkent. 2004.

7. Rahmonov R. G`ofurov Z. “Mustaqillik va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi”. “O`zbekiston”, Toshkent 1999.
8. Boboev X.B. taxriri ostida «Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi» T. 2003 y.
9. Toshqulov J.O`zbekiston xalqlari siyosiy-xuquqiy fikrlari tarixidan. T. 1996 y.
10. Burxoniddin Marg`iloniy «Xidoya».
11. Imom Buxoriy «Saxixiy Buxoriy».

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI SIYOSIY VA HUQUQIY TA'LIMOTLAR.

REJA:

1. Amir Temur va uning "Tuzuklari"da siyosiy va huquqiy ta'limotlar xamda g`oyalar.
2. Temuriylar davridagi siyosiy va huquqiy ta'limotlar.
3. Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar.

Amir Temur va uning "Tuzuklari"da siyosiy va huquqiy ta'limotlar xamda g`oyalar.

Amir Temur va temuriylar davri o`zbek davlatchiligi tarixida alohida o`ringa egadir. Amir Temur nomi bilan O`zbekistonda davlat va huquq o`zining eng rivojlangan bosqichiga ko`tarilgan edi. Bu imperiyaning chegaralari Sharqda Xitoy davorigacha g`arbdan O`rta er dengizigacha, janubda Hindiston va Shimolda Moskov Knyazligi xududlari bilan chegaralangan edi. Markazlashgan o`z davrida dunyodagi eng kuchli davlatga aylangan edi. Amir Temur davrida davlat va qonunchilikni yuksalishi o`z navbatida siyosiy va huquqiy dunyoqarashni ham yuksaklikka ko`tardi. Samarqandda o`ziga xos huquqshunoslar, siyosatshunoslar maktabi rivojlandi. Bunga misol tariqasida Amir Temurning «Tuzuklari» «Boburnoma» Amir Temur va temuriylar davri Alisher Navoiyning asarlari Sharofiddin Al-yazdiyning «Zafarnoma»si kabi asarlarni keltirsak bo`ladi. Bu asarlarda inson, adolat, qonunchilik, davlatchilik, siyosat, madaniyat ravnaqi haqida Bugungi kun uchun ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo`lgan g`oyalar, fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Amir Temurnint tarjimai holida shunday fikrlar bor:

«Birinchi eng muxim fazilat beg`arazlikdir. Xammaga bir xil qattiq, jiddiy va adolatli munosabatda bo`ldim, odamlarni toifalarga bo`lmadim, kambag`alni yomonlab, boyni maqtamadim. Men hamma vaqt e`tiqodga sodiq qoldim, xudo marhamatiga loyiq topilgan insonlarga katta hurmat bilan qaradim.

Qashshoqlarga xayru-ehsonni ayamadim, har bir masalani xotirjamlik bilan hal qildim, haqiqatni aniqlashga ko`p g`ayrat sarfladim. Butun harakatimni umumiy foydali ishlarga qaratdim, biror bir zaruriyatsiz hech kimga ozor etkazmadim, turli vaziyatlarda menga murojat qilganlardan yuz o`girmadim.

Men bir qo`limda adolat chirog`ini, ikkinchi qo`limda samimiyat chirog`ini tutdim, mana shu ikkala chirog` nuri bilan ximma vaqt o`z hayot yo`limni yoritdim» Amir Temur davlat asosini o`n ikki toifa tashkil etishini, ulardan har birining o`z o`rni va xizmati mavjudligini ko`rsatadi. Bular:

- 1) sayidlar (payg`ambar avlodlari), ulamo, mashoyih fozil kishilar;
 - 2) Donishmand va ishbilarmon, tadbirkor kishilar;
 - 3) Xudojo`y va tarki dunyo qilgan kishilar;
 - 4) Nuyonlar, amirlar, mingboshilar, ya`ni harbiy kishilar;
 - 5) Sipohi va raiyat (soliq to`lovchi avom xalq);
 - 6) Maxsus ishonchli kishilar;
 - 7) Vazirlar, sarkotiblar;
 - 8) Xokimlar (faylasuf, donishmand kishilar), tabiblar, munajjimlar, muxandislar;
- a) tafsir va hadis olimlari;
- 9) Sufiyar moshoyixlar, xudoni tanigan filosoflar;
 - 10) Kasb-hunar egalari;
 - 11) Savdogar va sayyohlar;

Amir Temur davlatni boshqarishda siyosiy va huquqiy faoliyatini boshqarib borishda quyidagi 12 ta tamoyilga e`tibor bergan.

Birinchidan. din va shariatga katta e`tibor bergan.

Ikkinchidan. davlatni boshqarishda yuqorida aytganimiz un ikki xil raiyatning har qaysisiga o`ziga xos munosabat o`rnatgan.

Uchinchidan, maslahat, kengash, tadbirkorlik, xushyorlik, ehtiyotkorlik.

To`rtinchidan. davlat ishlarini ma`lum qat`iy qonun-qoidalarga rioya qilib boshqarish.

Beshinchidan, Amirlar va sipohiylarni xizmatlariga yarasha taqdirlash.

Oltinchidan. adolat va insof bilan ish tutish.

Ettinchidan. sayidlar, ulamoyu mashoyiqlar, aqlli donolarga alohida e`tibor berish.

Sakkizinchidan. xar bir ishni oxirigacha etkazish, qat`iylik, sabr bardosh.

To`qqizinchidan. raiyat ahvolidan ogoh bo`lish, hammani teng ko`rish.

O`ninchidan. turli millat vakillariga bir xil munosabatda bo`lish.

O`n birinchidan. qarindoshlar, ko`shnilar, do`stlarni e`zozlash.

O`n ikkinchidan, sipohiylarga alohida hurmat, g`amxo`rlik ko`rsatish.

Amir Temurning xizmati ulkandir:

Birinchidan, u mamlakatni mo`g`ul bosqinchilardan ozod etdi.

Ikkinchidan, mustaqil o`zbek davlatchiligiga asos soldi.

Uchinchidan, Mamlakatni tuzuklarga (qonunlarga) asosan boshqarishni ta`minladi.

To`rtinchidan, adolat va ma`rifat ishlarini yo`lga qo`ydi. «Kuch-adolatda» degan shiorga asosan.

Beshinchidan, qo`shni davlatlarni ham bosqinchilardan, zulm va zo`ravonlik o`tkazayotgan diktatorlardan tozaladi va u erlarda qonuniy tartib o`rnatdi.

Oltinchidan, Samarqand (poytaxtining) dunyo markaziga aylantirdi. Bu erga uzoq Ispaniya, Frantsiya, Angliya, Xitoy kabi mamlakatlardan ko`plab elchilar, sayoxlar, savdogarlar, olimlar kelib ketadigan poytaxtga aylantirdi.

Amir Temur o`rta asrlarda Turkistonda shunday shart-sharoit yaratdiki, unda Ulug`bek absirvatoriyasi, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalar o`z asarlari, odil siyosatlari bilan dunyo jamoatchiligining diqqat e`tiborini tortishga muvaffaq bo`ldi. Bu buyuk ishlarning amalga oshirilishining boshida, so`zsiz, Amir Temur turar edi.

U davlat va jamiyat qurilishida, uni boshqarishda adolat va qonuniylikka asoslandi. O`z zamonida xalqlar orasida keng tarqalgan Islom siyosiy ideologiyasi va uning qonunlar tizimi-shariatni amalda qo`lladi hamda unga qo`shimcha tarzda o`z «tuzuklarini» yaratdi. Uning siyosiy va huquqiy ta`limotlari, o`gitlari, ko`rsatmalari

temuriylar davrida dasturi amal bo`lib xizmat qildi. Bugun O`zbekistonda Amir Temur va temuriylarga bo`lgan e`tiborning sababi xam ana shundadir.

Zahiriddin Muxammad Boburning siyosiy va huquqiy qarashlari

Tarix sahifalaridan munosib o`rin egallagan buyuk vatandoshlarimizdan biri yozuvchi va shoir, sarkarda va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1580).

Bobur 1483 yil 14 fevralda Farg`ona viloyati (ulusi)ning poytaxti Andijonda tug`ilgan. Uning otasi Umarshayx Mirzo Amir Temurning nabirasi Sulton Abusaid Mirzoning katta o`g`li bo`lib, Farg`ona viloyatining hokimi edi. Onasi-qutlug` Nigorxonim Toshkent hokimi YUnusxonning qizi edi.

1494 yilning yozida Umarshayx Mirzo bevaqt vafot etgach, 12 yoshli Bobur taxtga o`tiradi. U hali juda yosh bo`lishiga qaramasdan, mamlakatni donolarcha boshqara boshlaydi. Ma`lumki, o`sha davrda Amir Temur yaratgan saltanat tanazzulga yuz tutgan edi. Bobur Amir Temur davlatini qayta tiklash maqsadida Samarqandga uch bor yurish qiladi.

Dastlab 1495-1496 yillarda Samarqandni ishg`ol qiladi, lekin ukasi Jaxongir Mirzo va tog`asi Ali Do`st Andijonda fitna uyushtirgach, orqaga qaytadi. Ikkinchi marotaba 1499-1500 yillarda Samarqandga yurish kiladi, ammo Shayboniixonidan engilib, Toshkentga chekinadi. Uning so`nggi marta 1504 yilda Samarqandni eron shohi Ismoil Safaviy yordamida bosib olishi muvaffaqiyatsiz chiqadi. Shundan keyin, Bobur yuzaga kelgan ziddiyatli siyosiy shart-sharoit tufayli vatanini tashlab ketishga majbur bo`ladi va Afg`oniston tomon yo`l oladi.

Bobur 1504 yilda Qobulni egallab, u erda qaror topadi, Afg`onistonda o`z hokimiyatini mustahkamlaydi va ijod bilan shug`ullanadi. U o`zga yurtida doimo

vatanini qo`msab yashaydi. Boburning vatanga qaytish orzusi amalga oshavermagach, Hindistonni egallashga qaror qiladi va 1519-1525 yillarda Hindistonga bir necha bor yurish qiladi. Nihoyat, 1526 yilning aprel' oyida Panipat jangida Sulton Ibroxim Lo`diyini engib, Dexli xamda Agra shaharlarini egallaydi va Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soladi. Shunday qilib, Bobur xayotining so`nggi yillarini Hindistonda o`tkazadi va 1530 yil 26 dekabrda vafot etadi.

Bobur Mirzo taniqli sarkarda va davlat arbobi bo`lishi bilan birga, buyuk yozuvchi va shoir ham edi. U qisqa umr ko`rgan bo`lishiga qaramasdan, jahonga mashhur bo`lgan "Boburnoma", "Mubayyin", "Aruz risolasi" va "Xatti Boburiy" kabi asarlarni yaratishga ham ulgurdi. Albatta, Bobur yaratgan asarlar orasidan eng nodiri "Boburnoma" qomusiy asaridir. Mashhur venger sharqshunos olimi Herman

Vamberi bu asarni "Sharq TSezarining kommentariyalari" deb baholaydi.

"Boburnoma" uch qismdan iborat. Birinchi qismda 1493 yildan 1504 yilgacha Movarounnaxrda bo`lib o`tgan voqea-hodisalar haqida bayon qilinadi. Ikkinchi qism 1504-1524 yillarda Afg`oniston (qobul ulusi) dagi voqea-hodisalar bilan bog`liq. Uchinchi kismda esa, 1525-1529 yillarda Shimoliy Hindistondagi siyosiy voqea va hodisalar haqida yozilgan.

"Boburnoma" da 1509-1518 yillar, 1521-1524 va 1529-1530 yillardan bo`lib o`tgan voqea-hodisalar to`g`risidagi ma`lumotlar yo`qolganligi sababli berilmagan. Ma`lumki, Bobur o`z asarlarida boshqa masalalar qatori, siyosiy va huquqiy masalalarga ham to`xtalib o`tgan. U o`zining davlat haqidagi qarashlarida davlatlarni ikki turga bo`lib ko`rsatadi:

1. Adolatli, markazlashgan davlat.
2. Adolatsiz, tarqoq davlat.

Bobur doimo adolatli, markazlashgan davlat tarafdori bo`lgan va davlatni odil, adolatparvar podsho yoki shoh boshqarishi kerak deb xisoblagan. Uning fikricha, davlat boshlig`i hamisha oddiy, mehnatkash xalq haqida o`ylashi va g`amxo`rlik qilishi zarur:

"Davlatqa etib mehnat elin unutma,

Bu besh kun uchun o`zingni asru tutma".

Bobur davlat boshqaruvida diniy e`tiqod va vijdon erkinligi masalalariga ham katta e`tibor bergan hamda o`g`illari Humoyun Mirzo va Komron Mirzolarga ham ushbu masalalar yuzasidan oqilona maslahatlar bergan. Jumladan, o`g`li Nasiriddin Muhammad Humoyunga atalgan vasiyatida shunday deb yozgan: "...Ey farzand! Hindiston mamlakati turli mazhablardan iborat. Subhonollo taollo haqqi senga buyurildiki, har bir mazhabga pok qalb bilan qaragin, har bir mazhab va tariqatga adolatli bo`l.

Xususan, sigirni qurbon qilishdan saqlanginki, bu Hindiston xalqining qalb ardog`i va bu viloyat ahli podshoxga yaxshi nazar bilan bog`lanadi. Podshoh farmoniga bo`ysungan xalqni xarob qilmagin.

Adolatni ixtiyor qilgin. Shunda shoh raiyatdan, raiyat shohdan xotirjam bo`ladi. Islomning taraqqiyoti ehson tig`i bilan yaxshiroqdir, zulm tig`i bilan emas. Ahli sunnat va shialarning ikir-chikirlaridan ko`zingni yum. CHunki islomga qarshilar bor. Turli e`tiqoddagi xalqlarni teng tutginki, shunda saltanat turli tashvishlardan xoli bo`ladi.

Hazrat Sohibqiron Amir Temurning ish yuritishlari doimo yodingda bo`lsin. Shunda davlating ma`mur va puxta bo`ladi....". Boburning xuquqiy qarashlari asosan uning "Mubayyin" asarida o`z ifodasini topgan. "Mubayyin"-Islom dini asoslarini bayon etuvchi yirik asar bo`lib, besh qismdan iborat:

1. e`tiqodiyya;
2. Kitobu-s-salot;
3. Kitobu-z-zakot;
4. Kitobu-s-savm;
5. Kitobu-l-haj.

Ma`lumki, Bobur o`z saltanatida asosan shariat qonun-qoidalariga amal qilib ish tutgan, lekin ba`zi bir sohalarda mahalliy shart-sharoitdan kelib chiqib, yangi qonun-qoidalarni ham qo`llagan va islohotlar o`tkazgan.

Masalan, u o`sha davrda Hindistonda amal qilgan soliqlar tizimini o`zgartiradi:

1. Mukassama-etishtirilgan hosilning bir qismi natura shaklida to`lanadi.
2. Muvazzaf-kadastrda qayd qilingan erdan olinadigan soliq.

Zakot mollari to`rtga bo`lingan:

- 1) navdina—pul solig`i;
- 2) savoyim-hayvonlardan to`lanadigan solik;
- 3) tijorat-er solig`i;
- 4) savdogarchilik asosida tushadigan daromaddan olinadigan soliq:
 - a) naqdina-musulmon savdogarlardan olinadigan pul solig`i;
 - b) tijorat amvolining bayoni-musulmon bo`lmagan savdogarlardan olinadigan pul solig`i.

Bobur savdodan olinadigan tamg`a solig`ini bekor qiladi. U soliqlar adolatli darajada bo`lishi va bu soliqlardan yig`iladigan mablag`lar davlatning va shu davlat aqlining ravnaqi uchun xizmat qilishi tarafdori bo`lgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur o`zidan so`ng boy ilmiy meros qoldirgan va biz, bu merosni chuqur o`rganmog`imiz hamda avaylab-asramog`imiz lozim, chunki Bobur yaratgan qadriyatlar, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jarayoni ketayotgan hozirgi bir davrda, o`sib kelayotgan yosh avlod uchun yuksak ma`naviy-ma`rifiy ahamiyatga ega.

Navoiyning siyosiy va huquqiy qarashlari

Alisher Navoiy (1441-1501) Xirotda dunyoga keldi. Buyuk shoir, mutafakkir, o`z davrining ilg`or namoyondalaridan biri. Uning boy va serqirra ilmiy adabiy merosida ijtimoiy-siyosiy hayoti, davrning barcha muammolari o`z ifodasini topgan. Ulug` mutaffakkir faqat ilmiy-badiiy ijodi bilangina emas, o`zining davlat arbobi sifatida ijtimoiy-siyosiy faoliyati va g`oyalari bilan ham mashhurdir.

Navoiy Husayn Boyqaro saltanatida mulkdorlik, ya`ni bosh vazir vazifasini bajargan paytida uning ilg`or ijtimoiy-siyosiy idealarni amalga oshirishga harakat qildi. Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari mehnatkash xalq manfaatlariga, orzu-umidlariga qaratilgan edi.

Hukmdorlarni adolat va insofga chaqirish Insonni ulug`lash, adolat va qonuniylikning qaror tontarish siyosati Navoiy barcha asarlarining markaziy g`oyasidir. O`zaro qirg`in urushlarga chek qo`yish, mamlakatda teng huquqlikni tiklash uchun eng avvalo insonparvar bo`lish kerak, deb uqtiradi shoir.

Navoiy Astrobod hokimligini boshqargan paytlarda u Husayn Boyqaroga murojat etib, saroydagi adolatsizliklarga barham berishini talab etadi. Alisher Navoiy davlat qurilishi ishlariga ham faol ishtirok etadi, saroyda tartib-intizom, qonunlarga rioya etish, chinakam boshqarish usulini yaratish kabi ishlarni bajarishda o`z amalidan foydalanadi.

Alisher Navoiy Amir Temur va temuriylar qoldirgan siyosiy, huquqiy qarashlarga katta hurmat bilan qaradi va uni faoliyati, asarlarida davom etirdi. Shohlarni, shahzodalarni adolatga, qonunchilikka rioya etishga tuzuklarni, "Zafarnomalarni" o`rganishga chaqiradi.

Navoiyning «Xamsa», «Mahbubul qulub» va boshqa asarlarida adolat va adolatsizlik o`rtasidagi jiddiy kurash sabablari va oqibatlari tahlil etiladi. Badiiy obrazlarning xarakterlarning ichki olami, ular o`rtasidagi to`qnashuvlar orqali shoir adolatni himoya qiladi, adolatsizlikka qarshi cheksiz o`z nafratini bayon etadi. Adolatsizlik ko`pincha amaldorlar, hokimlar podshohlar faoliyati bilan bog`liq. Xalq hamma vaqt adolat tarafdori bo`lib kelgan.

Adolatsizlikning markazida dunyoqarashdagi chalkashlik, dini islomning ilohiy talabalarini bilmaslik yoki unga rioya etmaslik, ayshu-ishratga berilish yotadi. Xususan mansabparastlik illati barcha adolatsizliklarning bosh omilidir. Darhaqiqat, mansabparastlik shunday illatki u vijdon, diyonat, adolat degan muqaddas toju-taxtga intilish, bu borada har qanday jirkanchlikdan ham qaytmaslik oxir-oqibatda davlatchilik tizimiga katta zarba etkazadi. Adolatsizlik bilan qo`lga kiritgan toju-taxtning umri boqiy bo`lmaydi.

Navoiy ideal shoh haqidagi, adolatli hukmron haqidagi o`z g`oyalarini «Saddi Iskandariy» dostonida ifodalaydi. Iskandar obrazi Navoiyni orzusi uning ijtimoiy idealidir. Bu idealni amalga oshirmoq uchun eng muhim podsho bilan xalq o`rtasida adolatli munosabatlarning o`rnatilishidir. Navoiy bunday adolatli mamlakatni o`z zamonasida amalda uchrata olmagan uchun butun g`oyalarini, ideallarini, orzu-

o`ylarini o`z asarlari orqali tarannum eta boshlaydi. Iskandar obrazi shoirning barcha ideallarini o`zida jamlagan adolatli shoh obrazidir. Albatta, qayotda yashab o`tgan Aleksandr Makedonskiy Navoiy tasvirlaganidek adolatli hukmron bo`lmagan. Ammo shu obrazni o`z idealiga bo`ysundirib, odil shoh qanaqa bo`lishini o`z davri va undan keyin keladigan xukmronlarga namuna qilib ko`rsatgan.

Navoiy zolim, adolatsizlik shoxlarga qarshi kurashning ma`rifatli shoh-Iskandar orkali amalga oshirilishini istaydi. Davlat va qonun asosiy rahbar kuch deb biladi. Alisher Navoiyning «Farxod va Shirin» dostonidagi Farxod obrazi ham shoirning idealini ifodalaydi. Farxod xalqparvar, adolatparvar, yuksak bilim va e`tiqodga ega bo`lgan olijanob inson. Farhod obrazi Navoiy tasavvuridagi komil inson obrazidir. Farxodning kichikligidan ilmga havasi katta ekanligini, u Suqrot dan dunyo sirlarini o`rganganini, ilmu-hunarning aksariyatini egallab olganligini, xalqqa, odamlarga mehri katta ekanligini inobatga olsak, haqiqatdan ham Farxod barcha davrlar, barcha zamonlar, barcha xalqlar uchun yuksak namuna, chinakam komil inson obrazi bo`lib kolaveradi.

Navoiy asarlarida erkin adolatli mehnat tasviri keng o`rin egallaydi. Mehnat qilish har bir kiishining insoniy burchidir. Bolog`at yoshiga etgan har bir inson mansabi va kelib chiqishidan qat`iy nazar mehnat qilmog`i zarur. Navoiyning bu kontseptsiyasi o`sha davrda mavjud bo`lgan ijtimoiy tuzum an`analariga mos kelmas edi. Aslzodalar, shohzodalar, boyu badavlat odamlar, ruhoniylar o`zlari mehnat qilmay, birovlarining mehnatlari asosida ayshu-ishrat kilishardi. Navoiy Farhod obrazi orqali mehnatning hamma uchun tengligi g`oyasini ilgari suradi. Shohzoda, aslzodalardan kelib chiqqan. Farxod tinmay mehnat qiladi, ilm, hunar o`rganadi, payti kelib, u o`z hunarlarini odamlarga bag`ishlaydi.

Umrni zoe etma mehnat qil,
Mehnat saodatning kalidi bil.

Navoiyning Xusayn Boyqaroga qarata qilgan murojatnomasida ulug` mutafakkirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari o`zining yaxlit yakunini topgan. Navoiy Xusayn Boyqaro davlatni idora qilish haqida «Munshaotlari»da (xatlarida maslahatlar bergan). Biz shu maktubdan bir-ikki joyni keltirib o`tamiz Navoiy shunday yozadi: «Sizlarga hazrati haq subxonohu taolo bu davlat va martabani karam qilib, podshohga

yaqin bo`lish saodatini inoyat qilgan ekan iltimos shuki, o`zini g`urur va g`aflatga yo`llamasalar va u dunyo oxirat o`tkinchiga qolmasalar, ojizalarga, qo`l ostidagilarga shafqatu mehr ko`rsatsalar va mazlumlar ishini marhamatu yaxshi so`z bilan bitirsalar va dunyo moli uchun bir-birlari bilan olishmasalar, nafs qiynaladigan sabr va chidam panohiga qochsalar».

Navoiy davlat tarixiga oid asarlar yozgan mutafakkir uning "Tarixi muluki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlari Ajam (arablar Turon va erondagi davlatni ya`ni arabdan tashqaridagi davlatni "Ajam" deganlar) davlatning to`rtta sulolaga (tabaqaga) bo`ladi va uni bundan to`rt ming yil avval tashkil topgani to`g`risidagi ma`lumotlarni bergan. U davlat so`zini "muluk" atamasi bilan almashtiradi. Asarda qadimgi Ajamda 65 tadan ortiq shohlarning nomlari eslanib, ularning ishlariga baho beriladi. eng birinchi shoh Kayumars edi deya yozgan. Bundan tashqari qadimgi hukumdorlar va payg`ambarlar tarixi ham bayon etilgan.

Navoiy davlat arbobi sifatida mamlakatda tinchlik va ma`rifat ishlarini rivojlantirdi, "Ixlosiya", "Shifoiya", "Nizomiya", "Xalosiya" kabi ko`plab madrasalar, maktablar qurdiradi. Bu madrasalarda zamonasining etuk shoirlari, tarixchilari, olimlari bilim olishadi. Mirxond va Xondamirlar o`z asarlarini ana shu kutubxonalarda yozganlar. Navoiy adolat, hokimiyat, qonun, maslalarini insonning haq-huquqlarini himoya qilishga da`vat etgan jahon tsivilizatsiyasiga o`z hissasini qo`shgan mutafakkir edi.

Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar.

Amir Temur «Tuzuklarida» siyosiy va xuquqiy ta`limotlar, Mirzo Ulug`bekning siyosiy va xuquqiy qarashlari, Zaxriddin Muxammad Boburning siyosiy va xuquqiy qarashlari, Alisher

Navoiyning siyosiy va xuquqiy qarashlari, «Boburnoma»,
«Xamsa»

Mavzuga oid nazorat savollari.

1. Amir Temur davlatini markazlashgan kuchli davlatga aylanishiga sabab nimada?
2. Amir Temur «Tuzuklarida» qanday g`oyalar, qarashlar bayon etilgan?
3. Mirzo Ulug`bek qanday siyosiy va xuquqiy qarashlarni olg`a surgan?
4. Bobur asarlarida siyosiy va xuquqiy qarashlar talqini qanday?
5. Navoiy asarlarida siyosiy va xuquqiy qarashlar talqini qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda». «O`zbekiston», Toshkent. 2000 y.
2. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». «O`zbekiston», Toshkent 1997 y.
3. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q». Toshkent. 1998.
4. Karimov I.A. «O`zbekiston – bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li». «O`zbekiston», Toshkent 1995 y.
5. Karimov I.A. «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida». «O`zbekiston», Toshkent 2000 y.

6. Sharipov R., Muxiddinova F. «O`zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta`limotlari tarixi». Toshkent. 2004.
7. Rahmonov R. G`ofurov Z. “Mustaqillik va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi”. “O`zbekiston”, Toshkent 1999.
8. Boboev X.B. taxriri ostida «Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi» T. 2003 y.
9. Toshqulov J.O`zbekiston xalqlari siyosiy-xuquqiy fikrlari tarixidan. T. 1996 y.
10. A. Navoiy «Tarixi mulki Ajam».
11. Mirzo Ulug`bek «To`rt ulus tarixi».
12. A. Temur «Tuzuklari».

G`ARBIY EVROPADA O`RTA ASRLAR SIYOSIY VA HUQUQIY TA`LIMOTLARI.

REJA:

1. G`arbiy Evropada O`rta asrlar siyosiy va xuquqiy ta`limotlarining vujudga kelishi.
2. Avgustin va Foma Akviniskiyning siyosiy va xuquqiy qarashlari.
3. Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iborlar

G`arbiy Evropada O`rta asrlar siyosiy va xuquqiy ta`limotlarining vujudga kelishi.

IV asrning oxiri va VI asrning ikkinchi yarmi oraligida Rim imperiyasining qulashi bilan birga antik davr ham tugadi, o`rta asrlar boshlandi. Ming yildan ko`proq vaqtning o`z ichiga olgan bu davr feodalizmning paydo bo`lishi, rivojlanishi va inqirozga uchrashi davridir.

Feodal jamiyatning iqtisodiy asosini erga bo`lgan feodal mulkchiligi tashkil qiladi. Qirol eng katta er egasi hisoblanar edi. U o`z vassalariga er taqdim etardi, vassalar bunga javoban qirolga harbiy ko`mak ko`rsatishi va soliq to`lashlari shart edi. Feodallar o`z navbatida dehqonlarni ishlatish bilan bir qatorda, hosilini ham bir qismini o`ziga olardilar. X asrdan boshlab davlat hokimiyati kuchaya boshlaydi. Qirolning vassalar ustidan hukumronligi dam kuchayib, dam susayib bordi. O`rta asrlarning oxirlarida markazlashgan davlatlar yuzaga keldi. Rasmiy hokimiyat absolyut monarx qo`liga o`tdi.

Davlat hokimiyatining kuchaytirish maqsadida qirol tomonidan tashkil qilingan hukumat va uning amaldorlari davlatni boshqarishdagi ishtiroki tufayli ma`lum hokimiyatni qo`lga kiritdilar. Natijada qirol va davlat aristokratiyasi o`rtasida keskinlik paydo bo`ldi.

Bu keskinlikni bartaraf qilish yo`lida qirol paydo bo`la boshlagan uchinchi tabaqadan tayach izlardi. Taxminan 17-asrning oxirigacha uchinchi tabaqa asosan absolyutizmni qo`llab-quvvatlab keldi. Davlat bilan bir paytda cherkov ham rivojlanib bordi. O`rta asrning ilk davridan boshlab xayotiy muammolar bilan qiziqishlar doirasi asosan ma`naviy masalalar bilan cheklandi. Odamlar o`z hayotidagi o`ta og`ir muammolar echimini dindan izladilar.

Siyosiy huquqsizlik, moddiy nochorlik va jismoniy azob-uqubatlar, yovuzlik va iroda zaiflashishiga qaramay har bir kishi umid bilan yashardi. Xristianlik har bir kishiga murojaat qilardi va umid berardi. Erdagi hayot, deb uqtirardi xristianlik, drammatik tarixiy jarayonning bir qismidir xolos. Uning oxirida har bir kishini bu hayotdagi nohakliklar va azob-uqubatlar uchun odil mukofat kutadi.

Bulardan yuqorida Tangri-Xudo, yaratuvchi mehribon va odil rux turadi. Erdagi barcha mavjudod Xudo tomonidan odamlarning makoni sifatida panox topishi uchun yaratilgan. Barcha uchun umumiy qonun Xudoning amri mavjuddir. Barcha odamlar teng, zotan ularni Xudo o`ziga o`xshatib yaratgandir.

Bunday tushunish tabiiy huquq, umuminsoniy birdamlik va tenglik g'oyalari uchun zamin bo'lish imkoniyatini yaratardi. yangi xristianlik goyalari siyosiy va xuquqiy ta'limotlarda ham o'z aksini topdi. Xristianlik hukumron dinga aylangan vaqtdan boshlab O'rta asrlar siyosiy hayoti va siyosiy tafakkuriga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Jamiyatda davlatdan tashqari cherkov instituti yuzaga keldi. Bu institut rivojlanib bordi va IV asrdan boshlab O'rta asrlar oxirigacha davlat va cherkov o'rtasidagi munosabatlar o'zaro raqobatda o'tdi.

Amaldagi qonunlarni asoslash uchun tabiiy huquqqa murojat qilinardi. ya'ni tabiiy huquqqa tayangan va uning ifodasi deb talqin qilingan qonunlarga maqsadga muvofiq hisoblanardi. Shuning uchun ham tabiiy huquqning rasmiy vakolatga ega bo'lgan talqinchisi kim ekanligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etdi. Cherkov davlatning ahloqiy va diniy masalalari bo'yicha rasmiy talqinchi mavqeyini Ko'lga kiritganidan keyin dunyoviy hukmdorlarning tanqid qilish uchun ma'lum asoslar paydo bo'ldi. Bu Evropada ozodlik g'oyalarining rivojlanishida muhim ahamiyat kabs etdi.

Cherkov dunyoviy hukmdorlarga itoat qilishni targ'ib qilardi. Zotan cherkov dunyoviy hukmdorlar etik va diniy talablarga rioya qilmayapti deb topgan taqdirda, o'zining bu chaqirig'idan voz kechishi ham mumkin edm. Nazariy jihatdan davlat bilan cherkov o'zaro hamkorlik qilishlari kerak edi. Ammo ular nisbatan mustaqil institutlar bo'lgani tufayli, ko'pincha ham papa, ham imperatorni ulug'lash kerak bo'lardi. Dunyoviy xokimiyat va cherkov hokimiyati o'rtasidagi munosabatlar ko'plab qarama-qarshilik va nizolar bilan xarakterlanadi. Targ'ib qilish qobiliyatiga ega bo'lish uchun cherkov etarli iqtisodiy asosga, ya'ni ma'lum darajada dunyoviy hokimiyatga ega bo'lishi kerak edi. Hukmdorlar esa ma'lum diniy obro'ga ega bo'lishlari lozim edi. Bu ikki xokimiyatlar o'rtasidagi munosabatlarni keskin tus olishga **sabab** bo'lardi.

Avgustin va Foma Akviniskiyning siyosiy va xuquqiy qarashlari.

Mana shu ikki hokimiyatlar o`rtasidagi munosabatlarga o`zicha izoh bergan, antik davrni xristianlik davri bilan bog`lagan dastlabki buyuk teologlardan biri Avgustin edi (354-430). U lotin tilida juda ko`p asarlar yaratdi. O`zining "Xudo shahri haqida" asarida Avgustin tarix haqidagi tasavvurini va ikki shahar ("Podsholik") Zamin shahri va Xudo shahri haqidagi ta`limotini ishlab chiqdi. Avgustin fikricha inson Xudo yaratgan eng ulug` mavjudoddur, barcha narsalar inson uchun yaratilgandir. Inson esa panoh izlaydi. Insonning ichki dunyosi turli- his tuyg`ular, iroda, istaklarning kurash maydonidir, panoh topishga bo`lgan istak sohasidir. Biroq inson o`zining ichki dunyosini boshqarishga qodir emas. U marhamatga, ilohiy yordamiga muhtojdir. Inson erkin irodaga ega bo`lsada, Xudoning panoh topish rejasining bir bo`lagidir xolos.

Avgustin ruh va tananing o`zaro munosabati haqida shunday deydi: Ruh insonning ilohiy jihatlarini ifodalaydi. Tana esa gunox manbaidir. Inson butun e`tiborini imkon qadar tanadan erkin bo`lib Xudoga yaqinlashish uchun ruxan o`zining ichki olamiga qaratishi kerak. Avgustin har bir kishining ichida Xudo va Iblis o`rtasida kurash boradi deb hisoblaydi. Avgustin bunday kurashni tarixiy darajada Xudo shahri va Zamin shahri o`rtasidagi qarama-qarshilik shaklida ham quradi. Har bir individual hayot panoh va gunoh o`rtasidagi kurash maydoni bo`lgani singari, tarix ham ezgulik va gunoh "podsholigi" o`rtasidagi kurash maydonidir.

Cherkov ma`lum ma`noda Xudo "podsholigi"ni, Imperiya esa zamin "podsholigi"ni o`zida ifoda etadi, deb hisoblaydi Avgustin. Avgustin zamin podsholigini bo`lishi shart va zurur deb biladi. Insonning tabiati gunox qilish oqibatida buzilgani bois, kuchli er podsholigi yovuzlikni jilovlash uchun zarur deb hisoblaydi. Xatto gunox bo`lmagan taqdirda ham jamiyatda ma`lum tartib va boshqaruv shakli bo`lishi kerak.

Er podsholigi hukumdorlari Xudo tomonidan tartib saqlash uchun tayinlanadi. Xalq, Xudoning irodasiga bo`ysunishi shart bo`lgani bois, bu hukumdorlarga xam bo`ysunishga majburdir. Dunyoviy podsholik odamlardagi yovuzlikni Xudo podshoxligisiz (cherkovsiz) bartaraf qila olmaydi. Xristianlik davlatining barcha

a`zolari bir vaqtning o`zida ham papaning, ham imperatorning fuqarolaridirlar, deydi Avgustin.

Davlat va cherkov hokimiyatlarining ikkisi ham Xudodan va binobarin, ular bir xilda qonuniydir, degan ta`limotni ilgari surib V asrda Papa Gelasiy I maydonga chiqdi. 800-900 yillar mobaynida bu ta`limotni cherkov ham, davlat ham qabul qildi. Ammo ular o`rtasidagi kelishuv ko`prok og`izdagina bo`lib qoldi.

XIII asrga kelib g`arbiy Evropada, asosan cherkov doiralarida, intellektual faollik ro`y berdi. Arablar orqali Arastu qayta kashf qilindi. Falsafa sohasida Foma Akvinskiy xristianlik va Arastuizm sintezini amalga oshirdi. Bu sintez shu qadar muhim ahamiyat kasb etdiki, keyinchalik Rim-katolik cherkovi Foma Akvinskiy ta`limotiga o`zining rasmiy falsafasi sifatida qaray boshladi.

Foma Akvinskiy (1226-1274) o`rta asr diniy skolastikasining ko`zga ko`ringan namoyondasi. Uning siyosiy-huquqiy qarashlari "Teologiya majmui", "Hukmdorlarning boshqaruvi haqida", hamda Arastuning "Siyosat", "Axloq" asarlariga yozilgan izohlarida bayon qilingan.

Xuquq va qonun muammolarini Foma Akvinskiy xristian dinining inson va uning hayot mazmuni haqidagi tasavvurlariga tayangan holda yoritadi. U qadimgi dunyo mutafakkirlarining tabiiy huquq va adolat g`oyalariga, ayniqsa Arastuning siyosat va inson "siyosiy maxluq" ta`limotiga diniy nuqtai nazardan yondoshib murojaat qiladi. Foma Akvinskiy ta`limotiga ko`ra olam va undagi tartibning ijodkori Xudodir. Inson hayoti va harakatlarining ildizi Xudodadir.

Shu bilan birga inson aql va erkin irodaga ega mavjudotdir. Xar qanday erkinlikning ildizini aql-idrok (intellektual qobiliyat) tashkil qiladi, Insonning erkin irodasini yaxshilikka undovchi barcha harakat Xudo amriga, aql-idrok, adolat va yaxshilikka qaratilgan bo`lishi kerak.

Foma Akvinskiy bu fikrini o`zining qonun va huquq haqidagi ta`limotida konkretlashtiradi. Qonun, - deydi u, harakatning ma`lum qoidasi va o`lchovidir. Uning mohiyati inson hayoti va faoliyatini tartibga solishdan iboratdir. qonun jamiyat a`zolarining umumiy foydasini ifoda qilishi zarur. U bevosita jamiyat tomonidan, yoki uning ishonchiga ega bo`lgan vakillari tomonidan joriy qilinadi. Qonun e`lon qilinishi shart.

Foma Akvinskiy qonunlarni quyidagi turkumlarga ajratadi: abadiy qonun, tabiiy qonun, inson yaratgan qonun, ilohiyat qonuni. Abadiy qonun ilohiy aql-zakovatning ifoda etuvchi koinotning umumiy qonunidir. Bu qonun olamning mutloq qoidasi va tamoyili sifatida tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning barchasini idora qiladi va ularni aqlga muvofiq rivojlanishini ta`minlaydi. Abadiy qonun umumiy bo`lganligi uchun ham barcha boshqa qonunlarning manba`idir. Bu qonun bevosita tabiiy qonunda namoyon bo`ladi. Tabiiy qonunga muvofiq Xudo yaratgan barcha narsalar, jumladan inson xam, o`zining tabiiy xossalariga ko`ra o`z qonunlariga ega va shu qonunlarga binoan rivoj topadi.

Inson o`z tabiatiga ko`ra yaxshilik va yomonlikning ajratish qobiliyatiga ega, ezgulikka intiladi, yaxshilik talabiga mos harakat qilishga moyildir. ya`ni inson o`zining amaliy faoliyatida yaxshilik qilish va yomonlikdan qochish talabiga amal qiladi. Boshqa odamlar bilan bo`ladigan munosabatlarda inson tabiiy tug`ma intilish, instinkt va ishtiyoqlari bilan belgilanadigan qoida va talabalarga rioya qiladi. Bular o`z jonini saqlashga tirishish, oila qurish va farzand ko`rish, boshqa odamlar bilan muloqatda bo`lish, Xudoga intilish va hokozolar. Tabiiy qonun talablariga rioya qilish inson uchun aql-idrokka muvofiq xarakterli harakat qilish demakdir. Odamlarning jismoniy, emotsional va intellektual tabiiy xususiyatlari, hayot sharoitlari bir xil bo`lmaganligi sababli ular tabiiy qonun talablarini har xil tushunadilar va tadbiq kiladilar. Oqibatda barcha uchun bir xil majburiy bo`lgan tabiiy qonun talablariga zid harakatlar ham paydo bo`ladi.

Inson qonunining paydo bo`lishi ildizi mana shundadir. Inson qonuni tabiiy qonun talablariga asoslangandagina odamlarning muxofaza qila olishi, inson hayotining turli sharoitlariga mos holda qo`llanishi mumkin bo`ladi. Inson qonuni majbur qilish sanksiyasi bilan ta`minlangan ijobiy qonundir, deydi Foma Akvinskiy. yaxshi fazilatga ega odamlar busiz ham yashashlari mumkin, ular uchun tabiiy qonunning o`zi kifoya, lekin nasixatga quloq solmaydigan, e`tiqodsiz odamlarni zararsizlantirish uchun jazo va majbur qilish kerak. Buni borligidan odamlar qo`rqishi kerak. Shu tufayli odamlarda axloqiy fazilatlar rivoj topadi, aqlga muvofiq, yaxshilikka amal qilish odatlari shakllanadi.

Inson qonuni tabiiy qonun talablariga mos kelmasa u qonun emas, qonunning buzish, undan chetga chiqishdir. Shu fikrdan kelib chiqib Foma Akvinskiy adolatli va adolatsiz qonunlarni ajratadi. Inson qonunlarining maqsadi odamlarning umumiy foydasi, baxt-saodatiga xizmat qilishdan iborat. Bu insoniy qonunning asosiy belgisi va sifatidir.

Insoniy qonun oddiy odamlar bajarishi mumkin bo'lgan talabalarni qo'yishi, ularning zaiflik va kamchiliklarini ham hisobga olishi kerak. U barcha uchun teng, bir xil talab va jazo belgilashi, tegishli instantsiya tomonidan qabul qilinishi shart. Mana shu belgi va xossalar bo'lgandagina uni ijobiy qonun deb hisoblash mumkin, bo'lmasa u qonun adolatsiz qonundir. Uni qonun deb qabul qilish ham mumkin emas. Foma Akvinskiy ikki xil adolatsiz qonun haqida fikr yuritadi.

Birinchisi, agarda qonunda unga xos bironta belgi bo'lmasa, masalan, qonun zaminiga umumiy foyda o'rniga, qonun chiqaruvchining xususiy foydasi ko'yilgan bo'lsa, yoki qonun chiqaruvchi o'z huquq doirasidan chiqib ketsa va boshqalar. Fuqarolar uchun bunday qonunlar majburiy emas. Lekin umumiy tinchlikni saqlash va qonunbuzarlik odat bo'lib qolmasligi uchun ularga rioya qilish taqiqlanmaydi.

Adolatsiz qonunlarning ikkinchi turini tabiiy va ilohiy qonunlarga zid bo'lgan qonunlar tashkil qiladi. Bu qonunlarga rioya qilish shart emas. Diniy qonunlar muqaddas ko'hna vasiyatnomalarda ifodalangan ilohiy haqiqat va qoidalar. Foma insoniy qonun-qoidalarni ilohiy qonun qoidalari bilan to'ldirish zarurligini bir necha sabablarini ko'rsatadi.

Birinchidan, diniy qonun inson hayotining oxiratini eslatish uchun kerak. Insonning o'zi bunga ojizdir. Ikkinchidan, diniy qonun odamlarning adolat, yaxshi fazilat va kamchiliklar haqidagi munozaralarida mezon vazifasini o'taydi. Uchinchidan, diniy qonun insonning har-xil talpinishlarining to'g'ri yo'lga solish uchun kerak. Chunki ruhiy harakatlar insoniy qonun doirasida emas. To'rtinchidan, diniy qonun barcha yovuzlik, yomonlik va gunoh ishlarni, shu jumladan insoniy qonun bilan man qilib bo'lmaydigan barcha nuqsonlarni tag-tomiri bilan tugatish uchun kerak.

Foma Akvinskiy o'zining qonunlar hakidagi mulohazalarini huquq haqidagi ta'limoti bilan to'ldiradi. Uning fikricha, huquq Xudo irodasi bilan o'rnatilgan

turmush tarzi, qoidalari va undagi adolat harakatidir. Adolat bu ahloqiy fazilatlardan bo`lib har kimga o`ziga tegishlisini, qilmishiga yarasha olishining o`zgarmas va doimiy ifodasidir. Umuman Foma Akvinskiy huquqshunoslikning izchil va chuqur xristianteologik variantini ishlab chiqdi. Uning falsafiy-huquqiy qarashlari tabiiy huquqning tomistik va neotomistik kontseptsiyalarida o`z rivojini topdi.

Rejaga qytish

Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iborlar.

Feodal jamiyat, O`rta asrlar davri, G`arb, qirol, vassal, xristianlik dini, cherkov, Avgustinning siyosiy va xuquqiy qarashlari, Foma Akvinskiyning siyosiy va xuquqiy qarashlari.

Mavzuga oid nazorat savollari.

1. G`arbiy Evropada O`rta asrlarda qanday siyosiy va xuquqiy ta`limotlar rivojlandi?
2. O`rta asrlar siyosiy va xuquqiy ta`limotlarida cherovni o`rni qanday edi?
3. Avgustin qanday siyosiy va xuquqiy ta`limotlarni olg`a surgan?
4. Foma Akvinskiy qanday siyosiy va xuquqiy ta`limotlarni olg`a surgan?
5. Avgustin va Foma Akvinskiyning siyosiy va xuquqiy ta`limotlarida qanday farq bor?

F o y d a l a n i l g a n a d a b i y o t l a r

1. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda». «O`zbekiston», Toshkent. 2000 y.
2. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». «O`zbekiston», Toshkent 1997 y.
3. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q». Toshkent. 1998.
4. Karimov I.A. «O`zbekiston – bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li». «O`zbekiston», Toshkent 1995 y.
5. Karimov I.A. «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida». «O`zbekiston», Toshkent 2000 y.
6. Sharipov R., Muxiddinova F. «O`zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta`limotlari tarixi». Toshkent. 2004.
7. Rahmonov R. G`ofurov Z. “Mustaqillik va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi”. “O`zbekiston”, Toshkent 1999.
8. Boboiev X.B. taxriri ostida «Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi» T. 2003 y.
9. Toshqulov J.O`zbekiston xalqlari siyosiy-xuquqiy fikrlari tarixidan. T. 1996 y.

G`ARBIY EVROPADA UYG`ONISH DAVRI SIYOSIY VA HUQUQIY TA`LIMOTLARI.

R E J A:

1. G`arbiy Evropada uyg`onish davri siyosiy xuquqiy ta`limotlari.
2. Nikollo Makiavelli va Jan Bodenning siyosiy va xuquqiy qarashlari.
3. Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar

G`arbiy Evropada uyg`onish davri siyosiy xuquqiy ta`limotlari.

Uyg`onish davri XV- asrdan XVII- asrgacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. Bu davr qirollik hokimiyatini absolyut monarxiyaga aylanishi va mustahkamlanishi, ilk kapitalizimning vujudga kela boshlashi, feodal jamiyatining barham topishi bilan xarakterlanadi. Feodalizmdan sekin-asta kapitalizmga o`tish ro`y bera boshlaydi.

yangi davr markazlashtirilgan hokimiyatning kuchayishi bilan bir vaqtda feodal tarqoqligini tugatish talablari kuchayib bordi. Sanoat ishlab chiqarish, kemasozlik, harbiy ishni rivojlantirish ehtiyojlari yangi ilmiy tadqiqot metodlarini, o`rta asrchillikka xos sxolastikadan voz kechishni taqazo qilar edi.

Paydo bo`la boshlagan burjua mafkurasi nomoyondalari diniy aqidalarga nisabatan tanqidiy munosabatda bo`ladilar, mustaqil ilmiy tadqiqotga intilish kuchaydi. Insoniy ehtiyojlar birinchi o`ringa chiqdi. Olimlar insonning ijodiy imkoniyatlari, uning aql-idrok qudratini ulug`ladilar. Antik madaniyatning qayta tiklanishi, diniy Reformatsiya, tabiatshunoslik fanlarining vujudga kela boshlashi uyg`onish davrining asosiy xususiyatidir.

Bu o`zgarishlar siyosiy fikr sohasida ham o`z aksini topdi. yangi siyosiy ta`limotlarda cherkovga bog`lik; bo`lmagan, markazlashgan dunyoviy davlat tuzish

talablari yuzaga kela boshladi. Bu yangi g`oyalarning himoyachisi va targ`ibotchilari Italiyada Makiavelli, Frantsiyada Bodin hisoblanadi.

Nikollo Makiavelli va Jan Bodinning siyosiy va xuquqiy qarashlari.

Nikollo Makiavelli (1469-1527) siyosiy fikr tarixiga o`zining bir qancha ijobiy asarlari bilan kmrib keldi. Bu asarlar ichida uning "Xukmdor" ("Gosudar'") asari alohida o`rin egallaydi. Makiavelli birinchilardan bo`lib diniy aqidalardan holi bo`lgan siyosiy ta`limot yaratishga harakat qildi. Uning ta`limoti siyosiy amaliyotning kuzatish, tarix va inson psixikasini o`rganish asosiga qurilgan.

Makiavellining fikricha u odamlarning xatti-harakatlarini bir-xil xirs va intilishlar belgilaydi. Inson tabiatining zaminida amalparastlik, g`arazgo`ylik yotadi. Odamlar, deydi u, subitsiz, noshukur, qo`rqoq, munofiq, ichi qora, boshqalarni ko`ra olamaydigan xossalarga egadirlar. qobiliyati cheklangan bo`lsa ham, hohishlari cheklanmagan. Ular doim hozirgi kundan norozi, o`tmishni maqtaydilar, taqlid qilishni sevadilar, lekin yaxshi narsalarga nisbatan yomon odatlarni tezroq o`zlashtiradilar. Inson - "o`zining dunyoga kelishini batamom asosli ravishda katta yig`i bilan olqishlovchi eng ojiz va sho`rpehana maxluqdir".

Donishmand hukmdor davlatni boshqarishda o`zini axloq normalari bilan cheklanmasdan odamlarga xos mana shu xossalarini hisobga olishi zarur, deb uqtiradi. Shundagina u o`z oldiga qo`ygan vazifalarni bajarishga qodir bo`ladi. Makiavelli markazlashgan milliy davlat tarafdori edi. U davlatni kuchsizlantiruvchi va uning yaxlitligini buzuvchi barcha narsalarga nafrat bilan qaraydi va aksincha, davlat qudratining oshib borishiga, uning birligini mustahkamlashga, chegaralarini kengayishiga ko`mak beruvchi barcha narsalarni olqishlaydi. U feodallarni, ayniqsa dvoryanlar toifasini, cherkovni qattiq tanqid ostiga oldi. Ularni davlatning qudratli bo`lishiga to`squinlik qiluvchi kuchlar deb bildi.

Makiavelli davlatning monarxiya va respublika shakllarini ajratadi. U respublikaning afzalliklari haqida gapirsa ham markazlashgan va qudratli davlat yaratish uchun monarxiya qulayroq deydi. qudratli davlatni yaratish yo`lida hukmdor hech narsadan toymasligi kerak, ahloq normalariga ham rioya qilishi shart emas. U hukmdorga berahm va ayyor bo`lishni, fuqarolarga qo`rqituv orqali ta`sir qilishni maslahat beradi.

Hukmdor she`rdan jassurroq, tulkidan ayyorroq bo`lishi kerak, negaki, "tuzoqni ko`rish uchun tulki, bo`rilarni jazosini berish uchun she`r bo`lmog`i darkor". Makiavelli hukmdorga qurolli kuchga diqqat qilishni tavsiya qiladi. "Agar yaxshi qo`shinlar bo`lsa, yaxshi do`stlar doim bo`ladi". yaxshi qonunlar qanchalik muhim bo`lmasin, davlatda qurolli kuch muximroqdir, deydi u .

Makiavelli hukmdorga o`z dushmanlariga nisbatan shafkatsiz bo`lishni, jazolashda tezkor, jasur va dadil bo`lishni maslahat beradi. Sustkashlik, ikkilanish har qanday ishni yo`kqa chiqaradi. Makiavelli o`z davrining siyosiy amaliyotini aks ettiribgina qolmay, keyingi davr siyosiy hayot xususiyatlarini ham ko`ra bildi. Siyosiy ta`limotlar tarixida "makiavellizm" nomini olgan tushuncha Makiavellining fikriga mos siyosatni anglatadi.

Jan Boden (1530-1596) frantsuz siyosiy mutafakkiri, huquqshunos, advokat, prokuror lavozimlarida ishlagan. Uning asosiy asari "Davlat haqida olti kitob» deb nomlanadi. Bu asarda u siyosiy fikr tarixida birinchi bo`lib davlatning muxim belgisi suverenitetga izoh beradi.

Davlat bu oilalar majmuidir, deb ta`rif beradi. Boden shu bilan birga davlatning oiladan jiddiy farq qilishini ham ta`kidlaydi. Bu farq davlat hokimiyatining oliy suveren xarakterligidadir. Suveren hokimiyat davlatning muhim va zaruriy xossasidir. Davlat hokimiyati xech kimga qaram bo`lmagan oliy hokimiyatdir. Boden suveren hokimiyatning belgilarini ko`rsatadi. Suverenitet yagona va bo`linmas: u qirol va xalq o`rtasida bo`linmaydi. Suverenitet xokimiyatning muntazamligini bildiradi. Uni vaqtincha yoki ma`lum shart bilan boshqaga topshirish mumkin emas.

Boden qirol absolyutizimining tarafdori sifatida suverenitet hokimiyatning cheklanmaganligi, qonundan ham ustivorligini ko`rsatadi, deydi. "Suverenitet, Boden ta`rifi bo`yicha, bu qonunlarga itoat qilishdan ozod bo`lgan grajdanlar va fuqarolar

ustidan o`rnatilgan hokimiyatdir". Suveren o`zi qabul qilgan qonunlardan ozoddir. Biroq bu hokimiyat hech narsa bilan cheklanmagan degan narsa emas, deydi u. Hokimiyat Xudo qonunlariga va tabiiy qonunlarga itoat qilishi shart. Bundan tashqari, deydi Boden, suveren fuqarolarning xususiy mulkini hurmat qilishi, unga tajavvuz qilmasligi zarur.

Suverenitet yagona va bo`linmas bo`lganligi uchun doim bir shaxs yoki bir majlis qo`lida bo`ladi. Suverenitet yo qirol, yo aristokratiya, yo xalq qo`lida bo`lishi mumkin. U bir necha turli organlar o`rtasida tahsimlanmaydi, yoki navbat bilan undan foydalanilmaydi.

Bodenning suverenitet haqidagi ta`limoti feodal tarqoqligiga qarshi qaratilgan bo`lib, Frantsiyada markazlashgan davlat vujudga kela boshlagan vaqtda paydo bo`ldi. U cherkovning dunyoviy hokimiyatga ega bo`lish uchun qilgan harakatlariga qarshi qaratilgan edi. Boden davlat shakllari ichida monarxiyani afzal ko`radi. Demokratiyani mutloq rad qiladi. Uning aytishicha, xalq go`yo to`g`ri qarorga kelishiga qodir emas, demokratiya anarxiyaga olib keladi.

Aristokratiya monarxiya bilan demokratiyaning o`rtasidagi davlat shaklidir. Bodenning fikricha, aristokratiyaning afzalligi shundaki unda hokimiyat saxovatli zadogonlar va badavlat kishilar qo`lida bo`ladi. Biroq aristokratiya, deydi Boden, turli partiyalar janjallari va shuxrat-parastlar kurashiga giriftor, is`yonlarga qarshi turolmaydi.

Boden monarxiyani eng yaxshi davlat shakli deb biladi. Monarxiyadagina bir butun va bo`linmas davlat hokimiyati mavjud. Birlik bo`lmagan joyda oliy xokimiyat ham yo`q. Davlat hokimiyatining birligini ta`minlovchi birdan-bir davlat shakli monarxiyadir. Davlat hokimiyatini ustida turgan monarx qarama-qarshi davo va intilishlarning bir-biriga kelishtiradi va qarama-qarshi elementlarning uyg`unlashgan birligini yaratadi. qonuniy monarxga bo`ysunishni targ`ib qilish bilan birga, Boden tiraniyaga qarshiligini bildiradi. Zo`ravonlik yo`li bilan hokimiyatga kelgan kishi tirandir. Unga qarshilik ko`rsatish, uni og`darish, xatto o`ldirib tashlash xam man qilinmaydi, deydi Boden.

Boden davlat to`ntarilishlarining sabablarini tahlil qiladi. Bu sabablar ichida birinchi navbatda mulkiy tengsizlikni ko`rsatadi. Ko`pchilikni qashshoqlanishi va

ozchilikni nihoyatda boyib ketishi, hurmat izzatni va boyliklarni adolatsiz taqsimlanishi ham davlat to`ntarilishiga olib keladi. Siyosatchi, deydi- Boden,-bularni oldini olishi kerak. U yon berish, kelishish, isloxotlar orkali nizolarni bartaraf qilishi lozim. Boden g`arbiy Evropa jamiyatining rivojlanishida qirol absolyutizmi progressiv rol` o`ynayotgan davrda uni himoya qilib chiqdi.

Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar.

Uyg`onish davri, reformatsiya, burjuaziya, burjua mafkurasi, Makiavellining siyosiy va xuquqiy qarashlari, Jan Bodenning siyosiy va xuquqiy qarashlari, monarxiya, respublika, demokratiya, suverenitet, aristokratiya, monarx.

Mavzuga oid nazorat savollari.

1. G`arbiy Evropada uyg`onish davri qaysi davrlarni o`z ichiga oladi?
2. G`arbiy Evropada uyg`onish davrida qanday siyosiy va xuquqiy ta`limotlar rivojlandi?
3. Shakllangan siyosiy va xuquqiy ta`limotlarda qanday g`oyalar va qarashlar olg`a surildi?
4. Makiavelli qanday siyosiy va xuquqiy ta`limotlarni olg`a surgan?
5. Jan Boden qanday siyosiy va xuquqiy ta`limotlarni olg`a surgan?

F o y d a l a n i l g a n a d a b i y o t l a r

1. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda». «O`zbekiston», Toshkent. 2000 y.
2. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». «O`zbekiston», Toshkent 1997 y.
3. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q». Toshkent. 1998.
4. Karimov I.A. «O`zbekiston – bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li». «O`zbekiston», Toshkent 1995 y.
5. Karimov I.A. «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida». «O`zbekiston», Toshkent 2000 y.
6. Sharipov R., Muxiddinova F. «O`zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta`limotlari tarixi». Toshkent. 2004.
7. Rahmonov R. G`ofurov Z. “Mustaqillik va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi”. “O`zbekiston”, Toshkent 1999.
8. Boboev X.B. taxriri ostida «Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi» T. 2003 y.
9. Toshqulov J.O`zbekiston xalqlari siyosiy-xuquqiy fikrlari tarixidan. T. 1996 y.

ROSSIYA SIYOSIY VA HUQUQIY TA'LIMOTLARINING AYRIM XUSUSIYATLARI

REJA:

1. Rossiyada siyosiy va huquqiy ta'limotlarining vujudga kelishi.
2. Ma'rifatparvarlik yo`nalishi vakillarining siyosiy va huquqiy qarashlari.
3. Slavyanofillar va g`arbchilar yo`nalishi vakillarining siyosiy-huquqiy qarashlari.
4. Liberal yo`nalish vakillarining siyosiy-huquqiy qarashlari
5. Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar

Rossiyada siyosiy va huquqiy ta'limotlarining vujudga kelishi.

Rossiya siyosiy - huquqiy madaniyati o`zining xususiyati va an`analariga egadir. Ular bir qancha omillar tasirida shakllandi. Bu omillar orasida Rossiyaning jug`rofiy-siyosiy holati, uning Sharq bilan g`arb o`rtasida joylashganligi, katta xududiy makonga egaligi va iqlimiy sharoitlari, aholi tarkibining xilma-xilligi, xo`jalik faoliyati, ijtimoiy-madaniy turmushi, an`analari va e`tiqodlarini eslatib o`tish kifoyadir.

Rossiya davlati ko`p millatli bo`lganligi uchun muayyan darajada milliy, tarixiy, diniy, ijtimoiy-madaniy xususiyatlarni hisobga olishga majbur edi. Masalan, muayyan siyosiy maqsadlarga bo`ysundirilgan shaklda rus davlati qonunlari bilan bir qatorda shariat, odat huquqi va boshqa huquq tizimlari ham harakatda bo`lgan. Ko`p asrlar davomida Rossiyada hukm surgan mustabid hokimiyat tuzumi, aholining aksariyat qismini huquqsizligi, ichki va tashqi siyosatda asosan zo`rlik usullariga amal qilish,

mamlakatning boshqarishda markazlashgan byurokratik tizimga tayanish, har qanday erkin fikrning bostirish siyosati mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va huquqiy hayotining qoloq va turg'un xolatda qolishiga sabab bo'ldi.

XI-asrda vujudga kela boshlagan rus siyosiy va huquqiy ta'limotlarida mustaqillik, davlatning markazlashtirish, kuchli, cheklanmagan mustabid podshoh hokimiyatini o'rnatish g'oyalari o'z aksini topadi. Bu ta'limotlarda pravoslav cherkov bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalalari ham katta o'rin olgan. Provaslav cherkovi davlatning idoralaridan biridir. U podshoh hokimiyatiga bo'ysunishi shart, degan fikr keng targ'ib qilindi.

Mamlakatni qoloqlikdan chiqarish zarurligini anglash Petr I davridan boshlab rus davlatchiligidning eng muhim strategik vazifalaridan biri bo'lib qoldi. Keyingi davrlarda ham Rossiyaning g'arbiy Evropa ilg'or mamlakatlari nisbatan orqada qolganligi, iqtisodiy va madaniy, siyosiy va huquqiy ahvolidning Evropaga taqqoslab baholash va zarur bo'lgan islo-hotlarni amalga oshirish muammolari siyosiy fikr diqqat markazida bo'ladi.

Rus davlati o'zining hududiy va etnik tarkibi jihatidan Evropa kontingentiga mansub davlat sifatida shakllandi. Bunga xristianlikning ta'siri katta bo'ldi. Xristianlik 988 yil Kiev Rusi knyazi Vladimir davrida qabul qilindi va davlat dini sifatida Rossiya ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o'ynadi.

Rus davlati taraqqiyotining hamma bosqichlarida rus davlatchiligidning boshlanishi va ildizi Kiev Rusi ekanligi haqidagi g'oya uqtirilib kelindi. Rossiyaning mo'g'ullar zulmidan ozod qilinishi, Moskva knyazligi zaminida markazlashgan rus davlatining shakllanishi va mustaxkamlanishi davriga kelib Kiev Rusi va Moskva davlati tarixining ildizi bir ekanligi haqidagi g'oya xukumron davlat mafkurasi darajasiga ko'tarildi. Bu g'oya Moskva hukumdorlarining Kiev buyuk knyazlari orqali dunyopodshohi hisoblangan Rim imperatori Avgust bilan vorislik aloqasi borligini va provaslav xristianligining yagona homiysi Moskva hukumdorlaridir, degan fikrni asoslashga xizmat qilishi kerak edi. Moskva qadimiy Rim va Konstantinopoldan keyingi "uchinchi Rim", deb e'lon qilinishi shu bilan izohlanadi. Bu ta'limotni Pskov monastirining monarxi Filofey batafsil ishlab chiqdi. Uning ta'limoti rus davlatining Rim va Vizantiyadan keyingi eng buyuk davlatdir, Moskva

hukumdorlari esa xudo tanlagan buyuk hukum-dorlar hokimiyatining qonuniy vorislaridir, degan fikrni asoslashga qara-tilgan edi. Filofey davlatga hukumdorning mulki sifatida qaraydi.

Rossiya davlatchiligi tarixiga xos hususiyatlaridan biri shundaki, bu erda mo`g`ullar zulmidan keyin Moskva podsholigi vujudga kelishi davridan boshlab, siyosiy diqqat hududni kengaytirish va markaziy xokimiyatni mustax-kamlashga qaratilgan. Aholining manfaatlari o`z ahamiyatini yo`qotib bordi. Vaqt o`tishi bilan bu jarayon kuchayib bordi va Rossiyani bu sohada g`arbiy Evropadan farqlanishini yaqqol qo`rsata boshladi. g`arbiy Evropada feodal munosabatlaridan yangi davr jamiyati va davlati tomon o`tish jarayoni tez-lashdi, inson huquqi va erkinliklari borgan sari kengrok tan olina boshlandi va natijasida oliy hukumdor hokimiyati cheklanib bordi.

Rossiyada aholining barcha qatlamlarining xuquqsizligi XVIII asrning ikkinchi yarmigacha davom etdi. Rossiyaning siyosiy va huquqiy tarixida birin-chi bo`lib imperator Pyotr III farmoni bilan dvoryanlar majburiy davlat xizmatidan ozod qilindi. Bundan keyin Ekaterina II-XVIII asrning 70-80 yillarida dvoryanlarga ayrim boshqa grajdanlik xuquq va erkinliklarni shu jumladan xususiy mulkka egalik qilish huquqini berdi. Rossiya aholisining asosiy qismini tashkil qilgan dexqonlarning krepostnoy qaramlikdan ozod qilish uchun yana 100 yil kerak bo`ldi. Bu Aleksandr II tomonidan 1861 yilda amalga oshirildi.

Inson huquqi va erkinliklari, huquqiy qadriyatlar va umuman huquq ma-salalariga salbiy munosabat aholining huquqsizligini yanada mushkul-lashtirardi. Shuni ham alohida ta`kidlash zarurki, Rossiya davlati yirik ev-roaziya mamlakati sifatida rivojlanishida Evropaga tahlid qilish yo`lidan bordi. Petr I islohotlaridan boshlab Rossiyaning asosiy islohotlari mana shu fundamental vazifalarni echishga qaratildi.

XUP-XUSh asrlarda Rossiya siyosiy fikri yangi davr g`arbiy Evropa g`oyalari tasiri ostida rivojlandi. Siyosiy ta`limotlar asta-sekin dindan ajralib bordi, dunyoviy tus ola boshladi. Bu jarayonning tezlashishga Petr I ning islohotlari katta turtki berdi. Biroq Evropa ma`rifatparvarligining "ijtimoiy shartnoma:", "tabiiy huquq", "hrkimiyatlar bo`linishi" kabi tushunchalari Rossiyada o`ziga xos yo`lda talqin qilindi, yoki umuman tadbiiq qilinmadi. Ma`rifatparvar absolyutizm g`oyasining tarafdorlari:

F.Prokopovich, V.N.Tatigsev, I.T. Pososhkov va boshqalar davlat bu "umumiy ma`faat", "umumxalq foydasi" uchun xizmat qiluvchi, o`z fuqarolarining orzu istaklariga quloq soluvchi kuchdir, degan g`oyani asoslashga harakat qildilar.

Shu bilan bir vaqtda rus tarixiy jarayonining o`ziga xos xususiyatlari va demokratik institutlarning yo`qligi ijtimoiy o`zgarishlar faqat yuqoridan, davlatning in`omi sifatida amalga oshiriladi, bunday davlatning eng qulay shakli absolyut monarxiyadir, degan xulosa chiqarishni taqozo qilar edi. XUSH-asrning ikkinchi yarmida Rossiya siyosiy fikri yangi bosqichga ko`tarildi. Unda frantsuz ma`rifatparvarligi ta`siri ostida davlatning idora qiluvchi hukmdor hokimiyati bilan shaxs va jammyat o`rtasidagi o`zaro munosabati, shaxs qadr-qimmati, unmg tabiiy huquqlari kabi muammolar taxlil qilina boshlandi.

Siyosiy fikrda konservativ, ma`rifatparvarlik va uning radikal yo`na-lishlarini ko`rammz. Konservativ yo`nalishning ko`zga ko`ringan nomoyondasi M.M.GTSerbatov (1733-1790) cheklanmagan monarxiya davlat shaklini, kre-postnoy tuzumni saqlab qolish g`oyasini himoya qilib chiqdi.

Ma`rifatparvarlik yo`nalishi vakillarining siyosiy va huquqiy qarashlari

Ma`rfatparvarlmk yo`nalishi vakillari S.E.Desnitskiy ya.P.Kozil's-kiy, N.I.Novikov, A.ya.Polenov va boshqalar krepostnoy huquq tuzummni tanqid ostiga oldilar. Ularning ayrimlarm "Ma`rifatli hukmdor" g`oyasini ham shubha ostiga oldilar. XVIII asr ikkinchi yarmida ma`rifatparvarlik yo`nalishining siyosiy va huquqiy qarashlari o`z ifodasini birinchi rus huquqshunos-professori S.CH.Desnitskiy (1740-1789) asarlarida topdi: S.CH.Desnitskiy G.Grotsiyning tabiiy x,uquq haqidagi qarashlariga xayrixoxlmk bildiradi.

Ma`rifatparvarlik radikal yo`nalishining namoyondasi A.N.Radihevdur (1749-1789). U krepostnoy huquqni, mustabid monarxiya davlatini keskin tanqid ostiga oldi. Mustabid monarx hokimiyati mamlakatning taraqqiy etishiga g`ovdir, o`zboshimchalik makonidur, deb baholadi. Radishchev ma`rifatli xukumdor nazariyasini ham rad qildi. A.N.Radmshev "ijtimoiy shartnoma" nazariyasiga asoslanib, xalq shartnomaga amal qilmagan davlatdan voz kechish huquqiga egadir, degan xulosaga keldi. Pyotr I islohotlaridan boshlangan Rossmyaning evropalashtirish harakati jamiyat konservativ kuchlarning qattiq qarshiligiga uchradi. Ular mamlakatni evropalashtirishga mutlaqo qarshi edilar. XIX asrning 30-40 yillarida Rossiya ijtimoiy-siyosiy fikrida slavyanofillar va g`arbchilar nomini olgan oqimlar vujudga keldi. Bu oqimlar Rossyaning tarixiy taqdiri masalalarini muhokama qildilar va o`zaro bahslashdilar.

Slavyanofillar va g`arbchilar yo`nalishi vakillarining siyosiy-huquqiy qarashlari

Slavyanofillar Rossiya o`ziga xos rivojlanish yo`liga egadir va shu yo`ldan borishi zarur, deb chiqdilar. Bularning yirik namoyondalari A.S.Xomyakov, I.V. Krievskiy, Yu.F.Samarin, I.S.Aksakov va boshqalar.

Rossiya o`zining patriarxal dehqon obhinasini, ijtimoiy va ma`naviy psixologik an`analari bilan Evropadan ajralib turadi, bu milliy xususi-yatni saqlash va rivojlantirish zarur deb biladilar. Slavyanofillar g`arbning iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tajribasini o`rganish va joriy qilish ijtimoiy va davlat tizimida ijobat islohatlar o`tkazishga mutlaqo qarshi chiqdilar. Ular mustabid monarx hokimiyati tarafdori edilar.

g`arbchilar oqimining namoyondalari AL.Gertsen, T.N.Granovskiy, Yu.P Ogarev, V.P.Botkin va boshqalar Rossmyada ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlar o`tkazish zarurligini, g`arbiy Evropa mamlakatlari erishgan yutuqlarning o`zlashtirish va ularga amal qilish g`oyalarini targ`ib qildilar.

Liberal yo`nalish vakillarining siyosiy-huquqiy qarashlari

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus siyosiy va huquqiy fikrida liberalizm g'oyalari rivoj topa boshladi. Liberal yo`nalish vakillari Rossiya va g'arbiy Evropa davlatlarining rivojlanish yo'llari birdir, degan goyani asosladilar. Ular mustabid monarxiyani konstitutsion monarxiya bilan almashtirishga qaratilgan islohatlarni amalga oshirishni talab qilib chiqdilar. Bu talablarning asoslashda ular tabiiy huquq nazariyasiga, Kant va Gegelning huquq falsafasiga murojat qildilar.

Bu yo`nalish namoyondalari B.N.Chicherin, P.I.Novgorodtsev, I.A.II`in, K.D.Kavelin, S.A.Muromtsev, M.M.Kovalevskiy va boshqalar. B.N.Chicherin (1828-1904) qalamiga mansub asarlar orasida "Huquq falsafasi" va 5 jildlik "Siyosiy ta`limotlar tarixi" alohida o`rin olgan.

B.N.Chicherin ta`limotiga ko`ra, inson o`z tabiati bilan eng sezgir va o`z qadriyatini onglashga qodir mavjudotdir. Uni oddiy qurolga aylantirish mumkin emas. Kishilik jamiyatlarining barchasini harakatlanuvchi kuchi mana shu ongdir. Huquq g'oyasi mana shu ongdan kelib chiqadi va borgan sari kengayib ongda hukmronlik qila boshlaydi.

Biroq odam jamiyatda yashaydi va uzluksiz o`z erki doirasini kengaytirishga intiluvchi boshqa odamlar bilan to`qnashadi. "Shundan, deydi Chicherin, ularning har biriga nima tegishligini aniqlash va o`zaro tortishuvlarni bartaraf qilish uchun muayyan qoidalar o`rnatish zarurati paydo bo`ladi. Huquq kishilik jamoasining ilk bosqichlarida mana shunday paydo bo`ladi va o`sish, murakkablashish natijasida eng yuqori bosqich tomon rivojlanadi. Huquq bu erkinlikni umumiy qonun ostida o`zaro cheklovchi, barcha kishilik jamiyatlarining ajralmas belgisidir".

Shunday qilib Chicherin huquqning paydo bo`lishi va yashash sabalarini jamiyatda mavjud ikki qarama-qarshi elementdadir deb ko`rsatadi: erkdan iborat shaxsning ruxiy tabiati va erkinlikni cheklovchi qonunda ifodasini topgan ijtimoiy omil. Bularning o`zaro munosabatlarini uyg`unlashtirish asosiy masaladir.

B.N.Chicherin huquq falsafasining ahamiyati va rolini ko`rsatishga urindi. Uning fikricha, huquqning falsafiy asoslari amaliyot uchun ko`rgazma vazifasini o`taydi, chunki "huquq sohasi ijobiy qonunchilik bilangina cheklanmaydi".

Amaldagi qonunlar odamlar ehtiyoji va qarashlarining o'zgarishi bilan o'zgarib boradi va inson irodasi bilan yaratilganligi uchun yaxshi va yomon bo'lishi mumkin. Ularni odamlar baholaydilar. qonun chiqaruvchining o'zi ham qonunlarga baho beradi. qonun chiqaruvchi o'zining ko'rgazmalariga itoat qilishi shart bo'lgan odamlarning huquq va majburiyatlarini belgilashda nimaga asoslanishi kerak? U bunday ko'rgazmani amaldagi hukukning o'zidan ololmaydi, chunki uning o'zini baholash va o'zgartirish kerak. Buning uchun boshqa yuqori darajadagi tasavvur va tushunchalar kerak bo'ladi. qonun chiqaruvchi hayotiy tajriba ko'rgazmalari bilan xam kifoyalana olmaydi, chunki ular bir-biriga qarama-qarshi tushunishni talab kiladigan har xil element, manfaat va talablardan iboratdir. Amaldagi qonunlarning nisbiy kuchi va qadr-qimmatini aniqlash uchun umumiy tarozi va o'lchov, ya'ni yo'l ko'rsatuvchi qo'llanma bo'lishi kerak. Bu vazifani faqat falsafa bajara oladi.

Odamlarning huquq va majburiyatlarini qonunda aqilga muvofiq belgilash uchun huquq nima, uning man'bai qaerda va undan qanday talablar kelib chiqadi, kabi masalalarni bilish kerak. Bu muammolar inson shaxsi bilan uzviy bog'liq. Buning aniqlash inson tabiati, uning xususiyatlari va hayotiy maqsadlarini tadqiq qilishni talab qiladi. Bu masalalarning barchasi hukuq falsafasi doirasiga kiradi, deydi CHicherin. U Gegel' huquq falsafasiga asoslanadi.

Shaxs va jamiyat masalalarini taxlil qilishda B.N.CHicherin o'zining individualizm kontseptsiyasini bayon qiladi. Insonning aql-zakovatli mavju-dod ekanligi erkin irodada namoyon bo'ladi. Mana shu tufayli inson shaxs si-fatida tan olinadi va unga huquqlar beriladi. Shaxs barcha ijtimoiy munosa-batlarning ildizi va belgilovchi asosidir.

qonunning erkinlikka nisbatan munosabati ikii xil bulishi mumkin: majbur qilish (davlat qonunini) va ixtiyoriy (ahloqiy qonun). Birinchisi tashqi erkinlik doirasidan tashkil topgan tashqi xarakatlarga taaluqli, shulargina majbur qilinishga mansubdir; ikkinchisi ichki erkinlikdan chiqadigan intilishlarga murojat qiladi. Birinchisidan huquq paydo bo'ladi, ikkinchisi ahloq ma'nabaini tashkil qiladi.

CHicherin xuquqning sub`ektiv huquq va ob`ektiv huquq ma`noda tushunish lozim deydi. Sub`ektiv huquq bu ahloqiy imkoniyat, boshqacha aytilsa, qonun doirasida erkin harakat qilish imkoniyati. Ob`ektiv huquq erkinlikni belgi-lovchi

qonunning o`zi. Bu ikki ma`noning birlashtirish natijasida huquqning umumiy tarifini beradi. "Hukuq qonun bilan belgilangan erkinlikdir".

B.G.CHicherin ijobiy xuquq zaminida tabiiy huquq yotishi kerak degan g`oyani olg`a suradi. Tabiiy huquq inson aql-idrokidan kelib chiqadigan, majburiy bo`lmagan umumiy yuridik normalar tizimidir. Tabiiy huquqning adolat, tenglik va erkinlik kabi normalari ijobiy qonunlar uchun asosiy o`lchov va qo`llanma bo`lishi kerak, deydi CHicherin. B.G.CHicherin jamiyat tuzilishi haqida fikr yuritar ekan, 4 birlikni ajratadi: oila, fuqarolar ittifoqi (fukdrolar jamiyati, individlarning tashqi erkinlik sohasi), cherkov ittifoqi (ichki erkinlik va vijdon, insonning xudo bilan muloqatda bo`lishi va axloqiy qonunning bajarilishi sohasi), davlat ijtimoiy ittifoqlar rivojining eng yuqori bosqichi.

CHicherin fikriga ko`ra, davlat barcha ittifoqlar ichida eng ustivoridir. Lekin u boshqa ittifoqlar mustaqilligiga to`squinlik qilmasligi kerak. Barcha ittifoqlar muassasaga emas, shaxsga, erkin odamlarga tayanadi. Ittifoqlarning maqsadi ham shundadir. "Shaxslar muassasalar uchun emas, muassasalar shaxslar uchun. Muassasalarning takomillashtirish ham shunga bog`liq". B.I.CHicherinning ta`limoti rus mustabid tuzumini islox, qilishga, konstitutsion monarxiyaning joriy qilish zarurligini asoslashga qaratilgan edi. B.N.CHicherin g`oyalari rus huquqiy fikr rivojida chuqur iz qoldirdi.

Rossiya siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixida I.A.Il'in g`oyalari diqqatga sazovordir. I.A.Il'in (1883-1954) rus faylasufi va xuquq nazariyotchisi, Moskva universiteti yuridik fakul'tetining professori. 1922 yil Rossiyadan surgun qilingan. Germaniya, Shvetsariyada yashagan.

I.A.Il'in huquq muammolarini insoniyat tarixi va madaniyatining tarkibiy qismi sifatida tadqiq qiladi. Uning fikriga ko`ra har bir konkret odam maxsus dunyoqarashga ega. Huquqiy ong dunyoqarashning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu dunyoda mendan boshqa odamlar ham borligini, shaxsiy hayotim boshqa odamlarga bo`lgan munosabatimga bog`liq ekanligini anglashdan kelib chiqadi. Huquq, qonun, odatning sub`ektiv-psixologik ildizi odamlarning to`g`ri va adolatli harakatlaridan tashqari chidab bo`lmaydigan yomon harakatlari xam borligini chuqur xis qilishdadir.

Bu e`tiqod huquq va ahloq o`rtasidagi farqni bilmaydi, har qanday qonun va odatning asosini tashkil qiladi.

Odamlarning ichki e`tiqodi "adolat" va "adolatsizlik", "qonuniylik", "qonunsizlik"ning mavjudligiga qat`iy ishonch hosil qilganligidadir. Bu ishonch "huquqiy xis", "xaqlilik instinkti"da namoyon bo`ladi. Ular odamlarning o`zaro munosabatlariga qaratilgandir. Bu instinkt xisning mazmunini ochib berish, uni xissiyot holatidan bilim darajasiga o`tkazish etuk tabiiy huquq ongiga asos solish demakdir. Shunday qilib, ob`ektiv mavjud tabiiy huquq onggi tabiiy huquqning predmetini tashkil qiladi. Bu huquqiy qonun uchun asosdir. Ularning majmui esa ijobiy huquqdir.

Tabiiy va ijobiy huquq o`zaro munosabati huquqiy ongning real mazmunini belgilaydi. Tabiiy huquq ijtimoiy ongning maxsus shakli, inson ruxiyatining zarur elementi sifatida namoyon bo`ladi. Tabiiy huquq odam boshqa odamlarning huquq va erkinliklariga hurmat bilan munosabatda bo`lishini, busiz u jamiyatda yashashi mumkin emasligini nazarda tutadi. Odamzodga xos ob`ektiv nimadir borki, unga rioya qilish har bir odam uchun muqaddas burch hisoblanadi. Ijobiy huquq muayyan sharoitda amalga oshirilgan va shu sharoit bilan bog`liq huquqdir. U tabiiy huquqning ta`minlanishiga va o`zida saqlashga yoki uni cheklashga va buzishga qaratilgan bo`lishi mumkin. Uning tabiiy huquqqa mos kelishi yoki kelmasligiga qarab ijobiy huquqning progressiv yoki reaksion ekanligini ajratish mumkin.

Ijobiy huquq shunday sharoitda yaratiladiki, deydi Il`in, uning mazmuni tama`gir iroda, bexabarlik, noto`g`ri nazariya va bilmaslik ta`siri ostida qolishi mumkin. Shunga qaramasdan shu omillar ta`siri ostida huquq mazmuniga kirib qelgan chekinish va buzilishlar qanchalik katta va daxshatli bo`lmasin, bu huquq o`zining tabiatiga ko`ra tabiiy huquqning asosiy mag`zini o`zida saqlab qoladi, chunki u tabiiy huquqqa hizmat qilish uchun paydo bo`lgan.

I.A.Il`in quyidagilarni ijobiy huquqning tashqi omillari deb ko`rsatadi: kuch va undan foydalanuvchi hokimiyat tizimlari, qonunlarning obrui, davlat organlarining qonun chiqarish faoliyati, jamiyatning muayyan tabaqalarining manfaatlari, qonunda ifodalangan yoki shunga intiluvchi iroda.

Real huquq, deydi Il'in, doim tabiiy huquq bilan ijobiy huquq o'rtasidagi munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Tabiiy huquq maqsadga erishish bo'lsa, ijobiy huquq maqsadni amalga oshirish vositasidir. Hech qanday qonun mutloq benuqson bo'lmaydi. Shuning uchun ham qonunning yaxshilash, takomillashtirishga qaratilgan ish to'xtovsiz olib boriladi. Tabiiy huquqning qonun yo'li bilan ta'minlashga intiluvchi huquqshunos ijtimoiy munosabatlarning doimiy islohatchisidir. Agar davlat va huquq muayyan guruhlarning tor manfaatlari yo'lida foydalanadigan bo'lsa, huquqshunosning harakatlari salbiy oqibatlarga olib keladi. Ijobiy huquq tabiiy huquq g'oyasini rasmiy, yuzaki bayon qilib o'z vazifasini bajarmagan holda ham huquq sifatida tan olinadi. Mana shunda huquqiy hayotning fojiviy va kulgili tomonlari namoyon bo'ladi. Hunik va buzilgan huquqiy ong, mazmuni buzilganligiga qaramay xuquqiy ong bo'lib qolmoqda. U huquq g'oyasiga murojat qilmoqda, lekin undan faqat andozasinigina olmoqda, undan o'z xoxishicha foydalanmoqda, hiyonat qilmoqda, unim nomunosib, buzuq mazmun bilan to'ldirmoqta. Noxaq hukuk paydo bo'lmoqda, lekin u huquq deb ko'rsatilmoqda, oqibat natijada odamlar ongida huquq g'oyasi obro'sizlan-tirilmoqaa, unga bo'lgan ishonch yo'qolmoqda.

I.A.Il'in tabiiy huquq muammolari bilan birga huquq va ahloqning o'zaro munosabati, zo'rlik va uning ijtimoiy hayotdagi roli kabi huquq falsafasi muammolarini ham tadqiq qildi. Rossiya XX asrga mustabid monarxiya davlati sifatida kirib keldi. qonun chiqarish va ijro etish hokimiyatlar to'liq monarx qo'lida edm. Ijtimoiy hayot ehtiyojlari mavjud davlat tizimini o'zgartirish, monarx huquqlarining cheklash, vakolatli hokimiyat organlarini shakllantirish zarurligini talab qilardi.

Bu yo'lda birinchi qadamlar 1905 yil rus revolyutsiyasi ta'siri ostida qo'yildi. Monarx qonun chiqarishning tashkil qilish va amalga oshirish sohasida ayrim o'zgarishlar qilishga, fuqarolarning bir qator demokratik huquq va erkinliklarini tan olishga majbur bo'ldi. Davlat Dummasini joriy qilish orqali qonun chiqarish sohasida monarx hokimiyatini cheklashga qaratilgan tadbir alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Biroq hokimiyatning bo'linish printsipini va konstitutsion monarxiyani amalda joriy kilishga xali uzoq edi. Real hokimiyat asosan podshox qo'lida saqlanardi.

Umuman olganda mamlakat oldida turgan asosiy muammolarni islohatlar orqali hal qilish imkoniyati yo`qotilgan edi. O`tkazilgan islohatlar o`z oldiga qo`ygan vazifalarni bajara olmadi. XX asr boshida Rossiyada inqilobiy vaziyat vujudga kelgan edi. Burjuaziyaning kuchsizligi, xalq qilinishi kerak bo`lgan muammolarning fundamentalligi va keskinligi, jamiyatning qarama-qarshi toifalarga bo`linishi, yuqori tabaqalar bilan quyi tabaqalar o`rtasidagi antogonizmining keskinlashishi, aholini talaygina qismini qashshoqligi, urush oqibatlari, vayrongarchilik va ochlik, mamlakatda inqilobiy kuch va tashkilotlarning targ`ibotchilik ishi 1917 yml Fevral revolyutsiyasidan keyin paydo bo`lgan burjua demokratik tuzumini tugatilishiga olib keldi. Mamlakatda diktatorlik sotsialistik tuzum o`rnatildi.

Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar

Provoslav cherkovi, Pyotr I, Filofey ta`limoti, Kiev Rusi, ma`rifatparvarlik yo`nalishi, inson huquq va erkinliklari, Absolyutizm g`oyalari, Krepostnoy, konservativ yo`nalish, slavyanofillar, g`arbchilar yo`nalishi, liberal yo`nalish.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Rus siyosiy va huquqiy ta`limotlari qachondan boshlab shakllangan?
2. Ma`rifatparvarlik yo`nalishi vakillarining siyosiy va huquqiy qarashlari qanday?
3. Slavyanofillar yo`nalishi vakillari qanday siyosiy va huquqiy qarashlarni olg`a surdilar?

4. G`arbchilar yo`nalishi vakillari qanday siyosiy va huquqiy qarashlarni olg`a surdilar?
5. Liberal yo`nalish vakillarining siyosiy va huquqiy qarashlarida qanday g`oyalar ilgari surilgan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda». «O`zbekiston», Toshkent. 2000 y.
2. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». «O`zbekiston», Toshkent 1997 y.
3. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q». Toshkent. 1998.
4. Karimov I.A. «O`zbekiston – bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li». «O`zbekiston», Toshkent 1995 y.
5. Karimov I.A. «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida». «O`zbekiston», Toshkent 2000 y.
6. Sharipov R., Muxiddinova F. «O`zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta`limotlari tarixi». Toshkent. 2004.
7. Rahmonov R. G`ofurov Z. “Mustaqillik va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi”. “O`zbekiston”, Toshkent 1999.
8. Boboev X.B. taxriri ostida «Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi» T. 2003 y.
9. Toshqulov J.O`zbekiston xalqlari siyosiy-xuquqiy fikrlari tarixidan. T. 1996 y.

LIBERALIZM SIYOSIY VA HUQUQIY G`OYALARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

REJA:

1. Liberalizm siyosiy va huquqiy ta`limoti g`oyalarining shakllanishi
2. Benjoman Konstant, Meremmya Benjamning siyosiy va xuquqiy qarashlari
3. XX asr liberalizmining xususiyatlari
4. Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar

Liberalizm siyosiy va huquqiy ta`limoti g`oyalarining shakllanishi

XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmida g`arbiy Evropada kapitalizm qaror topdi va rivojlandi. Sanoatda yuz bergan keskin o`zgarishlar manufaktura ishlab chiqarishning yirik mashina indistriyasi bilan almashuv jarayonining tezlashtirdi. Bu jarayon eng oldin Angliyada, keyin Frantsiya va boshqa Evropa mamlkatlarida yuz berdi. Yirik sanoat, savdo, aloqa vositalarini rivojlanishi, umumjaxon bozorining vujudga kelishi va boshqalar kapitalizmning jaxon ijtimoiy-iqtisodiy tizimiga aylanishini ta`minladi.

Mana shu o`zgarishlarga mos xolda siyosiy-huquqiy tizim vujudga kela boshladi. XIX- asrning birinchi yarmida inson huquqi va erkinliklarining mustaxkamlanishiga mos konstitutsiyalar qabul qilindi. Xususiy va davlat huquqi tizimi tashkil topdi. Siyosiy partiyalarning harakati faollashdi. Konstitutsionalizm va siyosiy vakolatchilik institutlari vujudga kela boshladi. Konstitutsion monarxiya va respublika shaklidagi zamonaviy vakolatli davlatlar paydo bo`la boshladi. Siyosiy hayotda erkinlik va

taraqqiyotga, qonunchilikka intilish kuchaydi. g`arbiy Evropada o`rnatilgan kapitalistik tuzum o`zining mafkurasini liberalizmga ifoda qildi.

Liberalizmning asosiy g`oyalari: har bir shaxs qadr-qimmat va erk egasi va o`z xarkatlari uchun mas`uldir; shaxs erkinligining zaruriy sharti xususiy mulkdir; erkin bozor, erkin raqobat va erkin tadbirkorlik, teng imkoniyatlar; siyosiy soxada-hokimiyatlar bo`linishi, qonun ustivorligi, huquqiy davlat g`oyasi; shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlash; umumiy saylov ququqi va boshqalar.

Liberalizm turli ijtimoiy-tarixiy va milliy-madaniy sharoitlarda shakllandi va rivojlandi. Unda turli xil bir-biridan farq qiladigan qirralar, bosqichlar va qarama-qarshiliklar borligini ko`rish mumkin. Turli davrlarda u har xil shakllarda namoyon bo`ldi.

Bu xolni xisobga olsak turli xil liberalizm borligi haqida tasavvur paydo bo`lishi mumkin.

Lekin liberalizmning xillari ko`p bo`lishidan qat`iy nazar uning ildizlari, asosiy g`oya, tamoyil va ideallari umumiydir. Mana shu umumiylik liberalizmning ijtimoiy-siyosiy fikrning maxsus turi sifatida namoyon qiladi. Liberalizmning ildizlari uyg`onish davrlari bilan bogliq. Uning boshlanishida J.Lokk, Sh.L.Montesk`e, I Kant, T.Djefferson va boshqalar turgan edilar. Liberalizmning shakllanishiga marifatparvarlik harakatining

namoyondalari, nemis klassik falsafasi vakillari ham muxim xissa qo`shdilar. Yuqorida ko`rganimizdek, ular o`z qarashlari bilan bir biridan farq qilsalarda, ularning barchasi o`z davrining muxim ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarini hal qilishda eskirib qolgan qadriyat va yondashuvlarni, o`z samaradorligini yo`qotgan ijtimoiy-siyosiy va davlat institutlarini yangidan qurish zarurligini anglaganlar.

Mana shunday yondashuv asosida klassik liberalizm merosiy hokimiyat shakllarini, tabaqaviy imtiyozlarni inkor qildi. Uning vakilalari yakka individning erki va tabiiy kobiliyatlarini birinchi o`ringa qo`ydilar. Har bir odamning yashash, erkinlik va xususiy mulkka ega bo`lish huquqlari g`oyasi zamirida mana shu individualizm yotadi. Siyosiy va grajdanlik erkinliklar iqtisodiy erkinlikdan chiqarildi. Individual erkinlik g`oyasining shakllanishi va qaror topishi davlat va shaxs munosabatlari, davlatning individ ishlariga aralashish chegaralari muammosi aniq ajralib chiqa

boshladi. Shu qoidalar asosida huquqiy va siyosiy kontseptsiyalar vujudga keldi. Bu kontseptsiyalar huquq har bir individning qadr-qimmatini va ekrkinligini himoya qilish vositasi sifatida talqin qilindi.

Bu individualistik ideal tadbirkorlik,

mehnatsevarlik, yangilikka intilish kabi fazilatlarni shakllanishiga turtki buldi. Kapitalizmning o`zgaruvchan tizim sifatida rivojlanishida mana shu qadriyatlar katta rol o`ynadi. Liberalizmning vakillari insonning iqtisodiy, jismoniy va intellektual erkinligi, maqsad va manfaatlarini amalga oshirish yo`lida teng imkoniyat va huquqlarga ega bo`lishi uchun kurashdilar. Liberalizm inson hayotining yangi harakatchan kuchlarini ochdi. U Evropaga tadbirkorlik va biznes yo`lidan har qanday to`sqinlarni uloqtirib tashlashni o`rgatdi. erkinlik bo`lmagan erda tadbirkorlik rivojlanmasligini ko`rsatdi.

Liberalizm ijtimoiy hayotning barcha sohalarida plyuralizm printsiplari joriy qilinishini talab qildi. Ijtimoiy soxada turli sinf, qatlam va toifalar, manfaatdor guruhlar erkinligi; madaniy sohada turli xil milliy madaniyatlar, siyosiy sohada siyosiy harakatlar, partiya va jamoat tashkilotlari erkinligi.

Liberalizmning shaxs erkinligi talabalaridan har kim xoxlaganini qilishi mumkin degan xulosa chiqmaydi. Shaxs erkinligi g`oyasining ajralmas ikkinchi tomoni shaxsning jamiyat oldida ma`ulligi g`oyasidir. Liberalizm vakillari umumiy baxt-saodatning ta`minlashda davlat ijobiy rol o`ynashi mumkinligini ham inkor qilmaydi.

Konstitutsiyaviylik, parlamentarizm va huquqiy davlat qadriyati va printsiplarini ishlab chiqishda liberalizmning roli katta bo`ldi.

Umuman olganda liberalizm dogmatizm, sxematizmga zid tafakkur tarzidir. Unda o`zgarmas, bir xil me`yor va qoidalar yo`q. Liberalizm sharoitning o`zgarishi bilan o`zgarib bordi, unga moslashdi. U o`z vazifasini o`tab bo`lgan ijtimoiy-siyosiy institut, me`yor va qadriyatlarni qayta ko`rib chiqish, xatto ularni o`zgartirishdan ham qo`rqmadi. Liberalizm vakillarining ko`pchiligi klassik merosni o`zgaruvchan sharoitga moslashtirish bilan band bo`lganlar.

Benjamin Konstan, Meremmya Benjamning siyosiy va xuquqiy qarashlari

Evropa liberalizmning ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri, Frantsiya liberalizmi siyosiy dasturini ishlab chiqqan mutafakkir va siyosiy arbob Benjamin Konstan edi (1748-1832). U o'zining g'oyalarini "Konstitutsiya ocherklari", "Siyosiy printsiplar", "yangi xalqlar erkinligiga nisbatan qadimgi xalqlar erkinligi haqida" va boshqa asarlarida ifodaladi.

B.Konstanning diqqat markazida shaxs va davlatning o'zaro munosabati muammosi turadi. Uning aytishicha, insonga xos muxim xususiyat erkinlikdir. Fuqaroning barcha huquqlari erkinlikdan kelib chiqadi. erkinlik inson hayotining asosidir. Fuqarolar hech qanday ijtimoiy va siyosiy hokimiyatga bog'liq bo'lmagan individual huquqlarga egadirlar. Bu huquqlarni buzuvchi har qanday hokimiyat noqonuniydir.

Konstanning fikricha, erkinlik hokimiyatning xalq qo'lida bo'lganligida emas, shaxsning davlat xokimiyatiga nisbatan mustaqil bo'lganligidadir. Hokimiyatlarni cheklash, ularni bilish va muvozanatni o'rnatish talablari shundan kelib chiqadi. Konstan ikki xil erkinlikning fuqaroviy (shaxsiy) va siyosiy erkinliklarni ajratadi.

qadimiy xalqlar erkinliklari siyosiy erkinlikdan iborat edi. ya'ni har bir fuqaro davlatni boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega edi. Bu qonun chiqarish, odil sudlovni amalga oshirish, mansabdor shaxslarni saylash, urush va tinchlik masalalarini hal qilishda ishtirok etish bilan cheklanar edi. yangi xalqlar erkinligi asosan shaxsiy fuqaroviy erkinlikdir. Bu shaxsning ma'lum darajada davlat hokimiyatidan mustaqil bo'lmishdir.

Konstan shaxsni erkinlikni quyidagicha izohlaydi: bu asossiz qamoqqa olmoqdan daxlsizlik, o'z fikrini erkin ifoda etish, o'ziga xoxlagan hunar tanlash va u bilan erkin shug'ullanish, o'z mulkidan xohlaganicha foydalanish va unga egalik qilish, xohlagan joyda yashash, xoxlagan dinga sig'inish, majlis va yig'ilishlar

o`tkazish huquqlariga ega bo`lishdir. eng oxirida Konstan mansabdor shaxslarning saylash orqali hukumat ishlariga ta`sir qilish huquqini ham erkinlik tarkibiga kiritadi. Konstan individ erkinligining ta`minlash va davlat hokimiyatining cheklash vositasi sifatida jamoatchilik fikri va hokimiyatlar bo`linishini ko`rsatadi.

Konstan jamoatchilik fikri xaqida gapirganda parlamentni nazarda tutadi. Parlament bu jamoatchilik fikrini uyushtirish shaklidir. Uning asosiy vazifasi jamoatchilik fikrini va muayyan manfaatlarni ifoda etishdir. Parlamentga saylash huquqi mulkiy tsenzga asoslangan bo`lishi kerak, chunki jamoatchilik fikrini mulk egalorigina munosib ifoda eta olishi mumkin deydi Konstan.

Erkinlikning ta`minlovchi ikkinchi omil hokimiyatlar bo`linishi. Konstan Montesk`ening mashxur ta`limotiga muayyan o`zgarishlar kiritadi, uni yangi sharoitga moslashtiradi. Montesk`ening uch hokimiyatiga Konstan qirol hokimiyatini qo`shadi. Bundan tashqari Konstan qonun chiqaruvchi vakolatli hokimiyatni ikkiga bo`ladi yuqori palata hokimiyati va jamoatchilik fikrini ifodalovchi quyi palata xokimiyati. Bu hokimiyatlar ichiga mahalliy hokimiyatni ham qo`shadi.

Konstan qirol hokimiyatiga alohida ahamiyat beradi. Uning aytishicha, qirol hokimiyati boshqa hokimiyatlar o`rtasida paydo bo`lishi mumkin bo`lgan kelishmovchiliklarni betaraf va xolisona hal qiladi. Konstan konstitutsion monarxiya tarafdori edi. Uning siyosiy ta`limoti burjua individualizmi va rivojlana boshlagan kapitalistik munosabatlarning asoslashga qaratilgan edi.

Frantsuz burjuaziyasining feodalizmga qarshi mafkurasini XIX asrning birinchi yarmida ifoda qilgan siyosiy mutafakkirlar orasida demokratiya muammolarining nazariyotchisi, izchil liberal A.Tokvil (1805-1859) alohida o`rin egallaydi. Angliyada liberalizm ta`limotini M.Bentam asoslab chiqdi. (1748-1832)

Ieremiya Bentam o`zining "qonunchilik printsiplari", "Konstitutsiyaviy kodeksning barcha davlatlar uchun rahbar qoidalari" va boshqa asarlarida siyosiy va huquqiy institutlarnmng demokratiyalashtirish dasturini ishlab chiqdi. O`zining davlat va huquq ta`limotida Bentam foyda tamoyiliga asoslanadi. Uning fikricha inson o`z faoliyatida foyda olishga intiladi, lazzat istaydi va azob, zararli narsalardan qochishga harakat qiladi. Xullas inson doim lazzat va azob hukmronligi ostida yashaydi.

Odamlar amal qiladigan yagona tamoyil baxtga erishish, foyda olishga intilishdan iboratdir. eng axloqli va sohvotli odam ham, axloqsiz ham foydasini, baxtini o`ylaydi va unga erishishga harakat qiladi. Axloq va qonun chiqaruvchining asosiy vazifasi odamga nima ko`proq foyda berishi mumkinligini ko`rsatib berishdan iboratdir. qanday harakat odamga ko`proq foyda va baxt keltirishi mumkin, uning lazzati va azobi qanchaligini hisoblab chiqish kerak. Masalan, ichkilikdan kelib chiqadigan lazzat va azobni bir-biriga taqqoslab chiqish natijasida biz foydadan ko`ra zararni ko`proqliginm ko`rammz.

Bentam individ oladigan foydani jamiyat foydasi bilan tengdir deb biladi. Xususiy mulk egasining foydasini ko`pchilik foydasi, umumiy foydadir, deydi u . Shuning uchun bu tamoyilga yakka individlargina emas, qonun chiqaruvchi ham amal qilishi shart. Bu tamoyil qonun chiqaruvchi uchun asosiy maqsad bo`lib xizmat qilishi kerak. qonun chiqaruvchi, deydi Bentam, u yoki bu me`yorning qo`llashda ilojm boricha ko`pchilik baxtini ta`minlashga intilishi, qonundan kelib chiqadigan lazzat va azobni hisobga olishi kerak. Har qanday qonun ma`lum darajada individ erkinligining cheklaydi. qonun chiqaruvchi buni nazarda tutishi kerak. Shundan kelib chiqib, Bentam jamiyatning xo`jalik hayotiga mumkin qadar davlatning aralshmagani maquldir, deydi. Iqtisodiy hayotning yaxshi natijalarga erishishining ta`minlovchi yagona omil erkin raqobatdir. Davlat va uning qonunlari fuqarolarning xavfsizligini ta`minlash bilan cheklanishi kerak. Xavfsizlikning eng muhim qismi mulkimng muxofaza qylishdir. qonun va mulk, deydi u, bir biri bilan chambarchas bog`liqdir; ular birga tug`ulgan va birga o`ladilar.

Bentam burjua davlatchiligi tarafdori edi U foyda ta`moyilini ta`minlashga qodir davlat—bu demokratik respublikadir deb biladi. Uning fikricha, xavfsizlikka taxdid soluvchi ikkita ichki dushman mavjud. Birinchisi, norasmiy dushmanlar jinoyat sodir qiluvchi fuqarolar; ikkinchisi, rasmiy dushmanlar qonun buzuvchi va o`zboshimchalik qiluvchi mansabdor shaxslar. Fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlovchi siyosiy tuzum bu demokratik respublikadir. Bunda barcha mansabdor shaxslar xalq nazoratm ostida bo`ladilar. Bentam saylov tizimining islox qilish takliflari bilan chiqdi. Xususan, u parlament saylovlarini har yil o`tkazish, ochiq saylovni bekor qilish, saylov tsenzini kamaytirish, umumiy saylov huquqini joriy qilish kabi

talablarni qo`ydi. Shu bilan birga Bentam savodsizlarni saylash huquqidan maxrum qilish kerak deb hisoblaydi. Xotin qizlarning saylov huquqlarini joriy kilish ham xali erta, deydi u.

Bentam huquqiy tizimda saklanib qolgan eskilik qoldiqlarini demokratiyaga mutloq zid deb bildi va keskin tanqid ostiga oldi. Xususan, u o`z davri nizomlarini chalkashligi, tushunish qiyin so`zlardan iborat ekanligi, sud dalillarining sun`iyligim, ayrim yuristlarning lo`ttivozliklarini fosh qildi. Bentam birinchilardan bo`lib yurisprudentsiya tili masalasini ko`tardi va undan mafkuraviy nayrang ishlatish, eskilik qoldiqlarini himoya qilish vositasi sifatida foydalanish xavfini ko`rsatib berdi. Yuristlar tili, deydi Bentam, odamlarga tushunarli emas. U yashirin bir udum yaratuvchi asbob vazifasini o`taydi. Xuquq norozilarning qo`rqitishga qaratilgan sirli va daxlsiz bir narsadek ko`rsatiladi. Yurisprudentsiya tili "g`arazlar" va "sofizmlar" bilan ifloslangan.

Betaraf va tushunarli terminlar o`rniga (masalan, "qonunning xayotga tadbiiq etish" yoki "hukumatga itoat qilish" so`zlari o`rniga "tartibni saqlash" va shunga o`xshash "aldovchi" so`zlar ishlatiladi. Bu so`zlar zaminida xokimiyat ,-egalarining ximoya qilish mazmuni yotadi, albatta. Bunday terminlar ko`pincha suiste`mol qilish va zuravonlikning yashiruvchi parda vazifasini o`taydi. Yuridik marosimlar (unvonlar, marosimlar, dabdaba va boshqalar) ham shu maqsadga xizmat qiladi. Bularning barchasi, deydi Bentam, huquqning inson ijodining maxsuli ekanligini tushuntirishga to`squinlik qiladi. Xuquqqa kiydirilgan bu niqob yordamida o`z umrini yashab bo`lgan va adolatsiz institutlar himoya qilinadi. Natijada huquq individ foydasi va insoniyat baxtiga xizmat qilish o`rniga taraqqiyotga g`ov bo`lib qoladi.

Bentam yurisirudentsiya tilini tozalash, sud marosimlarini soddalashtirish, umuman huquqiy hayotining erkinlashtirish va demokratiyalashtirish zarurligini uktiradi. Bentam tinchlikni ta`minlovchi xalqaro tashkilot loyixasini ishlab chiqdi.

Umuman olganda Bentam ta`limoti Angliya va boshqa mamlakatlarda demokratik harakatning rivojlanishiga, kapitalizmni yanada mustahkamlanishiga ijobiy ta`sir ko`rsatdi. XIX asr boshlarida Angliyada liberalizmning yana bir vakili Jeyms Mill (1773-1836) edi. U umumiy saylov huquqi asosida saylangan vakillar assambleyyasi nazoratida bo`lgan kuchli xukumat va kuchli hokimiyatni yoqlab chiqdi.

Uning o`g`li Jon Styuart Mill (1806-11873) otasi va Bentam ta`limotiga xos kamchiliklarni bartaraf qilishga harakat qildi va liberalizmni shakllanishiga katta xissa qo`shdi. Uning "Ozodlik to`g`risida", "Utilitarizm", "Ayolning tobe`ligi", "Siyosiy iqtisod asoslari" kabi asarlari liberalizm tarixida alohida o`rin egalladi XIX asrning birinchi yarmi nemis liberalizmining yirik namoyondalari V.Gumbol`dt (1767-1835), L.Shteyn (1815-1890). V.Gumbol`dt davlatga gumanistik individualizm nuqtai nazaridan yondashadi. Uni ko`proq inson va davlat o`rtasidagi munosabatlar qiziqtiradi. L.Shteyn davlat va jamiyat haqida qator fundamental asarlar yaratdi. Uning liberalizmi inson, uning huquqlari va mulkiy muammolarga bo`lgan munosabatida yorqin namoyon bo`ladi.

XX asr liberalizmining xususiyatlari

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida liberalizm yangi bosqichga ko`tarildi. Bu kapitalizmning yangi bosqichga o`tishi bilan bog`liq edi. Shu davrda liberalizmning kuchli tomonlari bilan bir qatorda bo`sh tomonlari ham namoyon bo`la boshladi. Xususan, klassik liberalizmning erkin bozor munosabatlari va erkin raqobat kabi muhim qoidalari aholining imtiyozli qatlamlari manfaatlarini himoya qilishga bo`ysundirildi. Shuning uchun ham Evropa va AqSh da bu urinishlarga qarama-qarshi g`oyalar bilan bir qancha atoqli siyosatshunoslar, iqtisodchilar guruxi klassik liberalizmning muxim qoidalarini qayta ko`rib chiqish, korporatsiyalarning o`zboshimchaliklarini cheklash va aholining muxtoj qatlamlarini axvolini engillashtirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish takliflari bilan maydonga chiqadilar. Bular orasida Germaniyada J.Gobson, T.Grinq, L.Xobxauz, F.Nauman, Italiyada B.Kroche, AqSh L. Uord, J.Krouli, U.Bird, J.D`yui va boshqalarni eslatish mumkin.

Ular yangi liberalizmni nomini organ bir qancha yangi g`oya va printsiplarni ishlab chiqdilar. eng avval ular erkin bozor va erkin raqobat g`oyalarni qayta qarab chiqish zarurligini asoslashga urindilar. Birinchi galda ular liberalizmga xos individualizmning ma`lum darajada yangicha talqin qildilar. Ular davlatning jamiyat iqtisodiy hayotida ijobiy rol o`ynashini tan oldilar. XX asrning 30 yillarida yuz bergan iqtisodiy krizis va bu krizisdan chiqish yo`lida AqShning islohotchi prezidenti F.D.Ruzvel`tning iqtisod sohasida tutgan "yangi yo`li" iqtisodiy dasturlarni amalga oshirishda davlat ijobiy rol o`ynashini yaqqol namoyon qilgan edi. Bu xodisalar liberalizmning shakllanishida burilish yasadi.

Ikkinchi jaxon urishidan keyin liberalizmga muhim o`zgarishlar yuz berdi. Shuni ta`kidlash kerakki XIX asr davomida va XX asrning birinchi un yilliklarida liberalizmning asosiy g`oyalari siyosiy amalyotda tekshirildi va yaxshi natijalar berdi. Ko`pchilik rivojlangan mamlakatlarda demokratik me`yor va printsiplar siyosiy amaliyotga joriy qilindi. Bu xol liberalizmga yutuqlarni saqlab qolish asosiy vazifadir degan tasavvurlarni tutdirdi. Xatto liberalizm o`z vazifasini o`tab bo`ldi, unga urin qolmadi, u o`ldi ham deyishdi. Lekin liberalizm o`lgan emas edi. Aksincha, XX asrning 70-80 yillariga kelib liberalizm qaytadan tiklanishi haqida gapirila

boshladi

.Liberalizm tarafdorlarining ko`pchiligi jamiyat davlat va individ munosabatlari, kapitalizm va demokratik, erkinlik va ijtimomy tenglik, adolat masalalariga doir qarashlarni qaytadan ko`rib chiqishga urindilar

Bu urinishlar ijtimoiy-siyosiy fikrda turli xil oqimlirniig yuzaga kslishiga sabab bo`ldi. Bu oqmmlar ichida ikki yunalishni ajratish mumkmn. Ularning har biri jamiyat oldida turgan muammolarni xal qilishda uziga xos umumiy goya,printsip va yondashuvlarga egadir. Baranchi yunalish vakillarini iktisodiy konservatorlar deb baxolasa buladi.

Ular klassik liberalizmning asosiy koidalarini,ayniksa erkin bozor tamoyillarini muayyan uzgarishlar bilan takrorladilar. Ikkinchi oqim namoyondaliri ijtimoiy-iqtisodiy soxada muhim isloxatlar utkazish davlatning iqtisodiy-ijtimoiy hayotdagi rolini qayta kurib chiqish, kam ta`minlangan axoli qatlamlariga yordam ko`rsagish

kabi masalalarni ko`rib chiqdilar. XX asr oxrida liberaliamning xususiyati mana shundan iborat buldi

Shu bilan birga liberallar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga aralashib borishining kuchayishidan xavfsiradilar. Shuning uchun ham ular bozor mexanizmlarini rag`batlantirish va shu bilan birga davlatni tartibga solish vazifalarini cheklash talablarini xam qo`ydilar. Davlatning aralashuvning mukarrarligi va zarurligini tan olish bilan birga,

liberallar bu aralashuvni chegaralarini belgilash zarurligi haqida xavotirlanib gapiradilar. Ular iqtisodiy krizis va uning oqibatlarini yumshatishda davlatning aralashuvi imkon berganligini xotirasidan chiqarmagan bo`lsada, davlatning aralashuv chegaralari qancha bo`lishini anglardilar.

Liberalizm o`zining ikki yuz yillik tarixidan har doim sharoitga moslashib o`zgarib bordi. Inson erkinligi, uning hayotiga davlatning aralashmasligi g`oyasidan muayyan darajada davlat aralashuvi kerak, degan g`oyaga keldi. Har bir odam erkin, xoxlagan ishini qilishi mumkin, lekin qoidaga rioya qilgan holda qilsin. Davlat mana shunm ta`minlashi zarur.

Davlatning idora qilish shakli masalasiga kelganda liberalizm adolat printsiplariga asoslangan qonuniy va samarador idora qilish shakli tarafdoridir. Liberalizm umumiy qonun va printsiplarni, fuqarolar erkinligi va huquqlarini ta`minlovchi adolat bu "siyosiy adolat" yoki "rasmiy adolat"dir, deb biladilar. Ijtimoiy huquqlar va ularning amalga oshirish masalasida ular har bmr fuqaroga muayyan darajada farovon hayot ta`minlanmshini talab qiladilar. Bu ta`lim olish, mehnat qilish, qarilik nafaqasi bilan ta`mmnlanish kabi huquqlardir.

Ko`pchilik liberallar ijtimoiy tenglikka nisbatan imkoniyatlar tengligini ustun qo`yadilar. Ularning fikricha, davlat qonun ustivorligini, barcha fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etishda teng xuquqqa egaligini ijtimoiy-iqtisodiy soxdda teng imkoniyatlarga egaligini ta`minlash garovidir. Adolat printsiplarini amalda ta`minlovchi omil shundan iboratdir, Liberallarning eng zaif tomoni ham shu erda. Ularning birontasi ham insoniyat oldida qadimdan turgan tenglik, erkinlik va adolat o`rtasidagi jumboqni xal kila olmadilar.

Mavzu yuzasidan tayanch soʻz va iboralar

Liberalizm, liberalizmni siyosiy va huquqiy gʻoyalari, kapitalizm, plyuralizm, shaxs erkinligi, konstitutsion monarxiya, parlament, dogmatizm, huquqiy davlat, Benjament Konstonning siyosiy va huquqiy qarashlari, Meremiya Bentamning siyosiy va huquqiy qarashlari, saylov huquqi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari

1. Liberalizm taʼlimotining mohiyati qanday?
2. Liberalizm siyosiy va huquqiy gʻoyalari nimalardan iborat?
3. Liberalizmning asosiy gʻoyalari nimalardan iborat?
4. Benjamen Konstanning siyosiy va huquqiy qarashlari qanday?
5. Meremiya Bentamning siyosiy va huquqiy qarashlari qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «Oʻzbekiston XXI asrga intilmoqda». «Oʻzbekiston», Toshkent. 2000 y.

2. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». «O`zbekiston», Toshkent 1997 y.
3. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q». Toshkent. 1998.
4. Karimov I.A. «O`zbekiston – bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li». «O`zbekiston», Toshkent 1995 y.
5. Karimov I.A. «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida». «O`zbekiston», Toshkent 2000 y.
6. Sharipov R., Muxiddinova F. «O`zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta`limotlari tarixi». Toshkent. 2004.
7. Rahmonov R. G`ofurov Z. “Mustaqillik va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi”. “O`zbekiston”, Toshkent 1999.
8. Boboev X.B. taxriri ostida «Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi» T. 2003 y.
9. Toshqulov J.O`zbekiston xalqlari siyosiy-xuquqiy fikrlari tarixidan. T. 1996 y.

O`RTA OSIYODA XVI-XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA IJTIMOYIY-SIYOSIY FIKR.

REJA:

1. O`rta Osiyo xalqlarining XVI-XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy fikrlari.
2. O`rta Osiyo xalqlarining XVII asrning oxiri XVIII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy fikrlari.
3. O`rta Osiyo xalqlarining XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy fikrlari.
4. Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar

O`rta Osiyo xalqlarining XVI-XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy fikrlari.

XVI asrga kelib Amir Temur yaratgan buyuk davlat zaiflashdi. Feodal tarqoqligi, uluslarni ajralib chiqishga intilishlari bunga sabab bo`ldi. Muxammad Shayboniyxon (1451-1510) davlatni birlashtirishga, tarqoqlikni bartaraf qilishga urindi.

XVI asr oxirida Shayboniyalar sulolasining hukmronligi tugatildi. 1599 yildan boshlab xokimiyat Ashtarxoniylar sulolasi qo`liga o`tdi. Bu sulola hukmronligi davrida o`zaro nizolar yanada kuchaydi. Markaziy xonlik hokimiyatini mustaxkamlashga harakat qilgan Imomqulixon (1611-1642) tadbirlari birmuncha ijobiy natijalarni bergan bo`lsada vaziyatni tubdan o`zgartira olmadi. Uning vafotidan keyin taxt uchun bo`lgan kurash nixoyag chukqurlashdi va XVIII asrning birinchi yarmida ashtarxoniylar davlati tushkunlikka uchrab parchalana boshladi.

XVIII asrning birinchi yarmida davom etgan o`zaro feodal urushlar va uning natijasida mamlakatda yuz bergan iqtisodiy va siyosiy vaziyat Movarounnaxrning uchta xonlikka bo`linib ketishi uchun zamin tayyorlab berdi.

Ashtarxoniylar sulolasining eng so`ngi hukmdori Abulfayzxon (1711-1747) mang`it urug`idan chiqqan Muhammad Rahimboy tomonidan o`ldiriladi. U o`zini Buxoro xonligining amiri deb e`lon qiladi. Davlat ma`muriy boshqarilishi jihatdan viloyat va tumanlarga bo`lingan bo`lib xokimiyat tepasida xon turardi. Davlatdagi eng martabali lavozim otalik edi. Otaliklar xonlar xuzuridagi eng muhim ishlarni nazorat qilardilar. Davlatdagi eng oliy qarorgohi devon deb atalardi. Uni devonbegi boshqarar edi.

Shuningdek, davlat ishlarida ko`kaldosh lavozimi ham yuqori mansablardan hisoblanar edi. Bu lavozimdagi amaldor xon atrofidagi odamlar va dushmanlar xaqida to`plangan ma`lumotlarni nazorat qilardi. Bulardan tashqari davlatning ma`muriy boshqaruvida mirshabboshi, dodhox, inoq, miroxo`r, dasturxonchi, kabi lavozim va mansablar ham bor edi.

Ma`muriyat tizimidagi amaldorlardan tashqari davlatni boshkarishda oliy tabaqali ulamolar ham ishtirok etishardi. eng kuchli xonlar va amaldorlar ham ulamolar bilan maslahatli siyosat olib borardilar.

O`rta asrchilik davrining iqtisodiy asosini qishloq-xo`jalik tashkil kilardi. Erlarnng asosiy qismi umumdavlat erlari bo`lib, unga xon egalik qilgan. Erlardan foydalangan mahalliy feodallar va ruhoniylar erni dexqonlarga foydalanishga topshirgan. Dexqonlar ham davlatga, ham feodalga soliq to`laganlar. Soliq turlari va xajmi har xil bo`lgan.

Feodallarning jabr-zulmlari, o`zaro urushlar, ochlik va qashshoklik xalq ommasi norozilik harakatining kuchayishiga olib keldi. O`rta Osiyoning viloyatlarida xalq harakatlari va qo`zg`olonlari bo`lib turdi. Shuni xam alohida ta`kidlash zarurki, XO`1-XIX asrning birinchi yarmida O`rta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti to`xtab qolgani yo`q. Taraqqiyotni tarixiy odimini to`xtatib bulmaydi..

Buxoro, Samarqand, Toshkent, Urgench, Qo`qon va boshqa shaharlarda savdo va xunarmandchilik faoliyati davom etdi, adabiyot va tarixiy fanlar, me`morchilik va tasviriy san`at rivojlandi. She`riyat ravnaq topdi. O`sha davrda Xasan Nisoriy, Mutribiy, Xofiz Tanish, Maxmud ibn Vali, Muhammad Amin yarokchi, Muxdmmad Amin Buxoriylar kabi tarixchilar ijod qildilar. Bu davrning ma`naviy hayotida

madrasalar katta rol' o`ynagan. Buxoro, Toshkent, Samarqand va Balxda bir qator yangi madrasa va masjid binolari qurirgan.

XUP-XUSH asrlarda ilm-fan, ayniqsa tabiiy fanlar rivojining darajasi keskin pasayib ketgan bo`lsada ma`naviy boyliklarning yig`ish va tarqatish jarayoni to`xtamadi. Bu davrning ilg`or kishilari Ulug`bekning ilmiy g`oyalari, Jomiy va Navoyining xayratomuz asarlaridan ruxlanib ilm-fan ravnaqi, inson bilimi ufqlarini kengaytirish uchun harakat qildilar, bid`at va jaxolat ko`rinishlariga karshi kurashdilar, inson aql-idroki qudratini, xaqiqat va adolat g`oyalarini tarannum etdilar. Turdi, Sayido Nasafiy, Mashrab ijodlari shu davrning mahsulidir. Xiva xonligida Ogoqiy, Munis, Komil Xorazmiy, quqon xonligida Mahmud, Gulxaniy, Nodira,

Uvaysiy, Dilshod, Buxoroda Mujrim Obid, Shavqiy Kattaqurg`oniy kabi shoirlar o`z davrining muxim siyosiy va ma`naviy muammolarini ifodaladilar. Ularning asarlarida insonparvarlik, Vatanga sadoqat g`oyalari, ijtimoiy adolatsizlikka nafrat, ilm-ma`rifatga intilish kabi hislatlar targ`ib qilinadi.

O`rta Osiyo xalqlarining XVI-XIX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy fikr o`ziga xos xususiyatga ega edi. Uning namoyondalari davlat, xokimiyat, adolat masalalarini islom siyosiy madaniyatiga tayangan holda xal qilishga harakat qildilar. Ma`lumki islomda davlat va huquk jamiyat uchun zarur va muqaddas qadriyat sifatida ifodalanadi.

O`rta Osiyo halqlarining XVI-XIX asr boshlarida ijod qilgan ilg`or mutafakkirlarning siyosiy qarashlarida ham odil podshoh g`oyasi markaziy o`rin egallaydi. Ular davlat tepasidagi hukmdor adolatli, fuqarolariga nisbatan rahmshafqatli bo`lsa, jamiyat farovon bo`ladi. Hukmdorning qudrati va obrui fuqarolariga bo`lgan g`amxo`rligidadir, deb tushundilar. Shundan kelib chiqqan holda ular insonni ma`naviy kamolotga erishishga chaqirdilar va shu orqali jamiyatda adolatsizlikni bartaraf qilish mumkin deb hisoblaydilar.

XVI asr ijtimoiy-siyosiy fikri tarixida Podshoxo`ja munosib o`rin egallaydi.. Podshoxo`ja dunyoqarashi islomning diniy-falsafiy oqimi bo`lgan sufizm (tasavvuf) ga asoslangan. Sufizm VIII-IX asrlarda arab mamlakatlarida vujudga keldi. O`rta asrlarda eron, Xuroson, O`rta Osiyoda keng tarqaldi va bu mamlakatlar madaniyatida,

ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fikr tarixida chuqur iz qoldirdi. Sufizm xilma-xil shakl va oqimlarga ega ta'limot. Uning asosiy g'oyasi insonning ruxiy kamolotga erishtirish orqali Ollox-taoloning visoliga etishish yo'llarini ko'rsatishdir.

Podshoxo`ja sufizmning O`rta Osiyoda shakllangan naqshbandiylik oqimiga mansub edi. Bu oqim izdoshlari zoxidlik va mistika bilan bir qatorda dunyoviy, real hayot masalalariga jiddiy e'tibor berdilar. Ular tarkidunyo qilishga, dunyo ishlaridan voz kechib faqat ibodatga berilishga qarshi chiqdilar, bilimga, nafsni tiyishga chaqirdilar.

Podshoxo`ja bu talablarga amal qilmaydigan, so`zda o`zini xudogo`y qilib ko'rsatuvchi riyokor kishilarni tanqid ostiga oladi. Podshoxo`ja qarashlarida ijtimoiy adolat masalasi muhim o`rin egallaydi. Ijtimoiy adolat jamiyat a`zolarining bir-biriga xurmat, o`zaro yordam berishi, imonli bo`lishiga, shariat qonunlariga rioya qilishi asosida vujudga keladi. Bu fazilatlarning namunasini birinchi navbatda davlat tepasida turgan hukmdor, uning amaldorlari, shayxu imomlar ko'rsatishlari zarur. Uning tasarruvida islom aqidalariga, shariat talablariga chin dildan amal qilish jamiyatda adolat o`rnatilishining ta'minlaydi.

Hukmdorlarga murojaat qilib, Podshoxo`ja amal, boylik o`tkinch narsa ekanligini uqtiradi. Jamiyat uchun qilingan yaxshilik abadiydir, chunki u odamlar xotirasida saqlanadi. Mmsol tariqasida u buyuk shoir va mutafakkirlarning nomlarini keltiradi. XVI-XVII asr ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fikrning yirik namoyondalaridan Mirzajon Sheroziy, Mashrab, Yusuf Al-Qorabog`iy, Muxammad Sharif Al-Buxoriy Xindistonda ijod qilgan Boburiylar davridagi O`rta Osiyolik mutafakkirlar Amir Xisrav Dexloviy, Abdul Fayz, Fayziy Abdul Qodir Mirzo Bedil nomlarini eslatib o`tish zarur. Muhammad Sharif Al-Buxoriy 1697 yilda Buxoroda vafot etgan. U falsafa bilan birga tarix, huquq va boshqa ilmlar bilan xam shug`ullangan. Uning qalamiga mansub 20 asar bizgacha etib kelgan. Bular orasida uning «Xoqonlarga foydali kitob» deb nomlangan asari diqqatga sazovor.

Kim hukmdor bo`lishi mumkin, u qanday fazilatlarga ega bo`lishi kerak? degan savolga javob berib, Al-Buxoriy yozadi: «Xalif musulmon bo`lmog`i kerak, oqil, balog`at yoshiga etgan, nutq qurish va eshitish qobiliyati bor bo`lmog`i lozim"

Xukmdorlarning asosiy vazifasi shariat ko`rgazmalariga amal qilish, islom davlati xududlarini g`ayridin va bosqinchilardan asrash, mazlumlarni zulmdan, yovuzlikdan himoya qilishdir. «Agar xalif ana shu sifatlarga ega va yana xushfe`l bo`lsa, u vaqtda hukmronlikka loyiqdir».

Al-Buxoriy fikricha hokimiyat Olloh-taoloning in`omidir. Hukmdor uning oldida ma`suldir. Shuning uchun u adolatli bo`lishi, kur`on va payg`ambar xadislari asosida hukmronlik qilishi lozim. «Odil musulmon shoh bilan haqiqat talashuvchi odam isyonkordir» -deydi u. Al-Buxoriy soliq va uni undirish, shoh undan qanday foydalanishi mumkinligi xaqida muhim fikrlarni bayon qiladi.

Mutafakkir faxsh ishlari bilan shug`ullanish, may mchish, haqorat qilish kabi harakatlarni jamiyat uchun xavflm jinoyat deb biladi, ularga qarshi keskin kurashish zarurligini uqtiradi. Muhammad Sharif Buxoriyning davlat va huquq haqidagi fikrlarini chuqur taxlil qilish O`rta Osiyo xalqlarining XVII asr siyosiy va huquqiy ta`limotlari tarixining o`rganilmagan saxifalarini to`ldiradi..

XVII asr ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fikr tarixida Boborahim Mashrab alohida o`rin egallaydi. U 1653 yilda tug`ildi. Birinchi bilimlarini o`z vatani Namanganda oldi. 1671 yildan Mashrab adolat va ilm izlab Movarounnahrning ko`p shahar va qishloqlarini kezdi. 1711 yili riyokor ruhoniylar va amaldorlarni o`z asarlarida fosh qilganligi uchun Balx xokimi tomonidan dorga osib o`ldirilgan. Mashrabning qabri Afgonistonning Xonobod shaxriga yaqin Ishkashim qishlog`ida joylashgan. Mashrab o`zining ko`plab g`azal va ruboiylari bilan mashxur bo`ldi, hozir ham xalq xotirasida saqlanib kelmoqda. U tasavvufning kalandarlik okqimiga e`tikod qildi va undan ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashish uchun foydalandi.

Mashrab ilohiy sevgini, xudoga bulgan muhabbatini juda jozibali tasvirleydi. Uning fikricha, xudoni sevgan kishi go`zal insoniy fazilatlarini o`zida mujassamlantirgan bo`lishi, boshka insonlarni ham sevishi kerak. Shundan kelib chiqqan holda, Mashrab din yo`lidan chiqib ketgan, shariat qonunlariga rioya qilmay, riyokorlik, buzuqchilik bilan shug`ullanuvchi hukmron toifa vakillarini fosh qiladi.

Mashrab ham adolatli, islom dini va shariat qonun-qoidalariga amal qiluvchi hukmdor bo`lishini orzu qildi. O`z zamonasining xukmdorlariga murojaat ham kildi.

Birok uning murojaatlari natija bermadi. Shuning uchun ham Mashrab xukmdorlarning adolatsizligini fosh kiladi.

Adolatli amirim, balki, xokonim, deb arz qildim, Kungul shaxriga tushgan, shoxi Sultonim, deb arz qildim,

Vujudim kishvariga mamlakatdonim deb arz qildim,

Yiroqdin arz qildim, gushini kar qildi-yu ketdi.

Mashrab ahlok masalalariga katta e`tibor bilan qaraydi. U inson qadr-qimmatini ulug`laydi, odamlarni xalol mehnat evaziga beminnat yashashga chakiradi. «Amirning qandidan gadoning yovg`on oshi yaxshiroqdir», deydi u.

Mashrab do`stlik, xaqiqatni gapirish, saxiylik, boshqalarga xamdard bulish, ota-onani xurmat qilish kabi insoniy fazilatlarni targ`ib qilish bilan birga, odamlarni yaramas xulq-atvorlardan saqlanishga undaydi. Xususan, u odamlarni takabbarlik, yolg`on so`zlash, imonsmzlik, nokaslik va baxillik kabi yaramas xulq-atvorlardan saqlanishga chaqiradi.

Ko`rinib turibdiki, Mashrabning ijtimoiy karashlarida jabr-zulm, zo`ravonlikka qarshi nafrat, adolatli jamiyatga erishish orzusi o`z aksini topgandir. Shu bilan birga uning ijodida umidsizlik, tarkidunyochilik ham mavjud. Bu g`oyalar Mashrab yashagan davrning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidagi ziddiyatlarning ifodasidir. Mashrab o`zmnning insonparvarlik ruhi bilan sug`orilgan asarlari tufayli xalqimiz xotirasida saqlanib kelmoqda.

Rejafa qaytish

O`rta Osiyo xalqlarining XVII asrning oxiri XVIII asrning birinchi yarmida ijtimoiy fikr

XVII asrning oxiri XVIII asrning birinchi yarmida yashagan va ijod qilgan mutafakkirlardan biri So`fi Olloyor edi. Uning asarlari asosan islom dini va tasavvufning qonun-qoidalari va marosimlariga bag`ishlangan bo`lsada, ularda

insonning ahlokiy poklik va ruxiy kamolotga chaqiruvchi goyalar katta o`rin egallaydi. So`fi Olloyorning fikricha, inson saxiy, ochik yuzli, muruvvatli, shirinsuxan va xushmuomalali bo`lishi lozim. Bunday xislatlarga ega bo`lgan odam ajdarxoni engishi, gumrohlarni to`g`ri yo`lga boshlashi, xarom-xarish ishlardan o`zini tiyishi mumkin. Bu maslahatlarni hukmdorlarga ham uqtirishga harakat qildi. Mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o`rnatishni istagan hukmdor o`z fuqarolariga rahmdil va xushmuomala bo`lishi lozim, deydi u.

So`fi Olloyorning ma`naviy merosini o`rganish va ilmiy taxlil qilish falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikr tarixiga katta hissa bo`lib kiradi. O`zbekiston ijtimoiy-siyosiy fikr tarixida iz qoldirgan ilg`or qishilardan biri Munis Xorazmiy (1778-1829). Tarixchi, tarjimon, xattot, ma`rifatparvar shoir Munis Xiva xonining saroyida farmonlarni yozuvchi kotib bo`lib xizmat qilgan, zamonasining mashxur olim, shoir va san`atkorlari bilan yaqin aloqada bo`lgan, bor bilimi, salohiyati va kuch-quvvatini ijodga, ilm-fan va ma`rifatga bag`ishlagan..

Munis Xiva xonligi tarixi ustida ishladi, ko`p ilmiy va badiiy asarlarning tarjimasini qildi, insonparvarlik va taraqqiyotga undovchi g`oyalar bilan sug`orilgan she`rlar yaratdi. Siyosiy qarashlari jihatidan Munis odil va ma`rifatli hukmdor tarafdori edi. U mamlakatda adolat o`rnatilishini, ilm-fan, san`at rivoj topishini orzu qildi. Hukmdorlarni shu yulda harakat qilishga chaqirdi.

O`zbek xalqining XIX asr ijtimoiy-siyosiy fikri tarixida Muhammadrizo Ogahiy aloxida o`rin egallaydi (1809-1874 yy.) Ogahiy Xorazmda tug`ildi va umrining oxirigacha shu erda yashadi va ijod qildi.. U shoir, tarixchi, tarjimon va davlat arbobi ham edi..

Ogahiy o`z umri mobaynida bir necha Xiva xonlarining idora qilish faoliyatining guvoxi bo`lgan. U saroyda bosh mirob lavozimida xizmat qilgan, xonlarning yaqin maslaxatchisi va nasihatgo`yi bo`lgan. Ogahiy Xorazmshohlar davlatchiligi, ularning yuksalish va inqirozga uchrash tarixini xam o`rgangan, ayrim siyosiy masalalarni tadqiq qilgan va asarlar yaratgan.

Ogohiyning siyosiy ideali ma`rifatli, odil hukmdordir. U o`zining «Ogohnoma» qasidasida bo`lgusi hukmdor qanday xislatlarga ega bo`lishi kerakligini bayon qiladi. Bular: himmat, shijoat, adolat, siyosat, mardlik. g`ayrat, saxovat, hayo, va`daga vafo

qilmoklik, yaxshi niyat, muruvvat, shariat hukmiga rivoj bermoq, kufr dardiga iloj topmoq, lutfu karam bilan lashkar ko`nglini olmoq. Ogahiy fikricha, ana shu omillarga amal qilingandagina davlatda tartib va intizom o`rnatiladi.

Davlatni inkirozga olib keluvchi sabablar: ogohlikni unitish, sustlik, shariatni unitish, xalqning arzini tinglamaslik, jaholat, fisq-fasod va bid`atga yo`l bermoq, jabru zulmga moyil bo`lmoq xasislik, baxillik, lashkarni tushkun axvolda qoldirish, aysh-ishratga berilish, davlat va mamlakat ahvolidan bexabarlik, azizlarni xor va bee`tibor etish, bezori, battol odamlarga muruvvat ko`rsatish, xiyonatkor xasadguylarga yaqin bo`lish va shu kabi nuqsonlar. Bu qusurlar davlat va hukmdor uchun o`ta zararli hamda xatarlidir, deydi Ogahiy va ogohlikka da`vat etadi.

Ogahiy adolat g`oyasiga ham katta ahamiyat beradi. U shohga murojaat qilib aytadiki, oftob o`z nurini vayrona va obod makonlarga teng sochgani singari, xukmdor xam raxm-shavkat, ximmat-saxovat ko`rsatganida barcha insonlarga barobar munosabatda bo`lishi kerak. Shundagina jamiyatda adolat ta`minlanishi mumkin.

Ogaxiyning fikricha, hukmdor davlatni boshqarishda donishmand, davlatchilik tajribalarini yaxshi biladigan, xayrixox-ezgulik istovchi kishilarga tayanmog`i lozim. Pastximmat, nodon, davlatchilik ilmidan bexabar kishilar hukmdorga madadkor bo`laolmaydi. Bunday odamlar el molini o`z nafslarini qondirish ishlariga sarflaydilar. Shox bu ogoxlarni unitmasa xalq tinch, mamlakat osoyishta buladi. Ogaxiy ijodidagi bu g`oyalar hozirgi milliy davlatchiligimizni tiklash va shakllantirish ishiga ko`maklashadi.

Rejafa qaytish

O`rta Osiyo xalqlarining XIX asrda ijtimoiy-siyosiy fikri.

XIX asr ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fikr tarixida Komil Xorazmiy (1825-1899) uziga xos o`rin egallaydi. Uning asli ismi Muxammadniyoz, Komil uning taxallusidir.

Komil Xorazmiy O`zbekiston ma`rifatparvarlik harakatining ilk namoyondalaridan biridir. U Sharq adabiyotining yirik namoyondalari ijodini, arab va fors tillarini mukammal bilgan. Evropa madaniyati bilan xam tanish bo`lgan. Komil Xorazmiy Xiva xonlari saroyida xattot, mirzaboshi vazifalarini bajargan. Xonlikda yuz bergan ko`p voqealarning guvoxi bo`lgan. Bu hol uning ijtimoiy-siyosiy qarashlarida iz qoldirmasdan iloji yuk edi, albatta.

Komil Xorazmiy o`z asarlarida inson zotiga bo`lgan xurmat va extiromini, tenglik, inson baxt-saodatini ko`yladi, adolatsizlik, riyokorlikni qoraladi. Siyosiy qarashlariga kelsak, Komil Xorazmiy ma`rifatli, odil hukmdor tarafdori edi. U adolat va ma`rifat g`oyalarini targ`ib qilibgina qolmay, amaliy ishlar qilishga ham harakat qildi. Xususan, u Evropa nota tizimidan ilxomlanib «Xorazm tanbur chizig`i» deb nomlangan maxsus nota ixtiro qildi. Xiva shahrida nashriyot tashkil qildi. 1883 yilda esa Komil Xorazmiy raxnamoligida rus-tuzem maktabi ochildi. Komil Xorazmiyning qarashlari ziddiyatli va muayyan doirada cheklangan bo`lishiga qaramay, o`zbek xalqining ma`naviy tarakkiyotida ijobiy rol o`ynadi.

XIX asrning birinchi yarmida yashagan va ijod qilgan shoirlar - Nodira (1721-1843), Uvaysiy (1789-1850), Dilshod (1800-1906) O`zbekiston ijtimoiy-siyosiy fikri tarixida alohida o`rin egallaydilar. Ular o`zining butun ijodi davomida insonparvarlikni, adolatni, insoniy muhabbatni., o`zbek ayollarining orzu-umidlarini kuyladilar. Ular ham jamiyatdagi adolatsizlik, zulm donishmand va odil xukmdor bo`lganda bartaraf qilinishi mumkin, degan fikrda bo`ldilar.

Rejafa qaytish

Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar.

O`rta Osiyo, O`rta Osiyo xalqlarining XVI-XIX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy fikri, diniy falsafiy oqim, so`fizim, tasavvuf,

Podshoxxo`janing siyosiy va xuquqiy qarashlari, Mashrabning siyosiy va xuquqiy qarashlari, So`fi Olloyorning siyosiy va xuquqiy qarashlari, Munis Xorazmiyning siyosiy va xuquqiy qarashlari, Ogaxiyning siyosiy va xuquqiy qarashlari, Xiva xonligi, Buxoro xonligi, Ashtarxoniylar sulolasi, shayboniylar sulolasi, Komil Xorazmiyning siyosiy va xuquqiy qarashlari, Buxoro amirligi, xon, amir, devon, ko`kaldosh, otaliq.

Mavzuga oid nazorat savollari.

1. O`rta Osiyo xalqlarining XVI-XVII asr ijtimoiy-siyosiy qarashlarida qanday g`oyalar ilgari surildi?
2. O`rta Osiyo xalqlarining XVIII asr ijtimoiy-siyosiy g`oyalar ilgari surildi?
3. O`rta Osiyo xalqlarining XIX ijtimoiy-siyosiy qarashlarida qanday g`oyalar ilgari surildi?
4. Podshoxxo`ja qanday siyosiy va xuquqiy qarashlarini ilgari surgan?
5. Mashrab, So`fi Olloyor, Munis Xorazmiy va Ogaxiylarning siyosiy va xuquqiy qarashlari orasida qanday farq bor.

1. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda». «O`zbekiston», Toshkent. 2000 y.
2. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». «O`zbekiston», Toshkent 1997 y.
3. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q». Toshkent. 1998.
4. Karimov I.A. «O`zbekiston – bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li». «O`zbekiston», Toshkent 1995 y.
5. Karimov I.A. «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida». «O`zbekiston», Toshkent 2000 y.
6. Sharipov R., Muxiddinova F. «O`zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta`limotlari tarixi». Toshkent. 2004.
7. Rahmonov R. G`ofurov Z. “Mustaqillik va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi”. “O`zbekiston”, Toshkent 1999.
8. Boboev X.B. taxriri ostida «Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi» T. 2003 y.
9. Toshqulov J.O`zbekiston xalqlari siyosiy-xuquqiy fikrlari tarixidan. T. 1996 y.

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHIDA O`RTA OSIYODA IJTIMOIY-SIYOSIY FIKR

R E J A:

1. O`rta Osiyodagi rus bosqini davrida ijtimoiy-siyosiy fikrlar.
2. Ma`rifatparvarlik xarakatining vujudga kelishi va xususiyatlari.
3. Axmad Donish, Berdimurod Berdax, Sattarxon, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Anbar Otin, Avaz O`tar va Xamza Xakimzodalrning siyosiy xuquqiy qarashlari.
4. Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar.

O`rta Osiyodagi rus bosqini davrida ijtimoiy-siyosiy fikrlar.

XIX asrning ikkinchi yarmida O`rta Osiyo tarixida yangi davr boshlandi. 60-70 yillar davomida O`rta Osiyo rus chorizmi tomonidan bosib olindi va Rossiya mustamlakasiga aylantirildi. CHorizm bu erda o`zining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirdi. Bu siyosat O`rta Osiyoni xom ashyo manibaiga aylantirishga, mahalliy aholini qoloqlik va nodonlikda saqlashga, milliy madaniyatning har qanday ko`rinishlarini yo`q qilishga qaratilgan edi. CHorizm O`rta Osiyoda mana shu mustamlakachilik maqsadlarni amalga oshirishga moslashtirilgan idora etish usulini o`rnatdi.

Mustamlaka ma`muriy tizimini Turkiston general-gubernatori boshqarar edi, viloyatlarda xarbiy gubernatorlar, uezlarda uezd boshliqlari va ularga buysungan uchastka pristavlari idora qilar edilar. Mustamlakachilarning mahalliy aholiga bo`lgan munosabatlarini Sirdaryo viloyati xarbiy gubernatorining uezd boshliqlari va pristavlarga yozgan quyidagi ko`rgazmasidan aniq ko`rish mumkin. «Mahalliy aholi, deyiladi unda, bizni faqat material sifatida qiziqtirishi kerak. Ulardan yaqin kelajakda,

musulmon dinida bo`lsa ham, oddiy rus dexqonlarini tayyorlamok zarur. Kimki bunga bo`ysunmasa, uning xarob bo`lishi shubhasizdir: ular ersiz gado bo`lib, o`lib ketishadi yoki Rossiya ulardan voz kechadi. Buning xammasini nazarda tutmoq zarur, biroq bu mavzuda ortiqcha gap qilinmasin».

CHorizm o`z maqsadlarini amalga oshirish uchun mahalliy hukmron doiralardan ham foydalandi. Shu niyatda chorizm Turkistonda «mahalliy» ma`muriy organlarni tuzdi. Bu organlar maxalliy aholi vakillaridan «saylangan» mingboshi, ellikboshi, qozilar va ularning mahkamalaridan iborat edi. Ular mustamlaka hokimiyatining tayanchi bo`lib xizmat kildi. Senator K.Palen bu xaqda, rus ma`muriy organlari mahalliy boylar orqali idora qilishni qulay deb biladi, chunki hukumat buyruqlari shular orqali amalga oshadi, deb yozgan edi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O`rta Osiyo iqtisodiy jihatdan ham qoloq o`lkalardan biri edi. Bu erda asosan, feodal munosabatlari hukm surardi. CHorizmning butun siyosati bu erda feodal zulmi va tartiblarini saqlab qolishga qaratilgan edi. Biroq, chor xukumatining bu urinishlariga qaramay, o`lkada ob`ektiv ravishda kapitalistik munosabatlar asta-sekin rivojlana boshladi. Rus kapitalizmi koloq milliy o`lkalarni, xususan Turkistonni ham, tovar oboroti doirasiga tortdi. O`rta Osiyoning kapitalistik munosabatlar ta`siri doirasiga tortilishida temir yullar qurilishi muhim omillardan biri bo`ldi.

Kapitalistik munosabatlarning O`rta Osiyoga kirib kelishi. Qishlok xo`jaligi maxsulotini qayta ishlaydigan bir necha sanoat korxonalarini vujudga kelishiga, shahar axolisining ko`payishiga sabab bo`ldi. Kapitalistik munosabatlar asta-sekin qishloq xo`jaligiga ham kira boshladi. Bu jarayon dexqonlar ommasini yanada qashshoqlashtirdi, ularning ersizlanishini tezlashtirdi. Bu hol Farg`ona vodiysida tez bordi, chunki bu er paxta sotishga ixtisoslashgan yirik rayonlardan edi. eng yaxshi erlar va ishlab chiqarish qurollari boylarniig qo`lida to`plangan edi.

Mustamlaka Turkistonda yirik sanoatning yo`qligi sababli erdan ajralgan dexqonlar qishloqda qolib, boylarning erlarini asoratli shartlar bilan ijaraga olardilar, aholiniig asosiy qismini tashkil qilgan dexqonlarning katta bir qismi chorakorlik bilan yashashga majbur edi. Dexqonlarning ahvolini turli soliqlar yanada og`irlashtirardi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yuz bera boshlagan o`zgarishlar madaniy hayotda ham o`z ifodasini topa boshladi.

CHorizm O`rta Osiyoni bosib olganidan keyin, madaniy hayotda o`zgarish yasashni xayoliga ham keltirmadi, chunki u mahalliy xalqlarni nodonlikda saqlashdan manfaatdor edi. CHorizm o`zining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishda musulmon ruxoniylarning faoliyatini o`z maqsadlariga muvofiq yo`lga solishga harakat qildi. CHorizm musulmon ruhoniylarining katta kuch ekanligini, mahalliy aholinning ma`naviy xayotida katta rol o`ynashini nazarda tutib, ularning kuchini bo`shashtirishga, mustaqilligini cheklashga qaratilgan bir qancha tadbirlarni ham amalga oshirdi. CHorizm O`rta Osiyo boyliklarini aniqlash va ekspluatatsiya qilish va undan imkoniyat boricha ko`proq foyda olish maqsadida ulkani tabiati, iqtisodiy imkoniyatlarini, mahalliy aholining turmush tarzi, urf-odatlarini o`rganishga kirishdi. Bu ishga rus ziyolilari jalb qilingan edi.

O`rta Osiyoda ilmiy jamiyat va muassasalar paydo bo`la boshladi. Bularning ayrimlarining faoliyatida mahalliy millat vakillari ham qatnashdilar. Toshkent, Samarqand, Farg`ona, qo`qon, Xiva va boshka shaharlarda pochta, telegraf va bosmaxonalarning vujudga kelishi, o`zbek tilida gazeta va jurnallar chop qilinishi mahalliy aholining jahon madaniyatidan bahramand bo`lishiga muayyan hissa bo`ldi.

Turkistonda yuz bera boshlagan o`zgarishlar mahalliy xalqlarning ilg`or namoyondalari orasida ilm-fanga, yangi maorif tizimiga qiziqishni kuchaytirdi. Bu jarayon feodal jamiyati negizida eski tartib va qarashlarga qarshi dadil kurashish qobiliyatiga ega bo`lgan yangi ijtimoiy kuchlar o`ziga yo`l ochib bora boshlaganidan dalolat berardi. Buni biz xalq ommasining orzu-isgaklarini ifoda etuvchi ma`rifatparvarlik harakatining shakllanishida yaqqol ko`ramiz.

Ma`rifatparvarlik harakatining vujudga kelishi va xususiyatlari

Ma`rifatparvarlik tushunchasini progressiv burjuaziyaning mafkurasidir deb tor ma`noda talqin qilish ham, bilim va adolat g`oyalari targ`ib qilish deb keng ma`noda talqin qilish ham chalkashchilikni keltirib chiqaradi.

Ma`rifatparvarlik kapitalistik munosabatlarining vujudga kelish davriga xos tarixiy konkret, muayyan sinflar va toifalar manfaatlarini bilan bog`lik, feodal tuzumiga qarshi g`oyaviy-madaniy harakatdir. Uning ichida uz xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turadigan oqimlar mavjuddir. Biroq ularning barchasi ob`ektiv ravishda jamiyatning kapitalistik yunalish tomon rivojlanish ehtiyojlarini ifodalaydi.

Ma`rifatparvarlikni feodalizmga qarshi qaratilgan g`oyaviy harakat sifatida vujudga kelishi, yuqorida ko`rganimizday, umumiy qonuniyatdir. Lekin bu qonuniyat turli xalqlarda turlicha va xar xil tarixiy davrda namoyon bo`ladi.

Turkiston ma`rifatparvarligi ham mamlakatni feodal qoloqligidan chiqarish uchun kurashuvchi progressiv kuchlarning manfaatlarini ifodalovchi g`oyaviy harakat edi. Biroq, Turkiston ma`rifatparvarlarining faoliyati XIX asr oxiri va XX asr boshlari Evropada kapitalizmning to`la tantana qilganligi, ulkani Rossiyaning mastamlakasi sifatida keskin siyosiy kurash doirasiga tortilganligi davriga tug`ri keladi. Bu xol Turkiston ma`rifatparvarligida feodal qoloqligidan chiqish g`oyasi bilan bir qatorda mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashish, mustakillik g`oyasini ham kuchaytirdi..

Ma`rifatparvarlik mafkurasi kapitalistik munosabatlarini Turkistonga kirib kelishi natijasida sodir bo`la boshlagan ijtimony-iktisodiy, siyosiy va madaniy o`zgarishlarni aks ettirdi va rivojlandi. U ma`naviy mazmunini boyitib bordi, turli bosqichlarni bosib o`tdi. Uning oldida turgan vazifa feodal qoloqligidan chiqish va taraqqiyot yo`li va choralari topishdan iborat bo`lgan bo`lsada, hayot taqozosi bilan qo`yilgan masalalar va ularni xal qilish choralari turli boskichda turlicha bo`ldi.

Axmad Donish, Berdimurod Berdax, Sattarxon, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Anbar Otin, Avaz O`tar va Xamza Xakimzodalrning siyosiy xuquqiy qarashlari.

Ma`rifatparvarlik harakatining ilk namoyondalaridan biri Ahmad Donish edi (1827-1897). Ahmad Maxdum ibn Nosir Buxoro shaqrida tug`ildi. Donish uning taxdillusidir. Uni Ahmad Kalla ham deyishardi. Bu tahalluslar Donishning bilimdonligi, o`z davrining ilg`or olimi va mutafakkiri ekanligini ifodalardi. Ahmad Donish madrasada olgan bilimlari bilan kifoyalanmay matematika, astronomiya, musiqa, arxitektura, tarix va falsafa bilan shug`ullanadi. U ayniqsa sharq shoirlari va mutafakkirlarining asarlarinn ko`p o`qidi va o`rgandi. Donish yuqori malakali kalligraf, arxitektor ham edi. Mana shuning uchun ham u Buxoro amiri saroyiga yaqinlashtirilgan edi.

Ahmad Donish Buxoro amiri delegatsiyasining tarkibida uch marta Peterburgda bo`lib, Evropa madaniyati, ilm-fan sohasidagi yutuqlar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo`ladi. Bu mutaffakir dunyoqarashida katta burilish yasadi.

Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy karashlari «Navodirul voqea», «Risolai muxtasar az tarixi saltanati xonadoni mangitiya» asarlarida o`z aksini topgandir. Bu asarlarda - Ahmad Donish ijtimoiy taraqqiyotga g`ov bo`lib kolgan feodal ijtimoiy-siyosiy tuzumini tanqid ostiga oladi. Donish o`z vatanining iktisodiy va madaniy jihatdan orqada qolganligini ko`rsatib, buning sababi ilm-fanni rivojlanmaganligida, davlat tizimida hukm surgan adolatsizlik, idora qilishda o`z manfaatidan boshqa xech narsani ko`raolmaydigan nodon amaldorlarga tayanishdadir, deb biladi. Ahmad Donish mamlakatni qoloqlikdan chiqarish uchun Buxoro xonligi davlat tuzumini isloh qilish zarur deb bilib, isloh loyihasini tuzadi va uni amirga tavsiya qiladi.

Donish loyihasiga binoan davlat bir guruh kishilar extiyojlarini qondirish uchun emas, xalq manfaatlari uchun, mamlakatni obod qilish uchun xizmat qilmog`i zarur, degan g`oyani asoslaydi. Buning uchun hukmdor bilimdon, ma`rifatli, odil va o`z fuqarolari manfaatlari uchun xizmat qilmog`i shart. U qanday masalani hal qilmasin, eng avval o`zini fuqaro o`rnida, fuqarolarni esa o`z o`rnida tasavvur qilmog`i lozim. Bu adolatni ta`minlashga imkon yaratadi. Mamlakatni idora qilishda, deydi Donish, hukmdor muhim davlat muammolarini o`z atrofidagi maslaxatchilar bilan birgalikda hal qilishi kerak. Maslaxatchilar ham donishmand va adolatli kishilar bo`lishi kerak

va ularni fikri bilan xisoblashishi shart, chunki kupchilikning aqli, bir kishining aqlidan ortikrokdir.

Donish fikricha, davlatni tepasida turgan kishi uchun zarur xislatlar barcha amaldor shaxslarga xam xos bulishi shartdir. Shundagina mamlakatda tartib va adolat hukm suradi va jamiyat farovon buladi. Keyinchalik Ahmad Donish hayotiy tajriba ta`siri ostida «donishmand va odil hukmdor» ga umid bog`lash fikridan qaytdi. Adolatsizlikka asoslangan, o`z fuqarolari xaqida g`am emagan davlat uzoq yashay olmaydi, chunki zolim amir va joxil amaldor va ulamolar zulmiga uzoq chidab turish mumkin emas. Albatta o`zgarish bo`lishi kerak, degan xulosaga keladi. Ahmad Donish o`z Vatanini qoloqlikdan chiqarish yo`llarini tinmay izladi. U Sharq mutafakkirlari ta`limotlarini o`rganish bilan bir qatorda, g`arbda tarqalgan ijtimoiy-siyosiy ta`limotlar bilan ham qizikdi. Garchi bu ta`limotlarni Donish qabul qilmagan bo`lsada, bularga nisbatan bo`lgan uning munosabati mutafakkirning ijtimoiy-siyosiy orzularini keng ko`llamda ekanligini ko`rish imkonini beradi.

Ahmad Donish ilg`or rus ziyolilari orkali sotsial -utopik g`oyalar bilan tanishgan va ularga o`z munosabatini bildirgan. Bu nazariyaga ko`ra, yozadi Donish, er yuzidagi barcha boyliklar odamlar va xalqlar o`rtasida teng taqsimlanadi. Odamlar qadim zamonlarda teng bo`lishgan. Keyinchalik kuchlilar kuchsizlarning mulklarini tortib olishi natijasida tengsizlik kelib chiqqan.

Agar adolat nuqtai nazardan o`ylab qaralsa, deydi Donish, har kim o`z eri bilan qanoatlanishi kerak. Kuchlilar tortib olingan erlarni o`z egalariga qaytarib berishlari kerak. Agar kimda-kim kaytarib berishni istamasa odamlar ittifoqqa birlashib nochorlarga tegishli boyliklarni kuchlilardan tortib olishlari kerak. O`shanda odamlar o`rtasida kelishmovchiliklar, podsholar o`rtasida urish va adovatlar to`xtaydi. Oqibat natijada xalqlar o`rtasida tinchlik va hamkorlik o`rnatiladi. Ahmad Donish bu ta`limotni amalga oshirish mumkinligiga shubha bildiradi, chunki, deydi u, xech kim o`z mulkidan osonlik bilan kechmaydi. Bunday tartibni o`rnatish uchun ko`p qon to`kilishi mumkin va u shunda ham uning amalga oshishi noma`lumdir.

Ahmad Donishning g`oyalari o`zining cheklanganligiga karamasdan muhim ahamiyatga ega edi. Donish mavjud siyosiy tuzum taraqqiyotga g`ov bo`lib

qolganligini ko`rsatish bilan birga, bu g`ovni olib tashlash yo`llarini izlab topishga harakat qildi,.

Ezilgan mehnatkashlar ommasining feodal-qashshoqlik tuzumiga qarshi noroziligi va g`azabini qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri Berdimurod Berdax (1827-1900 yil) o`z asarlarida ifodaladi. Berdax o`z zamonidagi jamiyatning ijtimoiy tartiblarini, uning siyosiy tuzumini qattiq tankid qildi. O`z tanqidida u gumannzm printsiplariga, mehnatkash ommaning axloqiy tushunchalariga asoslandi.

Berdaxning fikricha, inson uchun eng oliy baxt-bu o`z Vataniga, xalqiga xalol va beg`araz hizmat qilishdir.

Ishni ishla, tugilgan el uchun,
Jonimgni ayama elda er uchun,
Kindik koni tomgan aziz er uchun,
Ulib ketganingcha xizmat yaxshirok

Berdax xalqqa xizmat qilishga chaqirar ekan, u dastavval to`g`rilik, haqiqatguylik, adolat, inson qadr-qimmatiga xurmat bilan qarash, ezilgan va xuquqsizlarni himoya qilishni ko`zda tutadi. Bunday xislatlarga ega bo`lmagan kishini inson deb bo`lmaydi. Berdak o`z asarlarida xalq ommasini og`ir ahvolini yoritish bilan cheklanib qolmay, balki tevarak-atrofidagi ijtimoiy adolatsizliklar xaqida umumlashtiruvchi sotsial xulosalar chiqarish darajasiga ko`tarila oldi.

Berdaxning aytishicha xalq ommasining fojiali axvolda qolganining sababi xon va uning amaldorlarining beraxmligi, xalq taqdiriga befarq, beparvo qarashligidadir. Berdax jabr-zulmga asoslangan ijtimoiy tuzum yo`q bo`lishiga, ozodlik va adolat o`rnatilishiga ishonch bildiradi. Lekin u adolat o`z-o`zidan kelmasligini, buning uchun harakat zarurligini anglatgandi. Berdax o`z ijodi bilan xalq ommasini adolat uchun kurashga ilxomlantirdi.

Berdax baxtli va adolatli jamiyat odil va dono hukmdor paydo bo`lishiga boglik, degan tushunchaga asoslanadi. U mamlakatni vijdonlik, odil, xalq manfaatlarini birinchi uringa kuyuvchi kishilar idora kilishgandagina zulm va zo`ravonlik, qashshoqlik va erkinsizlikdan qutilish mumkin degan orzuni bayon kildi. Berdaxning g`oyalari qoraqalpok xalqining ma`naviy hayotida katta rol o`ynadi.

Ilg`or ma`rifatparvarlik g`oyalari Sattorxon (1843-1902) va Furqat (1858-1909) asarlarida xam ifodalangandir. Ular mamlakat kolokligining asosiy sababi feodalxonlik ijtimoiy tartiblarida deb bilib, uni tanqid ostiga oldilar. Sattorxon xonlik tuzumini o`zboshimchalikda, qonunsizlik va poraxo`rlikda, mamlakat farovonligi, ilm-fan rivoji haqida xech qanday g`amxurlik yo`qligida aybladi. Uning ko`rsatishicha, mamlakat hamma jihatdan kulgili darajada qoloq bo`lsada, xon, bek va xokimlar o`z maishatini ko`zlagan. Xonning bek va xokimlarga munosabati, ularning ishiga emas, olib keladigan sovg`asiga qarab belgilanardi, maktab, ilm-fan, o`kish-o`qitish ustidan deyarli nazorat yo`q edi. Shu sababdan, deb yozadi Sattorxon, mamlakat qoloklikda qoldi.

Sattorxon fikricha, jamiyat taraqqiyotining asosini ilm-fan, ma`rifat tashkil qiladi, bu har qanday aqlga muvofiq jamiyatning farovon yashash garovidir. Uningcha ilm-fanga, taraqqiyotga erishish vositalaridan biri boshqa xalqlar bilan do`stona aloqada bo`lish, ibrat olish va o`rganishdir. Biz musulmonlar, deb yozadi Sattorxon, biqiqlikda Evropa xalqlaridan chetlashgan xolda yashardik, endilikda biz Evropa xalqlari bilan yaqindan aloqaga kirishishimiz, umuminsoniy hayot va ilmiy taraqqiyot ishtirokchilari bo`lishimiz zarur. Sattorxon ma`muriy organlarga chorizm tomonidan o`tkaziladigan saylovlarni tanqid qildi. Uning aytishicha, Turkiston sharoitida o`tkaziladigan bu saylovlar soxta bir narsadir, chunki u suiqasdlikka, adolatsizlikka asoslangan.

Sattorxon davlatni boshqaruvchi kishilar jamiyatdagi o`zboshimchalik va suiqasdliklarni cheklashlari mumkin, degan fikrga amal qilgan. Sattorxonning ma`rifatparvarlik faoliyati o`z xalqiga chuqur muxabbat, xalq ommasini ma`rifatli qilish ishiga sadoqat tuyg`ulari bilan sug`orilgandi. Furqat ham feodalxonlik tartiblari mamlakat rivojiga g`ov, deb qaraydi va uni fosh qiladi. Furqat ilm-fan jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi deb tushunadi. Xonlar, deydi u, ilm-fan, xalq farovonligi, mamlakat rivoji xaqida g`amxurlik qilish o`rniga o`zlarinnng roxati va maishatlari bilan band bo`ldilar.

Furqat xon va beklarning o`zaro urush va nizolarini qattiq qoralaydi, bu urushlar xalqqa og`ir kulfat ekanini, mamlakatni vayronlikka olib kelganligini ta`kidlaydi. Furqat feodal xonlik tartiblarini fosh qilib, o`z vatandoshlariga ilm va ma`rifatning,

umuminsoniy madaniyat yutuqlariga yondashish zarurligini tushuntirishga harakat qildi.

Ma`rifatli kishilar idora qilganlarida edi, ahvol bu darajada mushkul bo`lmasdm.

Zavqiy uchun xonlik hokimiyatini tugatilishi mamlakatni taraqqiyot yo`liga kirishni muhim omillaridan biri bo`lib ko`ringandi. Bu masalada u o`z do`stlari Furqat va Muqimiy fikrlariga qo`shilishardi.

Biroq bu Zavqiyga, Muqimiy kabi chor mustamlakachilik tuzumini tanqid qilishga xalaqit bermas edi. U hayotiy tajribasida rus podshosi va uning chinovniklari feodal zolimlaridan farq qilmasligiga ikror bo`lardi.

Zavqiy xam jamiyatda manfaatlari, iqtisodiy axvoli jihatidan bir-biridan farq qiluvchi sotsial guruxlar borligini yaqqol kuradi.

Uning fikricha, odamlar o`z tabiatlari jihatidan bir-birlari bilan tengdirlar, shu sababli bir guruxning boshqalardan ustun bo`lishi uchun hech qanday asos yuk. Zavqiy inson qadr-qimmatini oyoq osti qiluvchi, tengsizlik va zo`ravonlikka asoslangan jamiyatni aqlga va tabiatga yot, adolatsiz jamiyat, deb biladi. U mehnatkash xalq ommasini mushkul axvolga duchor qilgan zamonasidan g`azablendi va unga qarshi norozilik bildirdi.

Zavqiy xam Muqimiy kabi, hokimiyat vakillari boylar bilan uzviy bog`lik ekanligini, ularning manfaatlari bmr ekanligini aniq ko`rsatib berdi, maxallmy hokimiyat organlariga bo`ladigan «saylov» larni qalbakiligini fosh qildi. Zavqiy o`z xalqining erkin va baxtli hayotga erishishiga ishonch bildiradi: Bu kunlar, deydi u, boshimizda bir «saxob»dir; chunki zulm va zo`ravonlikka asoslangan davlat suv yuzidagi xubobga o`xshash, uzoq yashay olmaydi, xalq unm ag`darib tashlashi muqarrardir. Ushandan keyin jamiyatda adolat va osoyishtalik urnatiladi, jahon obod bo`ladi, degan fikrni bayon kiladi.

Mana shuning uchun ham Zavqiy 1917 yil Fevral' revolyutsiyasiga yuksak baho berdi. Bu unga chidamsizlik bilan kutgan orzusini amalga oshganligi bo`lib ko`rindi. endi bemor zamon ketdi, zulmatda yotgan elning chirog`i yondi, deb yozgandi shoir.

Lekin sotsial-iqtisodiy va siyosiy xayotda xech qanday muxim o`zgarishlar yuz bermadi. Turkistonda, ilgarigidek, mustamlakachilik idora etish apparati, milliy zulm hukm surdi. Mana shuning uchun ham O`rta Osiyo ijtimoiy fikrining ilg`or

namoyondalari Fevral' revolyutsiyasidan umidni o`zib, muvaqqat xukumat siyosatiga zolimlikning yangi shakli deb qaray boshladilar. Zavqiy, Hamza, Avaz, Ayniy kabi mlg`or ijtimoiy fikr namoyondalari Oktyabr' inqilobining milliy ozodlik, millatning o`z takdirini o`zi hal qilish huquqi haqidagi soxta g`oyalaridan ilxomlanib, uni targ`ib ham qildilar.

Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar.

O`rta Osiyo xalqlarining XIXasr oxiri va XX asr boshidagi siyosiy xuquqiy qarashlari, rus mustamlakachiligi, mustamlaka, Turkiston, Turkiston Genral gubernatorligi, ma`rifatparvarlik xarakati, Axmad Donish va Berdimurod Berdaxning siyosiy va xuquqiy qarashlari, Sattorxon va Furqatning siyosiy va xuquqiy qarashlari.

Mavzuga oid nazorat savollari.

1. XIX asr oxiri XXasr boshida O`rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarda qanday g`oyalar ilgari surilgan?
2. O`rta Osiyoda mustamlaka ma`muriy tizimi qanday siyosat olib bordi?
3. O`rta Osiyoda ma`rifatparvarlik xarakati qachon vujudga keldi?
4. Ma`rifatparvarlik namoyondalari qanday siyosiy va xuquqiy qarashlarni ilgari surishgan?

5. Axmad Donish qanday siyosiy va xuquqiy qarashlarni olg`a surgan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda». «O`zbekiston», Toshkent. 2000 y.
2. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». «O`zbekiston», Toshkent 1997 y.
3. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q». Toshkent. 1998.
4. Karimov I.A. «O`zbekiston – bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li». «O`zbekiston», Toshkent 1995 y.
5. Karimov I.A. «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida». «O`zbekiston», Toshkent 2000 y.
6. Sharipov R., Muxiddinova F. «O`zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta`limotlari tarixi». Toshkent. 2004.
7. Rahmonov R. G`ofurov Z. “Mustaqillik va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi”. “O`zbekiston”, Toshkent 1999.
8. Boboev X.B. taxriri ostida «Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi» T. 2003 y.
9. Toshqulov J.O`zbekiston xalqlari siyosiy-xuquqiy fikrlari tarixidan. T. 1996 y.

JADIDLARNING SIYOSIY VA XUQUQIY QARASHLARI

REJA:

1. Turkistonda jadidchilik xarakatining vujudga kelishi va jadidlar xarakatida milliy ziyoliylarning o`rni.
2. Maxmudxo`ja Bexbudiy va Munavvar Qori Abdurashidxonovning siyosiy xuquqiy qarashlari.
3. Yosh buxoroliklar: Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo`jaev va boshqalarning siyosiy-xuquqiy qarashlari.
4. Yosh xivaliklar: Bobooxun Salimov, Polvonniyoz Yusupovlarning siyosiy va xuquqiy qarashlari.
5. Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar

Turkistonda jadidchilik xarakatining vujudga kelishi va jadidlar xarakatida milliy ziyoliylarning o`rni.

O`zbekiston siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixini yaratishda jadidchilik harakatini tadqiq qilish muxim ilmiy muammolardan biridir. Bu sohada oxirgi vaqtda anchagina ilmiy va ommabop risola va maqolalar chop qilindi. Ularda jadidchilikka berilgan bir tomonlama, xaqiqatga zid baholarni noto`g`ri ekanligini isbotlovchi faktlar va izohlar berilgan, Hozir asosiy vazifa jadidchilik harakatining ilmiy jihatdan xolisona va halol tadqiq qilishdan iboratdir.

Jadidizmning o`rganishda qo`lga kiritilgan boy materiallarni umumlashtirish, unga yondoshishning nazariy masalalarini chuqurlashtirish, ob`ektiv ilmiy haqiqatni aniqlashga mos keladigan tadqiqot yo`llarini ishlab chiqmsh muhim muammolardandir. Jadidizm Turkiston ma`rifatparvarlik harakatining yukori

boskichidir. Uning namoyondalari mamlakatni feodal qoloqlikdan chaqarmsh, milliy mustaqillikka erishish uchun qurashdilar.

Jadidlar harakatida milliy ziyolilarning deyarli barcha ilg`or vakillari qatnashdi. Bular orasida Hamza, Avloniy, Xolmuhammad Axundiy, Ibroxim Davron, Siddiqiy, Mirmuxsin Shermuxamedov, Nazir To`raqulov va boshqalar bor edi. Jadidizm namoyondalarining qarashlarida xilma-xillik, ba`zi masalalarda jiddiy farq borligini inkor qilmagan holda, jadidizm mafkura, muayyan qarashlar tizimi sifatida kapmtalistik taraqqiyoti extiyojlarini ifodalardi.

Jadidlar harakatining sotsial ildizlari milliy burjuaziyanmng vujudga kelmsi va uni mmlly ozodlikka intilishiga bog`liqdir. Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishiga Rossiya musulmonlarining milliy ozodlik harakati

Mafkurchilarini ta`siri ham katta bo`ldi. Turkistonda Sharqda rivoj topgan mustamlakachilik zulmiga qarshm qaratilgan mafkuraviy oqimlar g`oyalari ham kirib kelardi.

1906 ymldan boshlab jadidlar Turkmstonda o`zlarining gazeta va jurnallarini nashr qila boshladilar. Ularning saxifalarida mustamlakachilik siyosatiga, feodal tartibotlarining ximoyachilariga qarshi qaratilgan keskin maqolalar ham bosilib turardi. Jadidchilik harakatining diqqat markazida turgan masalalardan biri maorif tizimini isloh qilishdan iborat edi. Milliy manfaatlarni himoya qila biladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlik va qoloqlikdan chikish muammolarini biladigan zamonaviy bilimga ega savodli kadrlar zarurligini jadidlar yaxshi anglashardi.

Mana shuning uchun xam dunyoviy bilimlarni o`rganish ishlari, maorif tizimini islox qilish masalasi XIX asr oxiri va XX asr boshlari Turkiston ijtimoiy fikrining dikkat markazidagi siyosiy masala bo`lib qoldi^ ^. Biz dinimiz va mamlakatimizni himoya qilishga qodir ishonarli va mustahkam vositaga ega bo`lmog`imiz shart. Bu vosita maorifdir, deb yozgan edi Bex,budi.

Bexbudiyning bu fikrlari o`z axamiyatini hozir xam yuqotgani yuk. Jadidlar matbuotida maorifni islox qilish masalalari xar tomonlama muhokama qilindi. Unda maktab ishini iqtisodiy va moliyaviy tomonlari, ulamolar va chorizm ma`muriyatini yangi usul maktablariga munosabatlari, o`kuvchilar psixologiyasi va odobiga ijobiy

ta'sir qilish metodikasi, o`qitish dasturlari va maktab ishiga oid boshqa ko`p masalalar haqida maqolalar mavjud.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish zarurki jadidlar o'z maqolalari va asrlarida maorif, ijtimoiy hayot va turmush tarzini ayrim tomonlarini islox qilish zarurligini uqtirish bilan birga yoshlar diqqatini musulmonlarning o'tmish madaniyatiga, ilm-fan sohasida erishgan shuxratlariga, diniy va xulqiy poklik masalalariga jalb qilganlar, bu o'tmishni mavjud ahvolga taqqoslab ko'rsatishga harakat qildilar. Jadid ziyolilari orasida va matbuotda «Turon» g'oyasi ham keng tarqala boshlandi. Shu bilan bir qatorda jadidlar milliy doirada cheklanib qolmaslik, umuminsoniy madaniyat yutuqlari, fan va pedagogik fikr yangiliklaridan foydalanish zarurligini uqtirish sohasida ma'lum targ'ibot ishlarini olib bordilar.

Jadidlar siyosiy dasturi Turkistonni mustakilligi uchun kurashish vazifasiga qaratilgan edi. Birok jadidlar bu oliy maqsadni amalga oshirish chora va vositalarini tanlashda konkret ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat bilan xisoblashdilar, imkoniyatlaridan kelib chiqdilar.

Maxmudxo`ja Bexbudiy va Munavvar Qori Abdurashidxonovning siyosiy xuquqiy qarashlari.

Jadidlar harakatining yirik namoyondasi, uning nazariy asosichlaridan biri Maxmud-Xuja Bexbudiydir (1879-1919). Bexbudiy fikrlarining teranligi, siyosiy ongining yuksakligi bilan jadidlar orasida ajralib turardi.

Bexbudiy Rossiya siyosiy hayotidagi turli partiyalarga bo`lgan munosabatini ifodalab, qoraguruxlar partiyasi faoliyatini koralaydi. Bu partiya, deydi Bexbudiy, podshox bilan xalqning bir-biri bilan muloqotda bo`lishiga g`ovdir. Xususan., biz musulmonlar o'z talablarimizni, din va iqtisod sohasida kamsitilishimizni podshohga arz qila olmaymiz, chunki Oliy Kengash a`zolari bizning barcha arzlrimizni rad qilib

podshoxga etkazmaydilar. Bexbudiy sotsial-demokratik va eserlar partiyalarining dasturlari va faoliyatini ham salbiy baholaydi. Biz musulmonlar uchun, deydi Bexbudiy, bu partiyalarga ko`shilish zararlidir. Ularning mulkchilik xaqidagi talablari xato va shariatga mutloq ziddir. Shaxs erkinligi, oila haqidagi fikrlari xam biz uchun mutloq to`g`ri kelmaydi. Siyosiy partiyalar ichida, deydi Bexbudiy, biz uchun tug`ri keladigan kadetlar partiyasidir, chunki bu partiya podshohning xalq bilan muloqotda bo`lishiga imkoniyat yaratuvchi davlat dumasi tarafdoridir.

Bexbudiy 1905 yilda tashkil topgan musulmonlar partiyasiga xayrixoxligini alohida ta`kidlaydi. Bu partiya, deydi Bexbudiy, o`zining umumiy siyosiy talablari va e`tiqodi bilan kadetlar partiyasiga yaqin bo`lsada, u musulmonlarni manfaatlarini himoya qilish uchun tashkil qilingan. Shuning uchun, biz Turkiston musulmonlari, siyosatda kadeglarni ko`llasakda, musulmonlar partiyasiga qushilishimiz darkor. Bu partiyaga xizmat qilish, uni tarafdori bo`lish, dinimiz, vatanimiz va millatimizga xizmat qilish demakdir.

Musulmonlar partiyasi 1905 yil Nijniy Novgorod shahrida tashkil qilindi. Uning siyosiy talablaridan asosiysi musulmonlarning dinlariga xukumat ma`muriyatini aralashmasligini ta`minlash va mahalliy o`zini-o`zi idora qilish tizimini o`rnatishdan iborat edi.

Buni faqat davlat dumasi orqali amalga oshirish mumkindir, deb bildilar. Behbudiy Turkistonda musulmonlarning diniy va grajdanlik ishlay bilan shug`ullanadigan mahalliy boshqarma tuzish zarurligini ta`kidlaydi. Turkiston mahalliy boshqarmasi qozilar sudi, vaqf mulkini taqsimlash, maktab va madrasa masalalari va boshqa diniy va milliy muammolarni o`z qaramog`iga olishi kerak. Biz Turkiston musulmonlari uchun, deydi Bexbudiy, diniy grajdanlik boshqarmasi suv va non kabi zarurdir, chunki busiz biz imonimizni yo`qotamiz va falokatga giriftor bo`lamiz. Bexbudiy maqolalari va isloh loyixalarida bayon qilingan g`oyalar jadidlar harakatining asosiy dastur xujjatlari, harakat ko`llanmasi sifatida xizmat qildi.

1917 yil fevral' burjua demokratik inqilobi jadidlar tasavvurida dasturlarni amalga oshirish uchun imkoniyat paydo bo`lganligiga ishonch hosil qildi, milliy-ozodlik tuyg`ularining kuchayishiga olib keldi. O`lkadagi tub aholining siyosiy

ongida va kurashida keskin o'zgarishlar sodir bo'lib, «Shuroi Islomiya». «Shuroi Ulamo» singarm partiyalar tashkil topdi.

«Shuroi Islomiya» partiyasining rahbarlari-Minavvar-qori, Mustafo CHOqaeV, Bexbudiy va boshqalar Turkistonda Muxtoriyat ta'sis etilishini, moliya, adliya, boshqaruv, maorif va boshqa sohalarda mustaqillikni, matbuot erkinligini talab qildilar. Bexbudiy Turkiston muxtoriyati qanday bo'lishini shunday tushuntiradi: «Muxtoriyat, biz Turkiston musulmonlari istaymizkim, Rossiya mamlakatiga yopishib turib, xorijiy va ishlarga aning ila bir bulib turib, daxil ishlar va tirikchiliklarimizni o'zimz idora etsak. Besh viloyatdan iborat Turkistonning har bir shahar va uezdidan bir necha nafardan-kishi saylanib Toshkentda katta markaz bir majlisimiz bulurki, barcha olur soliq va minbad joriy bulaturgan qonun va nizomnomalarni alar tuzib Turkistonda joriy qiladilar. Rusiya xukumati ila musulmonlar orasmnda shul majlis vosita bulur.

O'zimizning muxofazatimiz uchun milliy jandarma, askarimmiz bulur. Mamlakat xazinasidan boshqa milliy va madaniy ishlarimizning masrafi uchun o'zimmizning aloxida xazinamiz bo'lur. Maktab va madrasalarimiz , vaqf va doril kazolarimiz o'z karamog'imizda bulur. Xulosa kalom davlat va siyosat ishlaridan boshqa barcha ishlarimiz o'z ixtiyorimizda bulur va buning uchun zamonaviy va madaniy nizomnoma va qonunnomalarni tahrir etmoq lozimdur. Turkistonda rus, yaxudiy, armani va boshqalar bo'lib, alar ila muomalamiz tug'risida yana yangi va zamonaviy qonunlar kerakdur».

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun Ta'sis majlisi oldida talablarni qat'iy qo'yish zarur. Ta'sis majlisi ham o'z ixtiyori bilan mustakillikni bizga bermaydi. Biz, Turkiston musulmonlari, birlashib muxtoriyatni ta'sis majlisidan olmog'imiz kerakdur. Biz jonsizlik ko'rsatganda muxtoriyat agarda yuz sana so'ngra bulsun, bizga berishmaydur. Afsuski, «Xaq olinur, berilmas». 1917 yil avgust oyida «Kengash» gazetasida mo'xtoriyat loyixasi e'lon qilindi, Bu loyixani tuzishda Maxmud-Xuja Bexbudiy, Munavvar Kori, Abdurashidxonovlar faol ishtirok qildilar.

1917 yil sentyabrida «Markaziy .Shuroi-Islomiya» ning tashabbusi bilan chiqarilgan, o'lka musulmonlari s'ezdi bo'lib o'tdi. S'ezd qabul qilgan qarorda yoziladi: «S'ezd hokimiyat ishchi, soldat va krestyanlar Sovetlariga o'tishiga qarshi

chiqadi. Xokimiyat koalitsion bo`lishi va mamlakatning -hamma kuchlariga tayanishi kerak, bu degani umumxalq hokimiyati bo`lishi kerak». Shunga qaramasdan bolsheviklar butun hokimiyat Sovetlarga berilishini talab qilib chiqishdi . Mana shu vaziyatda Bexbudiy, Munavvar qori, «Shuroi Islomiya» bilan «Shuroi ulamo» partiyalarining birgalikda harakat qilishga da`vat qildilar. Bu da`vat 17-20 sentyabr 1917 yml chaqirilgan umummusulmon s`ezdi qarorlarida o`z ifodasini topdi. Unda «Shuroi Islomiya», "Turon", «Shuroi Ulamo» partiyalar birgalashib, yagona kuch sifatida ish ko`rish vakti kelgani aloxida ta`kidlandi.

S`ezd ishida 500 kishi ishtirok qildi. Ular orasida Urol va Turgay viloyatlarining vakillari ham bor edi. S`ezd qabul qilgan xujjatlarda Turkistonning kelajak ijtimoiy-smyosiy tuzumi qonun chiqaruvchi oliy organ -parlamentga ega bo`lgan respublika bo`lishi ifodalanadi. Bu parlament «umumiy, to`g`ridan-to`g`ri, teng va yashirin ovoz berish yuli bilan besh yil muddatga Turkmstonda yashab turgan barcha millatlarning teng vakillari asosida saylanmog`i lozim edi. Turkiston parlamentining qonun chiqaruvchilik vazifalari Rossiya respublikasining asosiy qonunlari va shariat talablariga mos bulmog`i zarur deb topildi. Bunda Turkiston federatsiyasi o`z puli, o`z militsiyasiga ega bo`lishi, tinch vaqtlarda chet davlatlar bilan o`z chegarasini qo`riqlash uchun saqlash mumkin bo`lardi». Musulmonlar qurultoylarida Turkistonga muxtor jumxuriyati maqomi berish to`g`risidagi kabul qilingan qarorlar bol'sheviklar tomonidan inkor qilindi.

1917 yil 15 noyabr' kuni Toshkentda soldat, ishchi va krest'yanlar deputatlari Sovetining o`lka s`ezdi xokimiyat shu Sovet ko`liga o`tganligini bayon qildi. O`lka Soveti tuzgan xukumat tarkibida mahalliy aholi vakilladan^ bir kishi ham yuk edi. S`ezd qabul qilgan dekloratsiyada bayon etilishicha «X,ozirgi vaqtda musulmonlarni o`lka inqilobiy hokimiyatining oliy tashkilotiga kiritish maqsadga muvofiq emas, chunki mahalliy aholining soldat, ishchi va krest'yanlar Sovetlari hokimiyatiga munosabatlari noaniq, shuningdek, mahalliy aholi orasida proletar sinfiy tashkilotlari bo`lmagani tufayli ular o`lkaning oliy hokimiyatida vakolat tashkil etib, fraktsiyaning madadiga tayana olmaydilar».

1917 yil 12-15 noyabrida «Shurai Ulamo» rahbarlaridan Sherali Lapinning tashabbusi bilan o`tgan «Turli musulmon guruxlarining birlashgan majlisi»

«Turkistonda hokimiyatni tashkil etish to'g'risida» gi masalani muxokama qildi va Sovetlar hokimiyatiga munosabatini bayon qildi. qabul qilingan qarorda «Xokimiyatning maxalliy aholi manfaati uchun deyarli zid bo'lgan begona va o'tkinchi, tasodifiy kishilar guruxi - xarbiylar, ishchilar va krest'yanlar tashkilotlari ko'lida bo'lishi demokratik qoidalar talabiga javob bermaydi va mahalliy aholiga xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash asosida tug'ri hayot ko'rishga kafolat bermaydi", Turkiston milliy madaniy muxtoriyat huquqiga ziddir», deb topildi. 1917 yil, 27 noyabr' IV ulka musulmonlari favqulodda s'ezdi o'tkazildi. S'ezd «Kukon muxtoriyati» ni e'lon qildi. Bu Turkiston mustaqilligini tiklashga karatilgan kurashning dastlabki ifodasi edi.

Jadidlar s'ezdida faol -ishtirok qildilar. Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishiga uz xissasini kushdilar. Maqola va murojaatnomalarda ular muxtoriyatni himoya qilishga chakirdilar. Bexbudiy Turkiston xalqiga murojaat qilib yozgan zdi: "Turkiston xalqi ittifoq etsa qon tukilmas. Eri va amloq ham taqsimlanmay qolur. Din ham rivoj topur. Butun Turkiston ittifoq 15 millionlik bir quvvat imloga kelurki, munga er titraydur. Agar so'zimni faximlata olgan bo'lsam o'zumni baxtlik xisoblardim».

Shunday kilib, jadidlar Turkistonda milliy-ozodlik harakatining kuchaiishiga va uning mafkurasinni yaratish ishiga o'zlarinnng munosib xassalirini qo'shdilar. Jadidlar harakati milliy o'zligimizning xis qilish jarayonini usishga kumaklashdi, milliy zulmdan qutilish muammolariga jamoatchilik diqqatini jalb qildi.

Yosh buxoroliklar: Fitrat, Fayzullo Xo'jaev va boshqalarning siyosiy va huquqiy qarashlari

yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar ham o'z mamlakatlarini qoloqlikdan chiqarish va taraqqiyot yo'liga kirgizish uchun kurashdilar. Bu yo'lda ular Turkiston jadidlarining goyalariga tayandilar. Bexbudiylar uchun g'oyaviy raxnamo xisoblanar edi. O'zlarining ijtimoiy-siyosiy rejalarini Bexbudiy maslahatlariga amal qilgan holda

tuzardilar. Biroq Buxoro va Xiva jadidlarining faoliyati feodal-xonlik tuzumi hukmronlik qilgan sharoitda o`tdi. Bu xol buxorliklar va yosh xivaliklar harakatining siyosiy dasturlarini o`ziga xos xususiyatlarini belgilar edi.

1917 yil Fevral inqilobinipg ta`siri ostida yosh buxoroliklar va yosh xivaliklarning siyosiy faoliyati ancha jonlashib bordi. yosh buxoroliklar amirning cheklanmagan hokimiyatini cheklash talablari bilan chiqa boshladilar. Bu talablar amir va beklar qoshida vakolatli idoralar tashkil qilish, amir ma`muriyati faoliyatining xalq vakillari tomonidan nazorat qilinishini ta`minlash, shariatda ko`rsatilmagan barcha soliqlarni bekor qilish, maorif va matbuot erkinligini ta`minlash, xalq manfaatlariga zid harakatda bo`lgan joxil mansabdor shaxslarni almashtirish kabilardan iborat edi. yosh buxoroliklar o`z ijroiya kumitalarining tashkil kila boshladilar. Bu ko`mita a`zolari Fitrat, Fayzulla Xo`jaev faol ish olib bordilar. Kumitaning asosiy maqsadi yoshbuxoroliklar talabini Amir qo`li bilan, uning isloxatlar qildirish yo`li bilan amalga oshirishdan iborat edi. Lekin bu talablar amalga oshmagandan keyin yosh buxoroliklarning ijro ko`mitasi isloxat dasturlarini inqilob yo`li bilan amalga oshirishga qaror qiladi.

Yosh buxoroliklarning bir qismi shu jumladan Markaziy Kumitaning raisi Muxiddin Mansur ham isloxotlarning zurlik bilan amalga oshirishga qarshi chiqdi. Shuningdek, u Turkiston Sovetlar Komissarlarining yosh buxorliklarning ishiga aralashuviga xdm qarshi buldi. Buxoro amirligiga qarshi kurashda qurol ishlatish kerakligini himoya qiluvchilar yangi Mag .<:aziy qo`mita tuzdilar. Bu qo`mitaning ishida Abdulvoxid Burxon (rais), Fitrat, Fayzulla Xodjaev va boshqalar siyosiy ish olib bordilar. yoshbuxoroliklar Buxoroda kuzgolon kutarish imkoniyatiga ega emasliklariga iqror bo`lganlaridan keyin Sovetlar kuchiga tayanishga, ulardan ko`mak olishga harakat qildilar: Amirlik rejimini yiqitishga qaratilgan rejalarini Sovet xukumati vakillari bilan muhokama qilib ish olib bordilar.

1918 yil 1 martda Turkiston Xalq; Komissarligi raisi F.Kolesov va yosh buxorliklar Ijroiya Kumitasi raisi Fayzulla Xujaev imzosi bilan Buxoro amiriga ultimatum yuborildi. Unda yosh buxoroliklar partiyasining Markazky ijroiya qo`mitasining talablariga muvofik yangi xukumat tuzish, amir xukumatining tugatish, davlatni boshqarish-tizimini adolat va shariat asosida tashkil qilish kabi talablar

ko'yilgan edi. Amir bu shartlarni qabul qilmadi. Shundan keyin yosh buxoroliklar va F.Kolesov otryadlari Buxoroga xujum boshladilar. Biroq ular maglubiyatga uchradilar. yosh buxoroliklar amir quvginidan qochib Turkistonga kelib turishga majbur bo'ldilar. Bu erda hokimiyatni qo'lga olish xaqidagi ularning o'rtasidagi kelishmovchiliklar yanada kuchaydi. Amir hokimiyatini zo'rlik bilan ag'darishga qarshi gurux ham, amir hokimiyatini inqilobiy yo'l bilan ag'darish tarafdori bo'lgan inqilobchi yosh buxoroliklar ham o'z fikrlaridan qaytmadilar. Bu guruxning rahbari Fayzulla Xojaev 1918 yil oktyabrda Moskvada yosh buxoroliklar partiyasining Moskva ko'mitasini tashkil qiladi va 1919 yil dekabrighacha o'zbek va tojik tillarida turli inqilobiy risola, varaqalarni nashr qiladi va Buxoroda tarqatadi.

1920 yil boshida Fayzulla Xojaev Toshkentga qaytadi va inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasining Turkiston markaziy byurosini tashkil qiladi. Uning programmasida ijtimoiy adolatsizlik, zulm va zo'ravonlik va jaholat qattiq tanqid qilinadi, inqilobiy g'oyalar, inson huquqi va erkinliklari, xalq ishtiroki va xoxishi bilan o'rnatilgan yangi tuzum o'rnatish zarurligi targ'ib qilinadi. 1920 yil 2 sentyabrda Buxoroda yuz bergan davlat to'ntarilishidan keyin inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasi Markaziy byuro qaroriga muvofik tarqatildi, uning a'zolari umumiy qoida asosida Buxoro Kommunistik partiyasiga a'zo bo'lish xukukiga ega bo'ldilar.

Yosh xivaliklar: Boboovun Salimov, Polvonniyoz Yusupovlarning siyosiy va xuquqiy qarashlari.

Yosh xivaliklar siyosiy dasturining o'zgarishiga ham 1917 yil fevral inqilobi katta ta'sir ko'rsatdi. yosh xivaliklar mustaqil partiyaga uyushdilar. Ularning rahbarlaridan Boboovun Salimov, Polvon-Niyoz Yusupov. Xorazmda Oliy xokimiyat umumxalq

saylovi asosida tashkil kilingan majlis (Parlament) qo`liga o`tishini, mansabdor shaxslarning koidasini joriy qilish, fuqarolarning qonun oldida tengligi, xalqqa erkinlik berish talablari bilan chiqdilar. Ularning bu talablari xonga topshirildi. Xon bu talablarni kabul kildi va uzining «Manifesti»shaklida xalqqa e`lon kiddi. Manifest e`lon qilingandan keyin yosh xivaliklar majlisga saylov utkazishga kirishdilar. 30 deputatdan iborat majlis saylandi va ish boshladi. Biroq ko`p vatq o`tmay xon majlisni tarkatib yubordi. yoshxivaliklar quvg`in ostiga olindilar. 1917 yil dekabr` oyida yosh xivaliklar Toshkentda Xiva inqilobchilari qo`mitasini tashkil qildilar. Ular Sovet hokimiyati vakillari bilan aloqa o`rnatish, kungilli otryadlar tuzish, xonlik aholisiniig o`rtasida targ`ibotchilik ishlarini faollashtirish masalalari bilan shug`ullandilar, yosh xivaliklar o`z chaqiriqlarida xonlik hokimiyatini tugatish, mehnatkash xalqning ehtiyojlariga javob beradigan xokimiyat o`rnatish zarurligini uqtirdilar.

1920 yil fevral` oyida Horazmda sodir bo`lgan davlat tuntarishida yosh xivaliklar ishtirok etdilar. Ularning bir qismi X,orazm Kommunistik partiyasiga ko`shildilar.

Mavzu yuzasidan tayanch so`z va iboralar

Jadid, jadidchilik xarakati, milliy ziyoliylar, Bexbudiyning siyosiy va xuquqiy qarashlari, Munavvar Qori Abdurashidxonovning siyosiy va xuquqiy qarashlari, yosh buxoroliklar, yosh xivaliklar, muxtoriyat, Turkiston muxtoriyati, sho`roi islomiya, sho`roi ulamo.

Mavzuga oid nazorat savollari.

1. Turkistonda jadidchilik xarakati qachon vujudga keldi?

2. Jadidlar xarakatida milliy ziyoliylarning o`rni qanday edi?
3. Maxmudxo`ja Bexbudiy qanday siyosiy va xuquqiy qarashlarni olg`a surgan?
4. Munavvar Qori Abdurashidxonov qanday siyosiy va xuquqiy qarashlarni olg`a surgan?
5. Yosh buxoroliklar va yosh xivaliklarning siyosiy va xuquqiy qarashlarida qanday farq bor edi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda». «O`zbekiston», Toshkent. 2000 y.
2. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». «O`zbekiston», Toshkent 1997 y.
3. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q». Toshkent. 1998.
4. Karimov I.A. «O`zbekiston – bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li». «O`zbekiston», Toshkent 1995 y.
5. Karimov I.A. «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida». «O`zbekiston», Toshkent 2000 y.
6. Sharipov R., Muxiddinova F. «O`zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta`limotlari tarixi». Toshkent. 2004.
7. Rahmonov R. G`ofurov Z. «Mustaqillik va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi». «O`zbekiston», Toshkent 1999.

8. Boboev X.B. taxriri ostida «Siyosiy va xuquqiy ta`limotlar tarixi» T. 2003 y.
9. Toshqulov J.O`zbekiston xalqlari siyosiy-xuquqiy fikrlari tarixidan. T. 1996 y.

MUSTAQIL O`ZBEKISTONDA XX ASR OXIRI VA XXI ASR BOSHIDA SIYOSIY VA XUQUQIY TA`LIMOTLAR.

REJA:

1. Mustaqil O`zbekistonda xuquqiy davlat g`oyalarining shakllanishi va ularni joriy qilinishi.
2. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson xuquqlar va erkinliklari.
3. O`zbekistonda Prezidentlikni joriy qilinishi va I. A. Karimovning xuquqiy davlat qurishdagi nazariy asoslari.
4. Fuqarolik jamiyati va xuquqiy davlat.
5. Mavzuga oid tayanch so`z va iboralar.

Mustaqil O`zbekistonda xuquqiy davlat g`oyalarining shakllanishi va ularni joriy qilinishi.

1991 yil 31 avgust kuni tariximizning tub burilish nuqtasi bo`ldi. O`zbekiston mustabid tuzumdan voz kechib ochiq demokratik va huquqiy davlat, ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish yo`liga o`tdi. Xalqimizning asriy orzu umidlari va intilishlariga javob beradigan hayotga qadam qo`ydik. Huquqiy davlatchilik shakllari, unga o`tmish yo`llari xar xil bo`lishi mumkin. Bu xar bir mamlakatning ijtimoiy taraqqiyot xususiyatlari, milliy ma`naviy an`analari, davlatchilik tajribasi, siyosiy va huquqiy madaniyat darajasi, geopolitik vaziyati va boshqalar bilan belgilanadi.

„O`zbekiston mustaqillik imkoniyatlarini oldindan payqadi, mamlakat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarining borishini to`g`ri baholadi va birinchilar qatorida o`z

mustaqilligini e`lon qildi. Mustaqilligimizning birinchi huquqiy asosi "O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to`rrisida"gi qonunda (1991 yil 31 avgust) o`z ifodasini topdi. Bu qonunlar O`zbekiston Respublikasi "Millati, diniy e`tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat`iy nazar, respublika xududida yashovchi har bir kishining munosib xayot kechirishini, sha`ni va kadr-qimmatini ta`minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga" intilishini tantanali ravishda e`lon qiladi. "Mustaqil o`zbek davlati,-deb yozgan edi Prezident I.Karimov, - xalqmmizning tarixiy yutug`idir. Xalqi yuz yillar mobaynida orzu qilgan O`zbekiston chinakam mustaqillikni qo`lga kiritib, gullab-yashnashi va farovonlikka erishishi, taraqqiyot etgan demokratik davlatlar qatori xalqaro xamjamiyatda munosib o`rnini egallashi - biz ko`zlagan oliy maqsaddir".

1 Xuquqiy davlat qurishning nazariy asoslari va amaliy muammolari O`zbekistonning 1992 yilgi Konstitutsiyasida, mamlakatimmz Prezidenti I.A.Karimovning "O`zbekiston kelajagi buyuk davlat", "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati", "O`zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari", "Xozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari", "O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlmk shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "Ozod va obod vatan, erkin va farovon xayot-pirovard maqsadimiz", "O`zbekiston XXI asrga intilmoqda", va boshqa asarlarida atroflicha belgilab berilgan.

Bu asarlarda jamiyat a`zolarining kafolatini boyitib borish, huquqiy normalarning bajarilishini ta`minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tashqi munosabatlarni tartibga solib turuvchi takomillashgan qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlarning mavjud bo`lishi va ularni tegishli davlat organlari nazorati ostida bajarilishi, huquqiy madaniyat, qonunga xurmat va unga amal qilish kabi muammolari nazariy asoslangandir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov respublikada hukuqiy davlatning shakllantirish shiorlar va chaqiriqlar bilan amalga oshirib bo`lmasligini, bu ish ijtimoiy hayotning yangi shakllari, institutlari va munosabatlarning yaratish bilan bog`liq murakkab ish ekanligini uzliksiz uqtirib kelmoqda. Bu ishlar orasida jamiyatning barcha sohalarini erkinlashtirish, jamoat fikrini demokratiyalashtirish,

yangi huquqiy va siyosiy qadriyalatlarni o`zlashtirish va hayotga joriy qilish muhim o`rin egallaydi. Xuquqiy davlatchilikning shakllantirish uchun birinchi galda keng ko`lamli siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, davlat suverenitetini mustaxkamlash, eski ma`murmy buyruqbozlik tizimi va unga mos bo`lgan xokimiyat va boshqaruv organlarining tugatish, milliy davlatchilikning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy asoslarini yaratish.

Mamlakatni tarixi va hozirgi kuni o`rtasidagi o`zaro aloqadorlikni, kelajagimiz strategik yo`llarini to`g`ri tanlash, amalga oshirilayotgan islohotlarning tarixiy asoslab berish, o`tmish qadriyatlarining qaytadan baholab chiqish, o`zbek davlatchilik rivojining yangi yo`llarini izlab topish muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Bugungi islohotlarimizning muvaffaqiyatlari ko`p jihatdan milliy tarixiy tajriba va saboqlarning umuminsoniy tarix natijalari va saboqlari bilan, hozirgi zamon jahon xamjamiyati va davlatlarining rivojlanish tendentsiyalari bilan uyg`unlashtirib olib borishga bog`liqdir. Shuning uchun ham O`zbekiston Prezidenti I.Karimov vatanimizning o`ziga xos milliy xususiyatlari va tarixini, jahon xamjamiyati tajribasi va hozirgi zamon muammolari bilan uyg`unlashtirib olib borish zurligini uqtirib kelmoqda.

O`zbek davlatchiligining shakllanishi, rivojlanishida va shu doirada yuzaga kelgan siyosiy-hukukiy madaniyatning o`ziga xos xususiyatlarining vujudga kelishida iqlim, xudud, xo`jalik faoliyatining darajasi va xarakteri, ijtimoiy-madaniy turmush tarzi, milliy an`analar, ko`pdinlilik, mustaqillik uchun kurash va boshqa omillar ta`sir qildi. Davlat qurilishida boshqalardan andoza olish, mamlakat xususiyatlari va milliy ruxiyatini hisobga olmaslik mamlakatni boshi berk ko`chaga kiritib qo`yadi.

O`zbekiston Prezidenti bu masalaga o`zining munosabatini aniq va ravshan bayon etdi. Har bir millat o`z milliy ruhiyatidan kelib chiqib bu masalaga yondoshishi zurligini, xalq extiyojlarini hisobga olmaslik, "demokratik jarayonlarni chetdan nusxa olib ko`r-ko`rona ko`chirish aslo samara bermaydi. Aksincha, butunlay yo`l chalkash va xatarli oqibatlariga olib kelishi mumkin" - deb ta`kidladi. "Xar bir davlat-betakror ijtimoiy xodisadir, U har kaysi xalq tarixiy va ma`naviy taraqqiyotining xosilidir, uning o`ziga xos, o`ziga mos madaniyati rivojining natijasidir-deydi I.Karimov. O`zbekiston o`ziga xos taraqqiyot yo`lini tanlab olgan davlatdir. Bu yo`l

jaxonda o`zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo`lidir. Yurtboshimiz tomonidan ilmiy asoslangan bu yo`lning besh tamoyili vujudga keldi. Bular iqtisodning siyosatdan ustunligi, davlatning bosh isloxotchiligi, qonun ustivorligi, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o`tish. Ushbu tamoyillar O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`lining asosini, o`tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Ularning amalga oshirilishi mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini izchil joriy etishni ta`minlamoqda.

Taraqqiyotning o`zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an`analari, kadriyatlariga tayangandir.

"Biz tanlagan taraqqiyot modeli, bozor iqtisodiyotiga tayangan aniq demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantiradigan yangi xayot barpo etish harakatlarimizning, bir tomondan ko`p asrlik tarix, buyuk madaniyat, yuksak milliy an`analar, muqaddas qadriyatlarga, ikkinchi tomondan esa jahon xalqlarining eng ilg`or yutuqlarini o`zida mujassam etgan tajribaga asoslangan yo`limizning to`g`ri ekanini xayotning o`zi tasdiqlamoqda". Prezident I.Karimov o`z asarlarida davlatchilik negizlarini belgilovchi omillarning aniqlashga alohida ahamiyat beradi. "Bugun jamiyatda ijtimoiy mulkiy jarayonlarning ob`ektiv o`zgarishi yuz berayotgan bir paytda adolat g`oyasini ixcham bir xulosa bilan ifodalash mumkin. ya`ni davlat jamiyatning keskin tabaqalanishiga oshib-toshib ketgan boylaru kambag`al-qashshoqlarga bo`linib ketishiga yo`l qo`ymasligi kerak". Yurtboshimizning fikrlariga ko`ra davlat odamlarning o`z qobiliyatlarini to`la namoyon qilishlari uchun zarur bo`lgan teng imkoniyatlarni yaratib borishi lozim. Bu davlatning vazifasidir. Davlat o`tish davrida xal qiluvchi rol` o`ynaydi. U islohotlarning tashabbuskori bo`lib maydonga chiqdi, qabul qilgan karorlar ijrosi ustidan nazorat olib borishni ta`minladi, aholini o`tish davrining qiyinchiliklaridan himoya kilish vazifasini o`z zimmasiga oldi. "Aynan davlat yangi huquqiy baza va yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanishida, erkin demokratik me`yorlarga o`tishda, ko`p ukladli iqtisodiyot va bozor infrastrukturasining qaror topishida, ya`ni bank, moliya, soliq tizimi shakllanib, yangi mazmun bilan boyishida tashabbuskor bo`ldi". O`zbekiston keng miqyosli islohotlar yo`liga, jamiyatni tubdan o`zgartirish va yangilash yo`liga kirdi. "Faqatgina istiqlolning xayotbaxsh zaminida yangi demokratik qadriyatlar ildiz otishiga, inson

haq-huquqlari va uning erki asosiy boyligi bo'lgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatiga mos keladigan yangi zamonaviy siyosiy, xo'jalik va jamoa tuzulmalari qaror topishiga imkon tug'ildi".

Davlat hayotining yangi demokratik-huquqiy asoslari yaratildi. "Davlat tushunchasi, uning ma'no mohiyati tubdan o'zgardi. U islohotlarning bosh tashabbuskori hamda ularni muvofiqlashtiruvchi asosiy kuchga aylandi. Davlat bozor muqaddisodiy munosabatlarga vazminlik bilan puxta o'ylagan xolda bosqichma-bosqich o'tishni amalga oshirmoqda". O'zbekistonda huquqiy davlatning shakllantirishda nazariy qarashlar, huquqiy davlatchilik amaliyotining ijobiy va salbiy tomonlari hisobga olindi. Huquqiy davlat bu huquq ustivorligi g'oyasi va printsiyining maxsus shaklda ifodalanishidir. Qonun ustivorligini joriy qilmasdan turib huquqiy davlat haqida gapirish mumkin emas.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov Qonun ustivorligini huquqiy davlatning asosiy printsiyidir, deb xisoblaydi. "Hech bir davlat organi, xech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, xech bir mansabdor shaxs, xech bir kishi qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir. Qonun ustivorligi shuni bildiradiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo'ladi".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlar va erkinliklari.

Konun ustivorligi o'z navbatida inson huquqi va erkinliklarini hokimiyatlar bo'linish printsiplarini ta'minlashni, konstitutsiyaviy-huquqiy nazorat va boshqa vositalarning joriy qilishni taqozo qiladi. Davlatning huquqiyiligini yagona mezon

ham shundadir. O`zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, yangi suveren davlat maqomini konstitutsiyaviy jihatdan mustaxkamlab qo`yish muammosi yuzaga keldi. "Davlatimizning kelajagi, xalqimizning taqdiri ko`p jihatdan Konstitutsiyamiz qanday bo`lishiga bog`liq"- degan edi yurtboshimiz. Bizga yangi mustaqil davlatimizning xususiyati, ichki va tashqi siyosatining asosiy qoidalari, umuminsoniy qadriyatlarga, inson huquqlariga, demokratiya va ijtimoiy adolat ideallariga asoslangan Konstitutsiya kerak edi. yangi Konstitutsiyani ishlab chiqish zarurligi haqidagi g`oya 1990 yil mart oyida bo`lib o`tgan o`n ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Oliy Kengashining birinchi sessiyasidayoq aytilgan edi. O`zbekiston Oliy Kengash 1990 yil 20 iyunda O`zbekiston Prezidenti boshchiligida Konstitutsiyaviy komissiya tuzdi.. Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bazasidagi barcha ishlar Islom Karimovning bevosita rahbarligida amalga oshirildi.

Yurtboshimiz Konstitutsiya loyihasiga muhim aniqliklar, tuzatishlar va qo`shimchalar kiritdi. Asosiy e`tiborni Konstitutsiyada inson va fuqarolar huquqlari, erkinliklari va burchlari, davlat mustaqilligi goyalariga qaratdi. Islom Karimovning Konstitutsiyada o`z aksini topgan g`oyalari uning 1992 yil yozida chop etilgan "O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li" asarida ifodalangandir. "Konstitutsiya bizga inson huquqlari, ozodlik, barqarorlik va taraqqiyot mazmunini ifodalaydigan demokratik, huquqiy va adolatli davlatni qanday qilib qurish yo`llarini ochib beradi" - deb yozgan edi yurtboshimiz. O`zbekiston Konstitutsiyasida huquqiy davlatchilikning asosiy belgilari o`z aksini topgan va mustaxkamlangan.

Konstitutsiyaga muvofiq O`zbekiston-suveren demokratik respublikadir. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Xalqimiz o`z hokimiyatini bevosita va davlat orqali amalga oshiradi. Chunki davlat xalq irodasini ifoda etib uning manfaatlariga xizmat qiladi. O`zbekistonning ijtimoiy va davlat-huquqiy tuzilishini yangiligini belgilovchi bir qancha boshqa printsipial qoidalar Konstitutsiyada mustahkamlangandir. Bu insonning eng yuksak qadriyat ekanligi, uning huquq va erkinliklari, hokimiyatlarning bo`linish printsipi, xususiy, jamoat va davlat mulkchilik shakllarini tan olish va kafolatlash, yangi iqtisodiy makon, raqobat, erkin iqtisodiy faoliyatning qo`llash haqidagi konstitutsiyaviy qoidalarda namoyon bo`ladi.

Huquqiy davlat nazariyasi va amaliyotining mohiyati va maqsadi siyosiy hokimiyat bilan inson va fuqaro o`rtasidagi munosabatlarni xuqukiy shaklga solish, inson huquq va erkinliklarini tan olish va kafolatlashdan iborat.

Shuni ham nazarda tutmsh kerakki, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari, ularning hokimiyat bilan bo`ladigan huquqiy munosabatlari hokimiyatning xohishi yoki in`omi emas. Bu ushbu jamiyatda ob`ektiv hosil bo`layotgan huquqning tarkibiy qismi, talabidir. Bu talabga amal qilish barchaning, birinchi galda hokimiyat va uning vakillarining yuridik burchidir. Huquqiy davlat g`oyalariga xos bo`lgan bu an`anaviy talab inson huquqlarining daxlsizligini ifodalaydi. Shu bilan birga bu talab totalitar tuzum davrida hukm surgan, fuqaroga huquq va erkinlikni hokimiyat in`om qiladi, degan tasavvurlarni mutloq inkor qilish xamdir. O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov sho`ro davrida inson manfaatlaridan davlat manfaatlarining ustunligi qonunlashtirib ko`yilganligini ta`kidlab, shunday deydi: "Bugungi Asosiy Konstitutsiyamizda esa davlat ham, jamiyat ham, avvalo, inson manfaatlariga xizmat qilishi, uning haq-huquqlarini himoya etishi ustivor tamoyil sifatida belgilab qo`yilgan.

Va biz o`z ichki va tashqi siyosatimizni, barcha soxada amalga oshirilayotgan islohotlarni ana shu tamoyil negizida olib borishni o`zimizning muxim maqsadimiz qilib qo`yganmiz". Prezident xar bir mansabdor shaxs "Men hukmdor emasman, balki menga ishonch bildirib tanlagan odamlarning xizmatchisiman", deb xis qilishi zarurligini ta`kidladi..

Davlat qonun orqali jamiyat va shaxs erkinligini joriy qiladi, lekin o`zi xam qonun bilan cheklangan. U qonun orqali fuqaro, jamoat tashkilotlari va boshqa davlatlar bilan bo`ladigan munosabatlarida adolat va tenglikni ta`minlovchi majburiyatlarni o`z zimmasiga oladi.. Inson huquqi va erkinliklari o`zgaras bir narsa emas. U tarixiy sharoit bilan bog`liq, o`zgaradigan va rivojlanib turadigan ijtimoiy xodisadir.

O`zbekiston Konstitutsiyasining afzalliklaridan biri shundaki, unda huquqiy davlatchilikning mazmuni va mohiyati inson va fuqaro huquqlari va erkinlmklarmnmng tan olish va himoya qmlish nuqtai nazaridan berilgandir. Inson huquqi va erkinliklari huquqiylikning ilk asosidir. Bu yangi huquqiy yondashish tarixda sinalgan inson huquqi va erkinligi haqidagi qoidalarga tayanadi.

Konstitutsiya yana bir muhim qoidani bayon qiladi. Bu inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarining daxlsizligidir. Sud qarorisiz ulardan mahrum etishga yoki ularni cheklab qo`yishga xech kim haqli emas.

O`zbekiston Konstitutsiyaviy amaliyotida birinchi bor xar bir fuqaroning tabiiy va daxlsiz huquqlari e`tirof etiladi. Bu -yashash huquqi, insonning jismoniy va ma`naviy daxlsizligi, fuqaroning shaxsiy hayoti huquqi, fikr va e`tiqodlar erkinligi huquqi, axborot olish huquqi, aybsizlik prezumtsiyasi, sud ximoyasi huquqi, sog`lom atrof-muhitga ega bo`lish huquqi va xokazo. Shunday qilib, Konstitutsiyamizda inson huquqi va erkinliklarining oliy qadriyatligi va ularning daxlsizligi uygunlashgandir.

Huquqning bunday gumanistik tushunish shaxsning individual huquq va erkinliklarining tegishli printsipidan kelib chiqadi. Konstitutsiya ularning tan olish bilan bir vaqtda amalga oshirish chegaralarini ham belgilab beradi. Konstitutsiyada turli individual huquq va erkinliklarning chegaralari tubandagicha belgilangan:

"Fuqarolar o`z xuquq va erkinliklarini amalga oshirilishda boshqa shaxslarning davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur etkazmasliklari shart".

Inson huquqi va erkinliklari Konstitutsiyaning asosiy mazmuni ekanligini ta`kidlash alohida ahamiyat kasb etadi. Bu sotsializm davri nazariyada xam, amaliyotda ham hukm surgan, inson huquqi yuqoridan hokimiyat tomonidan in`om qilinadi, degan tasavvurlarga qarshi qaratilgandir. Xar bir odam o`zining asosiy huquq va erkinliklariga hokimiyatning xohishi yoki qarori tufayli emas, tabiiy asos tufayli dunyoga kelganligi tufayli egadir. Tabiiy xuquq uslubiga muayyan darajada yon berish xar bir individning davlat, jamiyat va boshqa individlar bilan bo`lgan munosabatlarida uning erkinligini . huquq sub`ekti ekanligini namoyish qilish uchun xam zarur.

Huquqning shunday tushunishning mantigi shundaki inson huquqi va erkinligisiz huquqning o`zi bo`lishi mumkin emas. Inson erkin huquq sub`ekti bo`lgan joydagina turli birlashmalar, tashkilotlar, institutlar, umuman davlat bo`lishi mumkin. Busiz huquqiy munosabatlar va huquqiy tartibot bo`lishi ham mumkin emas.

Inson huquqlari tan olinmagan jamiyatda huquqning o`zi bo`lishi mumkin emas. Huquqning ma`nosi va axamiyatini mana shunday tushunish va tasavvur qilish

demokratik jamiyatning ijtimoiy va siyosiy xayotining fundamental asoslarini tashkil qiladi va qonunlarda mustaxkamlanadi,

O`zbekiston Konstitutsiyasida insonning keng doiradagi shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy huquq va erkinliklari mustaxkamlangan. Bular xozirgi zamon jaxon andozalariga, rivojlangan demokratik mamlakatlarning konstitutsiyaviy talablariga mosdir. Shu bilan birga Konstitutsiyaning birorta qoidasi O`zbekiston huquq va manfaatlariga zarar etkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emasligi ta`kidlanadi.

Konstitutsiya bo`yicha xalqaro huquq va O`zbekistonning xalqaro shartnomalarining umumiy printsiplari va normalari xuqukiy tizimning tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar Uzbekistonning xalqaro shartnomasida qonunda ko`rsatilgan qoidalarga qaraganda boshqacha qoida belgilangan bo`lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo`llaniladi. Bu qoidalar umuman harakatdagi huquq uchun ham, inson xukuqi va erkinliklari uchun ham muhimdir.

Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklar ichida xususiy mulkka egalik qilish huquqi printsiptial ahamiyatga egadir. Xar bir shaxsning mulkdor bo`lishga xaqliligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va barovar muhofaza etilishi asosiy qonunda mustahkamlangan.

Mulkchilikning barcha shakllarini muxofaza qilish bilan bir qatorda Konstitutsiya mexnat qilish erkinligini mustahkamlaydi, majburiy mehnatni ta`qiqalaydi. Insonning boshqa huquq va erkinliklarining ifodalanishida ham yangi yondashish o`z aksini topgan. Bu yashash huquqi, O`zbekistonda bir joydan ikkinchi joyga ko`chish, Uzbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqi, fikrlash, so`z va e`tiqod erkinligi, istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish erkinligi va boshqalar.

Konstitutsiya inson huquqi va erkinliklarining qonunda belgilangan taqdirdagina cheklash mumkinligini ham nazarda tutadi. Bu cheklashlar tuzum asoslarini, axloq qoidalarini, boshqa shaxslarning qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, davlatning xavfsizligini ta`minlash bilan bogliq bo`lgan huquqiy normalarda o`z aksini topgandir.

Insonning yashash huquqi, erkinligi va daxlsizligi, sha`ni va obro`sini tajovuzlardan himoyalanish huquqi, shaxsiy hayoti va turar joyining daxlsizligi, vijdon erkinligi va boshqa shu kabi huquq va erkinliklar xar qanday vaziyatda ham

cheklanmaydi. Inson va fuqaro huquqi va erkinliklari haqidagi konstitutsiyaviy qoidalar bajarilishi shart bo`lgan umumiy huquqiy talabdir. Bu talabni hokimiyatning barcha tarmoqlari va mansabdor shaxslar bajarishi shart.

Konstitutsiyada Inson va fuqarolar huquqlari va erkinliklarining davlat tomonidan kafolatlanishi haqidagi umumiy qoidalardan tashqari huquq va erkinliklarning ta`minlash majburiyati yuklangan institutlar va mansabdor shaxslar ham ko`rsatilgan Konstitutsiyaning 93-moddasida 1 punktida Uzbekiston Respublikasi Prezidenti "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir" deyiladi.

Konstitutsiya har bir kishiga sud orqali huquq va erkinliklarini himoya qilish huquqini beradi. Xar bir fuqaro davlat organlari, mahalliy o`z-o`zini idora qilish organlari, jamoat tashkilotlari va mansabdor shaxslarning qarorlari va harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish xuquqiga egadir.

Prezidentimiz fuqarolarning manfaatlari va huquqlarini sud orqali himoya qilish sohasini kengaytirish zarurligini uqtiradi. "... fuqarolarning manfaatlari va xuquqlarini sud orqali ximoya qilish sohasini mumkin qadar kengaytirish darkor. Vaholanki, ayrim tarmoq qonunlarida xuquqlari paymol etilgan fuqarolarning shikoyatlarini sudlov yo`li bilan emas, ma`muriy yo`l bilan ko`rib chiqish tartibi ham uchraydi.

Albatta bu xol Inson huquqlari umumjahon

deklaratsiyasiga va bizning Konstitutsiyamiz talablariga zid. Fuqaro, agar uning qonuniy manfaatlari va haq-huquqlari paymol etilgan taqdirda, xar qanday masala bo`yicha himoya uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega bo`lmogi darkor".

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Inson huquqlariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni ta`minlovchi idoraviy tuzilmalarni barpo etish, ularning ishlarini faollashtirish muxim vazifa ekanligini ta`kidladi. "Oliy Majlisning inson huquqlari bo`yicha vakili institutning, huquqparvar jamoat tashkilotlarning mavqei va maqomini ko`tarish zarur. Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi mavjud Ombudsman instituti, Jamoatchilik fikri instituti, Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti, Inson huquqlari milliy markazi singari tashkilotlarni rivojlantirish hamda boshqa yangi institutlarni tashkil etish lozim".

Prezidentimizning fikricha "Davlat va nodavlat hokimiyatining barcha tarmoqlari o`z faoliyatini inson huquqlarini himoya qilish va qo`riqlash ishiga safarbar qilgandagina o`z vazifasini to`g`ri ado etgan hisoblanadi. Bu qoidani hamma tan olishi, bu koidaga xamma itoat qilishi shart".

Bularning hammasi O`zbekiston Respublikasida inson, uning xayoti, erkinligi, sha`ni, qadr-qimmatini va boshqa dahlsiz huquqlari oliy qadriyat xisoblanishidan dalolatdir.

Huquqiy davlat va fuqarolar o`rtasidagi munosabatlar taraflarning faqat huquqlaridagina iborat emas, balki ularning o`zaro majburiyatlaridan ham tashkil topadi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bobida fuqarolarning qonunlarga rioya etish, boshqa kishilarning huquqlari va erkinliklarini xurmat qilish, xalqning tarixiy, ma`naviy va madaniy merosini avaylab asrash, atrof tabiiy muhitga extiyotkorona munosabatda bo`lish soliq va mahalliy yigimlarni to`lash, Vatanni ximoya qilish kabi konstitutsiyaviy burchlari qat`iy belgilab qo`yilgan.

Huquqiy davlat hokimiyatning muayyan bir tartibda tashkil qilinishini, hokimiyat organlarining vazifa va huquqlarini, ularning o`zaro munosabatlarini huquq asosida belgilanishini taqozo qiladi.

O`zbekistonda bu sohada ham jiddiy nazariy va amaliy ishlar qilinmoqda. Prezident I.A.Karimov davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish jarayonlarini aniq ko`rsatib berdi. Prezidentimiz e`tiborini eng avvalo huquqiy davlatning muhim tamoyili hokimiyatlar bo`lmishi printsipini amalda joriy qilish masalasiga qaratadi.

I.Karimov bo`ljak davlatimiz qiyofasini nazariy asoslarini ishlab chiqar ekan, "qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish... respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalarini aniq belgilab qo`yish, lozim bo`ladi", - deb ta`kidlagan edi.

Bu ko`rsatma Konstitutsiyada huquqiy jixatdan mustaxkamlandi, Konstitutsiyaning 11 moddasida: "O`zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi -hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo`linishi printsipiga asoslanadi"-deb mustaxkamlangan. Bu qoida davlat organlari tuzimining huquq doirasida, demokratik tartibda faoliyat ko`rsatishini bildiradi. O`zbekiston

Konstitutsiya va qonunlar asosida davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi hokimiyat tarmoqlarining aniq tizimi shakllanadi.

Yurtboshimiz davlat boshqaruvi va jamiyat qurilishida demokratik andozalar va tamoyillarni yanada chuqurroq tatbiq etish qonunchilik, ijro va sud hokimiyati tarmoqlarining o`zaro muvozanati va mutanosibligini, shu bilan birga, ularning mustaqilligini ta`minlash, xar qaysi tarmoq o`z vazifa va burchini bajarish uchun amaliy mexanizmlarni hayotda tashkil qilib berish masalalariga diqqatni jalb etadi. "... shuni chuqurroq anglab olishimiz kerakki agar qaysi bir mamlakatda hokimiyat tarmoqlari o`rtasida Konstitutsiya va qonunlar bilan belgmlangan demokratik balans, ya`ni muvozanat amalda ta`minlanmasa va xar kaysi hokimiyat tarmog`i, bu qonunchilik, ijro yoki sud hokimiyati bo`ladimi, o`ziga yuklatilgan vakolat va vazifalar to`liq va xolisona bajarmasa, bu xolat, xech shubxasiz, shu mamlakatda avtoritar boshqaruv usuli yuzaga kelishiga va shu ruxdagi karorlar qabul qilinishiga olib keladi".

Bu xalqning noroziligiga sabab bo`ladigan noxush vaziyatlarni vujudga kelishiga olib kelishi mumkin, deydi yurtboshimiz. Konstitutsiyamizning 76-moddasiga binoan Konunchilik hokimiyatini Oliy Majlis amalga oshiradi. Boshqa biror-bir organ konun qabul qilish, unga o`zgartirish kiritish huquqiga ega emas. Oliy Majlis o`zining qonun chiqarish vakolatini biror-bir organga berishi, topshirishi ham mumkin emas.

Islom Karimov Oliy Majlis tarkibini o`zgartirish, ya`ni quyi palata qonunchilik palatasi va Senat deb ataladigan yuqori palatani tashqil qilish, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan etti yil qilib o`zgartirish g`oyasini asoslab berdi. Bu o`zgarishlar kelgusida qabul qilinishi zarur bo`lgan yangi qonunlar oldiga printsipial talablar qo`yishini uqtiradi yurtboshimiz.

Prezident I.Karimovning g`oyalariga asoslangan xolda "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to`g`risida" O`zbekiston Resiublikasining Konstitutsiyaviy qonuni qabul qilindi. Bu qonunda Oliy Majlisning yangi tarkibida, parlament quyi va yuqori palatasining o`ziga xos jixatlari, ularning qonuk qabul qilishdagi o`zaro aloqasi va munosabati, shu bilan birga,

palatalarning shakllanish tartibi, a`zolari soni va vakolat muddatlarini belgilash printsiplari o`z aksini topgan.

Oliy Majlis davlat oliy vakillik organi sifatida mamlakatimiz vakillik hokimiyati organlari tizimiga kiradi. Bu tizimga Oliy Majlisdan tashqari, mahalliy vakillik organlari - viloyatlar, tumanlar, shaharlar xalq deputatlari Kengashlari ham kiradi.

Hokimiyat tizimida ikkinchi tarmoq - bu ijro etuvchi hokimiyati hisoblanadi. Uning amalga oshiruvchi organlar turi, soni, faoliyat doirasi kengdir. Ijro etuvchi hokimiyat qonun, farmon va qarorlarni amalga oshiradi, nazorat etadi, xizmat ko`rsatadi. Ijroiya hokimiyatini Konstitutsiyaga binoan Prezident boshqaradi.

O`zbekistonda Prezidentlikni joriy qilinishi va I. A. Karimovning xuquqiy davlat qurishdagi nazariy asoslari.

O`zbekiston Respublikasida Prezidentlik institutining joriy qilinishi mustaqillik davrida davlat qurilishi va boshqaruvida yuz bergan o`ta muxim o`zgarishlardan biri bo`ldi. Prezident O`zbekistonda "davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig`idir" (Konstitutsiya 89-moddasi). endilikda Prezidentning yuridik maqomi, huquq va majburiyatlari Konstitutsiya va qonunlarda ochiq ravshan ifodalangan. CHunonchi, Konstitutsiyaning 93-moddasida Prezidentning ichki va tashqi masalalarni xal etishdagi vakolatlari belgilab qo`yilgan.

Xuddi shunday talablar, qoida-normalar Vazirlar maxkamasi, mahalliy davlat vakillik va ijroiya organlari, saylov tizimi, sud hokimiyati, prokuratura organlariga nisbatan ham Konstitutsiyada qonunan mustahkamlanib qo`yilgan. Prezident Konstitutsiyaning kafili sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, O`zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini muhofaza qilish davlat organlarining o`z vazifalarini bajarishlarini ta`minlash, konstitutsiyaviy tuzumni mustahkamlash bo`yicha barcha sharoitlarni yaratish zarur chora-tadbirlarni ko`radi..

Islom Karimov davlatning milliy manfaatlarini himoya qilish, butun mamlakat xududida tinchlik, barqarorlik va qat'iy konstitutsiyaviy tartibni kafolatlash bo'yicha o'z majburiyatini bajarar ekan, xalq ishonchini oqlamoqda. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti mamlakat Konstitutsiyasining xaqiqiy kafili bo'ldi. Konstitutsiyada Prezidentga respublika oliy hokimiyati va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlash vazifasining yuklatilganligi hokimiyat bo'linishi printsipli amalga oshirishining garovi va davlat hokimiyati organlari o'rtasida qarama-qarshilik bo'lishiga yo'l qo'ymaydigan muhim shartdir.

Prezident I.Karimov huquqiy davlatning yaratish jarayonida ijro etuvchi hokimiyatning mustahkamlash zarurligini nazariy asoslarini yaratdi. Prezident fikricha "Kuchli ijroiya xokimiyati bo'lmasa, xatto eng demokratik yo'l bilan qabul qilingan qarorlar ham bajarilmasligi mumkin. Bu esa qonuniy qarorlarning ro'yobga chiqarilishini, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinishini, siyosiy va iqtisodiy islohotlar turmushga tatbiq etilishini ta'minlaydigan Prezidentlik hokimiyatini mustahkamlash va rivojlantirishni taqozo etadi".

Hokimiyat bo'linishi faqat turli hokimiyat tarmoqlari orasida vakolatlarining taqsimlanishidagina emas, balki markaziy organlar bilan maxalliy organlar vakolatining to'g'ri taqsimlanishida ham namoyon bo'ladi. Ijro etuvchi organlar faoliyatini takomillashtirish, ularning ishlash imkoniyatini oshirish, huquq va majburiyatlarini yanada aniqroq belgilashda O'zbekistonda joriy qilingan hokimlik instituti alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Davlatning salmoqli vazifalarini mahalliy davlat organlari bajaradi. Respublikamizda mahalliy davlat organlarining tizimini belgilashda bir-biridan mustaqil, lekin o'zaro hamkorlikda, bir-birini nazorat qilish asosida faoliyat ko'rsatadigan ikki organ, ya'ni vakillik organi- xalq deputatlari Kengashlari va ijroiya hokimiyati organi hokimliklar bo'lishi nazarda tutiladi. Ijroiya hokimiyatiga boshchilik qiluvchi hokimlar yangi institut bo'lsa, xalq deputatlar Kengashlari mustaqil demokratik davlatimiz xarakteriga moslashtirildi."Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunda shu masalalar mustahkamlangan.

Joylarda vakillik hokimiyati va ijroiya hokimiyati organlarini tuzishdagi asosiy maqsad davlat organlari ishlarida aholining ishtirokini ta'minlash, mahalliy

ahamiyatga ega masalalarni ko'pchilik bilan bamaslahat bo'lib muhokama qilish va to'g'ri qaror qabul qilish, ijroiya hokimiyati organlari faoliyati ustidan mahalliy miqyosda nazorat o'rnatishdan iborat edi.

Vakillik organlari roliga bepisandlik bilan qarash, ayrim joylarda hokimlarning xizmat vazifasini suiste'mol qilishiga sabab bo'lganligini, O'zbekiston Prezidentining nutqlaridan ko'rish mumkin, I.Karimov hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlaridan iborat mustaqil uch tizimga taqsimlash ishini amalda ro'yobga chiqarish zarurligiga katta e'tibor beradi. "Joylarda ham har qaysi bo'g'inda shu taqsimot ogishmay joriy etilmog'i shart. Bu uch tizim bir-birining ishiga aralashmasdan, bir-birini nazorat qilgan xolda faoliyat olib borishiga erishish lozim".

Prezident I.Karimov nutklarida mamlakatimizda tarkib topgan davlat boshqaruv tizimi samarali ishlashi, bu tizimning xar bir bo'g'ini zimmasiga yuklatilgan vazifalari va burchlarini sidqidildan bajarishda nazorat faoliyatining ahamiyatiga alohida to'xtaladi. "Ijro hokimiyati ustidan jamoatchilik, avvalo, saylab qo'yiladigan hamda vakolatli organlar nazoratini, boshqacha aytganda, zarur vakolat berilgan xalq deputatlari amalga oshiradigan nazoratni butun choralar bilan kuchaytirish lozim, degan edi.

Bundan tashqari O'zbekiston Prezidenti mahalliy ijroiya hokimiyat organlarining boshqaruv tizimini rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida takomillashtirib borishga, yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, rahbarlarning xalq oldida xisobot berib turishi kabi masalalarga diqqatni jalb qiladi. Xozirgi kunda "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'grisida"gi qonun yangi taxrirda qabul qilindi. "Mahalliy davlat hokimiyati to'grisida"gi qonunning ham tahrirdagi loyihasini tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Ijroiya va vakolatli hokimiyatlar o'rtasidagi siyosiy va hukuqiy muvozanatning ta'minlashda sud hokimiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Sud sistemasining mustaqil hokimiyat sifatida rivojlanishi va takomillashtirish yo'lida mamlakatda qatta ishlar qilindi va qilinmoqda. Mustaqillik yillarida sud-hukuk tizimini erkinlashtirish va demokratlashtirish borasida muhim qadamlar ko'yildi. Buning natijasida mamlakatimizda zamonaviy demokratiya talablariga javob bera oladigan sud tizimi shakllana boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov o'z nutqlarida sud-huquqiy sohasiga daxldor islohotlarni o'tkazish masalalariga to'xtalib, bu islohotlarning barchasi sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashga qaratilmog'i lozim deb aytgan edi. Sobiq ittifoq vaqtida sud davlatning jazo mahkamasi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "Bular barchasi odamlar ongiga chuqur o'rnashib qolgan. Bizning vazifamiz ushbu ko'nikmalarni, psixologiyani tubdan o'zgartirishdan iborat. Xalq sudini faqat odamlarni qoralaydigan, jazolaydigan organ deb emas, aksincha, ularning haq-huquqlarini va manfaatlarini himoya qiladigan organ, deb bilishi kerak.

Bu-o'ta muhim. yana qaytaraman, odamlar sud organlarini o'zlarining himoyachisi, adolat posboni deb bilishi kerak. Sud tizimini isloh qilish bilan bog'liq muammolar orasida sud'yalikka nomzodlarni tanlash va tayinlash masalasi nihoyatda jiddiy. BMTning "Sud organlarining mustaqilligiga doir asosiy tamoyillar" rezolyutsiyasida shunday yozilgan: sudga tanlangan shaxslar yuksak axloq va iste'dod soxiblari, shuningdek, xuquq sohasida ma'lum tayyorgarlikka, malakaga ega bo'lmog'i lozim.

Sud tizimini isloh qilish sohasidagi asosiy yo'nalishlarni yurtboshimiz aniq ko'rsatib berdi. Bular yuqori malakali hukukshunos mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, qonunchilik faoliyatimizdagi kamchiliklarni tanqidiy baholab bartaraf etish, qonunlarimizning mukammal va izchil bo'lishiga erishish, sud jarayonida ayblov va himoyaning amalda tengligini ta'minlash va buning uchun advokatura idoralarining mavqeini ko'tarish, jinoiy va fuqarolik ishlarni ko'ruvchi sud'yalarning ixtisoslashuvini amalga oshirish va boshqalar.

Sud bugungi kunda inson huquq va erkinliklarining ishonchli tarzda himoya qilishga qaratilgan chinakam mustaqil davlat institutiga aylanmoqda. Fuqarolarning sudga ishonchi mustahkamlanib bormoqda.

1993 yili qabul qilingan "Sudlar to'g'risida"gi birinchi Konunidayoq sud ish yuritishining, tom ma'nodagi mustaqil va faqat qonun oldida javob beruvchi sud tizimining qonuniy asoslari yaratildi. "Fuqarolarning huquqlari va erkmnlklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi, "Advokatura to'g'risida"gi, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning

ijtimoiy himoyasi to`g`risida"gi qonunlar, fuqarolar, yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilishni kuchaytirishga, sud tizimini demokratlashtirishga qaratilgan boshqa qonunlar qabul qilindi. Jahon tajribasini hisobga olib, birinchi marta O`zbekiston Konstitutsiyaviy sud ta`sis etildi, xo`jalik sudlari tizimi yaratildi. 2000 yilda tahrirdagi "Sudlar to`g`risida"gi qonunning qabul qilinishi sud tizimini isloh qilishda muhim bosqich bo`ldi. Unda sud faoliyatini yanada demokratlashuvi va takomillashuvi uchun sharoit vujudga keltirildi.

Eng muhimi shundaki ushbu qonun sudning mustaqilligini ta`minlashning mustahkam mexanizmini yaratdi. Sud`yalik lavozimlariga nomzodlarni tavsiya etish, ularning vakolatlarini to`xtatish va muddatdan ilgari tugatish haqida taqdimnomalar kiritish vakolatlari O`zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzurida tuzilgan Sud`yalarni tanlash va lavozimlariga tavsiya etish bo`yicha oliy malaka komissiyasi zimmasiga yuklandi.

Umumiy yurisdiksiya sudlarining ixtisoslashuvi konuniy mustahkamlandi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo`yicha alohida sudlarni tashkil etish mexanizmi joriy qilindi. "Sudlar to`g`risida"gi yangi qonun asosida sud kadrlarini tanlash va tayinlashning samarali va demokratik huquqiy mexanizmi yaratildi. Bu mexanizm sud hokimiyatining amaldagi mustaqilligini, sud`yalik lavozimiga tayinlashda xolislikni ta`minlashga qaratilgandir. Huquqiy davlatni vujudga keltirishning bosh ommlaridan biri - mukammal qonunchilikni yaratishdir. Ana shu o`lchov boshqaruv tizimidan tortib, hayotning eng kichik sohalarigacha daxldor bo`lgan qonunlar tizimini ishlab chiqish zaruratga aylanmoqda.

O`zbekiston Prezidenti I.Karimov demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va pirovardiga etkazish borasida yangi qonunlar qabul qilish, amaldagi qonunlarni esa tanqidiy ko`z bilan baholab, ularga zamon talab qilayotgan o`zgarishlarni kiritish maqsadida katta ishlarni amalga oshirish lozimligini uqtiradi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti sud tizimi bilan bir qatorda jamiyatda qonuniylikni va huquq-tartibotni ta`minlovchi tizimida joriy qilinayotgan islohotlarni tanqidiy baholab, ularni yanada chuqurlashtirish va qat`iyatlik bilan olib borish zarurligini uqtiradi.

"Bugun bizning huquqiy doktrinamiz mutlaqo yangicha, demokratik tamoyillarga asoslangan. U, eng avvalo, O`zbekiston Konstitutsiyasi talablariga ko`ra, inson

huquqlarining ustivorligini ta`minlaydi. Inson himoyaning bosh sub`ekti bo`lib, uning hayoti va sog`lig`iga suiqasd qilish og`ir jinoyat hisoblanadi" - deydi I.Karimov. Mana shu doktrinaga tayangan xolda Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisining oltinchi sessiyasi mamlakatimiz Prezidentk I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasining Jinoyat,, Jinoyat-protsessual hamda Ma`muriy javobgarlik Kodekslariga o`zgartirishlar va qo`shimchalar kiritish to`g`risida" gi qonun qabul qilinishi sud-huquq sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish uchun katta ahamiyatga ega bo`ldi.

yangi taxrirdagi "Prokuratura to`g`risida"gi qonun, avvalambor, qonuniylik va huquq tartibotini mustahkamlashga, Konstitutsiya va qonunlar ustivorligi tamoyilini ta`minlashga qaratilgandir.

Fuqarolik jamiyati va xuquqiy davlat

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida biz demokratik huquqiy davlat bilan bir qatorda fuqarolik jamiyatini barpo etamiz degan g`oya o`z ifodasini topgan. Bu g`oya asosida "Fuqaro-jamiyat-davlat" o`rtasidagi o`zaro munosabatlarning odilona huquqiy echimini topish muammosi yotadi. Fuqarolik jamiyatining talqini o`zining tarixiy rivojlanishida bir necha bosqichlarni bosib o`tdi. Arastudan boshlab to XVIII asrgacha fuqarolik jamiyati fuqarolar birlashmasi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi davlatning bir shakli ma`nosida tushunildi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan fuqarolik jamiyatining talqini o`sib kelayotgan burjuaziyayugag feodal ijtimoiy-siyosiy tartiblaridan qutilish uchun olib borgan kurashining nazariy asoslashga qaratilgan edi. Bunda odamni odam ustidan hukmronlik qilishga asoslagan ijtimoiy munosabatlar mutloq inkor qilindi. "Erkinlik", "Tenglik", "Brodarlik" - shiorlarida mana shu roya o`z ifodasini topgandir. yangi

davrda fuqarolik jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga davlat aralashishidan xoli bo'lgan xususiy mulk egalarning jamiyatidir deb tushuntirildi. Bunda odam ustidan odamning hukmronligi o'rniga, shaxs erkinligi, uning mulkga egalik huquqi birinchi o'ringa qo'yildi. Fuqarolik jamiyatini hozirgi talqini ham shu tushunchaga asoslangandir.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov fuqarolik jamiyati tushunchasining mohiyatini shunday ta'kidlaydi: "Biz uchun fuqarolik jamiyati bu - insonning o'z-o'zini kamol toptirishga xalaqit qilmaydigan, balki yordamlashadigan, shaxs manfaatlarini amalda joriy qiladigan, uning huquq va erkinliklarining eng ko'p darajada ta'minlanishiga sharoit tugdiradigan ijtimoiy makondir".

Fuqaroviy jamiyatning asosiy belgilari:

- inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarining to'liq ta'minlanganligi;
- o'zini-o'zi idora qilishning joriy etilishi;
- erkin raqobat uchun keng sharoit yaratilishi;
- shakllangan erkin jamoatchilik fikri va plyuralizm;
- insonning axborot olish huquqini to'liq ta'minlanganligi;
- ko'p ukladlik iqtisod;
- jamiyat a'zolarining munosib hayot darajasini ta'minlashga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosat va boshqalar.

Fuqarolik jamiyati huquqiy davlat bilan birgalikda shakllanadi. Ularni bir-birisiz tasavvur qilish mumkin emas. Bu jarayon jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti, uning ilmiy va texnikaviy asoslarini yaratish bilan belgilanadi. Jamiyat huquqni xayrihohlik bilan qabul qilgandagina qonunlarning bajarilishi, ularga rioya qilish majburiy ekanligini onglash ta'minlanadi. Busiz hokimiyat xam, hukuqning o'zi ham qonunlarning bajarilishini to'liq ta'min qila olmaydi.

Fuqarolik jamiyati yuksak darajali fuqarolikni moddiy, madaniy va intellektual rivojlanishning yuqori bosqichiga kirib borishini taqozo qiladi. Fuqarolik jamiyat a'zolari o'z mulki, huquq va erkinliklariga to'liq egadirlar. Ular qo'rquv va zo'ravonlik intizomi bilan kishanlangan emaslar. Shuning uchun ham ular inson va

jamiyat farovonligi va xavfsizligining ta'minlash mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan davlatning qonun va qadriyatlarini xurmat qiladilar va ixtiyoriy ravishda bajaradilar.

Fuqarolar jamiyatdagi huquqiy munosabatlar zaminida huquqiy normalar va ularning sanktsiyalari bilan bir qatorda vijdon, burch, mas'uliyatni his qilish, ichki intizom, xullas, huquqiy fuqarolik kabi insoniy fazilatlar yotadi. Korruptsiya, poraxo'rlik, qarindosh-urugchilik, shovinizm, millatchilik kabi illatlar fuqarolik jamiyatiga mutloq yotdir. Bu jamiyat a'zosi rivojlangan huquqiy madaniyatga ega bo'lgan shaxsdir. U qonunga itoat qilishni eng oliy imtiyoz deb tasavvur qiladi.

Bunga erishish yo'lida hali ko'p-ko'p qiyinchilik va sinovlardan o'tishimiz, ko'p-ko'p muammolarning echimini topishimiz kerak. "Oldimizda turgan barcha gov va to'siqlarni engish jarayonida hammamiz uchun eng ta'sirchan qurolga aylanadigan kuch - bu xalqimizning huquqiy ongini, tafakkurini tarbiyalash, huquqiy madaniyatini oshirish, qalbida erkinlik va mas'uliyat tuyg'ularini qaror toptirishdir". Respublikamiz fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, konunlar loyihalarini muhokama kilishda o'zining vakillari orqali va bevosita ishtirok etmoqdalar. Xalqimizning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita ishtirok etishi referendumlarda o'z ifodasini topadi. Ma'lumkm, referendumlarda mamlakat, xalq taqdiri uchun favqulodda, dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy-me'yoriy aktlar, siyosiy muammolar xalq qilinadi. Mustaqmllikka erishganimizdan buyon uch marta umumxalq referendumi o'tkazildi. Ularning natijalari aholining siyosiy huquqlardan ongli va faol foydalanayotganliklaridan dalolatdir.

Mamlakat fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok qilish xuquqlaridan to'liq foydalanmoqdalar. Mamlakatmmiz aholisining hukuq va erkinliklarini himoya etuvchi jamoat tashkilotlaridan biri kasaba uyushmalaridir. Ular bir qator tashkiliy va amaliy ishlarni xalq bilan davlat o'rtasidagi munosabatni muvofiqlashtirish vazifasini amalga oshirmoqdalar. Bugungi kunda O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik qaror topdi. Ko'ppartiyaviylik tiziminmg muvaffaqiyati jamiyatda mavjud partiyalar soni bilan emas, balki siyosiy hokimiyatni amalga oshirishdagi ishtiroki bilan belgilanadi.

Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining muxim unsuri hisoblanadi. Ayni fuqarolik jamiyati negizida, xalqning siyosiy irodasi shakllanadi. Siyosiy partiyaning

diqqat markazida demokratik saylovlar orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadi turadi. U xalqning muayyan qismini uyushtiradi va undan ma'lum muddatga, davlatni idora etishga vakolat oladi. Davlat hokimiyatini egallash esa, o'z navbatida, siyosiy partiyaning dasturiy maqsadlari, xalqqa bergan saylov oldi va`dalarini bajarish uchun rasmiy muruvvat bo`lib hizmat qiladi.

O'zbekiston Prezidenti M.A.Karimov jamiyatimizda turli partiyalar va harakatlarning paydo bo`layotgani ijobiy xol ekanligini ta`kidlab, shunday deydi: "Kelajakda partiyalar va jamoat harakatlarining roli va mavqei oshadi. qaysi partiyaning dasturi xalqqa manzur bo`lsa, o`sha partiya hokimiyat tepasiga keladi. Agar dasturini, bergan va`dalarini bajara olmasa, o`rnini boshqa partiya vakillariga bo`shatib berishga mahbur bo`ladi. Bunday ijobiy raqobatlardan xalq vaqt yutishi mumkin".

Bizdagi mavjud partiya va harakatlar demokratiya sharoitida yashab ko`rmagan. Ularning xar biri o`zini mutlok haqiqat jarchisi deb biladi. To`g`risini aytsak, o`zaro xurmat, baxs va munozara etishmaydi", - deydi yurtboshimiz.

Ayni vaqtda bizdagi mavjud beshta partiya endi o`zining jamiyatdagi o`rnini o`zi tanib va uni xalqqa tanitishi jarayonida mamlakat siyosiy xayotida muxim o`rinni egallab bormoqda. Lekin masala bu jarayonni yanada faollashtirishdadir. Asosiy qonunda fuqarolarning fikr, so`z va e`tiqod erkinliklari belgilab qo`yilgan. Bu mamlakatimizda tafakkur taraqqiyotining kamol toptirishda katta rol o`ynamoqda. Lekin fikr erkinligini bir yoqlama tushunish, suiste`mol qilish ham yaramaydi. Jamiyat ma`naviy muhitini musaffo saqlash, bu borada suiste`mollikka yo`l qo`ymaslik fikr erkinligini ham muayyan me`yor va xuquqiy chegara doirasida qo`ytshnt taqozo etadi. Fuqarolik jamiyattning shakllanishida muholifatning o`rni ham o`ziga xosdir.

"Biz,- deydi I.Karimov,- rasmiy hokimiyat bilan goyaviy va amaliy jixtdan raqobatlasha oladigan, amaliy takliflar kirita biladigan, jamiyatimizning turli siyosiy qatlamlari manfaatlarining ifodachisi sifatida maydonga chiqa oladigan muxolifatni ko`rishni istaymiz. Mustaqil mamlakatimizda tobora chuqurlashayotgan demokratik islohotlar mantiqi aynan shunday siyosiy muxolifat shakllanishini taqozo etmoqda".

Fuqarolik jamiyatining shakllanishida fuqarolarning iqtisodiy erkinligi, mulkka egalik qilishi, xalol raqobat uchun sharoit bo`lishi muhim axamiyat kasb etadi. Bugun respublikamizda xilma-xil mulk shakllariga asoslangan iqtisodiy munosabatlar tizimi vujudga keldi. Bu o`z navbatida inson manfaatlarini ro`yobga chiqarishning eng ta`sirchan vositasi, uning harakatga keltiruvchi kuchi bo`lib qoldi. Mamlakatda chinakam o`rta mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. "Odam o`zini chinakammiga mulkdor deb xis etmas ekan u o`z huquqlari uchun, pirovard natijalar va ishlab chiqarish samaradorligi uchun mulkdor sifatida kurashmaydi. Jamiyatda barqarorlikni saqlab qolishga va himoya qilishga intilmaydi".

I.Karimov "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" degan tamoyilni amalda xayotga joriy etish zarurligini asoslaydi. "Xammamizga ayonki, bu yo`nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog`liq ko`p masalalarni xal qilishda davlat tizimlarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o`tkaza borishni taqozo qiladi. Buning uchun, avvlambor, davlatning iqtisodiy sohaga, xo`jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim".

Davlat, deydi I.Karimov, iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagm ustmvor yo`nalishlarni aniqlash, qabul qilingan qonunlar va huqukiy normalarning barcha tomonidan so`zsiz bajarilishini ta`minlash, tadbirkorlikni rag`batlantirish, xo`jalik yurituvchi sub`ektlar o`rtasida raqobat muhitini qaror toptirish uchun zarur va hammaga barobar bo`lgan shart-sharoitlar yaratish ishlari bilan g`urullanishi darkor.

Bugungi kunda xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo`lidagi barcha to`siqlarni bartaraf qilish, davlatning korxonalar xo`jalik faoliyatiga, ayniqsa xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash bilan bogliq huquqiy-me`yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Prezidentimiz maxsus farmonlariga ko`ra

mamlakatimizda tekshiruv organlarining soni jiddiy qisqartirildi, tekshiruvchi organlarning vakolati va tekshirish tartiblari qat`iy chegaralab qo`yildi. Ayni vaqtda Vazirlar Maxkamasi xuzurida iqtisodiyotga aloqador bo`lgan jismoniy va yuridik shaxslarning arizalari bilan ishlovchi maxsus qo`mita tashkil etildi. Bularning

hammasi mamlakatimizda iqtisodiy soxaning, kishilar iktisodiy faoliyatining erkinlashib borayotganligini va buning natijasida fuqarolik jamiyatining iqtisodiy bazasi mustahkamlanib borayotganligini ko`rsatadi. Mamlakatda fuqarolik jammyatini qurish demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko`rsatishi uchun shart-sharoit yaratish bir qancha vakolatli vazifalarni davlatdan mahalliy hokimiyat organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirilishini ko`zda tutadi.

Bugun mamlakatda nodavlat tashkilotlari mustaqilligining huquqiy va amaliy jihatdan ta`minlaydigan muayyan qonunchilik tizimi yuzaga keldi. Ayni vaqtda mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida, Respublika Oliy Majlisida demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari qo`mitasi, Oliy Majlis xuzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, notijorat xalqaro markazi va fukarolarning kasbiga, qiziqishiga ko`ra vujudga bir talay huquqiy, smyosiy, iqtisodiy va ma`naviy tabiatga ega bo`lgan nodavlat tashkilotlari ijtimoiy hayotimizning turli jabxasida faollik ko`rsatmokda.

Yurtimizda turli shakllardagi o`z-o`zini boshqarish organlari tizimi shakllanib bormoqda. Ma`lumki, bu tizimlar 1993 yil 2 sentyabrda "Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida"gi qonuni bilan huqukiy jihatdan mustaxkamlab qo`yilgan.

Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari mahalliy davlat organlari bilan xamkorlikda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qiladi. O`z faoliyatida aholi tashabbuskorlariga tayanadi. Aholining hokimiyatni amalga oshirishi ishlariga jalb qiladi. Bugungi kunda mahalla va mahalla faollarining roli va mavqei oshib bormoqda. Mahallalar muayyan ijtimoiy, axloqiy va maishiy tartib qoidalariga rioya qilish, tinchlik va osoyishtalik, o`zaro mehr-oqibat ahillikni ta`minlashga xizmat qiladigan ma`naviy va ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni o`tab kelmoqda. Mahallalar faoliyatini uyushtirishda va takomillashtirishda bir talay yutuqlarga ega bo`lgan bo`lsakda, bu soxada amalga oshirish lozim bo`lgan tadbirlar yo`q emas. Prezident I.Karimov O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o`n yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi nutqida mahallaning hayotimizdagi mavqeini yanada oshirish, uning qonuniy, huquqiy asoslarini mustahkamlash, uni moddiy-moliyaviy

sharoitlarini tashkil qilish masalalariga to'xtaldi va 2003 yilni "Obod mahalla yili" deb e'lon qildi.

Mahallaning davlat va jamoatchilik hokimiyati va boshqaruvi tizimida tutgan o'rnini va rolini oshirish bilan bog'liq masalalarni amaliy xalq etish zaruratini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Obod mahalla yili" dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasini tuzish to'g'risida farmoyish qabul qildi. Yurtboshimiz mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarining o'zini-o'zi boshqarish organlari bajaradigan vazifalar doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bor qismini bosqichma-bosqich topshirish lozimligi, bu esa fuqarolarning o'zlariga o'z hayoti va butun jamiyat hayotini boshqarishda va tashkil etishda keng ishtirok etish uchun imkoniyat yaratib beradi deb, uqtiradi. Prezident I. Karimov "Kuchli davlatdan - fuqarolik jamiyat sari" kontseptsiyasiga alohida e'tibor beradi. "Ishonchim komilki, vaqti-soati kelib, bugungi o'tish davri uchun zarur kuchli davlat funktsiyalari va alomatlari asta-sekinlik bilan tadrijiy ravishda jamiyat zimmasiga o'tadi. Mana shu yo'l, mana shu nazariy masalaning mohiyatini atroflicha yoritish, uni hayotimizda, amaliyotimizda hal qiluvchi siyosatga aylantirish nafaqat bugungi, balki ertangi kunimizning ham eng muhim va dolzarb vazifasidir". Xalqimiz o'zining hoxish-irodasini, nuqtai-nazarini, umumxalq minbaridan turib bevosita aytish va uning aks sadolarini umumlashtirish imkoniyatlariga ega bo'lib bormoqda. Bu jarayonning borishida ommaviy axborot vositalarini roli oshib bormoqda.

"Xozirgi paytda qabul qilingan qonunlar va qonun hujjatlari ijrosi ustidan jamoat nazoratini, davlat hamda mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradigan mexanizm sifatida ommaviy axborot vositalarining mavqeyini kuchaytirish zarur. Ayni shu ommaviy axborot vositalari har bir kishi o'z fikrini ifoda eta olishga imkon beradigan erkin minbar bo'lishi kerak. Ayni shu ommaviy axborot vositalari jamiyatimizning demokratik kadriyatlarini va tushunchalarini himoya qilish, odamlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy ongini shakllantirish bo'yicha faol ish olib borish kerak".

Prezident I Karimov ommaviy axborot vositalarini haqiqiy to'rtinchi hokimiyatga aylanishini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor beradi. Bu soxada qilingan ishlar haqida gapirib, I. Karimov axborot vositalarini haqiqiy to'rtinchi hokimiyatga

aylantirish borasida qilinishi zarur bo`lgan vazifalarni belgilab beradi. Bular malakali jurnalist kadrlarni tayyorlash ishini saviyasini ko`tarish, axborot soxasida raqobatning rivojlantirishdan iboratdir. Davlat, deydi I.Karimov, axborot makonida xalol raqobat bo`lishi uchun tegishli shart-sharoit yaratib berishi kerak. Jamiyatda real demokrplashuvning garovi shundadir.

Bundan tashqari yurtboshimiz ommaviy axborot vositalarini samaradorligini ta`minlashga qaratilgan

"Ommaviy axborot sohasida iqtisodiy munosabatlar asoslari haqida", "Teleradio eshittirish haqida" maxsus qonunlar qabul qilish masalasini qo`ydi. Fuqarolik jamiyatining xolatining o`lchovi, barometri jamoat fikrining o`rganish va shakllantirishdir. Bu oshkoralik va ochiqlikning ta`minlash vositasidir. M.A.Karimov bu masalaga alohida ahamiyat beradi. Jamiyatimizning yanada demokrplashuvi va fuqarolar institutlarining shakllanishi aholining siyosiy faolligi, uni mamlakat siyosiy, jamoat va davlat hayotida ishtirok etishi bilan uzviy bog`liqdir. Islom Karimov inson huquqlari va erkinliklarini, so`z va matbuot erkinligini himoyalash, ularning kafolatlarini so`zda emas, real hayotda ta`minlash qonunchiligimiz va amaliy faoliyatimizning doimiy z`tibor markazida bo`lishini uqtiradi.

Prezidentimiz Uzbekiston taraqqiyotining poydevori barkamol avlod ekanligini nixoyatda keng va chuqur tahlil qilib berdi. "Bugungi kunda oldimizga qo`yilgan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyot va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri ularning barchasi, avvalambor zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutuxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas boglanganligini barchamiz anglab etmoqdamiz".

Bugungi kunda "Kadrlar tayyorlash dastur" asosida ta`lim-tarbiya muassasalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon mazmunan yangi o`quv dasturlari, uslublari yordamida amalga oshirilmoqda. Biz bugun bu jarayonning dastlabki natijalarini ko`rib, uning taraqqiyot tendentsiyalarini tasavvur qilmoqdamiz. Huquqiy islohotlarni amalga oshirish umumiy vazifadir. Jamiyat, davlat, fuqaro bu ishga mas`uldirlar. Biroq bu vazifani bajarishda xuquq va tartibot sohasida xizmat qiluvchi

mutaxassislarga maxsus mas'uliyat yuklatiladi .Yuridik kadrlarning tayyorlashni jiddiy yaxshilash vazifasi shundan kelib chiqadi.

O`zbekiston Prezidenti malakali yuridik kadrlarni tayyorlash ishini takomillashtirish milliy huquqshunoslik maktabini yaratish, huquqshunoslik fani ilmiy va amaliyotining dolzarb muammolariga doir ochiq va keng baxs-munozaralar olib borish, huquqiy tizimni

takomillashtirish, qonunlar tayyorlashning istiqbolli dasturlarini yaratish vazifalarini qo`ydi.

Hozirgi kunda yurtboshimiz belgilab bergan vazifalarni amalga oshirish borasida O`zbekiston huquqshunoslari tomonidan muayyan ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Mavzuga oid tayanch so`z va iboralar.

Mustaqillik, xuquqiy davlat, demokratiya, prezident, konstitutsiya, inson xuquqva erkinliklari, xalqaro xuquq, inson xuquqlari Umumjaxon deklaratsiyasi, BMT, Ombudsman, Oliy Majlis, Siyosiy partiya, fuqarolik jamiyati, sud tizimi isloxati, fuqarolarni o`zini-o`zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

Mavzuga oid nazorat savollari.

1. Mustaqil O`zbekistonda xuquqiy davlat g`oyalari qachondan shakllana boshladi?

2. O`zbekistonda Prezidentlik qachon joriy qilindi?
3. Prezident I.A.Karimov xuquqiy davlat qurish xaqida qanday siyosiy va xuquqiy qarashlarni ilgari surdi?
4. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson xuquqlari va erkinliklari qanday asoslab berilgan?
5. “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” kontsepsiyasidan ko`zlangan maqsad nima?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda». «O`zbekiston», Toshkent. 2000 y.
2. Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». «O`zbekiston», Toshkent 1997 y.
3. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q». Toshkent. 1998.
4. Karimov I.A. «O`zbekiston – bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo`li». «O`zbekiston», Toshkent 1995 y.
5. Karimov I.A. «O`zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida». «O`zbekiston», Toshkent 2000 y.
6. Sharipov R., Muxiddinova F. «O`zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta`limotlari tarixi». Toshkent. 2004.
7. Rahmonov R. G`ofurov Z. “Mustaqillik va milliy o`zlikni anglashning tiklanishi”. “O`zbekiston”, Toshkent 1999.

8. Boboev X.B. taxriri ostida «Siyosiy va xuquqiy ta'limotlar tarixi» T. 2003 y.
9. Toshqulov J.O`zbekiston xalqlari siyosiy-xuquqiy fikrlari tarixidan. T. 1996 y.
10. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. 2003y.